

Maxbuba RAXIMQULOVA

**BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI,
INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI**



UDK 371.671.11

KBK 74.202

Raximqulova M.B. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi. Darslik. – Samarqand: “Bilig-ilmiy faoliyat” nashriyoti, 2023. – 468 bet.

Darslik boshlang'ich sinf o'qituvchisi huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qilishning innovatsion usullari, boshlang'ich ta'lim didaktikasining mazmuni, mohiyati, bola shaxsini shakllantirish, rivojlantirish metodlari, boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda integratsiyaning o'rni, fanlararo integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Mas'ul muharrir:

N.Shodiyev – O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori.

Taqrizchilar:

M.J.Shodiyeva – Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus metodikalar kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori.

G.Sh.Fayzullayeva – Samarqand viloyati viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori

ISBN 978-9910-9530-6-4

Darslik A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti 2023-yil 30-avgustdagi 4-8.2. qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© “Bilig-ilmiy faoliyat” nashriyoti
© Raximqulova M.B.

KIRISH

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qilishning innovatsion usullari, boshlang'ich ta'lim didaktikasining mazmuni va mohiyati, bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirish metodlari xususida turli ilmiy yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakllari haqida amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda integratsiyaning o'rni, fanlararo integratsiyalashning didaktik imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ta'limda rivojlanishning shiddati tez, ilm ufqlari kengayib borayotgan zamonda, qolaversa, axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g'oyalarni uchun kurash ham birmuncha murakkabliklar hamda o'tkir zehnni talab qilishi ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz mehnat bozori, shaxs, davlat va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olib, xalq ta'limi tizimi xodimlariga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqib, qayta tayyorlashning samarali usullarini joriy etish maqsadida ishlab chiqilgan. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963 sonli Qaroriga muvofiq ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, darsliklarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, endilikda o'qitish uslublarini o'zgartirish, nazariy bilimlarni ijodiy izlanishlar bilan uyg'unlashtirib, yangi avlod darsliklarini yaratish davr talabidir. Ushbu darslik zamonaviy o'quv adabiyotlarga qo'yilgan talablar asosida tayyorlangan.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi deganda kichik yoshdagi bolalarni ta'limning dastlabki bosqichida o'qitishda qo'llaniladigan usullar, tamoyillar va amaliyotlar tushuniladi. Boshlang'ich ta'limning maqsadi bolalarga hayoti davomida zarur bo'ladigan asosiy bilim, ko'nikma va qadriyatlarining mustahkam poydevorini berishdir. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasidagi innovatsiyalar deganda o'quvchilarning bilim olishi va faolligini oshirishga qaratilgan o'qitishning yangi va ijodiy uslub va yondashuvlarini joriy etish tushuniladi. Bunga texnologiyadan foydalanish, loyiha asosidagi ta'lim, o'yinlashtirish va an'anaviy o'qitish usullaridan tashqariga chiqadigan boshqa usullar kiradi. Innovatsiyalar ta'limni yangi, dolzarb va o'quvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga javob berishiga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida integratsiya deganda har tomonlama o'quv tajribasini ta'minlash uchun birlashtirilgan turli xil o'qitish uslublari va yondashuvlaridan foydalanish tushuniladi. Bu fan va san'at kabi turli fanlar yoki fanlarning integratsiyasini, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri ta'lim, hamkorlikda o'rganish va tajribali o'rganish kabi turli xil o'qitish usullarini birlashtirishni o'z ichiga olishi mumkin. Integratsiya turli tushuncha va g'oyalarni o'zaro bog'lash orqali o'quvchilar uchun o'rganishni yanada mazmunli va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Darslik samarali boshlang'ich ta'lim pedagogikasi individual o'quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan innovatsion va integratsiyalashgan o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv izlanish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rag'batlantiradigan ijobiy ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi, shu bilan birga talabalarga kelajakdagi o'qish va martabalarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarni beradi.

Darslik barkamol avlodni shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini boyitish, kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy manba bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

I-BO‘LIM. FANNING NAZARIY ASOSLARI
1-MAVZU: PEDAGOGIKA FANINING UMUMIY ASOSLARI
KURSINING MAZMUNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Pedagogika kursi mazmunining tuzilish asoslari.
2. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari va rivojlanishi
3. O‘tmishning zabardas pedagoglari.
4. Tadqiqot metodlari klassifikatsiyasi: kuzatish, suhbat, test, anketa, maktab hujjatlarini o‘rganish.
5. O‘quv fani va uni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo‘lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash.

1.1. Pedagogika kursi mazmunining tuzilish asoslari

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo‘lib, paidagogos «bola» va «etaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta‘lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan hisoblanadi. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash, unga ta‘lim berish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e‘tiborni qaratganligi bois didaktika (ta‘lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta‘lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o‘rgatuvchi», didasko «o‘rganuvchi») ta‘limning nazariy jihatlari, ta‘lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘qituvchi faoliyatlari, ta‘limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta‘lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.


Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo‘nalishlarda tashkil etiladi.

1.2. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari va rivojlanishi

Pedagogika fanining obyekti - yaxlit pedagogik jarayon. Pedagogika fanining predmeti - ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.


O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg'ot xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:



1-rasm. Pedagogika fanining asosiy vazifalari

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyaiari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.



2-rasm. Pedagogikaning asosiy kategoriyaiari

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyo-qarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim - o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar. ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Shakllantirish - shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Pedagogikaning vujudga kelishi va rivojlanishi. Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlari uchun tarbiya jarayoniga ta‘sir etishni nazarda tutadi. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj borasida orttirilgan tajribalar to‘plangan- dan keyin o‘sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Tarbiya jamiyatning vazifasi bo‘lib, u faqat ishlab chiqarish munosabatlari ta‘sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g‘oyalari ta‘sirida aniq shaklga ega bo‘ladi, shuning uchun ham ko‘p jihatdan ma‘rifatchi va pedagoglar faoliyatining natijasini ifodalaydi. Agar tarbiya alohida mustaqil vazifa sifatida kishilik jamiyati paydo bo‘lishi bilan birga tarkib topgan bo‘lsa, ta‘lim nazariyasi fan sifatida bir muncha keyinroq shakllangan. Tarbiya jamiyat hayotida sezilarli rol o‘ynaydi. Jamiyatda tarbiya jarayonida to‘plangan tajribani umumlashtirish ehtiyoji tug‘ilib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlash imkonini beradigan maxsus o‘quv yurtlarini ochish zaruriyati paydo bo‘lishi bilan birga, ta‘lim nazariyasi ham fan sifatida rivojlana boshladi.

Ibtidoiy jamoa davrida ham ijobiy tarbiya tajribasini ommalashtirishga urinish kurtaklari bo‘lgan. Masalan, kattalar va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan, keyinroq turli odat va marosimlar bilan bog‘liq o‘zini tutishning ba‘zi bir ko‘rinishlari shakllana boshlagan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi Yan-Amos Komenskiy (1592-1670) nomi bilan bog‘liqdir. Komenskiy tomonidan taklif etilgan tamoyillar, ta‘lim jarayonining shakl va uslublari «Pedagogika»ning oltin fondiga kirgan. Uning mashhur «**Buyuk didaktika**» asari pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasida birinchi muhim ilmiy asar hisoblanadi.

O‘quv muassasasidagi o‘quv jarayonida ta‘lim, tarbiya va ma‘lumot o‘zaro bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Har qanday fan o‘rgatilishi mobaynida pedagog tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini shakllantiradi, madaniy xulq-atvorini tarbiyalaydi.

«Pedagogika» atamasi qadimiy Yunonistondan kelib chiqqan. Bu yerda quldorlar farzandlarini o‘quv muassasasiga kuzatib qo‘yadigan, olib boradigan odamlarni «pedagog» deb atashgan. Keyinchalik bu atamaning ma’nosi birmuncha o‘zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko‘rgan va tarbiya bilan shug‘ullangan shaxslar «pedagog» deb atala boshlagan. Ko‘p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat o‘sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o‘rganadi, deb qaralgan. Ammo hayot amaliyoti tarbiyasiga emas, balki kattalar tarbiyasiga ham taalluqli ekanligini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o‘qitish, ularga ma’lumot berish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.

1.3.O‘tmishning zabardas pedagoglari

Oldiniga tarbiya jarayoni kattalar tomonidan bevosita mehnat faoliyatida amalga oshirilgan bo‘lsa, jamiyat rivojlana borgan sari bunday yo‘l talabga javob bermay qo‘ydi. Endi tarbiya bilan bilimdon, tajribasi yetarli odamlar shug‘ullana boshladi. Mashg‘ulotlar tobora tashkiliy shakllarga, ko‘rinishlarga ega bo‘lib bordi va sekin-asta o‘quv muassasalari paydo bo‘ldi.

O‘n sakkizinchi asrga kelib O‘rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. XIX asr boshlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma’rifat jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usuldagi maktablar tuzish, darsliklar yaratish, xalq o‘rtasida ma’rifatni targ‘ib etishda jonkuyarlik qildilar. Qadimiy va O‘rta Sharq adabiyoti namoyondalari orasida nazariy-pedagogik tusga ega qator ilmiy qarashlar mavjud bo‘lgan. Ular orasida Al-Farobiy, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlarini misol keltirish mumkin. Feodalizm davrida tarbiya asosan din ta’sirida bo‘lgan. Shuning uchun ham ta’lim nazariyasining asosiy g‘oyalari diniy ilm orqali ifodalangan. Tarbiya nazariyasining g‘oyalari ancha oldindan ilgari surilgan bo‘lishiga qaramay pedagogik ilmiy bilim-fan sifatida bir oz keyin shakllangan. Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo‘ladi. Ba’zi falsafiy fikrlar quldorlik jamiyatidayoq rivojlana boshlagan edi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o‘z ifodasini topgan. Ularda rostgo‘ylik, ota-onaga hurmat-ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. „Alpomish“, „To‘maris“ kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik

tuygʻulari ulugʻlanadi. Taʼlim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular oʻzlarining bola tabiati, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qoʻshganlar. Mashhur hind masali „Kalila va Dimna“, Nizomulmulkning „Siyosatnoma“, Nosir Xusravning „Saodat- noma“, „Roʻshnoyinoma“, Yusuf xos Hojibning „Qutadgʻu bilik“, Mahmud Qoshgʻariyning „Devon-u lugʻatit turk“, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning koʻpgina asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir.

Bu allomalarning asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, doʻstlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar oʻz aksini topgan. Suqrot, Aflotun, Demokrit kabi buyuk faylasuflar tomonidan murakkab falsafa tizimi yaratilgan.

Pedagogika uzoq taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtib, hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarning yaxshi shakllangan, katta nazariy va amaliy materiallarni oʻz ichiga olgan tarmogʻiga aylandi. Bularning barchasi pedagogikaning tabaqalanishi, yaʼni uning alohida tarmoqlarga ajralishiga sabab boʻldi.

Har bir mustaqil fan oʻzining predmeti va metodik asosiga ega boʻlgani kabi pedagogika fani ham fan sifatida shakllanib, oʻz predmetiga ega boʻldi. Barcha ijtimoiy fanlar kabi jamiyatdagi oʻzgarishlar, inqiroz, yuksalishlar pedagogika fanining metodologiyasi, oʻqitish jarayoni, gʻoyalar rivojiga ham oʻz navbatida taʼsirini koʻrsatadi. Lekin insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat, tarbiyaviy jarayon mavjud boʻlgan. Shu sababli ham tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash, hamda oldin tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, insoniyat hayotidagi buyuk oʻzgarishlarni, jamiyatni rivojlanishini, farovon turmush tarzini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot ishlar, pedagogik gʻoyalar, ilmiylikka asoslangan natijalar jamlanmalari, ilmiy ishlanmalar, tajribalar, tavsiyalar asosida bir qator ilmiy pedagogik qoʻllanmalar, darsliklar chop etilgan.

Pedagogika fanining mazmunini boyitib va rivojlantirib boradigan qator manbalar mavjud. Ayniqsa, maqollar, ertaklar, dostonlar, ashulalar, udumlar va topishmoqlarda tarbiya haqidagi xalq donishmandligi qamrab olingan.

Allomalarning pedagogika nazariyasiga oid fikrlaridan fanda unumli foydalanilmoqda. Shu bilan birga, pedagogika fani yangi gʻoyalar evaziga boyimoqda.

1.4. Tadqiqot metodlari klassifikatsiyasi: kuzatish, suhbat, test, anketa, maktab hujjatlarini o'rganish

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvalida va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda Ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon

bo‘lishga erishish muhimdir. Uning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi lavollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta‘minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma‘lum to‘xtamga kelish;

4) suhbatdosh to‘g‘risida avaldan muayyan ma‘lumotlarga ega bo‘lish;

5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo‘lish;

6) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil bayon etishi uchun sharoit yaratish;

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

8) olingan ma‘lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko‘p hollarda, yozma ravishda olinadi.

Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyati yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;

3) anketa savollari o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta‘minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta‘minlaydi. Intervyu respondent e‘tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar. Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo turdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
- 3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejaliishi bilan tavsiflanadi. Biroq metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlaridan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligim asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilaming muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilaming ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkomyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalari;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 4) maktab ko'rgazmalari;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlaming maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalaming amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltiriigan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

1.5. O'quv fani va uni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash

Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari. Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar: Hozirgi an'anaviy ta'lim. XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinf-dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish

maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yoʻnalishlarda rivojlanmoqda. Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni oʻquvchi shaxsiga yoʻnaltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, taʼlimning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar. Oʻquvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Muammoli taʼlim, oʻyinlar, tayanch signallar konspektlari texnologiyalari va boshqalar. Oʻquv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar oʻrgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega boʻlishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, oʻquvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yoʻllarini oʻrgatish kabi tamoyillarga asoslanadi. Oʻquv jarayonini samarali boshqarish va tashkil eilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan taʼlim texnologiyalari; taʼlimning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli taʼlim texnologiyalari kabilar kiradi. Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga oʻquvchining tabiiy imkoniyatlari, taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan toʻliq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi. Rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyalari. Bularga oʻquvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi. Bulardan tashqari xususiy (Oʻquv fanlari) pedagogik texnologiyalari, alternativ hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari yoʻnalishlari ham mavjud. Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yoʻnalishlari ham mavjud boʻlib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yoʻnalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha: Empirik-(tajriba) sezgi aʼzolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy eʼtibor sezgi aʼzolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi. Kognitiv-(bilishga oid) atrofdagi olam toʻgʻrisidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib oʻrganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi. Evristik-(haqiqatni topish) yoʻnaltiruvchi savollar berish yoʻli bilan taʼlim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, oʻquv-izlanish taʼlim metodi. Optimallashtirilgan (koʻp variantlardan eng maʼqulini, mosini,

muvofig'ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi. Kreativ-(ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi. Inverison-(almashtirish) axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi. Integrativ-(yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash. Adaptiv-(moslashtirish) axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish. Inklyuziv-(tenglik) o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi. Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari hozirgi an'anaviy ta'limni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda rivojlanib bormoqda. Turli fan o'qituvchilari tomonidan har bir o'quv fanining asosiy xususiyati, mazmunining tarkibi, amaliy, nazariy qismlarining nisbatiga muvofiq ravishda eng qulay pedagogik texnologiyalarning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv va boshqa yo'nalishlarini to'g'ri tanlash jiddiy ahamiyatga ega. Dars moduli va algoritimi Modul- pedagogik texnologiyani o'z ichiga olgan tarkibiy bo'lak bo'lib ; o'quv materiali mazmuni hamda dars jarayoni modullaridan tashkil topadi . Pedagogik texnologiya materiallarini modullariga ajratish modullashtirish jarayoni bilan, kichik modul, modullar to'plami, birlamchi modul va modul darajasi tushunchalaridan foydalaniladi va quyidagichata'riflanadi. kichik modul,- pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi. birlamchi modul- pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlashga dastlabki modul sifatida tanlangan va o'z tarkibiga bir yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul. modullar to'plami,- pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig'indisi. modul darajasi- birlamchi modullarning o'z tarkibida aslida qancha modullarga ega ekanligiga qarab quyidagi darajalarga bo'linadi: – Bir o'quv mashg'ulotini o'tkazishga mo'ljallangan modullar; – O'quv fanining bir mavzusini, bir bo'limini, bir qismini yoki hamma tarkibiy – bo'laklarini o'qitish texnologiyasini

tashkil etuvchi modullar. Ularni bloklar deb ham nomlanadi; – Bir nechta turdosh o‘quv fanlarini yoki ayrim fanlarni o‘qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullari; – DTSning tarkibiy bo‘laklarini va ularni bajarish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar; – O‘quv reja va dasturlarning tarkibiy bo‘laklarini va ularni bajarish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar; – Ta’lim vositalarini tashkil qiluvchi modullar; – Pedagogik texnologiya jarayonida qo‘llaniladigan usullarni tashkil qiluvchi modullar. Algoritm - pedagogik texnologiya bo‘laklari (modullar)ning o‘zaro joylashuvini hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma - ketligining avvaldan belgilangan tartibi, ya’ni qoidasidir. Algoritm lash esa pedagogik texnologiya tarkibiy bo‘laklarini amalga oshirish jarayonining ketma-ketligini belgilash bo‘lib, ko‘zlangan maqsadga erishish kafolatini amalga oshiradi. Odatda, pedagogik texnologiyani loyihalashda oldin uning algoritmi ishlab chiqiladi. Shu algoritmgaga muvofiq holda modullarning o‘zaro joylashuvi tartibi aniqlanadi. Pedagogik texnologiyada algoritmlar alohida mashg‘ulot yoki uning biror bo‘lagi algoritmi, o‘quv fanini o‘qitishning umumdidaktik izchilligi algoritmi, o‘quvchi faoliyatini, o‘qituvchi faoliyati, o‘zlashtirishni nazorat qilish jarayoni, maktabni boshqarish jarayoni algoritmi kabi turlarga bo‘linadi. Pedagogik faoliyatning eng kichik bo‘laklari o‘zaro joylashuvini va shu faoliyatni amalga oshirish ketma-ketligini belgilash algoritmlashning birlamchi darajasi bo‘lib, ularni birlamchi algoritmlar deyiladi. Algoritm lash orqali pedagogik texnologiyani tegishli tayoqchilikka ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan oldindan belgilangan maqsadlarning to‘liq amalga oshirilishini kafolatlagan holda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Modullashtirish va algoritmlash madaniyati ta’lim-tarbiya jarayonida odat tusiga kirgan holdagina turli darajalardagi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amalda qo‘llash faoliyati yanada keng rivojlana boradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pedagogika kursi mazmunining tuzilish asoslari haqida nimalarni bilasiz?
2. Pedagogika fanining predmeti, vazifalari va rivojlanishi qanday amalga oshiriladi?
3. Tadqiqot metodlari klassifikasiyasi: kuzatish, suhbat, test, anketa, maktab hujjatlarini o‘rganish usullari haqida nimalarni o‘rgandingiz?

4. O'quv fani va uni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash nimalarga bog'liq?

2-MAVZU: RIVOJLANISHNING ASOSIY QONUNIYATLARI

Reja:

1. Shaxsning rivojlanish jarayoni.
2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Shaxs rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari.
4. Akseleratsiya.
5. Rivojlanishning turli tumanligi, individualligi.

2.1. Shaxsning rivojlanish jarayoni

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Shaxsning rivojlanishi bolalik davridan boshlanib, butun umri davomida davom etadigan murakkab va doimiy jarayondir.

Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obykti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ulami amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlari mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ulami bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi .

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

2.2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Shaxsning rivojlanishi haqidagi turli xil nazariyalar mavjud bo'lsa-da, kop'chilik mutaxassislar genetik, atrof-muhit va ijtimoiy omillarning kombinatsiyasi shaxsning o'ziga xos shaxsiyatini o'ziga xos shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi, degan fikrga qo'shiladilar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omilni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'zini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan **preformizm** oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - **bixeviorizm** XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Tomdaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasi (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar,

Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funktsiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi

navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'z- o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu **tarbiya** orqali amalga oshiriladi.

Birinchi, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchi, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi.

Uchinchi, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchi, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir **to'rt yondashuv** qaror topgan.

1. Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv — inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv — insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi — qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Pedagogikada shaxsning rivojlanishi va shakllanishi borasida yana bir munozarali qarashlar mavjudki bu murakkab jarayon, ko'plab ichki va tashqi ta'sirlar va omillar orqali ro'yobga chiqadi.

Shaxsni shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydigan ba'zi asosiy omillar:

Irsiyat: Shaxsiyatning ko'p jihatlariga genetik ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, introversiya/ekstroversiya, hissiy barqarorlik va tajribaga ochiqlik kabi shaxsiy xususiyatlar hech bo'lmaganda qisman merosxo'rdir.

Atrof-muhit: Inson ulg'aygan muhit ham shaxsiyatning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oila dinamikasi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, madaniy me'yorlar va ta'lim kabi omillar shaxsning shaxsiyatini shakllantirishi mumkin.

Ijtimoiy o'zaro ta'sirlar: odamlarning bolaligida va butun hayoti davomida boshqalar bilan o'zaro munosabati ham shaxsiyat rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin. Ijobiy ijtimoiy aloqalar o'z-o'zini hurmat qilish, empatiya va hissiy aqlni rivojlantirishi mumkin, salbiy o'zaro ta'sirlar esa tashvish, tajovuzkorlik va boshqa salbiy xususiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Hayotiy tajribalar: travma, kasallik yoki muhim hayotiy voqealar kabi hayotiy tajribalar ham shaxsiyat rivojlanishini shakllantirishi mumkin. Ushbu tajribalar shaxsiy xususiyatlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin, masalan, hissiy beqarorlikning kuchayishi yoki chidamlilik hissi.

Umuman olganda, shaxsiyatning rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, keng ko'lamlil omillar ta'sirida shakllanadi. Shaxsning ba'zi jihatlarini tug'ma bo'lsa, boshqalarga atrof-muhit va ijtimoiy omillar, shuningdek, hayotiy tajribalar kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Inson hayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib, o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma'naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Pedagogika va psixologiya fanlari rivojlanishni biologik va sotsial xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb xisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi xar tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga yerishish maqsadida pedagogika fani rivojlanishning qonuniyatlarini, unga ta'sir yetuvchi omillarni shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya hamda faoliyatning ta'siri, ahamiyatini aniqlaydi va taxlil qiladi. Ma'lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uning shakllanishi avvalo hayot sharoitlariga bog'liqdir. Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga

aylanadi. Shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning maxsuli deb tushunishimiz lozim.

Xar bir jamiyatda shaxsning shakllanishi, kamol topishi muammolariga to'g'ri yondoshish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini, uning xulq-atvorini va unga ta'sir yetadigan sabab va vositalarni bilish zarur.

Shaxsning rivojlanish jarayoni bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular irsiyat, ya'ni biologik omil hamda muxit, ta'lim va tarbiya, shaxs faoliyati (ijtimoiy omil) shaxsni shakllantirishning asosiy omillari deb tushuniladi. Ma'lumki, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo'ysunadi.

Shaxsning, ayniqsa, bolaning jismoniy rivojlanishi, sog'lig'pi biologik omilga bog'liqdir. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan irsiyatning, ya'ni bolaning nasl-nasabining roliga olimlarimiz aloxida e'tibor bermoqdalar. Xar bir bola insonlarga xos tug'ma xususiyatlar bilan dunyoga keladi. Shunday ekan, odam bolasi tug'ilgandan so'ng unda shaxs bo'lib shakllanish, yetuk inson bo'lib voyaga yetishi imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola o'zining avlod-ajdodlaridan ko'pincha biologik belgilarni meros sifatida qabul qilib oladi, xatto ayrim kasalliklar ham nasldan-naslga o'tadi. Biologik omillar shaxsning jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga kelishini unutmashimiz lozim.

Oilaning sog'lomligini, ota-onaning totuvligi, bir-birini tushunishi, qo'llab-quvvatlashi o'zaro izzat-xurmati belgilaydi.

Shaxs ijtimoiy hayotning maxsuli ekan, u albatta bolani o'rab olgan muxit ta'sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti davomida muxit unga yo ijobiy, yo salbiy ta'sir ko'rsatishi, rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Muhit-bu shaxsga ta'sir yetuvchi tashqi voqea va xodisalar yig'indisidir. Bular: tabiiy muxit (geografik, ekologik) ijtimoiy muxit (shaxs yashayotgan jamiyat) va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muxitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun belgilangan imkoniyatlari muximdir. Shaxs rivojlanishiga yerishish xar bir jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir yetiladi. Buning natijasida muxitdagi voqealarning to'g'ri ijobiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tug'iladi. Muxit bera

olmagan narsalar tarbiya orqali xosil qilinadi, xatto tarbiya tufayli shaxsda tugʻma kamchiliklarni ham oʻzgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Bundan tashqari tarbiya muxitning salbiy taʼsiri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida boʻlmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos boʻladi. Pedagogik jixatdan toʻgʻri uyushtirilgan xar qanday faoliyat xox oʻyin, mexnat, oʻqish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga taʼsir koʻrsatadi. Shaxs ulgʻaya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan oʻzgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham oʻzgarib boradi. Shu sababli bola hayotida oʻyin, oʻquvchi hayotida oʻqish, kattalar hayotida mexnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir.

Oʻquvchi va oʻquvchilarning rivojlanishida oʻquv jarayonlarining ahamiyati va taʼsiri beqiyos kattadir. Bilimlarni oʻzlashtirish ularning tafakkurini oʻstiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi boʻlib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq mezonlari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda boʻlishidan qatʼiy nazar, ularning rivojlanishida mexnat faoliyatining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mexnat insonning ham jismoniy, ham maʼnaviy kamol topishida muxim manba xisoblanadi. Mehnat jarayonida uning ishtirokchilari bir-birlari bilan aloqada boʻladilar, oʻzlarining nimaga qodir ekanliklarini koʻrsatishga xarakat qiladilar. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, masʼuliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Ular oʻz-oʻzini tarbiyalashga astoydil kirishadilar. Oʻz-oʻzini tarbiyalashga ota-ona, oʻqituvchining tarbiyaviy taʼsiri yanada samarali boʻladi. Tarbiya bilan rivojlanishning oʻzaro bir-biriga taʼsiri va munosabatlari mavjud, chunki qayerda tarbiya jarayoni muammolari toʻgʻri xal etilsa, u shaxs kamolotiga samarali taʼsir koʻrsatadi. Kamol topgan shaxs tarbiyaning roli va imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi.

Tarbiya shaxsning rivojlanishini taʼminlashi uchun boladagi rivojlanishning moxiyatini tushunish, bilish faoliyatining oʻzgarish sabablarini aniqlash zarur. Tarbiya xaqiqatan rivojlantiruvchi omil boʻlmogʻi uchun tarbiya jamiyatning tarbiya oldiga qoʻygan talablarini, shaxsning oʻziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning yetakchiligini eʼtirof etish bilan birga ularning oʻzaro bir-biriga taʼsirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil boʻlmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab xar xil boʻladi. Tarbiya jarayonida oʻsayotgan avlodning yosh va oʻziga xos

xususiyatlarini bilish va xisobga olish juda zarur. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-o'quvchilarning xar birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, ijtimoiy muxit va ta'lim tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham xaqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok yetadi.

Aytish mumkinki, ijtimoiy muxit, ta'lim-tarbiya-shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohada iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi. Shunday xollar ham uchraydiki, ba'zan kishi bir soxa bilan qiziqadiyu, uning qobiliyati boshqa sohada ro'yobga chiqadi. Bunday hodisalar ko'proq hali kishining qobiliyatlari to'la ro'yobga chiqmagan va shakllanib bo'lmagan xollarda yuz berishi mumkin. Qobiliyat va iste'dodning ro'yobga chiqishida insonning muayyan faoliyatga qiziqib qarashi bilan bir qatorda uning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb yetadi. Iste'dodli kishilar o'z iste'dodlari-iqtidor kuchini to'la ro'yobga chiqarish uchun o'z ustilarida tinmay ishlashlari, mexnat qilishlari shart. Masalan, mashxur yunon notig'i-nutq ustasi Demosfenning (eramizdan oldingi IV asr) omma orasidagi dastlabki nutqlari muvafaqiyatsizlikka uchragan, uni xatto mashara qilishgan. Demosfen duduq, ovozi xasta, qisqa-qisqa nafas oladigan kishi yedi. U doimo bir yelkasini uchirib turar yedi. Lekin u aktyor Satirning maslaxati bilan o'z nutqini takomillashtirishga kirishadi. Demosfen o'z kamchiliklarini bartaraf etish uchun irodalilik va qat'iyatlilik ko'rsatadi: u og'ziga mayda toshlar va sopol parchalarini solib so'zlarni talaffuz qilishni mashq qildi, dengiz bo'yida to'lqinlar shovqinida nutq so'zladi, qoyalarga chiqib baland ovoz bilan she'rlar o'qidi, oyna oldida turib yuz xarakatlarini bir maromga keltirdi. Uy shiftiga qilichni osib qo'ydi, u odati bo'yicha yelkasini xar uchirganda qilich sanchilardi. Demosfen haftalab uydan chiqmay notiqlikni o'rgandi. Uydan chiqmaslik uchun sochining yarmini qirdirib tashladi. Bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin. Masalan, Alisher Navoiy, Ibn Sinolarning qunt bilan kitob mutolaa qilganlari, A.V.Suvorov, Amir Temurlarning xarbiy san'atni egallash borasidagi mexnatlari fikrimizning dalilidir.

Hayotda shunday hollar ham uchraydiki, ayrim kishilarda bolalik va maktabda o'qigan yillarida qulay muhit bo'lishiga qaramay tug'ma iste'dod va qobiliyat nishonalari ko'rinmaydi. Biroq, keyinchalik qunt va

mustaqil ishlash, g'ayrat va qat'iyatlilik natijasida ular katta qobiliyat egalari sifatida maydonga chiqishadi.

Mashhur kishilar hayoti shuni ko'rsatadiki, ularning ijodiy faoliyatlaridagi asosiy narsa uzluksiz ishlay bilish, oylab, yillab, o'n yillab o'z oldilariga qo'yilgan maqsad uchun intilish, kurashish, unga etish yo'llarini xormay izlashdir.

Har bir inson to'kis hayotga to'la imkonlar bilan yaratilgan. Ammo xar bir kishi o'ziga xos o'quv, qobiliyat va imkoniyatlarga ega. Demak, kishi o'zining shaxsiy hayot yo'lini topa olsa, shu vaqtda uning hayoti jo'shqin, faoliyati ijodkor, mexnati unumli, foydasi mo'l bo'ladi. Kishi aslida xaqiqiy baxtiyorlikka mexnat jarayonida yerishadi. Bu vaqtda unga g'oyibona ruxiy madad beriladi, moddiy-ma'naviy yaratuvchanlik, yangi g'oyaviy fikrlar uni amaliy-ijodiy yo'llarga chorlay boshlaydi. Shuning uchun ota-ona, oila a'zolari, bog'cha, maktab, ta'lim-tarbiya muassasalari xar bir bolani uquvi, qiziqishi, qobiliyatiga asosan kasb egallashiga mas'uldirlar.

O'quvchilar-yoshlarga insonlarning nodir va betakrorligini, dunyoviy, diniy ilmlarni uyg'unligini tushuntirib berish zarurdir. Shundagina yoshlar ayrim g'ayridiniy oqimlar aslida noto'g'ri ekanligini ongli tushunadilar. Xar bir kishi azaliy yaxshi taqdir bilan yaratilgan.

Agar kishi o'z hayot yo'lini topa olsa, uning ongi mustaqil rivojlanib borib ong osti yo'nalishiga tusha olsa xuddi to'lqinlarning mos kelishi kabi insonda ma'naviy ruxiy mutanosiblik sodir bo'lib, u mukammal kamolot yo'liga kiradi.

2.3. Shaxs rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar **yosh xususiyatlari** deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlami hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlami bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, koyish va esliitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi. serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, erinchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ulami bilishi zarur.

Bolaning individual - o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarning o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'inadi:

1.Go'daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha boigan davr.

2.Bog'chagacha boigan yosh davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3.Maktabgacha boigan yosh davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

4.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar) - 7 yoshdan 11-12 yoshgacha.

5.O'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar, ilk o'spirinlar) -12-17 yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o'rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5—6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta'lim).

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'mini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat boiadi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan boiadi.

O'rta va katta maktab yoshi (o'smirlik, ilk o'spirinlik 12-17 yosh). O'smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davmi o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning faqatgina ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarning o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shasliadi.

Ilk o'spirinlik balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray bosib birlar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida *ham* o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari malum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik - bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislaflarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ulaming hali g'oir fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalaming diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolami o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan oichavdilar. Shu bois ularga katta yoshlilaming beg'araz. to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoadagi shaxslar bilan muomalamuloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki O'spirin-yoshiar mustahil hayot ostonasida bo'lib, ulammg bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jarmyatnmg faol fuqarosi bolisbining muhim shartidir. .

2.4. Akselerasiya

XIX-asrning oxirgi choragi va XX-asrning boshlarida ko'pgina mamlatlarda bolalarning o'sishi tezlashganligi kuzatilgan. Shu paytdan boshlab bolalarning jismoniy rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar yig'ila boshlandi va 1936 yilda rivojlanishning tezlashishini xarakterlovchi murakkab kompleks hodisalarni Ye.Kox tomonidan akselerasiya deb atash fanga kiritildi. (lot.accelerare tezlatish).

Dastlab ko'pchilik tadqiqotchilar akselerasiya deganda eng avvalo bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini tushunganlar. Keyinchalik bu tushunchalar jiddiy darajada kengaydi.

Akselerasiya deganda tana o'lchamlarini ortishini va ancha erta muddatda yetilishning boshlanishlarini tushuna boshladilar. Tana uzunligi, ko'krak hajmi va tana og'irliklarini jismoniy rivojlanishning ana shunday muhim belgilari deb qarala boshlandi. Organizmning morfologik xususiyatlari uning funksional faoliyati bilan chambarchas bog'langanligini hisobga olgan holda, ayrim mualliflar o'pkaning tiriklik sig'imini, ayrim muskullar guruhini kuchini, skeletni suyaklanish darajasini, tishlarning chiqishi va almashinishlarini, jinsiy yetilish darajalariga jismoniy rivojlanishning belgilari sifatida qaray boshladilar. Ayrim mualliflar tana proporsiyalarini ham jiddiy belgilar qatoriga qo'sha boshladilar.

Hozirga kelib «akselerasiya» tushunchasi shunchalik kengayib ketdiki, ya'ni faqatgina bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishining tezlashishi haqida gapirmasdan balki voyaga yetgan odamlarning tana o'lchamlarining ortishi, klimaksning ancha kech boshlanishlari haqida ham gap yuritilmoqda.

Haqiqatan ham, o'sishning tezlashishini embrional rivojlanish bosqichidayoq kuzatish mumkin. Yangi tug'ilgan bolalarning tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, oxirgi 30-40 yil davomida ularning tana uzunligi 0,5-1 sm.ga ortdi, og'irligi esa 100-150 g ortdi.

Bolalar hayotining birinchi yilida o'sish va tana og'irligining ortishidan tashqari, tana og'irligini ikki marta oshishi, yoshining va bosh hamda ko'krak qafasi aylanasi to'rt tomonlama o'lchami pasayishi kuzatiladi.

Hozirda tana og'irligini ikki martaga oshish vaqti ilgari 6 oylik yosh o'rniga 4 oylikda kuzatiladi.

Hozirgi bir yoshli bolalar 50-75 yil oldingi bolalarga nisbatan o'rtacha 5 sm.ga uzun, 1,5-2 kg og'irroqligi kuzatildi.

Akselerasiya sabablari. Akselerasiya sabablariga nisbatan hozirgacha biror umumiy ravishda qabul qilingan biron bir fikr shakllanmagan. Lekin juda ko'plab gipotezalar va taxminlar ilgari surilgan.

Ko'pchilik olimlarning fikricha rivojlanishning barcha o'zgarishlarida asosiy aniqlovchi rolni oziqlanishning o'zgarishi deb hisoblaydilar. Buni esa to'la qimmatli oqsillar va natural yog'larni aholi jon boshiga iste'mol qilishni ortishiga bog'laydilar, shular qatoriga sabzavot va mevalarni yil davomida doimiy ravishda iste'mol qilinishini, ona va bola organizmini vitaminlanishini ortishini qo'shdilar.

Akselerasiyaning gameogenli nazariyasi bola organizmiga quyosh nurlarining ta'sir ko'rsatishiga jiddiy o'rin berilgan, xozirda bolalar quyosh radiasiyalari ta'siriga ko'proq uchramoqda. Akselerasiya jarayoni shimoliy mamlakatlarda, janubiy mamlakatlardagiga qaraganda bir xil tempda borayotganligi hisobga olinsa, yuqorida qayd qilingan fikr unchalik ham ishonarli chiqmaydi.

Ayrim tadqiqotchilar akselerasiyaning o'zgarishini iqlimning o'zgarishi bilan bog'laydilar. Issiq va nam havo o'sish va rivojlanish jarayonlarini sekinlashishga olib keladi. Salqin quruq iqlim organizmdan issiqlikni yo'qolishiga olib keladi va o'sishni stimullab turarmish.

Kam dozadagi ionlantiruvchi nurlanishni organizm uchun stimullovchi xususiyatga ega ekanligi haqida ham ma'lumotlar bor.

Oziqlanishning yaxshilanishi bilan bir qatorda tibbiyotning umumiy yutug'i bilan bog'liq bo'lgan chaqaloqlik va bolalikda kasallanishlarning umumiy pasayishini ham asosiy sabablardan biri deb xisoblaydilar.

Fan va texnikaning rivojlanishi odamlar organizmiga ko'plab yangi omillarning ta'sirini yuzaga chiqishiga olib keldi, ya'ni ushbu omillarning xususiyatlari va ta'siri amalda xaligacha to'liq aniqlanmagan. (bu yerda gap sanoatda, qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan kimyoviy moddalar, dorivor vositalar va boshqalar haqida borayapti).

Ayrim mualliflar akselerasiyaga tarbiyalash va o'qitishning yangi shakllari va usullari, ilgarigiga nisbatan doimiy va tez-tez o'g'il va qizlar o'rtasidagi muloqat, sport, jismoniy madaniyatlarga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Shahar hayotining ta'sir tempining qo'zg'atuvchanlik xususiyatini ham akselerasiya bilan bog'lamoqdalar. Bunga keng miqyosdagi sun'iy yoritish (reklamalarni ham qo'shib), radio va televizion stansiyalarni ishlashi paytida yuzaga keluvchi elektromagnitli to'lqinlarning stimullovchi ta'siri shaharning va harakatlanuvchi transportlar shovqini,

radio, kino va televideniyaning intellektual va seksual rivojlanishlarning erta boshlanishiga ta'siri.

Akselerasiyaning kelib chiqish sabablarini genetik jihatdan izohlash uchun izlanishlar olib borilmoqda. Yevropa, Amerika va Osiyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida texnik progressning katta shaharlarda aholining konsentrasiyalanishiga olib keldi. Transport va aloqani rivojlanishi ilgari juda uzoq bo'lgan masofalar yaqin bo'ldi. Turmushga chiqish ya'ni oila qurish geografyasi kengaydi, genetik jihatdan izolyasiyalar buzilmoqda. Bu esa o'z navbatida irsiyatni o'zgarishi uchun qulay imkon yaratmoqda. Yosh avlod ota-onasidan bo'yi jihatidan uzun va erta yetiladi. Ko'plab mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yaxshi ta'minlangan oilalarning bolalarida jinsiy yetilishi tabiiy muddatidan ancha oldin boshlanadi.

Akselerasiya muammosi qanchalik munozarali bo'lishidan qat'iy nazar faqat bir narsa aniq, u ham bo'lsa, uning aniq ko'rsatkichlarga ega ekanligidir. Bu yerda gap mebelning, poyafzalning yoki kiyim kechaklarning standartlarining o'zgarishi haqida borayotgani yo'q, aksincha bola va o'smirlarning tashqi muhit shart-sharoitlari ta'siri ostida antropometrik ko'rsatkichlarni o'zgarishi haqida boradi, shu sababli, akselerasiya o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni, mehnat va dam olish tartiblarini tashkil qilishda hisobga olinishi zarur; u esa o'z navbatida turli yosh davrlarida tarbiyaning shakl va usullarini jiddiy darajada o'zgarishiga olib keladi. Bolalar juda erta jismoniy yetilsalarda, ish bajarash qobiliyati ularning jismoniy yetilishidan orqada qoladi; ko'pgina ma'lumotlarning ko'rsatishicha ijtimoiy yetilish bolalarning jismoniy rivojlanishi singari o'sha masshtabda akselerasiyalanmaydi. Akselerasiya bilan bog'liq holda o'quvchilarni jinsiy tarbiyalash muammosi muhim dolzarblikni oladi.

2.5. Rivojlanishning turli tumanligi, individualligi

Shaxsning individual xususiyatlari shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy kamoloti va faoliyatining o'ziga xos barqaror, muhim xususiyatlari.

Shaxsning yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan **anatomic**, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari.

Yosh davrlari: 1. Go'daklik davri (tug'ildandan 1 yoshgacha davri). 2. Yasli davri (bir yoshdan 3 yoshgacha davri). 3. Maktabgacha tarbiya Yoshi (3 yoshdan 7 yoshgacha). 4. Kichik maktab Yoshi(6-7

yoshdan 11-12 yoshgacha) 5. O‘smirlik davri (11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha) 6. O‘smirlik davri(15-16 yoshdan 18 yoshgacha).

Shaxs rivojlanishining muhim xususiyatlari

-Shaxsning rivojlanishi individning fiziologik, ruhiy va intellektual o‘rishini ta‘minlovchi **faoliyat**, xatti-harakatlarning miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishini ifodalovchi jarayon.

-Shaxsning rivojlanganlik darajasini belgilovchi holatlar: uning fiziologik, ruhiy va intellektual o‘rishini ta‘minlovchi faoliyat va xatti-harakatlarining miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishi.

Agar biz shaxs munosabatlari haqida insonning dunyoga shaxsiy tegishliligi va bu bilan bog‘liq kechinmalar ma‘nosida so‘z yuritadigan bo‘lsak, u holda inson mavjud bo‘la oladigan keyingi – bu «mening» ichki olamim dunyosiga murojaat qilamiz. **Bu dunyo kechinmalar**, shaxsiy mohiyatlar, shaxsiy dahldorlikni his etish, u yoki bunga shaxsiy tegishlilik, boshqa odamlar bilan mavjudlikning «hodisaviyligi» bilan to‘la. Bu dunyoga jismlil faoliyat o‘z shaklini o‘zgartirgan holda oddiy holatdagi foydali faoliyat, shaklini yo‘qotgan jismlil harakat bo‘lib emas, balki, «shaxsiy» faoliyat, ijodiyot sifatida kiradi, ijtimoiy hulq-atvor esa «mening» dunyosiga shaxslararo munosabat, boshqa odamlarning ichki dunyosiga yaqinlashish, boshqalarga o‘zini ochishning vositasi, o‘zini namoyon etish sifatida kirib keladi. «Mening» dunyosida unga xos bo‘lgan maxsus faoliyat turlari: o‘yin, san‘at, din, ichki dunyolar yaqinlashuvi sifatidagi muloqot paydo bo‘ladi.

«Individ» tushunchasini turlicha talqin qilish mumkin. **Avvalambor**, individ – bu yagona tabiat mavjudoti sifatidagi odam, Homo sapiens turiga mansub vakil. Ushbu holatda individ biologik turning umumiy irsiy xossalarini tashuvchi biologik organizm (har bir odam individ bo‘lib tug‘iladi) sifatida tushuniladi, ya‘ni, insonning biologik mohiyati ta‘kidlanadi. Lekin ba‘zida «individ» tushunchasi odamni insoniy umumiylikning alohida vakili, mehnat qurollaridan foydalanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida belgilash uchun qo‘llaniladi.

Shaxs tushunchasining mohiyatli tomonlarini belgilab beruvchi turli xil ta‘riflar mavjud. A.N. Leontev ta‘rifiga ko‘ra: «SHaxs – faoliyat sub‘ekti», A.G. Kovalevning – «shaxs ijtimoiy munosabatlar sub‘ekti va ob‘ekti sifatida», K.K. Aflotunovning – «shaxs – o‘z o‘rnini anglovchi layoqatli jamiyat a‘zosi», S.L. Rubinshteynning – «shaxs – tashqi ta‘sirlarning oldini oluvchi ichki sharoitlar yig‘indisi», A.V. Petrovskiyning – «shaxs – individ tomonidan jismlil faoliyat va muloqotda orttirilgan, unga ijtimoiy munosabatlarga kirishganlik nuqtai nazaridan

ta'rif beruvchi tizimli sifat», G. Ollportning – «shaxs hayoti davomida shakllanib boruvchi o'ziga xos psixofiziologik tizimlar – ushbu insonga xos bo'lgan tafakkur va hulq-atvorni belgilab beruvchi shaxs qirralari yig'indisi» va boshqalarning ta'riflari shulardan iborat.

Bizlar esa R.S. Nemov tomonidan shaxsga berilgan ta'rifni qo'llaymiz: «Shaxs – **bu ijtimoiy asoslangan**, ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan aloqalar va munosabatlarda namoyon bo'ladigan, barqaror, odamning o'zi va atrofida uchun ahamiyatli bo'lgan ahloqiy harakatlarni belgilab beruvchi o'zining psixologik xususiyatlari tizimidagi inson».

Shunday qilib, inson, birinchidan, tirik tabiat vakili, biologik ob'ekt sifatida, **ikkinchidan**, ongli faoliyat sub'ekti sifatida va, uchinchidan, ijtimoiy mavjudot sifatida o'rganilishi mumkin, bu uch darajaning yaxlit uyushmaga birlashishi insonning yig'indi xususiyatlarining individualligini shakllantiradi.

Individuallik – bu ma'lum insonning, uning noyobligi, betakrorligi nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisi.

Individuallik – bu ko'rib chiqilgan tushunchalar ichida mazmuniga ko'ra eng tor tushuncha hisoblanadi. U o'zida insonning boshqa odamlardan farq qiluvchi o'ziga xos va shaxsiy xossalarini jamlaydi. Individuallik **turli xildagi tajriba**, bilimlar, fikrlardagi tafovutlar, xarakter va temperamentlardagi farqlar, o'zimiz isbotlaydigan, tasdiqlaydigan o'ziga xos xususiyatlarimizda namoyon bo'ladi. **Motivlar**, temperament, xarakter, layoqatlar – individuallikning asosiy ko'rsatkichlari. «Individuallik» tushunchasi individning faqat o'ziga xos ruhiy xususiyatlarini emas, balki morfofiziologik (bo'y o'lchami, tana tuzilishi, yuz tuzilishi va h.k.) xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Individuallik – o'z mohiyatiga ko'ra, boshqalar tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan, tashqarida joylashgan narsa. Faqat boshqalar bir **odamning boshqasidan farqini**, ya'ni, uning individualligini aytib berishi mumkin.

Individualism giving priority to one's own goals over group goals and defining one's identity in terms of personal attributes rather than group identifications.

Shunday qilib, bizlar ko'rib chiqqan «odam, individ, shaxs va individuallik» tushunchalari hajmiga ko'ra turlichadir. Bular orasida keng ma'no kasb etib, boshqa tushunchalarni ham o'zida jo etadigan tushuncha «inson» atamasidir, eng tor atama esa – «individuallik» tushunchasi.

Savol va topshiriqlar:

1. Shaxsning rivojlanish jarayoni nimalarga bog'liq?
2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
3. Shaxs rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari qanday jarayon hisoblanadi? Yosh bosqichlari sanab o'ting?
4. Akseleratsiya qanday jarayon hisoblanadi?
5. Rivojlanishning turli tumanligi, individualligi nimalarga bog'liq?

3-MAVZU: O'QUVCHI SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM

Reja:

1. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.
2. Shaxsning bilish qobiliyatlarini shakllantirish.
3. Shaxsning ijtimoiy xulq malakalarini shakllantirish va faoliyatni tashkil qilish metodlari.
4. Shaxs xulqi va faoliyatida motivasiya va rag'batlantirish metodlari.
5. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim.

3.1. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish metodlari

Insonning shaxs sifatida shakllanishi, rivojlanishini aniqlashdan avval «odam», «inson», «shaxs» tushunchalarini ko'rib chiqaylik.

«Odam» - tirik mavjudot sifatida fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega. Mabodo shu xislatlar «odam»da bo'lmasa, u individligicha qoladi.

Ilmiy pedagogik - psixologik nazariyatlarning ta'limotiga ko'ra «odam» individ shaklida dunyoga keladi, individual hayoti davomida anatomik -fiziologik xususiyatlarni ajratish, ko'payishi, kattalashuvi natijasida inson bo'lib voyaga etadi.

Odam - ijtimoiy jonzot bo'lib, mehnat qurollarini ishlab chiqadigan, ularni o'zining yashashi uchun va tashqi muhitga ta'sir ko'rsatishi uchun ishlata oladigan erdagi jonzotlarning eng oliy ongli organizmlaridan biridir.

Odam individual hayoti davomida xotira, sezgi, farosat, tasavvur, iroda, xayol, idrok kabi xususiyatlarga ega bo'ladi, yaxshini yomondan, halolni haromdan farq qiladi, iffatni, hayoni qadrlaydi.

Insonning rivojlanishi bu yuqorida ta'kidlaganimizdek, organizmning anatomik tuzilishi, fiziologik, psixologik funksiyalar,

faoliyat va harakatning miqdor va sifat jihatidan o'rganilganligi, rivojlanganligidir. Xo'sh rivojlanish nima?

Rivojlanish-ya'ni, o'sish jismoniy jihatdan bo'y - gavda og'irligi, qon bosimi, o'pka, qo'l-oyoq, muskullarning, psixik jarayonlar diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur, iroda xususiyatlari, faoliyat turlari - o'yin, o'qish, mehnat, sport va hokazoning o'sishidir.

RIVOJLANISH - shaxsiy, irsiy, biologik, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarning yo'nalishini kengayishidir. Inson tirik organizm sifatida ma'lum maqsad asosida faoliyat ko'rsatadi va shu faoliyati davomida o'sib, rivojlanib boradi. Rivojlanish bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tana, gavda a'zolarining, nerv funksional faoliyatining kamol topishi aql - zakovatining o'sib borishidir.


Shunday qilib, inson o'sib, rivojlanib shaxs sifatida shakllana boradi. Xo'sh shakllanish nima?

SHAKLLANISH - biron bir narsaning bir joyga to'planishi, yigilishi demakdir. Shaxsning shakllanishi deganda, uning xulq - atvorida, ijtimoiy va biologik omillarning ta'sirida tajribalar, munosabatlar, axloqiy sifatlarning to'planishi tushuniladi.

«Shaxs» shakllanishi tushunchasi misolida izohlaydigan bo'lsak - inson shaxsidagi, jismoniy, axloqiy, psixologik, xususiyatlarning ko'payib, to'planib, mustahkamlanib borishi tushuniladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir. Individuallik deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirgan odam yo'q, inson shaxsi o'z individualligi jihatidan betakrordir.

Shaxsning psixologik tuzilishini quyidagi ko'rinishda tasavvur etish mumkin (1 rasm).



1. Rasm. Shaxsning psixologik tuzilishi.

Shaxsning rivojlanishi. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xattiharakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

Shaxsning rivojlanishi inson shakllanishi jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Fiziologik va psixologik o‘shish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan shaxs rivojlanishi inson shakllanishining ushbu jarayonlarga to‘liq bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishi emas. Ko‘pincha mukammal shaxsiy rivojlanish jismoniy zaiflik va rivojlanmagan xotira bilan birlashtiriladi.

Bir-birini to‘ldiradigan va o‘rnini bosadigan, o‘shish va rivojlanish insonni shakllantiradi, unga jismoniy va shaxsiy takomillashtirish uchun ko‘plab imkoniyatlarni beradi. Qattiq dastur bo‘yicha rivojlanayotgan o‘simliklardan farqli o‘laroq, shaxsni shakllantirish jarayoni moslashuvchan tarzda o‘zgaradi, bu jismoniy qobiliyatlarning o‘shishi bilan birga axloqiy va ma’naviy fazilatlarni - chidamlilik, ruhiy chuqurlik, fikrlash mantig‘i va boshqalarni rivojlantirishga imkon beradi.

Shaxs rivojlanishi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘shishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor

o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

2. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'mini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning rolga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb

qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi. Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar. Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funktsiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi. Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha sub'ektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'zo'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli naslnasabi, oila muhiti,

ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxsning o'zini o'zi baholashi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida odamlar bilan o'zaro muloqotga kirishgandan so'ng inson o'zini atrofdagi muhitdan ajratadi, o'zidagi jismoniy va ruhiy holatlar, harakatlar va jarayonlarning sub'ekti sifatida his etadi, shaxsan o'zi uchun «boshqalar» qarshisida turgan, shu bilan birga, ularga bevosita bog'liq bo'lgan «Men» sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsan «Men» mavjudligining sub'ektiv kechinmasi, avvalambor, insonning hozirgi, o'tgan zamon va kelajakda shaxsan o'ziga nisbatan o'zining *o'xshashligini* tushunishi holatida ifodalanadi. SHunday qilib, *o'zini anglash* yoki «Men-konsepsiyasi» – bu individning o'zi haqidagi tasavvurlarning takrorlanmas tizimi sifatida kechiriladigan nisbatan barqaror u yoki bu darajada anglanganlikdir, uning asosida individ boshqa odamlar bilan o'zaro aloqalarini o'rnatadi va o'ziga munosabat bildiradi. «Men-konsepsiyasi» – bir butun bo'lsada, lekin ichki qarama-qarshiliklardan holi emas, o'ziga nisbatan mayli sifatida namoyon bo'ladigan va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat shaxsiy Men *obrazi* bo'lib hisoblanadi:

kognitiv – o'z sifatleri, layoqatlari, tashqi ko'rinishi, ijtimoiy ahamiyatliligi va h.k.lar obrazi;

emotsional – o'zini hurmat, o'zini yaxshi ko'rish, o'zini kamsitish va h.k.;

baholash-irodaviy – o'ziga berilgan bahoni ko'tarishga, hurmatga sazovor bo'lishga va h.k.ga intilish.

“Metod” so'zi grekchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini qo'yidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).

2. Namuna (maslaxat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar xaqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

3. Nasixat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, maqullash, raxmat aytish, duo qilish, ok yo'l tilash va xokazolar).

4. Qoralash va jazo.(ta'kidlash, ta'na, gina, tanbex berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va xokazolar.)

Tarbiya usullarini o'rganish, taxlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayondan foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni

osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruxga bo'lib olamiz:

Suhbat va hikoya. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul xisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani xisobga olish lozim.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o'quvchilarning o'zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqi – shundan ta'minlanadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O'quvchilar o'z atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nixoyatda muximdir.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota – bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: “Qush uyasida ko'rganini qiladi”. Juda oddiy jo'ngina xulosa.

Topshiriq. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda aloxida ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni xis etishga o'rganadilar. Mehnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustaxkamlaydi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq – atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi, u yoki bu xarakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona xarakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

O'z – o'zini tarbiyalash usullari o'quvchilarning o'zini – o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeyini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z – o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z – o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O‘z-o‘zini taxlil qilish. O‘z shaxsini, fazilatlarini taxlil qilishga, xatti – xarakatlari xaqida o‘ylashga o‘rgatadi.

O‘z – o‘zini nazorat qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish – turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va, aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi xaqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash. O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z – o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin.

O‘z – o‘zini baholash o‘quvchi uchun o‘zining imkoniyatlarini xisob – kitob qilish, baholash, o‘ziga chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Rag‘batlantirish va jazolash usullari.

1.O‘quvchining kuchi yetadigan, mas’uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o‘quvchi o‘z qadr - qimmatini bilan faxrlanadi;

2.Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);

3.Esdalik sovg‘asi berish (kitob, ruchka, o‘quv asbobi va boshqalar);

4.Maqtov yorlig‘i berish;

5.Stipendiya bilan taqdirlash;

6.Xurmat taxtasiga fotosuratini quyish;

7.Qo‘llab- quvvatlash;

8.Mas’uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;

9.Safda birinchi o‘rinda turish;

10.Musobaqalarda bayroq ko‘tarish;

11.Gazetada, radioda e‘lon va hokazo.

Har qanday rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanishi lozim.

Jazolash – bu tarbiyalanuvchining xatti – xarakati va faoliyatiga salbiy baxo berishdir.

Jazo ham o‘quvchining va butun sinf manfaati uchun qo‘llanadigan oxirgi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo‘llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo‘rqitish, gazablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o‘quvchi qo‘rqanidan yolg‘on gapirishga o‘rganadi, ikkiyuzlamachi bo‘lib qoladi.

Maktablarda qo‘llash mumkin bo‘lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish – eng yengil jazo chorasidir. O‘qituvchi bolaga yuzma – yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib quyish mumkin.

Ogohlantirish – noma’qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo‘llaniladi.

Xayfsan berish – agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o‘quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o‘quvchining aybi qay darajada va uning intizomini qanday sharoitda buzganini e’tiborga olib unga xayfsan e’lon qilish mumkin.

Uyaltirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda, odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo o‘zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo‘ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyotkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin xadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Faoliyat o‘zi nima? Faoliyat inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o‘zgartirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o‘ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko‘ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish lozim. Lekin ko‘p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo‘ladi.

O‘smir va o‘spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o‘yin, o‘qish va mehnat kiradi. Ular yo‘nalishiga ko‘ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko‘ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo‘lishi mumkin. O‘smir faoliyati muhit va tarbiya ta’sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o‘z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o‘zini shaxs sifatida ko‘rsata olishi unda o‘z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko‘zga tashlanadi.

Ta’lim jarayonida faollik o‘quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o‘z qobiliyatini namoyon etishga yo‘llaydi. Bilishga bo‘lgan faollik o‘quvchining intellektual rivojlanishini ta’minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. SHunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymanligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, YAn Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish metodikasini bilish muhim.

3.2. Shaxsning bilish qobiliyatlarini shakllantirish

Pedagogik atamalar lug‘atida bilishga qo‘yidagicha ta’rif beriladi:

1) ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘quvchilarga taqdim etilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi;

2) borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash jarayonidir.

Demak, bilish faoliyati jarayonida o‘quvchi taqdim etilgan bilimlarni o‘zlashtiradi va tevarak atrofdagi voqelikni anglab etadi.

Ma’lumki, bizni o‘rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko‘p belgi va xususiyatlari mavjud. Masalan, narsalarning rangi, ta’mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g‘adir-budur yoki tekisligi, harorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a’zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a’zolarimizga ta’sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo‘ladi. CHunonchi, nurlarning ko‘zimizga ta’sir qilishi natijasida ko‘rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to‘lqinlarining qulog‘imizga ta’sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo‘shlig‘iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta’siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo‘limiz yoki badanimizga tegib ta’sir etish natijasida teri (taktil - biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo‘ladi.

Demak, sezgi deb, atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a’zolarimizga bevosita ta’sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz.

Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo‘lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo‘zg‘atuvchilarning muayyan restseptorlarga bevosita ta’sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma’lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o‘tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo‘lgani bilan uning yuzaga kelishi o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo'lishi.
2. Sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo'lishi.

Masalan, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz.

Sezgi idrok bilan bog'liq bo'ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga etkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o'z ichki holatini adekvat "mos" aks ettirishi hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo'llaridan biridir. Ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratilishi lozim. Bilish jarayonida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, misollar, masalalar echish, didaktik mashqlar bajarish, takrorlash yordamida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. 7-8 yoshli bolalarda diqqatni ixtiyoriy tarzda bir nuqtaga jamlash, taqsimlash, ongli ravishda boshqarish ko'nikmalari shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'lum darajada o'z faoliyatlarini mustaqil rivojlantira oladilar. Ular o'z rejalari, harakatlarining izchilligini so'z orqali tasvirlab beradilar. Rejalashtirish yordamida o'quvchilarning ixtiyoriy diqqatlari tarkib topib rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etish turli aqliy faoliyat usullarini taqozo qiladi. O'quvchilarning bilim zaxiralari moddiy olam haqidagi tasavvurlari yordamida boyib borib bilish faoliyatining shakllanishida o'quv jarayoni muhim o'rin egallaydi.

Misol uchun, bolada mantiqiy uylash etilmay turib uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasiz. 3-7 yoshli davrdagi bolalarning asosiy faoliyati quyidagicha:

- Predmetli o'rganish;
- Individual va predmetli o'yinlar, jamoaviy syujetli rolli o'yinlar;
- Individual va guruhlarda ijod;
- Musobaqa o'yinlari;
- Munosabat o'yinlari;
- Ro'zg'or mehnati.;

Bolalarning bilish jarayonlarida ushbu o'yinlarning ahamiyati kattadir. Mutaxassislar shaxsning rivojlanishi moddiy olam bilan bog'liq bo'lib inson turmush tarzi uning ongini belgilaydi, deb hisoblaydilar. Insonning bolalikdagi rivojlanishida o'quv-biluv faoliyati muhim o'rin

tutadi. O'quvchilar bilish faoliyatining kengayishi, birinchi navbatda, ularning ilmiy hodisalar, fikrlar, g'oyalar, dalillar va xalqning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishlari natijasida amalga oshadi. Pedagogika fanida rivojlanish va o'qitishning o'zaro aloqadorligi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'liga ega. Dastlab, pedagoglar o'quvchilarning rivojlanishi o'z-o'zidan amalga oshadi, degan fikrni ilgari surganlar. Ta'limning rivojlanish ta'sirini aniqlaganlaridan so'ng, ular bu ta'sirning beixtiyor xarakterga ega ekanini ta'kidlaganlar. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni o'qitish va aqliy rivojlantirish muammosi bo'yicha shaxsiy nuqtai nazarlar vujudga keldi.

Ushbu yondashuv asosida pedagogika fanida ta'limda faoliyatli, individual, tabaqalashgan yondashuv nazariyasi vujudga keldi. Shaxsning rivojlanish jarayonida bir xillik mavjud emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu vaqt obrazli tafakkur qilish asosida intellektual rivojlanish davridir. Bu asosan o'quv-biluv jarayonida amalga oshadi. O'quv biluv jarayonida shaxsning boshqa jihatlari rivojlanmaydi. Biz o'quvchilar uchun etakchi bo'lgan rivojlanish yo'nalishini asoslashga harakat qilamiz. Intellektual rivojlanishda o'z-o'zini hurmat qilishning asosini o'quvchilarning shaxsiy ijobiy tajribasi tashkil qiladi. Bu o'quv-biluv jarayonida namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat o'quvchilarda bunday tajriba mavjud emas. O'z faoliyati natijasidan qoniqmaslik o'quvchilar o'z-o'zlarini hurmat qilishlarining asosini tashkil eta olmaydi. Bu yo'nalishda muhim o'rin egallaydigan qonuniyatlardan biri o'quvchilarda muayyan o'quv vaziyatlarida bilish faoliyatining kengayishi, shaxsiy tenglik hamda o'z-o'zlarini hurmat qilishdan iborat. Bu o'quvchilar faoliyatlari orqali namoyon bo'lib bilish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar o'quvchining kayfiyati va rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'z oldiga bu faoliyatni qanday kengaytirish kerak, degan savolni qo'yishi lozim. Mavjud ilmiy manbalarning tahlili va amalga oshirilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilardagi bilish faoliyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- bilish qiziqishlari;
- o'quv maqsadlari;
- hissiyotlar: shaxsiy bezovtalik va hissiy barqarorlik;
- yutuqlarni qo'lga kiritish va muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj;
- intellektual layoqatlilik va muloqotga kirishuvchanlik;
- shaxsiy tajribalar hamda ko'nikmalar.

Rus fiziologiyasi va ilmiy psixologiyasining atoqli namoyondasi I. M. Sechenovning (1829—1905) «Bosh miya reflekslari» degan mashhur asari 1863 yilda bosilib chiqildi. «Insondagi psixik va fiziologik jarayonlar—degan edi Sechenov—bu bir xil tartibdagi hodisalar, bir-biriga yaqin real dunyoga xos bo‘lgan hodisalardir».

Sechenov psixik jarayonlarning asosi bosh miya reflekslaridir, degan ta’limotni ilgari surdi. Sechenov I.M. davomchisi Pavlov I. P. oliy nerv faoliyati fiziologiyasiga doir mashhur asarlarida psixik moddiy substrat faoliyatidagi asosiy konuniyatlarni va ayrim jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini ochib berdi. Izlanishlarimizning asosini muayyan o‘quv vaziyatlarida o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirishning samarali yo‘llarini tashkil qiladi. O‘z-o‘zini hurmat qilish har bir shaxsning tahliliy sifatidir. Buning tarkibini tahlil qilish orqali o‘quvchining mayllari, qadriyatlari, tayanadigan qoidalarini aniqlashga muvaffaq bo‘lindi.

O‘quv-biluv jarayonida bilish faolligini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘quvchilarning mustaqilligidan kelib chiqqan holda ular faolligini ta’minlash uch yo‘nalishga ajratilgan.

- namunaga asoslangan taqlidiy;
- izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik;
- ijodiy bilish faoliyati.

Taqlidiy faoliyat harakatning tayyor namunalari asosida hosil bo‘ladi. Ideal tarzda bo‘lgani singari, predmetlilik asosida ham o‘quvchilarni tirishqoq bo‘lishga undaydi. Izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik faoliyati tadqiqotchilik faoliyati bilan qiyosiy tarzda o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan muammoli vaziyatlarni echish yo‘llarini mustaqil tarzda izlashdan iborat. Ijodiy faoliyat esa bilish faoliyati hosil bo‘lishining yuqori shakli sifatida muammolarni echishning yangi, o‘ziga xos usullarini izlash, o‘z xattiharakatlarini mustaqil boshqarishning yuqori ko‘rsatkichlarini namoyon qilish hamda mazkur darajani shaxsiy faollik bilan qiyoslash mumkin.

An’anaviy ta’lim sharoitida bilish faoliyati o‘qituvchining o‘quvchilarga tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan harakati sifatida tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o‘tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o‘quvchilarga tayyor tarzda uzatilmasligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo‘ldilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga

muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo'lishiga erishish nazarda tutilmoqda.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Didaktik yondashuvlar. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchilar faoliyati, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarning o'rnini o'rganishga qaratilgan.

2. Psixologik yondashuv. O'quvchilar o'zlarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilish faoliyatidan foydalanadilar. Bilish jarayonining barcha darajalarini tahlil qilishdan ko'zda tutilgan maqsad - uning turlarini aniqlashdan iboratdir. Chunki bilish turlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish usuli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Shu bois, bilish faoliyatini o'zlashtirishning turlarini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. O'quvchining bilish faoliyati muayyan ko'rinishlar, shakllar, vositalar, usullar, yo'llar, metodlar yordamida amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Tabiiy sharoitdagi maktab amaliyotida bilish faoliyatini turli-tuman ko'rinishlarda vujudga keltirish.

2. O'quvchi bilish faoliyatining hosil bo'lish turlari, ko'rinishlari, usullari, shakllari, metodlariga ega bo'lishi.

3. O'qituvchilar bilish faoliyati turlarining yagona tasnifi mavjud emas.

Bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari loyihalashtirilganda umumlashgan bilish ko'nikmalari o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Chunki mazkur jarayonda maqsadga yo'naltirilgan maxsus o'quv vaziyatlari amalga oshadi. SHu bilan bir qatorda, o'quvchilarni umumlashgan ko'nikmalarni egallashga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ularda xususiy xarakterdagi o'quv-biluv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirishda o'quv vaziyatlari o'ziga xos didaktik ahamiyat kasb etadi. O'quv faoliyati shunday vositaki, uning yordamida o'quvchi o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga intiladi. O'quvchi faoliyati o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Ma'lumki, o'qituvchi o'quvchi faoliyatini boshqarish holatini vujudga keltiradi. Bu jarayon o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar uzluksiz tarzda davom etadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchining mayllarini hisobga olish, rejalashtirish, uning faoliyatini nazorat qilish va tuzatishdir.

O'rganish o'quvchida o'z xatti-harakatiga ishonch tug'diradi. Mazkur ishonchni egallash boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Bunga o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish orqali erishiladi. Bugungi kunga kelib aksariyat o'quvchilar o'z bilim zahiralari kengaytirishga intilmayotganiga guvoh bo'lishi mumkin. Ular darslarda faol ishtirok etmaydilar, o'quv jarayonidan tashqaridagi erkin faoliyatiga ko'proq qiziqadilar. Buning sabablarini izlash va bartaraf etish pedagogikaning ustuvor masalalaridandir. O'quvchilar maktabga borar ekanlar, o'qituvchilar va sinfdoshlarining mehr-muhabbati, e'tiborini qozonishiga harakat qiladilar.

Muammoning echimi uzluksiz ta'limning o'ta muhim masalalaridan biridir. Bugungi kunda "O'quvchi nima uchun sinfdan-sinfga o'tgan sari o'qishga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi?", "Bunga kim aybdor, o'qituvchimi yoki o'qitish metodlarimi?", "O'quvchining bilish jarayoniga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda o'qituvchi qanday o'rin egallaydi?", "O'qituvchi qanday qilib, nima yordamida o'quvchilarda o'quv-biluv jarayoniga bo'lgan qiziqishni oshira oladi, bunda qanday vositalardan foydalanish kerak?" kabi savollar o'z echimini kutmoqda.

Pedagoglarning e'tirof etishlaricha, o'quvchining muvaffaqiyatlari uning o'quv-biluv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qishga bo'lgan qiziqish o'quvchilarda bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan ruhlangandagina vujudga keladi. O'quvchi mehnati jarayonida quvonchini his qilsa, qiyinchiliklarni bartaraf etganligidan faxrlansa, o'quv jarayoniga alohida qiziqish bilan qaray boshlaydi. SHuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarga o'quv mehnatidan quvonish vaziyatini yaratishi kerak. O'quvchilar qalbida g'urur va o'z muvaffaqiyatlariga loyqlik hissini tarkib toptirish lozim. Muvaffaqiyat har bir o'quvchi erisha olishi uchun qulay bo'lgan o'quv vaziyatini vujudga keltirish orqali ta'minlanadi. Mutaxassislar o'quv vaziyatida o'quvchining bilish ehtiyojlarini qondirish uning rivojlanishida muhim o'rin egallashini ta'kidlab kelmoqdalar. Agar o'quvchiga o'quv vaziyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyati berilsa, u hayotda ham to'g'ri yo'l tanlay oladi.

Shaxsning rivojlanishida «faoliyat», «faollik» tushunchalarining o'rnini beqiyos. Buyuk insonlar o'z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson o'z intilishi va faolligi bilan yuksak natijalarga erishishi mumkin, qobiliyat va iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun ham o'z ustida ishlanishi zarurdir. *Masalan, buyuk iste'dod sohibi Muxtor Ashrafiy kunlardan bir kun shogirdinikiga tashrif buyuribdi. Shogirdi fortopiano oldida o'tirib, kuy bastalayotgan ekan. Shogirdining*

rafiqasi ilhom parisi kelganda, turmush o'rtog'iga halal bermaslik uchun ustozga bir pas o'tirib turishni maslahat beribdi. Bir necha daqiqadan so'ng shogird Muxtor Ashrafiy yoniga peshvoz chiqibdi. Salomlashgach, Muxtor Ashrafiy shogirdiga qarata: "Men bugun kechasi bir kuy bastaladim. Marhamat, tinglab ko'r, debdi va fortopiano yoniga kelib, bir necha daqiqa oldin yangragan kuyni ijro etibdi. Shogird hangu-mang bo'libdi. Qanday qilib, ikki kishi bitta kuyni bastalashsa?! Biron nota ham o'zgarmasa? Bunaqa sira bo'lishi mumkin emas-ku?!, -deb hayron qolibdi. Shunda Muxtor Ashrafiy xandon urib kulibdiyu, hazillashayotganini aytibdi. Muxtor Ashrafiydagi buyuk iste'dod, xotirlash qobiliyatining kuchliligiga shogird tasanno aytibdi. Shunday qilib, mashhur musiqachi, bastakor Muxtor Ashrafiy o'zining buyuk iste'dod egasi ekanligini namoyon qilgan ekan.

Yoki yana bir iste'dod sohibi, birdaniga bir necha sohalarda faoliyatini namoyish qilgan buyuk rassom, arxitektor, matematik Leonardo Da Vinchi o'z ustida tinmay izlangan, mashaqqat bilan mehnat qilganligi hych kimga sir emas. Yoshligida juda qashshoq yashagan Leonardo kunlarning birida tabiat quynida rasm chizish uchun Florensiyaning chekka qishlog'iga kelibdi va yashash uchun ijaraga kichik hujra tanlabdi. Vaqt o'tibdi, ammo Leonardo hujra pulini to'lay olmabdi. Hujra egasi xasis va qitmir ekan. U rassomni tanimabdi va undan ijara haqqini talab qilibdi. Rassom ikki soatlardan so'ng pulni to'lashga va'da beribdi. Oradan ikki soat o'tgach Leonardo Da Vinchi mo'jazgina tugunchasini ko'tarib, hujradan chiqibdi va pulni stol ustida qoldirganligini aytib, hujra egasi bilan xayrlashibdi. Xasis hujra egasi xonaga kirsas, stol ustida yaraqlab turgan bir uyum tilla tangalarni ko'ribdi va ochko'zlik bilan ularga qo'l cho'zibdi, ammo qo'li stolning ustida mohirlik bilan chizilgan rasm ustida qolganligini ko'rib, hayratdan yoqa ushlabdi... Ancha vaqtdan keyin hujraning egasi ushbu stolni juda katta pulga sotishga muvaffaq bo'lib, mislsiz darajada boyib ketibdi.

Demak, qobiliyat tinimsiz mehnat va izlanish natijasida iste'dodga aylanishi, insonni kamolotga yetaklashi muqarrardir.

«Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi»¹. Bola aynan turli faolliklar yordamida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi. Demak, tahsil oluvchilarning faoliyatlari passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Ya'ni, faoliyat-o'quvchi ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman

¹ Karimova V. Psixologiya.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2010.-97-bet.

ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu-o'quvchining darslarda muayyan predmetlar mohiyatini o'z tasavvuri doirasida, malum bir echim orqali bilishga, yangi kashfiyotlar yaratishga qaratilgan faoliyatdir.

O'quvchining aqliy harakatlari-shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham qamrab oladi. Bola shaxsining rivojlanishida harakatlar quyidagi ko'rinishda bo'lishi kuzatiladi:

-pereptiv-bunda o'quvchi ongida jismlar va hodisalar to'grisidagi yaxlit siymo (obraz) shakllanadi;

-mnemik faoliyat- narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi va bog'liq murakkab faoliyat turi;

-imajitiv faoliyat - («imaje» -«obraz»)-ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda saqlashni taqozo etadi.

Faoliyat turlari ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Ayrim xatti- harakatlar boshida har bir harakatni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishini va bunga butun diqqat-e'tiborni, ongning yunalishini talab etadi. Lekin vaqt o'tgach, ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy shaxs kamolotida faoliyatning mo'him o'rnini alohida qayd etib, uning turlarini bir necha bosqichlarga ajratadi va amalga oshirish usullari, vaqt va fazoviy ta'rifi, fiziologik mexanizmlari to'grisidagi g'oyani ilgari suradi. Bugungi kunda zamonaviy pedagogikada insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalari ustida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar samarasi har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga mo'ljallangan strategiyalardan iborat bo'lib, shaxsning eng asosiy huquqlaridan biri - bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, aqliy jihatdan rivojlanish, yoqtirgan kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqini ro'yobga chiqarishga mo'ljallangan.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga Davlat tomonidan ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolotlanadi. Ta'lim jarayonida shaxs Davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Ta'lim xizmatlarining amalga oshiruvchi sifatida shaxs munosib darajada malaka darajasini olgach, bilim va

tajribalarni ta'lim jarayonida yosh avlodga o'rgatish, moddiy ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat va maishiy xizmat sohalarida faoliyat ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Har bir odam faqat ta'lim, ijtimoiy tarbiya va ma'naviy kamolot, kasb-hunar o'rganish tizimi vositasidagina shaxs bo'lib shakllanadi.

3.3. Shaxsning ijtimoiy xulq malakalarini shakllantirish va faoliyatni tashkil qilish metodlari

Bola rivojlanishining, o'zligini bilishning asosiy omili - bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondashilgan qoida maktab hayotining hamma jabhalarida ta'lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi. Faoliyat o'quvchilar bilimlarim mustaqil egallashga undaydi, ularni qay ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. O'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasidagi foydali mehnat bilan shug'ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko'pchilik jamoa bo'lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o'rgatish usullari. Bolalar faoliyatini oqilona maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish mumkin. Mashq bolalarni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. O'quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydilar, balki ular bilan muntazam muloqotlari tufayli taqlid qilish, tarbiya orqali hosil qilinadi. Oxir-oqibatda odat ehtiyojga aylanadi.

Mashq - muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli ijodiy jarayondir.

O'rgatish. Ijodiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchiarning bajarishlari uchun rejali izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliyot ishlaridir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi lozim. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud. Faoliyatda mashq qilish mehnat ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat, o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgan. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o'rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq o'z istak va harakatlarini boshqarish hamda bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi.

Topshiriq. O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik talab - bu usul tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab - bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatga qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu haraktda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'rni. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehna tqilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. 3.Shaxsning ijtimoiy xulq malakalarini shakllantirish va faoliyatni tashkil qilish metodlari.

3.4. Shaxs xulqi va faoliyatida motivasiya va rag'batlantirish metodlari

Shaxs xulqi va faoliyatida rag'batlantirish usulidan qanday foydalaniladi, uning qanday turlari va ahamiyati bor, degan savol ko'pchilikni qiziqтира kerak Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod, ya'ni usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

1. Soʻz orqali ifodalash usuli.
2. Koʻrgazmalilik usuli.
3. Amaliy namuna usuli.
4. Ragʻbatlantirish va jazo usullariga boʻlinadi.

Bu metodlar oʻz navbatida quyidagi guruhlariga boʻlinadi.

Birinchi guruh - soʻz orqali uzatish, maslahat berish, maʼlumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, maʼruza, suhbat va boshqa usullarga.

Ikkinchi guruh - kinofilmlar, tasviriy sanʼat, badiiy sanʼat va boshqa koʻrish orqali tarbiyalash usullariga.

Uchinchi guruh - tarbiya jihatlari amaliy mehnat harakatlari orqali berish, oʻrnak koʻrsatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida koʻrsatish.

Toʻrtinchi guruh - yaxshi bajarilgan ishlarni oʻrtoqlari oldida maʼqullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish.

Jazo - bu bolaning notoʻgʻri qilgan ishiga oʻzini iqror qildirish.

Tarbiya - Har bir insonning hayotida, yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy koʻnikmasini oʻzgalarga berish jarayoni.

Tarbiyalanganlik - jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga boʻysunish va oʻzgalarning nafratini qoʻzgʻatadigan xatti-harakatlardan oʻzini tiya bilish.

Beruniy insonning kamolatga yetishishida ilmu maʼrifat, sanʼat va amaliyot asosiy rol oʻynasada, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlaydi. Uning fikricha inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm maʼrifatli boʻlish va yuksak axloqlilikdir. Axloqlilikning belgilari yaxshilik, toʻgʻrilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyanoblik, doʻstlik va hamkorlik, mehnat, poklik, goʻzallikka intilish kabilardir.

Adolat - hayotiy masalalarni axloqiy va huquqiy normalarni rioya etgan holda hal etishdir.

Maʼlumki, «adolat» keng qamrovli tushuncha sifatida ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab oladi. «Adolat, axloq va huquq kategoriyasi sifatida axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy oʻlchovdir», - deb yozadi. F. Nizomov.

Nag qanday jamiyat ijtimoiy adolat normalariga rioya qilishi bilan yuksalish darajasi belgilanadi. Tarixga nazar tashlasak, turli jamiyatlarda

adolat nizomi yaratishda xilma-xil yondashuvlarga amal qilib kelinganligining guvohi bo'lamiz.

Istiqlol sharofati bilan ko'plab ajdodlarimizning ilmiy merosi va ularda ilgari surilgan adolat to'g'risidagi g'oyalar atroflicha o'rganish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida chuqur huquqiy bilimlarga ega, sotsiomadaniy darajasi rivojlangan, amaliy ko'nikma-malakalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlar talab qilinadi. Shu sababli yoshlarda ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni kamol toptirish uchun zamin yaratish lozim. Kelajakda mutaxassis bo'lib yetishuvchi kadrlar, bugungi kun uzluksiz ta'lim qatnashchilari huquqiy davlat muammolarini to'g'ri baholay oladigan, chuqur huquqiy bilimlarga ega, ijtimoiy hayot sohalari ichki qonuniyatlari to'g'risidagi tushunchalarni egallab borishlari zarur. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar rivojlanayotgan huquqiy demokratik davlatdagi ijtimoiy sohadagi islohotlar, aqloqiy-huquqiy munosabatlar kabi masalalarga alohida e'tibor berishlari lozim.

Mazkur tushunchalarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida asosiy bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Hayotda adolat me'yorlariga rioya etish ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ruhiy jarayondir.

«Mutafakkir Imom Buxoriy «Adolat-Allohning benazir inoyatidir, undan barchani bahramand qiling», - degan g'oyani ilgari surgan. Bu borada mashvarat (kengash)ga alohida ahamiyat berib, jamiyatni adolatli bajarishda uning vazifasi muhim ekanligiga e'tibor qaratadi». Bu bilan davlatning kuch qudrati faqatgina iqtisodiy imkoniyatlar, kuchli qo'shin, mirshab va qozilarga emas, balki adolat tamoyilining amal qilishga hamda uning amaliy faoliyatiga ham bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Tarbiya jarayonida o'qituvchi, tarbiyachilarning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilar bilim, ko'nikma malakalarini muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkura - inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vositadir. Uning g'oyalari xalqning ishonch – e'tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga, aylansa, yetarlicha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini, o'quvchilarning tushunchasi, aql-idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda ma'rifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqozo etiladi.

O'quvchi, bolalarning har biri o'sib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e'tirof etishga asoslangan. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini oladi, uni quvontiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga undaydi.

Rag'batlantirishning quyidagi turlari mavjud:

O'quvchining kuchi yetadigan mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; maqtash: (ota-ona, jamoa oldida); esdalik sovg'a berish; maqtov yorlig'i berish; stipendiya bilan taqdirlash; teleko'rsatuvlarda maqtash; hurmat taxtasiga rasmini qo'yish; qo'llab-quvvatlash; ma'muriyat va jamoaning minnatdorchiligi; musobaqalarda bayroq ko'tartirish; gazetada e'lon qilish; televideniya ko'rsatuv uyushtirish.

Rag'batlantirish pedagogik talab asosida bo'lishi lozim. Tarbiyalovchi oshirib maqtashi, boshqa o'quvchi-yoshlarga taqqoslab kesatishga yo'l qo'ymasligi, rag'batlantirishga bo'lgan talabchanigini oshirish lozim.

Pedagogikada jazolash usuliga qanday qaraladi, uning qanday turlari qo'llaniladi, degan savolning tug'ilishi tabiiy.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti - harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo - bu tarbiyalanuvchi manfaati uchun qo'llaniladigan tarbiya usuli.

O'quv muassasalarida qo'llaniladigan jazo turlari xilma-xildir (18-rasm).

Tanbeh berish - eng yengil jazo chorasi bo'lib hisoblanadi.

Ogohlantirish - noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun ishlatiladi.

Hayfsan berish - tanbeh va ogohlantirish kutilgan natija bermasa, o'quvchi intizomni buzaversa, hayfsan beriladi.

Uyaltirish - odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-u hayodir.

Odamda, izzat - nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, o'zini-o'zi, avvalo, hurmat qilsa, unda or-nomus kuchli bo'ladi.

Xalqimiz uyat - o'limdan qattiq, deb bejiz aytmagan. Shu sababli bolani hadeb uyaltirmasdan, boshqa vositalarni ham qo'llash kerak.

Jazo haqqoniy me'yorda qo'llanilsa samarali bo'ladi.

Shunday qilib, tarbiya jarayoni inson hayotida rivojlanib, takomillashib boradi. Yuqorida ta'riflab berilgan tarbiya tamoyillari va umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun ham tarbiya jarayoni ham, uning qoida va usullari ham takomillashib boraveradi. Tarbiyaning samarasi - bu qoida va usullarining to'g'ri qo'llanishiga, tanlangan vosita va usullar muayyan ijtimoiy guruhda tarbiya tizimidan qanchalik o'rin olganiga, ularning tarbiya vazifalari va maqsadlariga qanchalik javob berishiga bog'liqdir.

3.5. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim

O'quvchi shaxsiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim – bu o'quvchining aqliy, emotsional, jismoniy, axloqiy va ma'naviy o'sishini hisobga olgan holda, uning qiziqishlari, aqliy, jismoniy, biologik imkoniyatlarini nazarda tutib, ta'limga insonparvarlik yondashuvi tamoyillariga asoslangan ta'lim-tarbiya texnologiyasidir.

Uning asoschilari: 1859 yilda tug'ilgan taniqli pedagog **J. Dyui** 19 asrda o'zi tashkil etgan maktabda o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun unga haqiqatan ham zarur bo'lgan olamni anglashga qaratilgan o'quv zahiralari iborat o'quv materiallarini ajratishga alohida e'tibor berdi.

Inson rivojlanishi konsepsiyasining zamonaviy tushunchasiga iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laurkati **Amarti Senning** "Rivojlanish imkoniyatlarni kengaytirish demakdir" g'oyasi katta ta'sir ko'rsatdi. Unda ilgari surilgan asosiy konsepsiya – bu insoning tanlash imkoniyati, o'zi uchun taqdim etilgan ko'plab variantlar orasidan eng maqbulini tanlab olish uchun inson imkoniyatlarini kengaytirishdir.

Uning ushbu g'oyasi BMTda 1990 yildan beri har yili "Inson rivojlanishi" to'g'risida ma'ruzalar to'plamining tayyorlanishiga asos bo'ldi. O'zbekistonda ham 2007-2008 yillarda BMT ning O'zbekistondagi doimiy vakili Fikret Akchura ko'magida O'zR Moliya vazirligi, Osiyo taraqqiyot banki, BMTning Rivojlanish Dasturi loyihasi "Rivojlanish uchun ko'makni muvofiqlashtirish platformasi" ning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi orqali tayyorlandi.

O'quvchi shaxsiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim:

• Hayotiy ko'nikmalarni akademik (nazariy) bilimlar bilan teng ravishda rivojlantirish naqadar muhim va zarurligini e'tirof etish;

- O‘zaro hurmat va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslangan do‘stona va qulay muhit;

- Har bir o‘quvchining ichki dunyosi noyobligini tushunish, uning hayotiy tajribasini e‘tiborga olish;

- O‘quvchilarning anglash va bilimlarni egallashdagi faollik.

- O‘qitishning har xil turlari va qobiliyatlarga qarab uslublar va strategiyalarning mutanosibligi.

- Jarayonga, qanday ta‘lim olishga urg‘u beriladi

- Integratsiyalashgan o‘quv rejasi, fanlarning o‘zaro uzviylashganligi.

- Hamkorlik va ko‘mak qo‘llab-quvvatlanadi

- O‘qituvchi fasilitator va hamo‘quvchi sifatida

- “Haqiqiy hayot” kontekstidagi mazmundor ta‘lim

- O‘quvchilar ko‘pincha birgalikda kichik guruhlarda ishlaydilar.

Uzluksiz ta‘lim tizimida yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash kabi ko‘p qirrali vazifa faqat malakali, yuqori pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. «Pedagogik mahorat tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki u izlanish, ijodiy mehnat orqali qo‘lga kiritiladigan yutuq hisoblanadi. O‘qituvchi qiyofasida barkamol shaxs va malakali mutaxassisga xos bo‘lgan barcha sifatlar o‘z aksini topa olishi zarur. Mazkur sifatning namoyon bo‘lishi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasini tavsiflaydi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan asosiy ta‘lim texnologiyalari:

- ta‘limning o‘yin modeli — o‘quvchilarni o‘rganilayotgan hodisalarning o‘yin modeliga qo‘shish, ularning o‘yin sharoitida yangi tajribani boshdan kechirishi. O‘yinning didaktik funksiyasi o‘yin faoliyatini muhokama qilish, o‘yin vaziyatini modellashtiruvchi sifatida, uning reallik bilan nisbati nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. O‘quv jarayonining to‘liq didaktik o‘yinlar asosida olib borilishi o‘qitish davomida turli rollarda namoyon bo‘ladigan hamda o‘quvchilarning o‘yin faoliyatiga jalb qilinishi va o‘yinning o‘quv-biluv natijalarini maxsus qayd etish o‘rtasidagi balansni ta‘minlaydigan o‘qituvchining muhim shaxsiy-kasbiy salohiyatini oshirish imkonini beradi.

- ta‘limiy (didaktik) o‘yinlar — bilimlarni egallash, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning shaxsiy-faoliyat xarakterini ta‘minlashga qaratilgan ta‘lim texnologiyasi; o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilishning o‘yin metodlari yordamida o‘quv axborotlarini qidirish, qayta

ishlash va o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil bilim olish faoliyati faollashtiriladi.

- Syujet-rolli o'yinlar uchun o'yin (dramalashtirish, rejissyorlik, musiqiy va h.k.) hamda qiziqarli o'yinlar uchun o'yin eng ko'p sonli guruhni taqlim etadi – bular qo'g'irchoqlar, odam va hayvon figurachalari, ular bilan o'ynash uchun predmetlar(qo'g'irchoq mebel, idish-tovoq) va h.k. Ilk yoshdagi o'quvchilar uchun umumlashtirilgan obrazlar to'g'ri keladi, ular odatda aks ettirilayotgan prototipning tipik xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi. Rejissyorlik o'yinida maktabgacha yoshdagi o'quvchilar va boshlang'ich sinf o'quvchilariga ham realistik detallashtirilgan, ham imkon boricha umulashtirilgan obrazli o'yin kerak; o'yinlar to'plamlari (hayvonchalar, askarchalar va h.k.) zarur.

- Bilimga oid va didaktik o'quvchi o'yin jarayonida o'zlashtiradigan muayyan ta'lim dasturlari hisobga olingan holda yasalgan. Ba'zi avtodidaktizm prinsipi asosida ishlab chiqilgan (shaqildoq, piramidachalar, vkladishlar, yog'och qo'g'irchoqlar va boshq.). Boshqotirmalar (mas., venger muhandisi E. Rubikning o'yinchoqlari), shuningdek, stol va qoidali stol-bosma o'yinlar didaktik o'yinlar sirasiga kiradi. Bunday o'yin bilan birlashib ketadi, ba'zan o'yin va o'yin o'rtasida aniq chegara o'tkazish qiyindir. Turli murakkablikdagi o'yinlar to'plami va komplekti o'quvchilarga tizimli ravishda ta'lim berish va ularni rivojlantirish uchun yaratiladi. Elektron, shu jumladan, mikroprocessorli, qurilmali o'yin istiqbolli hisoblanadi.

- Qurilish-konstruktorlik va texnik o'yinlar uchun o'yin texnik moslamalar-o'yin, qurilish detallari to'plami, konstruktorlar, mehnat o'yin qurollarining ba'zi turlari, mexanik, magnit, elektr, elektron va boshqa qurilmalardan foydalaniladigan o'quvchilar ijodkorligi uchun o'yin audiovizual vositalari va texnik predmetlarni birlashtiradi. Bunday o'yinlar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Ulardan mustaqil syujetli o'yinlarda, o'yinning tadqiqotchilik xususiyatlaridan ular bilan eksperiment o'tkazishga yo'naltirilgan bilishga oid o'yinlarda foydalanish mumkin. Katta yoshli bog'cha o'quvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun haqiqiy mehnat qilishga yordam beradigan o'yin mo'ljallangan: o'quvchilar tikuv, to'quv va to'qimachilik mashinalari, o'quvchilar qishloq xo'jaligi va maishiy mehnat qurollari, badiiy-dekorativ va bosma ishlar to'plamlari.

- Teatr o'yinni qo'g'irchoqlar deb atash qabul qilingan — teatr personajlari, "bi-ba-bo" qo'g'irchoqlari, marionetka-qo'g'irchoqlar; ertak, masal va boshqa asarlar asosida sahna ko'rinishlarini o'ynash uchun

syujetli figuralar to'plami; muayyan mavzu, teatrlashtirilgan sahnalar, soyalar teatri uchun dekoratsiya pannolari; ekran-asos va unga mahkamlanadigan figuralardan iborat magnit, flanel va boshqa qurilmalar; teatr kostyumlari va ularning elementlari, pariklar va teatr personajlari niqoblari. Teatr o'yindan teatrlashtirilgan o'yinlarni, bayram tadbirlarini tashkil qilishda, syujetli ta'limiy o'yinlar va teatrlashtirish elementlari qo'shilgan o'quvchilarning mustaqil o'yinlarini o'tkazishda foydalanish mumkin. Teatr O'ga qo'yiladigan pedagogik talablar: yorqinlik, tafakkur, emotsional va haykaltaroshlik jihatdan ifodalilik, ijroning yuksak badiiyligi, o'quvchilarning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatida foydalanishga qulayligi; mavzuviy to'plam va seriyalarning komplektliligi; o'yin harakatlari va teatr personajlari (qo'g'irchoqlar)ga teatrga mosligining miqyos jihatdan tengligi. Teatr O'. kundalik foydalanish predmeti hisoblanmaydi, ular o'quvchi uchun bayram muhitini, emotsional ko'tarinkilikni saqlab qolishi kerak.

Dars – ta'limda eng muqaddas jarayon. O'qituvchi va o'quvchilar uchun bu birdek masuliyatli va muhim bo'lishi lozim. O'quvchining dars jarayonida o'tgan vaqtini hech kim qaytarib bera olmaydi. O'qituvchi o'quvchining har bir o'tgan oniga javobgar. Shu sabab “dars muqaddas” deya ta'riflaymiz. Bugungi kun talabiga ko'ra o'qituvchi dars jarayonini mohirlik bilan tashkillashi, vaziyatdan kelib chiqib, dasturga ko'ra osonlashtirishi, oddiylashtirishi yoki murakkablashtirishi, o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir etishi, ular sog'ligiga e'tibor berishi darkor.

Har bir darsning samarali, unumli va biz kutgandek natija berishi uchun har bir dars diqqat markazida o'quvchi turushini unutmazligimiz kerak, albatta.

Dars jadvalida, istaymizmi- yo'qmi, 5-6 soatlarda ham aniq fanlar va turli fanlar bo'yicha murakkablashgan mavzularga duch kelishimiz mumkin. Yoki o'quvchilar shunday ruhiyatdagi, ular kayfiyatini ko'tarib undan keyin darsga kirishish, mavzularni interfaol harakatli mashqlar yordamida singdirish unumli bo'ladi.

Bunday jarayonda berilgan bilim o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishi bilan birga bilimni oshirib, sog'ligini ham mustahkamlaydi.

Ma'lumki, harakatli mashqlar ta'limning har bir turida maktabgacha ta'limdan tortib umumta'limgacha keng qo'llaniladi. Bunday harakatli metodlarning sinab ko'rilgan bir necha turlarini keltirib o'tamiz.

“Poyezd” mashqi

Asosiy qism. O'quvchilarga mashq haqida ma'lumot berish.

Mashqning tavsifi: o'quvchilar partadan tashqariga chiqib, bir qator bo'lib tiziladilar. Keyingi qadam: o'quvchilar poyezdga o'xshab birin-ketin partalar orasidagi yo'laklardan yuradilar. O'qituvchi ular "poyezd bo'lib" yurayotganlarida "poyez bo'lib yuramiz, poyez bo'lib yuramiz, uch burchakka bo'linamiz" deyilganda 3 tadan turib olishlari lozim bo'ladi. Ortib qolgan yoki burchaklarga bo'lina olmagan o'quvchilar o'z joylariga o'tiradilar.

Ushbu harakatli mashq o'quvchilar miya faoliyatini yaxshilaydi, kayfiyatini ko'taradi. Ishchanlik va hamjihatlikni oshiradi.

“O'zbekiston mevalari” mashqi

O'quvchilar dastlab o'tirgan o'rinlarida O'zbekiston mevalarining o'zlariga yoqqan 4 yoki 5 xilini sanab chiqadilar. Namuna quyidagicha: olma, anor, nok, behi.

Shundan so'ng, mashq haqida ma'lumot beriladi.

Mashqning tavsifi: o'quvchilar mevalarning nomlarini aytib guruhlariga bo'linib olishgach, bir-birlariga qarab aylana shaklida turib oladilar. Bunda turli mevalar nomlarini olgan o'quvchilarning aralashib turib olishiga va ularning oralari zich bo'lmasligiga ahamiyat bermoq lozim. O'qituvchi "olmalar" deyishi bilan olma nomini olgan o'quvchilar joylarini o'zgartirishlari, "anor" so'zi aytilganda barcha, "anorlar" joylarini o'zgartirib bo'sh o'rinlarni egallashlari darkor. Qaysi o'quvchi joy topa olmasa, mashqdan chiqadi

“Koptokli mashq”

Asosiy qism. O'quvchilar ushbu mashqni bajarishda ziyraklik, serharakatlik, topqirlik qanchalik ahamiyatga egaligi haqida tushunadilar. Mashq haqida ma'lumot oldilar.

Mashqning tavsifi: o'quvchilar 2 guruhga bo'linib, bir-birlariga savol berib, koptok otadilar. Koptokni ilib olgan o'quvchi savolga javob berdi. O'zi ham savol berib, koptokni boshqa o'quvchiga otadi. Berilayotgan savollar mavzuga doir yoki mavzudan tashqaridan chalg'ituvchi savollar berilishi mumkin. Muhimi, savollar qisqa, aniq, lo'nda bo'lishi lozim.

“Xo'p” mashqi

Asosiy qism. O'quvchilar ushbu mashqni bajarishda o'z partalarida doimgidek o'tirishlari mumkinligini tushunishlari kerak. Ushbu mashqda fanlararo bog'lanish mavjud bo'lib, o'quvchilar tezlik bilan bajarishlari, diqqatni jamlash talab etiladi.

Mashqning tavsifi: O'quvchilar birin-ketin 1,2,3,4 kabi sonlarni sanab ketadilar, ammo har safar beshlik sonlarga kelganda raqam o'rniga

“xo‘p” so‘zini aytish lozim. Masalan: 1,2,3,4, “xo‘p” 6,7,8,9 “xo‘p” kabi.....

Mazkur o‘yinda har bir beshlikda “xo‘p” so‘zini aytmasdan 5,10,15,20,25,30 kabi sonlarni aytib yuborganlar o‘yindan chiqadi. Ushbu mashqda butun sinf qatnashadi.

“Bayroqcha kimda?”

Asosiy qism. O‘quvchilar mashqni tez bajarilishini tushunib olishlari, vaqtdan unumli foydalanishni o‘rganishlari dardkor.

Mashqning tavsifi; o‘quvchilar partma-partta o‘tirgan holda ushbu mashqni bajarishlari mumkin. Guruhlarga, zvenolarga bo‘linib olib borish, musobaqa sifatida uyushtirish mumkin. Birinchi o‘quvchiga bayroqcha beriladi. U topshiriqni bajarib, ikkinchisiga topshiradi. Topshiriq maqol, mavzuga oid atamalarni aytib berishdan iborat bo‘lishi, o‘tilgan mavzularga doir so‘z va tushunchalarni takrorlash bo‘lishi mumkin, aytolmagan o‘quvchi mashqdan chiqadi.

“Bayroqcha” o‘quvchilar qo‘lidan qo‘liga o‘tadi. Topshiriqni bajarolmay qolgan guruh bayroqchani narigi guruhga beradi.

“Estafeta “mashqi

Ushbu mashqlar musobaqa sifatida xattaxtaga so‘z yozish, she‘r aytish misolida yoki parta boshidan oxirigacha ko‘ptok yoki g‘ildirak yumalatish sifatida bajarilishi mumkin.

Mazkur mashqlar qiziqarli, harakatli bo‘lib, mashq boshidan oxirigacha o‘quvchilar bir-biri bilan inoq, hamjihat bo‘ladilar.

Ko‘rib o‘tganimizdek, harakatli metodlar o‘quvchinig mavzuni o‘zlashtirishiga, o‘qituvchi kutgan natijaga – sifat va samaradorlikni oshiruvchi omil vazifasini o‘taydi. Dars jarayonida harakatli metodlar o‘quvchilarda quyidagi sifatlarni hosil qiladi:

Kayfiyatni ko‘taradi, miya faoliyatini rivojlantiradi, qon aylanishini yaxshilaydi, yangilikni tez ilg‘aydi, hamjihatlik oshadi, xotira mustahkamlanadi, topqirlik, sezgirlik vujudga keladi, samimiyat hosil bo‘ladi, charchoq yo‘qoladi, tinglash madaniyati yuzaga keladi, og‘zaki nutqi o‘sadi, inson uchun eng zarur bo‘lgan sog‘ligi mustahkamlanadi. Ta’lim sifati va samaradorligi oshadi.

Xullas, mazkur metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi uchun maroqli bo‘lib, darslarning rang-barang bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi-

- o‘quvchi bilan hamkorlik munosabatini shakllantiradi;
- o‘quvchining bilim va tushunchalarni o‘rganish jarayonida ijobiy emotsional hissiyotlarni tuyishga yo‘naltiradi;

- maktab ta’limini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi;
- o‘ziga va o‘rtoqlariga yordam berish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Xitoy faylasufi Konfutsiy ta’biri bilan aytganda: “O‘qituvchi va o‘quvchi birgalikda rivojlanadi” yoki A.Disterverg qarashlarida “Yomon o‘qituvchi haqiqatni taqdim etadi, yaxshi o‘qituvchi uni topishni o‘rgatadi”. Demak, shu o‘rinda interfaol darslarning deyarli barchasi o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim shaklida bo‘lib, ularni 4 ta toifaga ajratish mumkin: kognitiv, eksperimental, rolli va fasilitatsiya.

Ta’lim jarayoni ishtirokchilari turli rollarni bajarish asosida pedagogik, psixologik, metodik muammolarni hal etish orqali zarur nazariy bilimlarni to‘la anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Hozirda ta’lim sub’ektlari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keluvchi hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish asosida tashkil etiladi. O‘quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, «o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi»ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Davlatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan siyosat ta’lim sohasi ustuvor soha bo‘lib kelayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2014-yilni “Sog‘lom o‘quvchi yili” deb e’lon qilinganligi ham bundan dalolat bera oladi. “Sog‘lom o‘quvchi yili” davlat dasturida boshlang‘ich sinflarda o‘qitish sifatini yanada ko‘tarish choralari ham belgilangan bo‘lib, jumladan, 1-4 sinf o‘quvchilari uchun o‘quv dasturlari va darsliklarning qayta ko‘rib chiqilishi, shuningdek, o‘qituvchilar uchun tegishli uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan. Bu maqsadga vazifa, topshiriqlar hajmini ko‘paytirish yo‘li bilan emas, balki ta’lim usul va shakllari, ta’lim mazmunini tanlash yo‘llarini takomillashtirish orqali erishish zarur. Bunda esa, albatta, bugungi kundagi o‘zgarishlar va o‘quvchining rivojlanish yosh xususiyatlari nazarda tutilmog‘i kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish metodlari haqida to‘xtalib o‘ting?
2. Shaxsning bilish qobiliyatlarini shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

3. Shaxsning ijtimoiy xulq malakalarini shakllantirish va faoliyatni tashkil qilish metodlari nimalarga bog'liq?

4. Shaxs xulqi va faoliyatida motivatsiya va rag'batlantirish metodlari qanday o'rgatiladi?

5. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim haqida o'z fikrlaringizni bildiring.?

3-MAVZU: TA'LIM TAMOYILLARINI TANLASHGA UMUMIY YONDASHISH

Reja:

1. Pedagogikaning inson haqidagi fanlar tizimidagi tavsifi.
2. Shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasini rivojlantirish.
3. O'qitishning yetakchi qoidalari. Ilmiylik, tizimlilik, izchilik qoidasi.

4. Ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi qoidasi.

5. Ta'limda onglilik va faollik qoidasi. Ko'rsatmalilik qoidasi. Tushunarliklik va mustahkamlik qoidasi.

6. Integrasiya ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsiplari.

3.1. Pedagogikaning inson haqidagi fanlar tizimidagi tavsifi

Pedagogika - inson tarbiyasi haqidagi fan bo'lib, bolaning shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlarini o'rganadigan nazariy va amaliy fanlar majmui, bu barcha tabiiy va tabiiy ma'lumotlarning integratsiyasi va sintezini birlashtirgan murakkab ijtimoiy tizimdir.

Pedagogikada ijtimoiy fanlar inson tarbiyasi jarayonini o'rganadi, ya'ni uning mavzusi - tarbiya, maqsadli shaxsni shakllantirish jarayoni: boladan qanday biologik mavjudot, shaxs shakllanadi - atrofdagi dunyo bilan ongli ravishda bog'liq bo'lgan va bu dunyoni o'zgartiradi.

Pedagogika - keng ma'noda, inson tarbiyasi haqidagi ham fandır. U keksa avlodning ijtimoiy tajribasini yoshlarga muvaffaqiyatli o'tkazish modellarini o'rganadi. Bu pedagogik maqsad va vazifalarga erishishning eng oson yo'llarini, ta'lim qonunlari va o'qitish usullarini amalga oshirish yo'llarini amalda ko'rsatish maqsadida mavjud. Belgilanmoqda bu ta'rif pedagogikani aytish mumkinki, bu insonni tarbiyalash, o'qitish, o'qitish, sotsializatsiya va ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish qonunlari va qonunlari haqidagi fan.

Pedagogika ta'lim va tarbiya, inson tarbiyasi haqidagi ilmiy fanlar sohasi sifatida naqshlarni ochib beradigan pedagogik jarayon, shuningdek pedagogik jarayonda shaxsning shakllanishi va rivojlanishi. Pedagogika o'z ob'ektini - o'sib borayotgan va rivojlanayotgan odamni, tabiiy, ijtimoiy va individualning ajralmas birlashuvida tan oladi.

3.2. Shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasini rivojlantirish

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'iishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlamini o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rin tutadi;

bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega;

shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi;

shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo'ladi - mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi;

shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davrda shaxsning ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi;

ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrianni qamrab oladi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlamini qabul qiliishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fikriy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson

qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yoilkurini belgilay olganida, o'z qadr- qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'miga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi - ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik ftmksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatleri, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir. Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil - madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlari aks ettiradi. Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o'ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e'tibor bilan qarab o'tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalami — tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekt sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi - insonga fikrlovchi shaxs, ijtimoiy faol fuqaro bo'lib yetishishiga, jamiyatda o'z o'mini va xulq-atvorini, o'z istak-maqsadlarini yo'nalishini anglaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yo'nalgan shaxs bo'lishiga yordam berishdir.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud:

ana'naviy - oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda. maqbul shar-sharoitlarni yaratish;

institutsional - ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish;

shaxslararo - o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish;

refleksiv - o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalashni pedagogik qo'lib-quwaitlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy **mexanizmlari** mavjud: ana'naviy, institutsional, shaxslararo, refleksiv.

O'quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo'nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yoiga qo'yishda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajriba kabilar kiradi.

Ijtimoiy tajriba o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o'zida aks ettirib, faoliyatga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o'quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o'zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig'indisini o'zida aks ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o'z-o'zini tashkillashtirish va o'z-o'zini korrektsiyalash madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan «o'z-o'zini boshqarish tajribasi»ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. O'z-o'zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalarini sifatida individni subyekt- subyekt munosabatlariga jalb etish; subyektida tashabbuskorlikni shakllantirish; hayotiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini tashkillashning universal namunalarini qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o'zaro aloqador yo'nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma'naviy-axloqiy me'yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo'naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, ikkinchi tomondan Shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega o'z-o'zini boshqarishda aks etuvchi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi Xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikni o'zida aks ettiradi. „O'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish pedagogik hodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq intellektual, emotsional-hissiy va faoliyatga yo'naltirilgan

sohalar Uyg'unligini talab etadi hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o'zining rolini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik;

loyihaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash, individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish; interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me'yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish.

3.3.O'qitishning yetakchi qoidalari. Ilmiylik, tizimlilik, izchilik qoidasi

Ma'lumki, o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan umumiy didaktik printsip (qonuniyat) larni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. Qonuniyat deganda, bu barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Demak, ta'lim jarayonida ta'lim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

Ta'lim qoidalari - o'qituvchining darsdagi faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirishini, tegishli ko'nikma va malakalar, dunyoqarash, mafkura hosil qilishning asosiy qonun va yo'l - yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim qoidalari o'qitishning, o'rgatishning eng muhim masalalarini nazariy jihatdan hal qilishning asosiy qonuniyatlaridir. Dars jarayonida o'quvchilarning bilish ehtiyoji va sharoitlar o'quv jarayonining xarakterini, maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini belgilab beradi. O'qituvchi ta'lim jarayonining qoidalari, qonuniyatlarini qancha ilmiy asosda bilsa, uning samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Ta'lim qoidalarini ham nazariy bilish, hamda amalda qo'llay bilish juda muhim. SHuning uchun o'qituvchi ta'lim qoidalarini bilishi shart. CHunki, o'qituvchi ta'lim qoidalarini bilmasdan turib ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshira olmaydi.

Ta'lim qoidalari deb, barkamol inson ta'lim - tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining umumiy yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlar, ko'nikmalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga

aytiladi. Sodda etib aytganda ta'limning samarali natijalarini ta'minlaydigan qoidalar majmuini tushunamiz. Pedagogika fanida olimlar, buyuk pedagoglar tomonidan asoslangan va yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruhlanmoqda. Ana shularga asoslanib ta'lim qoidalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Ta'limning ongli, faollik va mustaqillilik.
2. Ta'limning ilmiy, izchil va muntazam bo'lishi.
3. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi.
4. Ta'lim va tarbiyaning birligi.
5. Ta'limda ko'rsatmalilik.
6. Ta'limni tushunarli, puxta va mustahkam o'zlashtirish.
7. Ta'limda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda ta'limning mos bo'lish va hokazo qoidalari mavjud. Ularning har biriga alohida to'xtalamiz.

Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi.

Maktab ta'limi tizimida onglilik, faollik, mustaqillik qoidalari muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan sinf o'quvchilarning faolligiga bog'liq.

“Tarbiyachi shuni unitmasligi kerakki, o'quvchilarini qiziqitmasdan, ularni quriq majburiyat va zo'rlash yo'li bilangina o'qitishdan hech qanday natija chiqmaydi qoidasi ilgari suringan. Biroq bu o'rinda o'quvchilar faoliyatini o'qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan tayyor va yaxlit o'quv materialini faolsiz tinglovchi harakterdagi faoliyat deb tushunish yarmaydi. Ta'limda o'quvchilarning tafakkurini aktivlashtirish ularning mustaqilligini taraqqiy ettirishga yordam beradi, mustaqil ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi esa ularning fikr qilish faoliyatlarini o'stiradi va takomillashtiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligi, dastavval ularning aktiv faoliyati - tafakkur qilish faoliyatidir.

Materiallarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi ularning fikr qilish faoliyatiga ta'sir qilish jarayonida yuzaga keladi. SHunga asosan ta'limni ongli o'zlashtirish prinsipi bir tomondan o'quvchilarning mustaqil, aktiv fikr qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomonidan ularning mustaqillik va faolligini takomillashtirib borishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar faolligi ta'lim jarayonidagi emas, balki o'zlashtirilgan ilmiy bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni hayotga qo'llay olish faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Tafakkur qilish fikrlash operatsiyalarida, ya'ni taqqoslash, analiz, sintez qilish, abstraksiya va umumlashtirishda ko'rinadi. Ongli o'zlashtirish prinsipi. ta'lim jarayonida o'quvchilarning

mustaqil olib boradigan ishlari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘qish jarayonida mustaqil ishlar: kitob, gazeta, jurnal materiallari, spavochniklar, tablitsalar, kartalar ustida ishlash, tabiiy fanlar ya’ni matematika, fizika, biologiya bo‘yicha mustaqil amaliy ishlar va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’limning ilmiy, tizimli va izchil bo‘lish qoidasi.

Maktabda o‘quvchilarga beriladigan bilimlar, hozirgi zamon bilimlar darajasida bo‘lishi, o‘quvchilarga ularni ma’lum tizimda berishni talab qiladi. A.R.Beruniy Bilish cheksiz, uzluksiz davom etadigan jarayon, ta’lim jarayonida o‘quvchilarga muayyan ilmiy bilimlar berish, ularni yangi - yangi bilimlar olishga undosh kerak deb xisoblagan.

A.N.Farobiy “Inson hayvonlardan aqli bilan ajralib turadi. Inson aqli bilan atrofni o‘rab turgan dunyoni anglaydi, buyum va hodisalarga ilmiy baho beradi”, - degan.

“Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmag‘ay”- degan Imom Al-Buxoriy

Maktab ta’lim - tarbiya jarayonining hamma zvenosida izchillik katta ahamiyatga egadir. Kundalik ta’lim jarayoni ham, sinf va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar ham izchillik prinsipiga amal qilingan taqdirdagina, kutilgan natijani berishi mumkin.

Maktab o‘quv fanlari tizimi bir qancha didaktik qoidalarga asoslanadi. Bu didaktika qoidalarda, birinchidan, umumiy ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan fanlarni ma’lum fan tizimi bilan o‘zaro mustahkam, ilmiy bog‘liq. Ikkinchidan fanlar asosida o‘quvchilarning bilish qobiliyatlari hamda ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish nazarda tutiladi. SHunga ko‘ra tizimlilik qoidasi o‘rganilgan fan asoslari va o‘rganilayotgan fan asoslari bilan egallagan ko‘nikma va malakalar bir - birlarining davomi bo‘lmog‘i kerak. Bu bog‘lanish predmetlar o‘rtasida ham tizimlilikning bo‘lishini talab qiladi.

Ta’limda nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi.

Bu qoida ta’limning ilmiylik qoidasi bilan mustahkam bog‘langandir.

Ishga yarab qolsa ilmning bir muddat,

YAna oshirmoqqa aylagil shiddat, - degan M.Ulug‘bek.

O‘quvchilar bilim bilan qurollanar ekan, ilmning amaliy ehtiyoj tufayli bo‘lganini, ishlab chiqaruvchi kuchlarining qanday taraqqiy etganini, texnika va iqtisod sohasidagi yangiliklar, ilmning borgan sari rivojlantira borishni, ilm esa o‘z navbatida hayotni yaxshilashga yordam berishini biladilar. Ilmning rivojlanishida tajribaning roli kattadir. Ilmiy

nazariyalarning haqqoniyligi amaliyotda sanaladi: uni tajriba yo tasdiqlaydi yo inkor qiladi. Mana bu nazariya bilan tajriba o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'quvchilar ilm asoslarini o'rganish jarayonida fahmlab olishlari lozim. Ulug'lik gapda emas boshdan-oyoq, yarti ish ham yuzta gapdan yaxshiroq degan Abdulqosim Firdavsiy.

O'quvchilar tomonidan matematika, fizika, biologiya, ximiya, astromiya va boshqa tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan nazariy bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar o'quv - tajriba kabineti va laboratoriyalari, tajriba er uchastkalari va ishlab chiqarish mehnati jarayonida qo'llaniladi.

Sa'diy SHeroziyning fikricha:” Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo'ladi: biri mulk yig'ib foydalanmagan va ikkinchisi esa ilm olib, amal qilmagan odam.

Harchand o'qibsang, bilimdongsan,

Agar amal qilmasang, nodongsan.

Ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi.

“Ta'lim bilan tarbiya bir - biri bilan bog'liq bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi, A.Avloniy. U yana dars va tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir - biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga bog'langan jon ila tan kabidir”.

Maktabda o'quvchi yolg'iz bilim, ko'nikma va malakalarni egallabgina qolmaydi, balki har jihatdan mukammal tarbiyalanadi. Maktab o'quv fanlarining har bir mavzu va temachalar ham shubhasiz tarbiyalovchi harakterga ega. SHunga ko'ra, maktab ta'limi umuman har qaysi dars jarayoni alohida ikki muhim vazifani:

1. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yangi-yangi ilmiy bilimlar bilan qurollanadi.

2. O'zlashtirilgan ilmiy bilimlar asosida o'quvchilarda dunyoqarash va ma'naviy - axloqiy tarbiya tarkib topishini o'z ichiga oladi.

Ta'lim va tarbiyaning birligi: a) o'zlashtirilayotgan ilmiy bilimlar orqali o'quvchilarda ilmiy materialistik asosda dunyoqarash tarkib toptirish;

b) ta'limda o'quvchilarga muayyan ma'naviy - axloqiy sifat normallarini singdirish;

v) o'quvchilarning aqliy kamoloti hamda bilish qobiliyatlarini yanada rivojlantirib borishni nazarda tutadi.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash tarkib toptirish murakkab va ko'p qirrali jarayonidir. Maktab ta'limida tabiiy fanlarni - matematika, fizika,

ximiya, biologiya va astronomiya kabi fanlarni o'zlashtirish orqali dialektik materializm asosida dunyoqarashlar tarkib topadi.

“Xotirada dalili bor hamma narsalarni yaxshiroq, tezroq va o'ngay eslab qoladi” degan A.R.Beruniy.

“Birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni iloji boricha bir necha sezgilar ishtirokida idrok etish lozim”, deb ko'rsatgan YA.A. Komenskiy. Mashhur pedagog K.D.Ushinskiyning quyidagi fikri ta'limda qimmatlidir. “Siz bolaga qandaydir bir nechta noma'lum so'zni o'rgating, u bu so'zlarni bilib olguncha uzoq vaqt ketadi va behuda bosh qotiradi, lekin suratlar vositasida o'rgatilganda, yigirma so'zni o'quvchi hash-pash deguncha o'rganib oladi”.

Ko'rsatmalilik qoidasi ta'limning etakchi qonun - qoidalarini ham amalga oshirishda juda muhim didaktik masalalarni o'z ichiga oladi, ayniqsa:

1. Bayon qilayotgan temaning harakteriga mos keladigan ko'rsatma materiallardan to'g'ri foydalanish.

2. Ta'limda qo'llanilayotgan ko'rsatma materiallar o'quvchilarning yaqqol va kokret obrazli idrok qilishini ta'minlashi.

3. Ko'rsatma materiallar orqali o'quvchilar ob'ektiv borliqdagi narsa, xodisa va voqealar bilan, ularning xususiyati, belgilari va bir - biri bilan bog'lanish vositalari bilan tanishadilar.

4. Ko'rsatma materiallarining ko'rsatmali bo'lishi ilmiy bilimlarni mustahkamlashini ta'minlab qolmay, o'quvchilar diqqatining barqarorligini oshiradi, ijodiy tashabbuslarining rivojlanishiga yordam beradi.

Ko'rsatma quollar o'tilayotgan mavzuning hajmi, harakteri, mazmuni va sinf o'quvchilarining saviyasiga qarab xilma - xil bo'lishi mumkin. Maktabda qo'llaniladigan ko'rsatma materiallarni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Buyum va narsalarni aslicha tabiiy holicha ko'rsatuvchi materiallar: o'simliklar, hayvonlar, gerbariylar.

2. Tasviriy ko'rgazma quollar: rasm, surat, fotosurat, kinofilm, diafilm.

a) Simvolik tasvirlanishni ko'rsatuvchi materiallar: geografiya va tarix qartalari.

b) Sxematik materiallar: sxema, tablitsa, diagramma.

O'qituvchining ta'limni muammoli tashkil etishda ko'rsatmalarining o'rne va amaliy ahamiyati beqiyosdir. Ammo ba'zi o'qituvchilar ta'limda ko'rsatmalilikdan foydalanishda nuqsonlarga yo'l qo'yishadi. Masalan,

tayyorlangan ko'rsatmali qurollardan aniq ta'limiy maqsadni nazarda tutmaydi. Yoki ko'rsatiladigan rasm sxema va boshqa tasviriy materiallar kichkina barcha o'quvchilar yaxshi ko'rib idrok qila olishmaydi. SHuning uchun ko'rsatmali materiallar chiroyli, chizmalari aniq va o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda ta'limni muammoli o'zlashtirishga amaliy yordam bermog'i darkor. Darsda ta'limning ko'rsatmali tashkil etilishi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan materiallarning qiziqarli, tez va ongli o'zlashtirishga hamda mustaqilligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bilimni puxta va mustahkam o'zlashtirish qoidasi.

A.R.Beruniy o'qitish jarayonida bolalarga tushunarli bo'lmagan so'zlarni quruq yodlashga asoslangan ta'limni qattiq qoraliydi.

Puxta o'zlashtirishning harakterli belgisi bilimni mustahkam esga (xotirada) saqlab qolinishdadir. Puxta o'zlashtirish uchun qaytarish (takrorlash) va mashq g'oyat katta ahamiyatga ega. Qaytarishda faqat ilgari o'zlashtirilgan materiallarga esga tushurilmay, o'zlashtirgan bilimlarning noaniq, tumanli bo'lib qolgan tomonlari oydinlashadi va to'ldiriladi. O'tilgan materialni qaytarish-xotirada qayta tiklash bir necha yo'l bilan olib boriladi. Qaytarishning ahamiyati haqida A.R.Beruniy "Bilim takrorlash va qaytarish mevasidir".

Qaytarish turlari darsning qaysi bosqichida qo'llanishi mumkinligi va o'tilayotgan mavzuning harakteriga bog'liqdir.

O'tilgan mavzularni asosiy va markaziy masalalar yuzasidan qaytarishning ahamiyati katta. Odatda bunday takrorlashlar bir qancha mayda temachalarni o'tib bo'lgach, temachalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, umumlashtirish maqsadida qaytariladi.

Kundalik takrorlash. Har kuni har bir dars yuzasidan olib boriladigan takrorlashdir.

Takrorlashning ikkinchi turi maxsus takrorlashdir. Odatda bunday takrorlash katta temalarni o'tib bo'lgach, shuningdek, ma'lum bir chorak ichida o'tilgan materiallar yuzasidan olib boriladi. Maxsus takrorlashning keng tarqalgan turi o'quv yili oxirida alohida ajratilgan soatlarda o'tkaziladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini xisobga olish va tushunarli qilib o'qitish qoidasi.

Ta'lim jarayonida har bir sinf o'quvchilariga xos umumiy xususiyatlarni ham shu sinfdagi har qaysi o'quvchining individual xususiyatini xisobga olgan holda ish ko'rish muhim didaktik ahamiyatga egadir. Ibn Sino, Beruniy o'qitish jarayonida bo'lgan tushunarli

bo'lmagan so'zlarni quruq yodlashga asoslangan ta'limni qattiq qoralaydi. Beruniy yozadi: "Tushunish yodlashdan yaxshiroq va afzaldir". Beruniy pedagogik g'oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir. "Bilimning shunday bo'lishi kerakki, u yalang'ochligingda ham o'zingda qolsin, bilimingni hammomdagi qo'llik ham yuvolmasin". Bilimlarning o'quvchilarga tushunarli bo'lishi ta'limda samarador bo'lish uchun Beruniy quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadi:

- sezgi organlarning ma'lumotlariga ko'ra... bilishni davom ettirish;
- fanni o'rganayotganda fikrlash, xotiralab esga olish zarur;
- o'rganayotgan ilmlarni to'la bilib olish uchun, o'sha ilmni tashkil etib turgan elementlarini puxta o'rganib chiqish;
- bilishda oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, osondan qiyinga, dalillardan xulosalarga qarab borish;
- uzoq o'tmishga oid bilimlarni o'rganishda shu ilm, fan tarixini o'rganish;
- hodisalarni, fan asoslarini bir-birlariga taqqoslashtirib, solishtirib har tomonlama chog'ishtirib o'rganish va h.k.

O'quvchilarga ta'lim berishda bayon qilinayotgan bilim bolalarga tushunarli bo'lish kerak. SHu bilimlarning tushunarli bo'lishi uchun ularning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinadi. Ana shuning uchun ham yangi bilimlarni bayon qilish, o'tilgan materialni mustahkamlash, uyga vazifa toptirish ham, mustaqil ish va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish paytida bolalarning yosh va individual xususiyatlarga amal qilinadi.

O'qitishning bolalarga tushunarli bo'lishi qoidasida ta'limning ikki tomoniga e'tibor beriladi.

1. O'quv materiallarining harakteri-mazmuni va hajmi shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi.

2. Sinf uchun belgilangan bilim hajmi shu sinf o'quvchilarining saviyalariga mos bo'lishi.

Darsda berilayotgan bilimlarning bolalar tomonidan puxta o'qib olinishga erishish uchun mustahkam rejaga amal qilinishi, mazmuni va hajmi to'g'ri belgilangan bo'lishi, materiallardan lo'nda xulosalar chiqarishi materiallarning ishonchli bo'lishi uchun fakt, misol, dalillar keltirish – ko'rsatmali qurollardan foydalanish, nutqning ravon va tushunarli bo'lishi, materiallarning turmush bilan, o'quvchilarning shaxsiy tajribalari bilan bog'lab olib borish talab qilinadi.

Ta'limni tushunarli bo'lish qoidasi o'quv ishlarini osonlashtirib, soddalashtirib yuborishni rad etadi.

Mashhur pedagog Burxoniddin Zarnudjiy "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" asarida "Har biringiz muruvvatni egallashga hayrixohlik bilan intiling, biroq bulardan eng dolzarbi, bu - kishilarda bilimlarni takrorlashdir. Sen bilimlarni faqat mana shu olti holatda, o'zlashtirishining zarur bo'ladi". Bular: aql - farosatlilik, kuchli istak, chidamlilik, ozgina eyimlik va ichimlik, o'qituvchi ta'limi va bilim olish uchun etarli vaqt.

Klassik pedagogik namoyondalar ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi yuzasidan bir qator qoidalarni ishlab chiqqanlar. Ular "didaktik qoidalar" deb yuritiladi:

1. Osondan qiyinga qarab borish.
2. Ma'lumdan noma'lumga borish.
3. Soddadan murakkabga borish.
4. YAqindan uzoqqa qarab borish.

Ya.A.Komenskiy mazkur qoidaga ta'raf berib bunday deb yozgan edi: "O'quv materiallarini shunday taqsimlab chiqish lozimki, avval bola juda yaqin va aniq narsalarni, so'ngra uncha uzoq bo'lmagan narsalarni, keyin uzoqroq va nihoyat, eng uzoq narsalarni bilib olsin".

3.4.Ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi qoidasi

Didaktikada ta'limni turmush bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'lab olib borish eng asosiy va yetakchi qoidadir. Har bir fanni nazariy tushuntirish bilan birga uni amaliy tomonini, amaliyotga tadbiq etish yo'llarini ham o'rganish lozim. Binobarin, barkamol inson tarbiyasining maqsad va vazifalari ham, ta'limning mazmuni ham, o'qitish usullari ham, ta'limning tashkil etish shakllari ham nazariya bilan amaliyotning birligiga asoslanadi.

Ta'lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasining izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida o'quvchilar o'quv materialining tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri, chuqur tushunib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan mahorat, ko'nikma va malakalar hosil qiladilar. Bu qoida ta'limning ilmiy qoidasi bilan mustahkam bog'langandir. O'quvchilar bilimlarini oshirar, mukammal egallar ekan, ilmni nazariy jihatdan o'rganar ekan, ilmning amaliy ehtiyoj tufayli paydo bo'lganini, ishlab chiqarish kuchlarini qanday taraqqiy etayotgani, texnika

va iqtisod sohasidagi yangiliklarilmni tobora rivojlantira borishini, ilm esa, o'z navbatida ishlab chiqarishni takomillashtirishga va hayotni yaxshilashga yordam berishini bilib boradilar.

Ta'lim maskanlarida ta'lim tizimida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasi dastavval o'quv fanining mazmuni va o'ziga xos xususiyatiga bog'liq holda o'qish jarayonida amalga oshiriladi. O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olgan bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, mustahkamlaydilar va chuqurlashtiriladi. Bilimlarni amalda qo'llanish malakalarini hosil qiladilar. Nazariya bilan amaliyotning birlikda olib borilishi natijasida o'quvchi-o'quvchi bilimlarni puxta egallaydi, mustaqil tafakkuri yaxshi shakllanadi, shuningdek kasb-korida, ishlab chiqarish va umuman ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topadi.

Ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallab olgan nazariy bilimlar asosida tanlagan kasblariga doir mehnat ko'nikmalari hosil qiladilar. Shu bilan birga nazariy bilimlarga ham aniqlik kiritib boriladi. O'quvchi-o'quvchilar korxonada, tashkilotlarda o'tkazadigan ishlab chiqarish amaliyot mashg'ulotlari o'qishni unumli mehnat bilan bog'lab olib borishning yakunlovchi bosqichidir. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bajarayotgan barcha ishlari orqali ularda fan asoslarini o'rganish va mehnatga bo'lgan qiziqish, intilishi tobora rivojlanadi, mehnatga bo'lgan munosabati, mehnat ahliga hurmat, ehtirom kamol topadi.

3.5. Ta'limda onglilik va faollik qoidasi. Ko'rsatmalilik qoidasi. Tushunarliklik va mustahkamllik qoidasi

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ko'rsatmalilikni ta'limning asosiy vositasi deb ko'rsatadi. Ushbu qoidani yuqori printsip deb ataydi. Darsda buyum va narsalarning asli, tasviri, texnik vositalar, tasviriy-ko'rgazmali qurollardan foydalanib o'tilsa, ya'ni mavzu shu asosda bayon etilsa dars to'g'ri tashkil qilinadi va samarali yakunlanadi. O'quv materialining ko'rsatmali bo'lishi yoshlarni o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni tajribada, ishlab chiqarish amaliyotida qo'llay olishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi.

Ta'limning ko'rsatmalilik qoidasi didaktik qoidalarning biri bo'lib, u o'qitish jarayonining sifatini orttiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan narsa va hodisalarni bevosita idrok qilishga bog'liq muayyan hissiy-amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o'zlashtiradilar. Bu qoida o'qitish jarayonida ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm – maza bilish, teri, muskul – harakat kabi sezgi organlarining bir yo'la ob'ekt ustida safarbar qilinishini talab etadi.

Ko'rsatmalilik qoidasi ta'limning yetakchi qonun-qoidalarini va talablarini amalga oshirishda vositachilik qiladi. Chunonchi:

1. Bayon etilayotgan mavzuning mazmuniga mos keladigan materiallardan unumli va to'g'ri foydalanish o'quvchilarning o'tilayotgan materialni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini ta'minlaydi. Dars qiziqarli o'tadi.

2. O'quv jarayonida qo'llanilayotgan ko'rsatmali qurollar o'quvchilarning qay darajada yaqqol va aniq, obrazli idrok qilishini, ta'minlasa va kuzatayotgan ob'ektga mumkin qadar ko'proq sezgi organlari safarbar qilinsa, o'quv materiallari shunchalik tez, qulay va oson o'zlashtiriladi, uzoq vaqt esda saqlanadi. O'quvchilarning ayniqsa, sxema, jadval, diagramma kabilar ustida ish olib borishlari va material xususiyatlarini taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarishlari alohida ahamiyatga egadir.

3. O'quv materialining ko'rsatmali bo'lishi o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni tajribada, ishlab chiqarish amaliyotida qo'llana olishlari uchun zarur bo'lgan ko'nimka va malakalar bilan qurollantiradi.

Ta'limda ko'rsatmalilikning samarali natijalar berishi uchun darsda qo'llaniladigan ko'rsatmali qurollar sinf o'quvchilarining yoshi va o'ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarligi – saviyasiga mos keladigan bo'lishi lozim. Shuningdek, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko'rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim.

Ta'limning ko'rsatmali bo'lishi hozirgi zamon ta'lim maskanlari oldida turgan eng muhim masalalardan biri bo'lib kelgan va hozir ham undan yanada samarali foydalanish borasida qator ishlar olib borilmoqda.

Ta'limda o'quvchi (o'quvchi)ga xos xususiyatlarni hisobga olish va moslik qoidasi. Ta'lim – tarbiya jarayonining hamma tomonlari umumsinf o'quvchilari jamoasiga xos xususiyatlarga amal qilgan holda yo'lga qo'yiladi. Ammo, har bir o'quvchi (o'quvchi) o'ziga xos jismoniy, axloqiy, aqliy, ruxiy va boshqa xususiyatlarga egaki, bu uning o'quv

faoliyatiga katta ta'sir etadi. Shu boisdan ta'lim jarayonida (sinf) guruhdagi o'quvchi-o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko'rish muhim didaktik ahamiyatga ega.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish va o'rganish hamda shu xususiyatga mos muomala qilish hal qiluvchi o'rin tutadi.

Dars davomida har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini to'la hisobga olish juda qiyin va har doim ham buning iloji bo'lavermaydi.

O'qituvchi o'quvchi-o'quvchilarni darsdagi va amaliy mashg'ulotlar jarayonidagi ishini, uy vazifalarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, yozma ishlari, bajargan topshiriqlarini, chizmalarini tekshiradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'rtoqlari va boshqalarga bo'lgan munosabati, xulqi, irodaviy sifatlarini o'rganadi, ular bilan suhbatlashadi. Kuzatish jarayonida pedagog o'quvchining kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga mos bo'lgan xususiyatlarni bilib oladi, o'quvchilarning hayotiy va mehnat qobiliyatini o'rganadi. Mohir pedagog o'quvchilar psixologiyasini ham yaxshi o'rganib, ularda fanni o'zlashtirish darajalarini qay darajada oshirish yullarini topadi. Shuningdek, tarbiyasi og'irroq yoki sho'xroq o'quvchi-o'quvchilar bilan qanday muomala qila olish yo'llarini mukammal o'rganib chiqadi va ular bilan yaxshi munosabatni yo'lga quyadi.

Darsda va uy vazifalarida differentsiallashtirilgan ta'lim elementlarini qo'llanishi o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishning muhim vositasidir.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi qoidasi bu- o'quv materiallarining mazmuni, uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivoji, aqliy qobiliyati, umumiy tayyorgarligi-saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Ta'limning moslik qoidasida ta'limning ikki tomoni e'tiborda tutiladi:

1) Ma'lum sinf yoki guruh uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi;

2) Har bir sinf uchun belgilangan bilim hajmi shu sinf o'quvchilarining saviyasiga mos bo'lishi lozim. Shuningdek, mashg'ulot mavzulari o'quvchi-o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun oddiydan murakkabga tomon o'rgatilishi lozim, ya'ni har bir predmetni o'rganish osondan qiyinga tomon tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ilg'or klassik pedagogika namoyondalari ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi yuzasidan bir qator qoidalar ishlab chiqqanlar. Ularga «Osondan qiyinga qarab borish», «Ma'lumdan noma'lumga qarab borish», «Soddadan murakkabga qarab borish» qoidalari kiradi.

Moslik qoidasi yana bir qancha talablarga amal qilishni taqozo etadi. Ayniqsa mashg'ulot davomida bilimlarni o'quvchi-o'quvchilar puxta o'qib olishlariga imkoniyat yaratish uchun aniq va mustahkam rejaga amal qilinishi, bayon qilinayotgan mavzulardan lo'nda xulosalar chiqarish; materiallarning ishonchli bo'lishi uchun omil, misol va dalillar keltirish – ko'rgazmali qurollardan foydalanish bayon qilinayotgan materiallarni turmush bilan, o'quvchilarning shaxsiy tajribalari bilan bog'lab olib borish talab qilinadi. Shuningdek, o'qitish usullari o'quv materialining xarakteriga mos holda to'g'ri tanlangan bo'lmog'i lozim.

3.6.Integrasiya ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsiplari

Didaktik olimlarning tekshiruvlarida uslubning amaliy faoliyat bilan bo'lgani genetik tabiati ajratib ko'rsatiladi. N.N.Skatkin, I.Y.Lerner, Alekseyuk Y.K.Babanskiylarning tekshiruvlarida ta'lim uslublariga taalluqdi ikkilamchi tur belgilarining ta'rifi beriladi. Ular uslub-ifoda, mazmun va ta'lim usuli ekanligi isbotlab berishgan. Gegel falsafadagi uslubni mazmun xarakatining shakli sifatida ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida turli xil mantiqiy tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalaydidar. Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli tumanligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalari va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhitga jiddiy munosabatlarning poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta'limning natijasi maktab ta'limining birinchi bosqichiga bog'liq.

Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgarigi

tushunchalarni ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang‘ich iqtisodiy ta‘limning barcha tarkibiy qismlarini o‘zgartirish va yangilashga asos yaratadi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. XIX-XX asrlar oralig‘ida pedagogikada kichik maktab o‘quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo bo‘lgan. Bu fikr A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular boshlang‘ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo hakidagi bo‘linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi. Integratsiyalashgan ta‘lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbert, M.Pestalotssi, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N. Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina va boshqalar) psixolog olimlarning (E.N.Kabanova, Meller, N.F.Talizina, Y.A.Samarina, G.I.Vergeles), metodist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskaya, Y.M.Kolyagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan. Bir qator ishlar boshlang‘ich ta‘limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag‘ishlangan. Bu muammolar o‘quv fanlarinn integratsiyalashga o‘tishning yaqin rivojlanish zonasidir (T.G.Raizayeva, G.N.Akvileva, D.I.Troytap, G.V. Baltyukova, N.Y.Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, I.K.Blinova, R.G.Matyushova). Boshlang‘ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan, qarama-qarshi ifodalangan.

Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko‘p Integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligani ko‘rib chiqaylik. «Intergratsiya» so‘zi lotincha integratio-tiklash, to‘ldirish, «integer» butun so‘zidan kelib chiqqan. Ikkita tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik xolatini bildiruvchi tushuncha va shu xolatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differensiatsiya - fransuzcha (diffe‘rentiofion lotincha differentia - farq, har hillik, ya‘ni butunni bo‘laklarga bo‘lish, ajratish. Ta‘lim mazmunini integratsiyalash - dunyo tendensiyasi (g‘oya, fikr, intilish). Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning obektiv

yaxlitligi aks ettiradi (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik xajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyoning birligi xaqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushinishlari, tabiiy fanlar kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi. Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi:

- boshlang'ich, tabiat haqidagi elementlar bilimlarni birlashtiradi;
- oraliq - predmetlar bo'limlarini bo'lish intergratsiyasi;
- yakuniy - tabiiy fanlarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi.

Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limini to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktab ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidaga fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarni mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir. Y.A.Samarin o'xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi: lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo'lgan, tizim ichidagi, tizilar orasidagi va aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi). Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddasi tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi.

Bilimlarning eng oddiy umumlashtirish sodir bo‘ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo‘lgan bilimlar bilan bog‘lansa edi. Bunda o‘quvchilarning taxlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o‘quvchilarning butun bir fanlar tizimining bilishini ta‘minlaydi. (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi) o‘rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog‘lanishlarni aks ettiradi.

Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatining eng yuqori pog‘onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, xodisa yoki jarayonning hilma-hiligini bilishiga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo‘ysundirishga, bilimlar chegarasida bo‘shliqliklarni aniqlashga imkon beradi. Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktab ta‘limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninning «Pedagogika» kitobida darslarda qo‘llaniladigan fanlararo bog‘lanish ko‘rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta‘lim muammolari aks etmagan. «Boshlang‘ich ta‘lim» jurnalarida maktab ta‘limini integratsiyalash muammosiga katta ahamiyat beriladi. L.N.Baxareva o‘zining «Boshlang‘ich maktab o‘quv mashg‘ulotlarini o‘lkashunoslik asosida integratsiyalash» maqolasida integratsiya-differentsiatsiya jarayonlari bilan birgalikda amalga olayotgan fanlarni yakunlashtirish va bog‘lash jarayoni bo‘lib, yangi, butun, yaxlit bo‘limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko‘rinishdir.

O‘quv predmetlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi integratsiya tizimini takomillashtirishning, kamchiliklari bartaraf etishning yo‘li bo‘lib predmetlar orasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv - differentsiatsiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi. Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega bo‘lgan turli fanlarning element va qismlarni bir butunga birlashtirishga yo‘naltirilgan intergratsiyani amalga oshirishda o‘qituvchilarga yordam berishdir.

Ko‘p yillik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o‘rganib shu bilim ko‘nikmalarni boshqa fanlarni o‘rganishda qo‘llashga qiynalyaptilar, ularga mustaqil fikrlash, olingan bilimlarni o‘shxash yoki yangi vaziyatlarga ko‘chira bilish ko‘nikmalari yetishmayapti. Bularning

hammasi boshlang'ich sinflardagi turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni o'zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo'layapti.

Bu holatda intergratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatining almashinishi emas balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi dedaktiv ekvivalent (mos bo'lgan, o'xshash, keng keladigan narsa) larni yaratish jarayonidir. Psixolog YE.N.Kabanova-Millerning aytishicha «O'qituvchiga hali uchramagan vazifa asosida bilim ko'nikma va qobiliyatlarni mustaqil ko'chirilishi aqliy rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir» L.P.Elenko o'zining «Boshlang'ich sinflarda ta'limni integratsiyalash tajribasi» ichida maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tiborini qaratsa, L.P.Elenko integratsiya darsini samarali qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli deb xisoblaydi. Integratsiya o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir. Ular faoliyatning turli shakllarining almashib turishi orqali o'quvchilarning charchashi va asabiylashishini oldini oladi.

Integratsiyaning hozirgi zamon muammolari. Boshlang'ich maktab ta'lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondoshishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas. Hozirgi kunda asosini tabiiy fanlar bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdaga bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondoshish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda siz faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan.

Oxirgi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida juda ko'p gapirildi. Olimlar va amaliyotchi - o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha

bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirmoqdalar.

Bir - biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish xarakatlari bo'lmoqda: masalan matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat, bu yo'llarning samaradorligi to'g'risida chet ellik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari bo'yicha baholash mumkin integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, tabiat va jamiyat xaqidaga bilimlarni rivojlanitirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu ekologik yo'nalishiga ega bo'lgan integratsiyalangan fanlar jaxon hamjamiyatida o'kuvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanliga to'g'risida xabar beradi. Hozirgi kunda integratsiyani bir necha usullari qo'llaniladi. Birinchisi bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish.

Shu masaladagi 1988 yilda chop etilgan xalqaro pedagogik tajriba o'rganishi natijalari juda keng. Ko'pchilik xorijiy mamlakatlar boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyati integratsiyalangan kurslar bo'yicha ta'lim bo'lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan suxbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir. Kichik maktab o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashda yordam berish.

Bu savod o'z ichiga odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o'z-o'zi bilan muloqotdan to atrof-muxitdagi hodisalar bilan muloqotni kiritadi. Kursniig maqsadlaridan yana biri o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turlitumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda xukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish.

Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi. Bunda kursning ta'limiy kichik maktab o'quvchilarining kurs bilan parallel ravishda asosiy fanlarni ham o'rganishlariga hamda o'rta maktab ta'limida qulay

sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Kursning tuzilishi qanday? Kursning integrativligi uning tuzilishiga hos hususiyatlarni belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo'lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topadi. Shunday qilib kurs asosiga qo'yilgan (fikrlarning) g'oyalarning gorizontal harakati amalga oshiriladi.

Integratsiyalashgan dars turlari

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir.

Bunga turli darslarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin.

Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyasiga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi.

Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron" kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiiy fanlar, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalashgan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tishi metodikasiga ega bo'ladi.

Umumiy ta'limning poydevorining qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiiy fanlar, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir.

Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitishning vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar; integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarning mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmunan, metod, usullarni tanlash.

Soʻnggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda oʻquv fanlariaro aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻquv fanlariaro aloqadorlik taʼminlangan pedagogik sharoitda oʻqitish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda oʻqituvchining tutgan oʻrnini alohida ajratib koʻrsatish lozim.

Oʻquv fanlariaro aloqadorlik taʼminlangan sharoitda oʻquvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Oʻquv fanlariaro aloqadorlikni turli oʻquv predmetlari boʻyicha oʻquv dasturlari, darsliklar mutanosibligini taʼminlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Oʻquv fanlariaro aloqadorlik muammolari oʻzbekistonlik olimlarning ham tadqiqotlarida yetakchi pedagogik muammo sifatida namoyon boʻlmoqda. Chunonchi, A.Ch.Choriyev, U.Q.Musayev, N.S.Fayzullayeva, T.Z.Dayanayeva, A.A. Salomov, M.K.Ashirova va boshqalar oʻquv fanlariaro aloqadorlikning turli qirralari, oʻquv-biluv jarayonini optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar natijasidan maʼlum boʻldiki, matematika bilan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi oʻquv fanlariaro aloqadorlikning didaktik imkoniyatlari aniqlanmagan.

Hozirgi kunda taʼlim mazmunida matematik bilimlarni taqdim qilish, oʻquvchilarning yuqori darajadagi hisoblash koʻnikmalari, tafakkurini shakllantirish yuzasidan eʼtiborga olinmay kelinayotgan holatlardan biri oʻquv fanlarining matematika bilan oʻzaro aloqadorligiga umumiy oʻrta taʼlim mazmunida yetarli darajada eʼtibor berilmaganligidadir.

Xorijiy mamlakatlarda fan va texnologiyaning jadal surʼatda rivojlanishi olimlar oldida murakkab muammolarni qoʻymoqda. Shu sababli tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni taʼlim mazmuniga kiritish, barcha fanlardan oʻzaro aloqadorlikda eng zarur bilim va koʻnikmalarni hosil qilish, ijtimoiy hayot tajribalari va ilm- fanning turli sohalari uchun muhim boʻlgan bilimlarni oʻquvchilar egallashlari uchun yuksak bilim va mahoratga ega boʻlgan pedagoglarni tayyorlash nihoyatda zarurdir.

Mazkur vazifalarni yechish uchun oʻquv fanlariaro aloqadorlikni taʼminlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir oʻquv fanining fanlararo aloqadorlikdagi mazmunini tanlash, taʼlim jarayonida qoʻllanilayotgan soʻnggi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda oʻquv fanlarining bir - biri bilan bogʻlangan tizimini shakllantirish lozim.

Matematik tushunchalar orqali barcha o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi mohiyatiga tayanish, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar turkumdagi fanlarni o'qitishning yangi jihatlarini aniqlash zarurdir. O'quvchilarga taqdim etiladigan matematik bilim, tushuncha va hosil qilinadigan hisoblash ko'nikmalari umumlashgan mazmunga ega bo'ladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'minlanganda o'quvchilarga o'zaro bog'langan bilim va tushunchalar taqdim etiladi.

Demak, "o'quv fanlariaro aloqadorlik" o'quv mavzulari mazmunini atroflicha ochib berish uchun zarur.

O'quv fanlariaro aloqadorlik dars mavzularining mazmunini o'rganish, undagi muhim qoidalarni ajratib olib o'zlashtirishda quyidagi jarayonlarni faollashtirish imkoniyatini beradi:

- o'quv mavzularini o'rganish jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlik holatini aniqlashga subyektiv yondashish ehtimolini pasaytirish;

- fanning muhim g'oyalari ochib berishda birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan o'quv fanlari asosiy jihatlariga o'quvchilar e'tiborini jalb etish;

- doimiy ravishda idrok etishni murakkablashtirib borib, o'quvchilar ijodiy tashabbuskorligi va o'quv-biluv faoliyati mustaqilligi ko'lamini kengaytirish, ko'p tomonlama o'quv fanlariaro aloqadorlikni samarali yo'lga qo'yish uchun didaktik vositalarning har xil turlarini qo'llab, o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish bo'yicha tashkiliy ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- turli didaktik vositalar yordamida o'quv fanlarining o'zaro uzviy birlikda o'zlashtirilishiga erishish;

- o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ijodiy hamkorlikni vujudga keltirish;

- hozirgi zamon talablari asosida o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini matematikaning ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari bilan aloqadorligi vositasida, ijtimoiy hayot bilan hamohang shakllantirish.

Integratif funksiya – bu funksiya umumta'lim va kasbiy ta'limni boglovchi zvenodir.

Bunda ta'lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmkasini – bilim, ko'nikma, malaka, me'yor, pedagogik tizimlarni uzida mujassamlab:

bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, o'quvchilarda har xil predmetlarda utiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir buladigan hodisalar, tushunchalar, goyalar, nazariyalar orasidagi uzaro

integratsiya va xar tomonlama boglanish borligini urnata olish kunikmalarini shakllantirish;

bu boglanishlar kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta'minlash;

o'quvchilarda ijodkorlik masalalarini nazariy tugri texnik va amaliy jixatdan maqsadga muvofik echishda, turli O'quv predmetlarini urganishda olgan bilim va maxoratlari asosida texnikaviy – iktisodiy, ijtimoiy – ekologik, tashkiliy – pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini tugri shakllantirish kunikmalarini xosil kilishlarini nazarda tutadi. [Alimov N.N.]

Integratsion ta'limning tuzilishi qanday? Integratsion ta'limning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo'lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topadi. Shunday qilib, kurs asosiga qo'yilgan g'oyalar (fikrlar)ning gorizontalar harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinf dan sinfga), bunda bir mavzu bolaning o'sishiga qarab, murakkablashib boradi.

Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim sistemasida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish joyida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi: ko'p maqsadli va rang-barangligi hamda ko'p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi (ko'rgazmali).

Integratsiya kursi - o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o'rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya ob'ektlari asosida tuzilgan.

Integratsiya kurslarining sinflarga bo'linishini turli asoslarda qilish mumkin:

- maqsad va muammolar asosida;
- maktab tabiiy - ilmiy tizimidagi vazifalari asosida;
- qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida;
- integratsiya usullari va yo'llari asosida;
- o'quv rejasidagi o'rni asosida; kursni o'rganishga sarflangan vaqt asosida; o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h. k.

SHuni e'tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflar i odatda o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo'yadilar, shu sababli kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tadbiq etishga urinishlarni ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab sinflarga bo'lishimiz mumkin.

Zamonaviy darsni o'tkazishda integratsiya. Dars o'tishdagi asosiy shart - sinfda zarur, mos muhitni yaratish: polga gilam solish, partalar o'rniga qulay bo'lgan stul va kreslolar o'rnini almashtirish. Mashg'ulot jarayonida bolalar o'z yashash muhitlarini yaratishadi. Yil va chorak mavzusi «devorlardagi suratlar», «Hayvonot va o'simliklar dunyosi» paydo bo'ladi, bularni o'quvchilar o'zlari o'ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma'lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, xaritalardan foydalanish mumkin.

Ko'pincha vaqtni sinfdan va maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Muzey va kutubxonalarda, xiyobon yoki ko'chalarda o'tiladigan darslar odatiy bo'lib qoladi. Integratsiyalangan kurs utsidagi ishlar davom etadi. Tanlangan yo'l juda qiyin va mutlaqo shubhasiz emas. Qiyin muammolarni hal qilish lozim. Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilayashti. Bu tushunarli - kichik maktab o'quvchisi atrofdagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiiy fanlar, ona tili, musiqa va boshqa o'quv predmetlarini nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi mavjuddir. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi.

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshladi. Agar boshlang'ich ta'limni tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida o'quvchilar qiziqishlarini faollashtirish yotsa, integratsiyanning asosida esa turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish kabi vazifalar yotadi.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosga ega bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishni taqozo qiladi. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar; integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlash lozimligini ko'rsatadi. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligida predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular o'z e'tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki, ko'chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilar dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'barlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.

4. Vositalar tanlash bosqichida o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni-darsliklar, tablitsalar, sxemalar, savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, birlashtirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich - natija. O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirishlarni amalda qo'llaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi.

O‘quvchilar o‘z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo‘yicha o‘z-o‘zini ham, ularni birlashtirish ko‘nikmalarini nazorat qiladilar.

Boshlang‘ich sinf darslarida pedagogika bilan bog‘liq fanlarni integrallashtirish.

Fanlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu jarayonni pedagogika fani bilan boshqa fanlarni integrallashtirish orqali kuzatamiz. Tarbiya darslarida axloqli tarbiyaga oid matnlar, she‘r va hikoyalar beriladi. 4 sinf «Umr o‘tib borar misoli» ertak... Umr o‘tib borar misoli ertak, Ertakning ketidan kelib qolar shom, Faqat g‘aflat ichra yotmagin yurak, Qaytib kelmas sirabu yoshlik ayyom. Yoki 3 – sinf tarbiya darsligida «Qarilik va donolik» mavzusi beriladiki, uning tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchiga oson va tushunarli qilib yetkaziladi.

Axloqiy tarbiyani tabiiy fanlar darsida ham olib boriladi. 4-sinf darsligida «Tog‘ o‘rmonlari va o‘tloqlari» mavzusida: Tog‘larda dam olish vaqtida va turistik poxodlarda tabiatni juda avaylab, ehtiyot qilish zarur, daraxtlarga zarar yetkazmay shox-novdalarni sindirish, qushlarni va hayvonlarni bezovta qilish mutloqo yaramaydi. O‘rmonda gulxan yoqish mumkin emas. Chunki gulxanlardan ko‘pincha o‘rmonda yong‘in chiqib, noyob o‘simliklarga zarar yetkaziladi, balki xayvonlar ham nobud bo‘ladi... O‘qish darsligining ko‘p mavzulari axloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4 sinf o‘qish darsligida «Buzilmagan uya» mavzusi bor. Bu asarda ba‘zi o‘quvchilarni betarbiyaligi oqibatida noxush voqealar sodir bo‘ladi. Mehnat darsida ham o‘quvchilarga ovqatlanishi odobi, mehmon qilish odobi, kabi axloqiy tarbiya me‘yorlari o‘rgatib boriladi. Yuqoridagi misollarni ko‘rib shuni aytish mumkinki, demak fanlararo integratsiya mavjud, ya‘ni fanlararo uzviylik, bog‘liqlik mavjud. Integrativlik insonning olam bilan o‘zaro aloqalariga aks etuvchi mavzularga kiritilgan: o‘quvchi idrokida abstrakt bo‘lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar, yer planetasi, katta bo‘shliqlar va yer qa‘rini). Yaqin olam (mikro olam, uy xayvonlari va o‘simliklar dunyosi va ona vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati).

Kurs oddiydan murakkabga, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg‘unlikka va ijodga bo‘lgan xaraktni rivojlantiradi. O‘quvchi dunyoning yaralishi bilan tanishadi, olamning boshlanishiga insonning yerda paydo bo‘lishiga murojaat qiladi. O‘quvchilar sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar sirlarini ochish fikriga qiziqib boradi. O‘quvchi makon va zamon bo‘ylab sayohatga o‘tlanadi. SHunday qilib o‘quvchi har kuni ochishi kerak bo‘lgan olamning go‘zalligini his qiladi.

Kurs shaxsga moslangan yo‘nalishga ega faqatgina sifat yoki guruhga emas har bir o‘quvchiga ahamiyat beriladigan qilib shuni tashkil

etishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlarixisobga olinadi. SHuningdek o'quvchining emotsional tomonlarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mashg'ulotlar o'quvchilarda ko'rish va eshitish qobiliyatlarini, ushlab ko'rib ajrata bilish, sezish tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi. His tuyg'ularini rivojlantirishga doir o'yinlarni ham tashkil qilish mumkin yoki san'at asarlariga tabiyat bilan zavqlanishga murojat qilish orqali erishish mumkin. O'quvchining his tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq, o'quvchi faoliyatiga harakatqilishga o'z xolatini badan harakatlari imo-ishoralar raqs orqali kursatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Kursni tashkil qilish va ish shakllari kurs xaftasiga 2 soatga mo'ljallangan. Hafta oxirida 2 soatli dars o'qish maqsadga muvofiq sababi, o'quvchilar asosiy darsdan ancha dam olishadi. Bunday 2 soatlik darsni «ijodiy soat» yoki «hayol darsi» deb nomlash mumkin. Ko'pincha vaqtni sinfdanva maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Integratsiyalashgan kurslar orqali shu tariqa o'quvchilarning rivojlanish darajasi qiziqtirishlari integratsiyalar aniqlanadi.

Onatili darslarining noan'anaviy shaklva usullari. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar savodxonligini oshirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, ona tili asosiy va yetakchi fanlardan biri hisoblanadi. U yuqori sinflarda o'rganiladigan ona tili va adabiyot darslarining tarkibiy qismidir. Ona tilini o'qitish savodxonlikning asosiy kaliti ekanligini unutmasligimiz kerak. CHunki savodxonliksiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Savodxonlikning zaminida husnihat ham yotadi.

Bu ham o'quvchining aqliy qobiliyatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu esa ushbu jarayonni amalga oshirishda pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda interfaol usullarni qo'llash orqali o'quvchilar bilimi va ko'nikma malakalarini mustahkamlashni taqozo etadi. 1-sinf «Ona tili» darsligida «Insonning yaxshi do'sti» hikoyasi mavjud. Dars jarayonida bu hikoya orqali o'quvchilar qushlar olami bilan tanishadi. Qushlar o'zlari- ning jozibali raqsga tushishi, turli xil ohanglarda sayra- shi va insonlarga zavq - quvonch olib kelishi bilan o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bugungi kunda 450 turga yaqin qushlar yurtimizda yashaydi. Qushlar va jonivorlar ob-havo darakchisi sifatida ham xarakterlidir. Jumladan, havo bulutli kunlari qanotli chumolilar paydo bo'lsa, yomg'ir yog'adi. Turnalar erta uchib kelsa, ko'klam erta boshlanadi.

Yozda pashshalar ko'paysa, havo dim bo'ladi. Qaldirg'och yer bag'irlab uchsa havo buziladi, u balandlab uchsa, havo yaxshi bo'ladi. Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilarga turli inter-faol usullar orqali yetkazish darsning sifat va samaradorligini yanada oshiradi va o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi. O'quvchilar bu qo'shimcha ma'lumotlar orqali hikoyaning mazmunini chuqur o'zlashtiradilar, qushlarning tabiati haqidagi tushunchalari kengayadi.

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o'zaro bog'liqlikni ta'minmagan holda o'qitilmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, o'quvchilar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Zamonaviy didaktika o'quv fanlarini integratsiyalashga bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limdagi integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar. Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqalganligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, o'quv fanlari ilmiy fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o'z aksini topadi.

O'quv fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi obyektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda subyektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. SHu sababli, o'quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma'noda integratsiya – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda

qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi subyektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – subyektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

O'quv fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganishda subyektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o'quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko'rsatmoqda. Biz, ta'lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo'lib o'qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdorimiz.

O'quv fanlari nisbatan mustaqil bo'lishi kerak, chunki ularning har biri o'z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va konsepsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

Shu bilan birga, ularni o'zaro bog'liqlikda o'rganish bilan bog'liq imkoniyatlar ro'yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta'minlanadi. Uni o'quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, subyektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz fanlararo yondashuvni umumta'lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo'nalish sifatida qaraymiz.

Biz o'quv fanlarini integratsiyalash natijasi fanlar o'zaro bog'lanmagan holda o'rgatilganda shakllantirish mumkin bo'lmagan subyektiv yangi bilimlarning o'zlashtirilishi, - degan kontseptual g'oyaga tayanamiz.

Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba'zida u bir qancha o'n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O'quv jarayonida o'qituvchi bir yoki bir necha mashg'ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida o'quvchini ilgari turli fanlariga oid o'zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi subyektiv yangi bilimga "olib kelishi" kerak bo'ladi. Ya'ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o'tish bilan bog'liq bo'lib, u fanlararo aloqalarni o'rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bilimlarning har qanday olib o'tilish holati subyektiv yangi bilimlar

sinteziga olib kelmaydi. Buning uchun ushbu bilim inversiyaga uchrashi lozim.

Bilimlarning inversiyasi quyidagi jarayonlarni qamrab oladi: o'quvchi aqliy faoliyatini faollashtirish maqsadida bilimlarni shakllangan fandan boshqasiga o'tkazilgandagi tavsifining o'zgarishi; ilmiy bilimlar mohiyat jihatidan o'zaro bog'liqligini o'quv vazifalariga aylantirish; o'quvchi ijodkorlik qobiliyatlari ham kasbiy yo'nalganligining tarkib topishini ta'minlovchi fanlararo bilim va ko'nikmalarni egallash darajalarini belgilab olish.

Inversiyaning mohiyatini quyidagi misolda izohlash mumkin. I.Nyuton tomonidan kashf etilgan mexanika qonunlariga oid bilimlar inversiya natijasida hali maktab fizika kursidayoq texnika va texnologiya ob'ektlariga tatbiq etilib, politexnik ko'rinishda taqdim etiladi. Ushbu bilim boshqa ob'ektlarga o'tkazilganida o'zga yo'nalish kasb etib, boshqa kasbiy vazifalar yechimiga xizmat qiladi. Misol uchun, fizikani o'qitish metodikasiga o'tkazilgan fizikaga oid bilimlar inversiyaga uchrab, bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy bilimlarga aylanadi. Fan yo'nalishlariga oid bilimlar bo'lajak muhandisning maxsus fanlarni o'rganishi hamda ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasbiy bilimga aylanadi. Bu kabi o'zgarishlar amalga oshirilmasa, umumta'lim hamda maxsus fanlarga oid bilimlar kasbiy faoliyatga tatbiq etilmasa ular bo'lajak muhandis uchun kasbiy bilim emas, balki propedevtik ahamiyat kasb etuvchi ma'lumot sifatidagina ahamiyatga ega bo'ladi.

Integratsiya kursi - o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlar (integrativ bilimlar)ni chuqurlashtirish va oshirish, ulami shakllantirish uchun o'rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya obyektlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida uzluksizlik yuzaga keldi. U zamonaviy innovatsion va integratsion texnologiyalar asosida takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limni yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etayotir. Maktab yoshidagi o'quvchilarni komil inson darajasiga ko'tarishga intilish, ma'naviyat sarchashmalaridan bahra - mand qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, istiqlolning talabidir. Buning uchun o'qituvchining o'zi ham pedagogik mahoratga ega bo'lishi, yuksak insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etmog'i lozim.

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim – tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi tubdan o'zgarimoqda va

pedagogik texnologiyalar, integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qoʻllanilmoqda.

Oʻquv fanlararo aloqadorlik taʼminlangan sharoitda oʻquvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Oʻquv fanlararo aloqadorlikni turli oʻquv predmetlari boʻyicha oʻquv dasturlari, darsliklar mutanosibligini taʼminlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Bugungi kunga kelib jaxondagi mamlakatlarning 70% taʼlim tizimida integrativ xarakterdagi oʻquv dasturlari va darsliklardan foydalanib kelmoqda. Har bir mamlakat ayni shu davlatning taʼlim tizimiga quyilgan buyurtmaning tabiatdan kelib chiqqan holda joriy qilib kelmoqda.

Buyuk Britaniya taʼlim tizimida integrativ fanlar joriy qilingan boʻlsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar yoki alohida oʻquv predmetlari kong va Germaniyada ham alohida fanlar, Vengriyada madaniy yunalishdagi oʻquv predmetlari, inson va tabiat integrativ fanlar Niderlandiyada alohida oʻquv predmetlari mujassamlashtirilgan holda oʻqitiladi.

Jahonda zamonaviy dinamik ijtimoiy-madaniy sharoitda kuchli sarmoyaviy resurs - inson salohiyatidan maksimal darajada foydalanish zarurligini anglab yetmoqda. Ushbu tendentsiya shaxsning nazariy-metodik tayyorgarligi muammosini ayniqsa dolzarb qilib qoʻyadi. Chunki nazariy-metodik tayyorgarlikka ega mutaxassisgina taʼlimning yangi sifatiga erishish uchun shart-sharoitlarni taklif etishi, ilmiy faoliyatni rivojlantira oladi. Mazkur jarayonda eng muhim birinchi navbatda boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini nazariy-metodik tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi. Chunki pedagog kadrlarning ilmiy- uslubiy tayyorgarligi kelajak avlodni oʻquv-tarbiyaviy istiqbollari belgilaydi, jamiyatning ilgʻor rivojlanishiga xizmat qiladi.

Dunyoda integrativ taʼlimning rivojlanishi ijtimoiy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining oʻzaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yoʻnalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy taʼlimni oldiga qoʻygan talablarini qondirishga qaratilgan oʻquv-tarbiya jarayonini samarasini taʼminlashning ustuvor strategiyasini belgilaydi. Oʻqituvchilarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajasidagi taʼlim muassasalari jumladan, Garvard Oliy taʼlim maktabining "Project Zero" tadqiqotchilari turli xil sharoitlarda fanlararo aloqadorlikni oʻrganib kelmoqda. Bu esa star- wiki.ru saytida oʻz

ifodasini topadi. Ular fanlararo bog‘liqlik zamonaviy fikrlaydigan bo‘lg‘usi boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun juda muhim ekanligini ta‘kidlab o‘tishadi. Shuningdek, “UC Berkeley Web Research Environment” (WISE) bilimlarni integratsiyalash nazariyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Bu esa dunyo ta‘lim tizimi oldida bo‘lg‘usi boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari tafakkurini rivojlantirish, ularni nazariy- metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning ilmiy-amaliy imkoniyatini belgilab beradi.

Didaktik jarayonning integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o‘quv jarayonni bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta‘minlaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim jarayonining serqirra va o‘ziga xosligini inobatga olgan holda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda metodik fanlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini ta‘minlaydi. Turli fan elementlarini yaxlit holda birlashtiruvchi hamda o‘ziga xos o‘rganish predmetini o‘z ichiga olgan holda fanlarni xususiyatlariga ko‘ra bog‘lovchi kurslar integratsiyalashgan kurslarning mazmunini anglatadi.

Pedagogikada integratsiyalashgan kurslar tasnifini turli xususiyatlariga ko‘ra amalga

oshirish mumkin: -kursning maqsad va muammolariga ko‘ra;
-tabiiy-ilmiy tizimdagi fanlarning umumiy vazifalariga ko‘ra;
-fan tarmoqlarining o‘zaro aloqadorligiga ko‘ra; o‘quv predmetlarining integratsiyalash usullari va yo‘llariga ko‘ra;
-fanlarning o‘quv rejasidagi o‘rniga ko‘ra;
-o‘quv predmetlari yoki mavzularini o‘rganish uchun ajratilgan vaqtga ko‘ra;

-beriladigan bilimlarning murakkablik darajasiga ko‘ra va h. k.

O‘quv predmetlarini tasniflashda va ulardan foydalanishda shuni e‘tiborga olish kerakki, bu kurslarni tashkil etuvchilar odatda bir qancha maqsad va vazifalarni qo‘yadilar. Shu sababli kurslar integratsion kursning maqsad va vazifalari tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirilishiga ko‘ra tavsiflanadi. Bilimning o‘quv rejasidagi o‘rni, ajratilgan soatlarning hajmi, shu kursni to‘la o‘zlashtirish vaqti, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi - ko‘p maqsadli va xilma-xilligi, ko‘p tarmoqliligi hamda ko‘p funkcionalligi bilan tavsiflanadi.

Didaktik tizimda integrativ darslar bir fanlararo integratsiya - bunda ikki yoki undan ortiq asosiy fanlar g‘oyalari, nazariya va tushunchalari birlashtiriladi, integratsiyali rejalashtirish orqali amalga oshiriladi;

-yondosh fanlar integratsiyasi - o‘zaro yaqin aloqada bo‘lgan fanlarni integratsiyalash asosida yangi fanlarni vujudga keltirish. Buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;

-fundamental fanlar integratsiyasi - zamonaviy bilimlarning barcha tarmoqlari uchun asos bo‘luvchi fanlar va ushbu fanga tegishli bo‘lgan umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalarni integratsiyalash;

-yaxlit bir butun tizim bo‘lgan kompleks ob'ektlarni o‘rganish. Bunda “koinot, “jamiyat”,

“inson”, “muhit”, “tabiat” kabilarga oid bilimlar integratsiyalashtirib o‘rganiladi;

-mahalliy (tabiiy - ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar - ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o‘rni haqidagi qarashlar integratsiyalashtirib o‘rganiladi;

-tabiat va jamiyat qonuniyatlaridagi yaxlitlikni tushunish va yaxlit shaxsiy munosabatni shakllantirish uchun tashkil etiladigan integratsiya;

-ko‘rgazmali yondashishga olib keluvchi metodlar va usullar - evristik suhbatlar (savol- javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar,antomimika, sahna ko‘rinishlari, namunali qiroat bilan o‘qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni echish topshiriqlarni o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llash;

-tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni hamda yaxlit integratsion asosda faoliyatni tashkil qilish zaruriyatini anglashga o‘rgatish;

-o‘quv rejasidagi o‘rganilishi belgilangan ijtimoiy gumanitar, tabiiy-amaliy va texnik fanlarni mazmunan o‘zaro ta’sirini inobatga olgan holda integratsiyalash;


-o‘quv jarayonini samarali rivojlantirishning eng maq'bul usuli muammoni (o‘rganiladigan mavzuni) taqdim etishni innovatsion yondashuvlarini sifatli qo‘llay olish;

-ta’lim jarayonida tabiiy - ilmiy va gumanitar fanlarni o‘zaro bog‘lashda o‘quv faoliyatini insonparvarlashtirish;

-tabiat-jamiyat tizimining ob'ektiv o‘zaro munosabatlarni o‘zlashtirishi bilim oluvchilar shaxsini shakllantirishni nazarda tutuvchi integratsion mashg‘ulotlar tashkil etish;

-bilim oluvchilarda integratsion bilim, ko‘nikma, malaka, tasavvurlarni hosil qilish;

-har bir o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchilarda motivatsiyani hosil qilinishi ushbu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, o'quv materiali haqida yaxlit tushuncha hosil bo'ladi va xotirada mustahkam saqlanadi, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurining rivojlanishiga olib keladi.



Integratsion kurslarning tashkil etilishi o'quvchilarni nazariy-metodik tayyorgarligi davomida quyidagi tafakkur shakllarini hamda nazariy-metodik malakalarni tarkib toptirishga yordam beradi:

-Tabiiy ob'ektlar haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;

-Pedagogik - psixologik tizimda fanlararo o'zaro aloqani shakllantirish;

-O'quv materiallarini anglash, jarayonga moslashish ko'nikmasini shakllantirishda yangi materialni tushuntirishda manbalarni turli fanlar kontektidan izlash;

-Mutaxassislik fanlarini o'qitishda integrativ kurslarni tizimli yo'lga qo'yish; mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'quvchilarning kompleks bilimlarini shakllantirish integrativ usul va vositalar orqali amalga oshirib borilishini ta'minlashga erishish. Bu esa integrativ bilimlarni mustahkam o'zlashtirish va hissiy ongni shakllantirishga yaqindan yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogikaning inson haqidagi fanlar tizimidagi tavsifi haqida fikringizni bildiring?

2. Shaxsning ijtimoiylashuvi va tarbiyasini rivojlantirish yo'llari nimalardan iborat?

3. O'qitishning yetakchi qoidalari. Ilmiylik, tizimlilik, izchilik qoidasi haqida nimalarni bilasiz?

4. Ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi qoidasi qanday amalga oshiriladi?

5. Ta'limda onglilik va faollik qoidasi, ko'rsatmalilik qoidasi, tushunarlilik va mustahkamlik qoidasi haqida ilmiy-nazariy qarashlar haqida gapirib bering?

6. Integrasiya ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsiplari haqida aytib bering?

II-BO‘LIM. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM DIDAKTIKASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

1-MAVZU: DIDAKTIKANING PREDMETI VA UNING VAZIFALARI

Reja:

1. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
2. Sharq mutafakkirlarining didaktika haqidagi fikrlari.
3. O‘qitish jarayoni. O‘qitish jarayonining mohiyati
4. Hozirgi o‘qitish jarayoniga qo‘yiladigan talablar.

1.1. Didaktikaning asosiy kategoriyalari

Didaktikaning ayrim muxim tushunchalari didaktikaning kategoriyalari deb ataladi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: o‘rgatish, o‘rganish, o‘qitish, ta‘lim, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.

O‘rgatish - o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O‘rganish - anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi.

O‘qitish - qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan o‘quvchilarning tartiblangan o‘zaro harakati.

Ta‘lim - o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim - ma‘lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi;

Ko‘nikma - egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash.

Malaka - avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya - gallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish layoqati.

Maqsad - o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi.

Mazmun - o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish - qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl - o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita - o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obekt.

Natija - o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ma'lumot-ta'lim va tarbiya jarayonida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan ilmiy bilimlar, bilim olish ko'nikma va malakalari, hamda ular asosida tarkib topgan dunyoqarashlar, axloqiy fazilatlar, shuningdek, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yig'indisidir.

Ta'lim-ma'lum maqsadga qaratilgan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faolliklariga asoslangan jarayondir. O'qitish o'qituvchining faoliyatini, o'qish esa o'quvchining bilim olish faoliyati jarayonini bildiradi.

Bilimlar-insoniyatning asrlar davomida ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir.

Ta'lim jarayonida biror fan soxasida insoniyat tomonidan o'rganilgan va egallangan bilimlarni barchasini o'rgatishning imkoniyati yo'q. Shuning uchun o'quv jarayonida fanlarning poydevori, asoslari eng asosiy, muxim narsalar o'rganiladi.

Ko'nikmalar olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan xarakatlarning yig'indisidir. Ko'nikma xosil qilish uchun aqliy va jismoniy mexnat qilish usullarini bilib olish, xosil qilingan bilimlarni amalda qo'llay bilish kerak bo'ladi.

Malaka-ongli xatti-xarakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Malaka qanchalik puxta bo'lsa, odam ishni shunchalik tez va to'g'ri bajaradi.

Insoniyat tomonidan asrlar davomida to'plangan ma'lumot va bilimlar xar bir yangi avlod tomonidan o'zlashtirilib, boyitilib borilishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. To'plangan ma'lumot va bilimlarni o'zlashtirish o'ta murakkab jarayon bo'lib, u faqat ilmiy jixatdan asoslangan xolda maxsus tashkil yetilishi lozim. Lekin, xar bir

jarayon ijtimoiy xodisa sifatida namoyon bo‘ladi, Shuning uchun, o‘z qonun-qoidalariga, xususiyatlariga ega. Ta’lim jarayonini qonun-qoidalarini o‘rganish, taxlil etish va yangi bilimlar yo‘nalishlarini izlab topish, ularni o‘zlashtirishning samarali metodlarini ishlab chiqish masalalari bilan pedagogikaning didaktika bo‘limi shug‘ullanadi. Ta’lim jarayonini, insonning bilish qobiliyati va tafakkuri xodisalarini falsafa, psixologiya, fiziologiya fanlari ham o‘rganadi. Ammo, didaktika bu masalalarga maxsus fan sifatida yondoshadi va izlanish ishlarini olib boradi. Didaktika ta’lim, uni tashkil yetish, bilimlarni o‘zlashtirilishi, ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim usullari, qoidalari kabi barcha masalalar bilan shug‘ullanadi.

1.2. Sharq mutafakkirlarining didaktika haqidagi fikrlari

Didaktika – pedagogikaning ta’lim, bilim berish jarayoni va o‘qitish nazariyasini umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi mustaqil bo‘limi hisoblanadi. Didaktika yunoncha “didasko” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘qitish”, “o‘rgatish” ma’nolarini bildiradi. Ta’lim qonuniyatlarini o‘rganish, tahlil qilish jarayonida ta’lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o‘qitish prinsiplari shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi.

Demak, didaktika pedagogikaning yosh avlodni “nimaga o‘qitish”, “nimani o‘qitish” va “qanday o‘qitish” kabi savollariga javob izlaydi.

Ta’lim nazariyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zbek xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo‘lishining eng muhim sharti uni bolaligida o‘qitish va tarbiyalash deb hisoblaydi. Al-Xorazmiy, Kindiy, Beruniy, Forobiy, ibn Sino, Umar Xayyom, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy kabi ko‘plab Sharq allomalari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarga e’tibor berganlar. Masalan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) shaxsni uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy (806-866) substansiyani barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko‘rib chiqishda eng avvalo miqdor va sifatni hissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani bilishdan ham mahrumligini o‘qitirdi. Olim

o'zining didaktik g'oyalarida hissiy va ratsional bilishni ifodaladi. Hissiy bilish – yakka narsalarni bilishdan iborat bo'lsa, ratsional bilish – umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, hissiy bilish faqat aql uchun material beradi.

Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq xatti-harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. «Haqiqat», – deb yozgan edi al-Kindiy, – har qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin hayotdagi mavjud hamma narsa haqiqiyliги bilan mavjuddir. Haqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin».

Abu Nasr al-Forobiy (870-950) o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. Olim o'qitishning tajriba – ko'rsatmali, induktiv va deduktiv amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchi-o'quvchilarning hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga ko'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodini ustun ko'yib, o'quvchi-o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalarga alohida e'tibor berish haqida, eng muhim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hokazolar bo'yicha o'kituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarini bayon qilgan.

Forobiy matematika fani misollari asosida o'kitishning ilmiylilik, ko'rsatmalilik, tushunarlik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayonining va fandagi bilim shakllarini mohiyatini yoritgan. Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali o'tishi kerak. Mantiq ob'ekti anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to'g'riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Forobiy bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha ham anchagina mufassal tavsiyalarni ishlab chiqqan. Uning yozishicha, yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli bo'lsada, quyidagi uchta shartga rioya qilishi shart: 1. Mazkur fan asosidagi hamma prinsiplarni to'liq bilish; 2. Mana shu prinsiplardan va mazkur fanga doir ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish; 3. Noto'g'ri nazariyani

rad eta bilish va hakikatni yolg'ondan farqlash, xatolarni to'g'rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish.

Borliqning aks etishi sifatidagi hissiy bilish muammosi va eng asosiy masala – bilishning manbalari masalasi doimo Abu Rayhon Beruniy (973- 1048) nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi. Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida tahlil hamda talqin qildi. U qadimgi davr olimlari ishlab chiqqan bilishning ilmiy metodlarini rivojlantirib didaktik yo'sinda muhim xulosalar chiqardi. «O'qish va takrorlash orqali, – deb yozgan edi Beruniy, – dunyoning tuzilishini, osmonning va yerning shakllarini bilish astronomiya fani uchun g'oyatda foydalidir. Binobarin ana shu tariqa ta'lim oluvchi malaka hosil qiladi va mazkur san'at ahli ishlatadigan so'zlarni o'rganadi, bu so'zlarning ma'nosini anglaydi. Keyinchalik astronomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o'rganishda ana shunday so'zlar uchrasa, ularni bemalol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o'zlashtirishda charchamaydi».

Beruniy ta'kidlaganidek, o'qitish izchil, ko'rsatmali, maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin ko'rsatmalilik ta'limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning bilim orqali erishiladigan natijalari hakidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishini tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aql rivojlanishning uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqlarni bosqichlarga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, siyoh va qalamni ham bilmaydigan bolaning aqlini nazarda tutgan; ikkinchi bosqichda – tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolaning aqli tasavvur qilinadi; uchinchi bosqichda inson aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi. Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi, aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-

harakatlarida namoyon bo‘ladi. Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. Shuningdek, aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri nazariy aql bo‘lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo‘lib, buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko‘rinadigan qobiliyatdir.

Abdulla Avloniy (1878-1934) o‘zining barcha asarlarida ilm muammosini birinchi o‘ringa qo‘ygan. «Alhosil – deb yozgan edi u, – butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog‘liqdur... Shuning uchun o‘qimak, bilmak zamonlarini qo‘ldan bermay, vujudimizning dushmani bo‘lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa’y qilmog‘imiz lozimdur».

A.Avloniy ilm tarbiya jarayonida o‘zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. Xususan u tarbiya bilan ta’limning birligi muammosini ishlab chiqdi. Garchi A.Avloniy ta’lim bilan tarbiya o‘rtasida ozgina farq borligini aytgan bo‘lsa ham, ular tana va jon singari bir-biriga chambarchas bog‘liqdir, deydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) “Yangi adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kasbi darsliklarida tovushli savod o‘rgatish metodini ishlab chiqqan. Uning ta’lim nazariyasidagi asosiy g‘oya o‘qitish va tarbiyalashga kompleks yondoshish, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirishdan iborat edi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi paytda pedagogika nazariyasidan o‘quv dasturini, qo‘llanma va darsliklarni yaratishda o‘zbek xalq pedagogikasi va Sharq mutafakkirlarining didaktik merosidan foydalanmasdan turib ta’lim va tarbiya jarayonida yuksak samaradorlikka erishishi mumkin emas. Xususan, al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, al-Forobiy, ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning didaktik g‘oyalari dunyo ijtimoiy-pedagogik fikrlar taraqqiyotiga ko‘p jihatdan ta’sir etib, muayyan darajada Yevropada Uyg‘onish davrining asosiy shart- sharoitlarini yaratib bergan, albatta.

Bunday fikrlarni tasdiqlash uchun quyidagi bir necha dalillarning o‘zi kifoya. Masalan, Al-Xorazmiyning “Al-kitob-al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l-muqobila” (“Aljabrda muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”) hamda “Kitob surat al-arz” risolalaridan jahonga mashhur matematik va geograflardan Fibonnachi, Pichioli, Tartalya, Kardano, Ferrari, Leonardo

mashhur yunon olimi Klavdiy II Ptolemey, Nyuton, Gershel, Jozef Tussen Reyno va boshqalar keng foydalanganlar.

Shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning “Hayy ibn Yaqzon” (“Ziyrakli – Tirik o‘g‘lon”) asari ispaniyalik pedagog va adib ibn Tufaylaning “Yakzon o‘g‘li Xayya” haqidagi qissasini; J.J.Russoning “Emil yoki tarbiya haqida” asarini, Forobiyning “Fanlar sanog‘i” risolasi ispaniyalik pedagog olimi Gundisalning (XII asr) “Falsafaning bo‘linishi” asarini yozilishiga asos bo‘ldi.

Oksford universitetining professori Rodjr Bekon (XII asr) al-Forobiy va ibn Sinolarning didaktik g‘oyalarini chuqurlashtirib, qomusiy kitoblarini yozadi. Bu asarlar, Yevropa universitetlarida o‘quv qo‘llanmalari sifatida qo‘llanilgan va bu ma‘lum darajada XV-XVI asrlarda pedagogikadagi pansofik harakatga turtki beradi. Pansofik harakatning yorqin namoyondalaridan biri chex pedagogi Yan Yamos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida didaktikaning ta‘lim nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, lekin didaktikani ta‘lim nazariyasida ta‘lim-tarbiya mazmuni, shakli va uslublari (ayniqsa, sinfdars tizimi g‘oyasi) ibn Sinoga tegishli g‘oya ekanligini alohida qayd etib o‘tishimiz lozim. Zero, Sharqda IX asrda hali Yevropaning ko‘p hududlarida, xusnixat ishlatilmagan va sinfdars tizimining nimaligini bilmagan bir vaqtda Xorazmdagi Ma‘mun akademiyasi qoshida tashkil etilgan maktab va madrasalarda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullangan qomusiy olimlar yaratgan pedagogik nazariyaning o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular ilgari surayotgan didaktik g‘oyalar bevosita o‘rganilayotgan fan mantig‘idan ajratilmagan. Ta‘lim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublari xos g‘oyalar bironta fanda aniq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida yoritiladi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan qomusiy olimlarning asarlari lotin tilida o‘rta asr Yevropa Universitetlarida o‘quv qo‘llanmalari sifatida foydalanilgan. Yuqorida bu asarlar Yevropada tabiiy va ijtimoiy- pedagogik ilmlarni rivojlantirish uchun asos bo‘lganligiga to‘xtalgan edik.

Umuman, didaktika ta‘lim, bilim berish jarayoni va o‘qitish nazariyasini umumiy qonuniyatlarini aniqlab berish bilan birga, har bir o‘quv fanining o‘qitish metod (usul)lari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Didaktika butun pedagogik faoliyat uchun, ya‘ni ta‘lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarning nazariy va amaliy harakatlari uchun metodologik asos vazifasini o‘taydi.

1.3. O‘qitish jarayoni. O‘qitish jarayonining mohiyati

O‘qitish - o‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O‘qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O‘qitish jarayonining **ta’limiy vazifasi** o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. O‘qitish natijasi sifatida bilimlarining to‘liqligi, chuqurligi, tizimlili, anglanganligi, mustahkamligi va

amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta’lim jarayonining metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O‘qitishning **tarbiyaviy vazifasi** ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o‘z ifodasini topadi. Ta’limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta’lim mazmunida aks etadi. O‘qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o‘qituvchi va o‘quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o‘qish jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari, o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o‘qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O‘qitishning **rivojlantiruvchi vazifasi** o‘quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohasini rivojlantirishda o‘z aksini topadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o‘rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O‘qitish jarayonining bosqichlari. O‘qitish o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo‘lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O‘quvchi bilmaslikdan bilish,

uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yoʻlidan borib, ushbu bosqichlardan oʻtishi kerak.

Oʻqitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

- 1) oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil boʻlishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, koʻnikma va malakalarning hosil boʻlishi;
- 4) hosil qilingan koʻnikma va malakalarni amaliyotda qoʻllash (kompetentsiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun oʻquvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat oʻqituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

Oʻrganilayotgan materialni idrok qilish. Oʻquvchilarning oʻrganilayotgan (yoki oʻrganilishi lozim boʻlgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, oʻqituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material toʻgʻrisida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va koʻrsatadi.

Oʻrganilayotgan materialni fahmlab olish. Oʻrganilayotgan obekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni taʼminlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. Oʻqitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, koʻnikma va malakalarning hosil boʻlishi. Oʻquv materialini idrok etish va faqmlab olish jarayonida oʻzlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, koʻnikma va malakalarni amalda qoʻllay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish). Bilim, koʻnikma va malakalarni amalda qoʻllash jarayoni taʼlimning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

Oʻqitish va oʻqish jarayonlari tavsifi, oʻquv jarayonida ularning oʻzaro bogʻliqligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, sanʼat, oʻyin, sport) uning tevarak-atrof olamni va oʻz-oʻzini bilish bilan bogʻlangan. Oʻqish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va oʻqituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati - bilim, koʻnikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, oʻquv fanlari mazmunini oʻzlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

Oʻrgatuvchilik faoliyati yoki oʻqitish, oʻquvchilarning oʻquv faoliyatini boshqarishdan iborat boʻladi va ularni mashgʻulotlar uchun

uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokazolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo‘yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o‘z ifodasini topadi.

O‘quv faoliyati yoki o‘qish bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch- g‘ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag‘batlantiradi. O‘qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o‘quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta‘lim jarayonida ijobiy natijalar bo‘lishi mumkin emas. Ta‘lim jarayonining bu ikki tomoni (o‘qitish va o‘qish) bir maqsad: ta‘limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o‘quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

1.4. Hozirgi o‘qitish jarayoniga qo‘yiladigan talablar

Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o‘qitishning chuqur ijtimoiy e‘tiqodlilik bilan uyg‘un ilmiyligiga qo‘yilayotgan talablar g‘oyatda muhimdir. Didaktikada o‘qitishning ilmiyligi nima ekani asosli ravishda bayon qilinadi. Ma‘lumki, maktab ta‘limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqelik qanday bo‘lsa, uni shundayligicha, hech bir qo‘shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogning vazifasi o‘quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarni mustaqil o‘rganishlarida o‘zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi — inson ongidan tashqari obyektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo‘lga solishdan iboratdir. Hatto bolalar ta‘limning birinchi pog‘onasida olgan juz‘iy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak. Ilmiy asosdagi to‘g‘ri o‘qitish natijasida o‘quvchilar ongida obyektiv olamning haqqoniy manzarasi hosil bo‘ladi. Pedagogika amaliyotida ba‘zan g‘alati voqealar ham uchraydi. O‘quvchilar qiziquvchanligi sababli o‘qituvchiga savol beradilar va xuddi ana shu paytda o‘qituvchi asosli javob bera olmaydi, xijolat chekadi. Noto‘g‘ri javob bersam, keyinchalik obro‘yim ketadi, deb o‘ylaydi. Masalan, birinchi sinf o‘quvchilari o‘qituvchidan „Kosmos nima?“ — deb so‘raydilar va u sarosimaga tushib qoladi. Darhaqiqat, buni birinchi sinf o‘quvchilariga qanday tushuntirish kerak? O‘qituvchi puxta o‘ylab olib, keyin, chunonchi, ertasiga javob berish o‘rniga, shu zahoti „Kosmos bizdan juda uzoq narsa“, — deb javob qildi. Shunday javobdan keyin o‘quvchilarda kosmos haqida qandaydir tasavvur hosil bo‘ladimi? Chinakam ilmiylik doimo ijtimoiy rivojlanish va moddiy olam

qonuniyatlarining obyektivligini o'z ichiga oladi. Bizning fan dialektik falsafa poydevoriga quriladi. U voqelikning sovuqqonlik, loqaydlik bilan yozilgan tavsifi emas, balki moddiy olam haqidagi 100 qarama-qarshi tushunchalarning o'zaro kurashish maydoni va qurolidir. Fanlar — e'tiqodlarni shakllantirishning kuchli omili. Shuning uchun, yoshlarimiz olgan bilimlar ularning e'tiqodiga aylanishi juda muhimdir. Mana shu vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim talabdir. Biz faqat ana shunga asoslanib, bolalarni mustaqil o'ylashga o'rgatishimiz, ularda o'zlarining qarashlari va nuqtayi nazari tizimini tarkib toptirishimiz mumkin. Agar bilimlarni bayon etish, ishning usullarini ko'rsatish mumkin bo'lsa, ijodiy faoliyatni o'rgatish uchun o'quvchilarni xuddi ana shu faoliyat jarayoniga bevosita jalb etish shart. Mana shu muammo bo'yicha ayrim mulohazalarni ifodalashga harakat qilamiz. Avvalo, har qanday ijodkorlik, xususan, o'quvchilarning ijodkorligi maxsus tayyorlangan sharoitlarda amalga oshishi mumkin. Bunda bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tizimi hal qiluvchi omil bo'ladi. Ijodni, ijodkorlikni qanday tushunish kerak? Odatdagi tushunchaga ko'ra, ijod ozchilik kishilarning, buyuk san'at asarlarini, yangi mashinalar, dastgohlar va hokazolarni yaratadigan iste'dodli odamlarning qismatidir. Lekin ijod buyuk asarlar yaratishdangina iborat emas, balki kishining fikr yuritishi, biror tadbirni o'ylab topishi, ozgina bo'lsa-da, qandaydir yangilik yaratishi ham ijoddir. Ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki qoida sifatida qarash lozim. O'quvchining ijodini qanday tushunish kerak? Bolalar hech qanday yangilik yaratmaydi-ku? O'quvchining ijodkorligi, eng avval, uning har qanday faoliyat jarayonidagi: o'ziga xos usul bilan masala yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, mehnat darslari va hokazolardagi mustaqil fikrlashida namoyon bo'lishi lozim. O'quvchining ijodi — uning olgan bilimlarini hayotda ko'rgan faktlar va hodisalarga bog'lay olishi, ularni to'g'ri baholab, dastlabki ma'lumotlarni tahlil va sintez qila bilishidir. Har qanday ijod borliqni rad etish emas, balki borliqqa to'laroq kirib borishdir. O'qitishdagi individual yondashish ham ta'lim jarayonining muhim talabidir. Biz ana shu talabni qanday tushunamiz? O'qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining hamma bosqichlarida: yangi materialni o'tishda, mustahkamlashda va takrorlashlarda ham, uy vazifasini tuzishda va darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi zarur. Uni, masalan, yangi material o'rganilayotganda qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi materialni tushuntirar ekan, 101 darslikning

paragrafi bilan cheklanishi mumkin emas. U ayrim ma'lumotlarni ancha kuchli o'quvchilarni nazarda tutib bayon qilishi lozim. Bunda bo'sh o'quvchilar nima qilishi kerak? O'qituvchi ularni hisobga olmagan-ku? Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar qiyin mavzularni o'tishdan oldin ana shunday o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulot uyushtirib, yangi materialni idrok etish uchun ilgari o'rganilgan bilimlarni takrorlaydi va yangi materialning qiyin joylarini tushuntiradi. Ana shunday qo'shimcha ish doimiy ravishda bo'lmasa-da, o'qituvchining faoliyatida zarurdir. Chunki o'qituvchining kasbiy burchi, eng avvalo, ehtiyojmandlarga yordam berishdir. Darsda buning uchun har doim imkoniyat bo'lavermaydi. Mashqlar vaqtida dastlab butun sinfga qiyinligi bir xil materiallarni berish, keyingi bosqichlardagina tayyorgarlik mashqlarini tabaqalashtirish tavsiya etiladi. Bo'sh o'quvchilar bilan ishlash darslarda ham, qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi kerak. Bu ishlarda faqat o'qituvchilar emas, balki mazkur sinfdagi kuchli o'quvchilar yoki bo'sh o'quvchilarga biriktirilgan yuqori sinf o'quvchilari ham qatnashishi lozim. O'qituvchining demokratik va insonparvarlik tizimiga o'tish davrida o'qitishdagi individual yondashish alohida ahamiyat kasb etadi, binobarin, hozirgi kunning talabi o'quvchi o'rta maktab dasturini o'zlashtirishi uchun ta'limning har bir bosqichida tegishli bilimlar olishiga erishishdan iboratdir. Shaxs doimo shakllanishda bo'ladi. Shaxsning shakllanishi sust kechishi ham mumkin. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish muammosini faqat maktab emas, balki jamiyatning rivojlanishi ham hal qiladi, albatta. Jamiyat tobora rivojlanishi bilan shaxs har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar vujudga keladi. O'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish muammosi ta'lim nazariyasi va amaliyotida yangi muammo emas. Ammo u hozirgi paytda ta'lim-tarbiya nazariyasida alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning chet el pedagogikasi uchun mohiyati, bir tomondan, fan-texnika inqilobi sharoitida malakali kadrlar tayyorlashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, fan, ishlab chiqarishni boshqarish, mafkura, adabiyot va san'at muammolarining yaratilishidan iboratdir. O'qitishni tabaqalashtirish muammosi ilmiy-pedagogik asosda hal qilinsa, o'qitishni ma'lum darajada individuallashtirishga imkoniyat paydo bo'ladi. O'qitishni individuallashtirish juda murakkab muammo bo'lib, ma'lum metodologik va pedagogik yondashishga bog'liq holda bevosita hal qilinadi. 102 Pedagoglar va psixologlar o'qitishni individuallashtirish muammosiga shaxsni har tomonlama kamol toptirish, shaxs bilan muayyan (o'quvchilar

yoki ishlab chiqaruvchilardan iborat) jamoa o'rtasidagi munosabatlarni, maktabning insonni tarbiyalashdagi rolini muayyan tushunish nuqtayi nazaridan yondashadilar. Bunda iste'dod va qobiliyatlarning baravar emasligi, ularning xilma-xilligi va individualligi haqidagi ta'limotga tayanadilar. O'qitishning individuallasuvi tarbiyaning ham individuallasganini bildiradi. O'qitish va tarbiyalash jarayonida shaxsning qobiliyatlarigina rivojlanib qolmaydi, balki uning fazilatlari ham shakllanadi. Inson esa faqat o'zining atrofidagi olamga munosabati orqali shaxsga aylanadi. Jamiyatdan va ijtimoiy munosabatlardan tashqari individuallik bo'lmaydi, sinfiy ekspluatatorlik jamiyatida bunday munosabat sinfiyligi sababli o'qitish va tarbiyalashning har qanday individuallasuvi hukmron mafkuraning tarbiyalanuvchilarga ta'sirini kuchaytiradi va bu ta'sir yanada noziklashadi, o'zgaruvchan va maqsadga muvofiqroq bo'ladi. O'qitishning individuallasuvi ta'limning tashkiliy shakllari va metodlari, sinflarning to'laligi, o'zgarishiga, hatto maktab binolarining rejalashtirilishi, potok sinflar, guruhlarning nisbati va har bir o'quvchi bilan olib boriladigan ayrim ishlar ham jiddiy o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'quvchilar o'zicha hayot kechiradi, ularning tashqi olamga munosabatini ifodalovchi ma'naviy dunyosi boy va takrorlanmas bo'ladi. Ana shu dunyoni, ichki hayotni individual yondashish bilangina tushunish mumkin. Individual xususiyatlar, qiziqish va iste'dodlar hisobga olinmasa, sinf-dars tizimi orqali muntazam o'rganiladigan kurslar quruq yodlashga aylanib qolishi ehtimoldan xoli emas. Har bir kishining iste'dodi ko'p qirrali bo'lib, faqat tashqi sabablar bilan emas, balki uning o'z tabiatiga bog'liq holda ham tarkib topadi. Inson tashqi ta'sirni o'z-o'zidan qabul qilmaydi, balki unda bolaga ta'lim orqali beriladigan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish imkonini yaratadigan biologik qobiliyat mavjuddir. Masalan, musiqachilarga xos nozik eshitish analizatori zarur. Shunday analizatorga ega bo'lgan holda musiqachi bo'lmaslik mumkin, ammo mazkur analizatorsiz musiqachilikni o'rganishning iloji yo'q. O'qitishni individuallashtirish „biologik“ va „ijtimoiy“ xususiyatlarni, ya'ni insonda iste'dod bo'lishi mumkinligini, lekin u faol ishlar bilan shug'ullanmasa, iste'dod tashqi ta'sirlar, tashqi sharoitlar natijasida o'z-o'zidan qobiliyatga aylanmasligini yaqqol 103 tushunishni talab qiladi. O'lim o'zining mazmuni va metodikasiga ko'ra tashqi ta'sirdir. Lekin u o'quvchi iste'dodi hisobga olinsagina kutilgan natijani berishi mumkin. O'qitishning individuallasuvi jamoa bilan yanada chuqur bog'lanishiga olib boradi, jamoadagi o'zining „men“ini namoyish qilishning, shaxsga aylanishning yorqin istiqbollari vujudga keltiradi. Shaxsni ta'sir

ko'rsatishning jamoaviy vositasida tarbiyalash — unda jamiyatga to'g'ri munosabatni tegishli faoliyat bilan qo'shilishning axloqiy-estetik normalar haqidagi, ularga ongli yondashish to'g'risidagi tushunchalarni tarkib toptirishini bildiradi: mustaqillik va faollikni, o'ziga xoslikni rivojlantirish esa ijtimoiy konstruktiv — ijodiy ishlarda o'zini yaqqol namoyon etishdir. „Individuallik“ tushunchasi insonning ijtimoiy mohiyatini ifodalovchi shaxs, avvalo, ijtimoiy mavjudot sifatidagi insonni tavsiflaydigan umumiy xususiyatlarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi. Umumiy ijobiy xususiyatlar qanchalik ko'p bo'lsa, shaxs shunchalik ahamiyatli bo'ladi, chunki u ijtimoiy munosabatlarni eng chuqur aks ettiradi. „Individuallik“ tushunchasi shaxsning boshqa kishilardan farqlanadigan alohida va yagona xususiyatini o'z ichiga oladiki, bu xususiyat shaxsga jamiyatda o'ziga xoslik va takrorlanmaslik baxsh etadi, unda ijtimoiy munosabatlar sharoitida, ya'ni kishi kishini ekspluatatsiya qilmaydigan tuzumda jamiyat va shaxs o'zaro qaramaqarshi bo'lmaydi. Har qanday individuallikning betakrorligi jamiyatdan ajralib qolmaydi, balki jamiyatning uzviy bog'liqligi uning manfaatlarini va harakat qonuniyatlarini tushunishdadir. Jamiyatsiz shaxs bo'lmaydi, individuallik bo'lmaydi, chunki kamolotning manbayi jamiyatdadir. Shaxsning kamol topishida o'zining kuch-g'ayrati, bevosita faoliyati juda katta rol o'ynaydi. Bizning tarbiya va ta'lim tizimimiz har bir bolada iste'dod, faollik, onglilik va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Avval xususiyatlarni hisobga olib, umumiylikni, keyin umumiyini hisobga olib, alohidalikni rivojlantirish kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Didaktikaning asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?
2. Sharq mutafakkirlarining didaktika haqidagi fikrlari?
3. O'qitish jarayoni. O'qitish jarayonining mohiyati haqida gapirib bering?
4. Interfaol ta'lim shakllari va interfaol mashg'ulotlarni tashkil etish metodlari nimalardan iborat?
5. Hozirgi o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar haqida aytib bering?

2-MAVZU: DIDAKTIK O‘YIN VA HAMKORLIKDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASINING UMUMIY TAVSIYASI

Reja:

1. Ta’limning metodologik asoslari.
2. Zamonaviy didaktik konsepsiya.
3. Ta’lim turlari va ularning tavsifi.
4. Ta’lim qonunlari va tamoyillari.
5. Didaktik o‘yin texnologiyasi.
6. Didaktik o‘yin turlarini tayyorlash va amalda qo‘llash.
7. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi.
8. Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining turli shakllarini tayyorlash

2.1. Ta’limning metodologik asoslari

Fanning metodologik muammolariga barcha davrlarda ham alohida e’tibor qaratilgan. Bugun ham mamlakatimizda bilimning bu sohasiga qiziqish kuchayib bormoqda. Ijtimoiy hayot davomiyligi va fan rivojining yuqori obstraksiya pog‘onasi murakkab, yechimi birmuncha qiyin bo‘lgan savollarni yuzaga chiqarmoqda. Tabiiyki, ularning ilmi bilishning eskicha yondashuqlari yordamida hal etilishi mushkul. Metodologiya ham amaliyot o‘quvchilaridan ortda qolishi, ijtimoiy qadriyatlarining o‘zgarish qonuniyatlariga bog‘liq holda rivojlanmasligi mumkin emas.

Birinchi navbatda yangi metodlarni izlab topish jarayoni davom etmoqda, mavjudlarini tubdan takomillashtirish, ilmiy bilish mantiqini loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshiradigan texnikaviy qurilmalarni yaratishi e’tibor qaratilgan. Boshqa tomondan, metodogiyaning dunyoqarash jihatlari – chuqur nazariy umulashma, bashoratlash, fan strategiyasini va uning mavqeini oshirish jamiyat islohotlariga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning tezlashuvini ta’minlashda o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xolos bo‘lish, milliy istiqloq g‘oyasini omma ongiga singdirish, bunda ommaviy kommunikatsiyaning barcha vositalaridan foydalanish sezilarli samara berish sir emas.

Metodologiya – (yunoncha-metodlar haqida ta’limot) ijodiy jarayon sifatida ilmiy bilish yo‘llari va vositalarining, ilmiy tadqiqot qonuniyatlarining, ularni taqqoslash va tizimlashtirish zamirida yuzaga kelgan. Demak, metodologiya ilmiy bilish faoliyatining mohiyatini

yo'llari va vositalarining nazariy muammolarini, shuningdek, ijtimoiy jarayon sifatida ilmiy tadqiqot qonuniyatlarini o'rganadi.

Metodologiya tushunchasi murakkab va har doim ham bir xilda talqin qilinavermaydi. Birinchi navbatda u keng ma'noda – fan metodologiyasi sifatida qo'llanilib, bircha ilmiy fanlar uchun ilmiy bilishning falsafiy tayanchi xisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, metodologiya fan sifatida ob'ektiv borliqni bilish haqida ta'limot (nazariyasi)dir. Tor ma'noda esa aniq ilmiy fanlar (shu jumladan pedagogika) uchun ilmiy bilish nazariyasini anglatadi. Demak, metodologik bilimlarning umumiy tizimida metodologiya o'rnini aniqlashtirish uchun mavjud.

Aniq fanlar metodologiyasi umumiy metodologiyaga tayangan holda:

1.Uning talablarini muayyan fan ob'ekti tashkil etadigan hodisa va jarayonlarni o'rganishga tatbiq etadi.

2.O'zida bilishning aniq ilmiy metodlari haqidagi nazariyani o'rganilatyogan hodisa va jarayon qonuniyatlarining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq holda mujassamlashtiradi.

Didaktika - ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida u fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy sohani tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati» deb tushuntirdi.

«Didaktika» atamasi ilk bor nemis pedagogi Wolfgang Ratkening «Didaktika yoki ta'lim san'ati» (1613-yil) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan.

DIDAKTIKA (yun. didaktikos — o'rga-tuvchi, ta'lim beruvchi) — pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. «Didaktika» atamasi ilk bor Yevropada XVII asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asari (1657)da bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlari ishlab chikdi. Nemis pedagogi A. Disterveg o'zining «Nemis o'qituvchilarini ma'lumotli qilishga rahbarlik» (1834—

35) asarida Didaktikaning ped. da ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin Didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar paydo bo'la boshladi.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniklash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish Didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta. Uzoq vaqt mobaynida marksizm-leninizm Didaktikaning taraqqiyot yo'nalishini belgilab beruvchi metodologik asos deb qarab kelindi. Lekin mazkur ta'limotning ilmiy asoslari puch, jamiyat va tabiat taraqqiyoti qonuniyatlarini to'g'ri hamda xolis ko'rsatish imkoniyatidan mahrum bo'lgan tarfkash (tendensioz) qarash ekanligi ma'lum bo'lgach, unga tayanish mumkin bo'lmay qoldi.

Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri bolaning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi. Ta'lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o'qitish metodikasi maktab amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun Didaktikaning tamoyillari ta'lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham Didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida Didaktika hozirgi nomi bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Marg'inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon ped. taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning

samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, bolalarda bunday xislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan.

O'zbek milliy Didaktika sining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shukuriy, A.Ibodiyev, M.Behbudiy, AAvloniy, S.Saidazizov, R.Yusufbekov kabi ma'rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning kad. shonu shuxratini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'kligini to'g'ri belgiladi. Jahon pedagogikasining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan, ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, Didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta'limni uyushtirishning amaliy jihatlari bilangina shug'ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik qarashlari ularning ko'plab pedagogik asarlarida va qo'llanmalarida aks etgan.

Turkistonda Oktabr to'ntarishi tufayli qaror topgan sho'rolar zamonida Didaktika avtoritar pedagogikaning bir tarmog'i sifatida deyarli hamisha tarbiyaga qarshi qo'yib kelindi. Milliy tajribalarga tayanmagan, ta'lim jarayonining mazmunini yangilashga qobil bo'lmagan, maktab Didaktikasini mafkura zug'umidan xalos eta olmagan sotsialistik pedagogikaning tashqi jihatlarni pardoqlab, yaltiratib ko'rsatishga alohida e'tibor berdi. Turli-tuman usullar o'ylab topildi, ko'pdan-ko'p «ilg'or» tajribalar yoyildi. Lekin ta'limda kutilgan samaraga erishilmadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishtandan so'ng o'zbek pedagogika fani va amaliyoti milliy asoslarga tayangan holda Didaktikaning tamomila yangicha yo'nalishda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ongning o'zgarishi pedagogik tafakkurning sog'lomlashuviga, u esa, o'z navbatida, Didaktikaning milliy asoslarda rivojlana boshlashiga olib keldi. Bunda milliy Didaktikaning asosiy tamoyillarini to'g'ri belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy Didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta'limning insoniylashuvidir. Mazkur tamoyil ta'lim jarayoni uchun bilim emas, balki o'quvchi shaxsi asosiy kadriyat ekanligini anglatadi. Bunda o'quvchi shaxsini shakllantirishga ustuvor o'rin beriladi. Ta'limning insonparvarlashuvi tamoyili o'zbek Didaktika sining asosiy

talablaridan bo‘lib, ta’lim mazmo‘nini belgilash va pedagogik amaliyotni tashkil etishda shaxs ma’naviyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv fanlariga ustuvor ahamiyat berilishini kuzda tutadi. Estetik, badiiy turkumdagi predmetlarni o‘qitishga alohida e’tibor qaratish yo‘li bilan bolalarning hissiyotini shakllantirishga erishish, ularda iroda xususiyatlarini tarkib toptirish muhimdir. O‘quvchi ma’naviyati bilan uning o‘zlashtirishi o‘rtasida uzviy aloqa borligi zamonaviy psixologiya fani tomonidan asoslab berilgan. Bu holatni hisobga olmay ish ko‘rgan pedagogik muvaffaqiyatsizlikka mahkumdir. Milliy Didaktika taraqqiyotini ta’minlaydigan tamoyillardan yana biri ta’limning yaxlitligidir. Dunyodagi narsa-hodisalar yaxlit va bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekan, uni urganish ham imkon qadar yaxlit tarzda amalga oshirilishi kerak. Ta’lim jarayonida o‘quv predmetlari miqdorini ko‘paytirish emas, balki olamni bilish vositasi bo‘lmish o‘quv fanlarini imkon qadar umumlashtirish yo‘lidan borish lozim. Shuning uchun ham mustaqil O‘zbekistonning yangilangan o‘quv rejalarida ta’limning asosiy yetti tarmog‘i belgilangan bo‘lib, o‘quv fanlari miqdorini zaruratga qarab o‘zgarib turishi ko‘zda tutilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning alohida jihatlarini hisobga olish ham Didaktikaning asosiy tamoyillaridan sanaladi. U o‘qitish jarayonini har bir o‘quvchiga xos xususiyatlarni ko‘zda tutgan holda tashkil qilishni taqozo etadi. Ma’lumki, har qanday shaxs muayyan geografik muhitda shakllanadi. Uning tabiatida o‘sha muhitga xos jihatlar muhrlangan bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qitish jarayonida mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyili ham Didaktikaning zarur talablaridan biridir.

Ta’lim o‘quvchilarning ichki ehtiyojiga aylanmasa, ular bu jarayonda faol ishtirok etmasalar, hech qanday ijobiy samaraga erishib bo‘lmaydi.

Didaktika ta’lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O‘qituvchi biror predmet bo‘yicha o‘quvchilarning tizimli bilim olishini ta’minlash maqsadi sari intilar ekan, ma’lum ishlarning bajarilish namunasini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda, u ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchining faolligi va mustaqilligini ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o‘zlashtirishlari, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo‘llashlari uchun maxsus topshiriklar beriladi.

2.2. Zamonaviy didaktik konsepsiya

Didaktika - yunoncha “didasko” soʻzidan olingan boʻlib, “oʻqitish”, “oʻrgatish” degan maʼnolarni bildiradi.

Didaktika – bilim berish nazariyasi. Aniqrogʻi, taʼlim-tarbiya beruvchilar va ularni oluvchilar orasidagi pedagogik munosabatlarning kechish qonuniyatlarini aniqlovchi va shu sohada qoʻllaniladigan tushuncha, atama va qoidalarni ilmiy asoslab beruvchi hamda ularni boshqalarga oʻrgatuvchi pedagogik ilm-fan tarmogʻidir.

Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Taʼlim **jarayoni** psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» — yaxlit qismlardan tashkil toʻgan, birlashtirish) — maʼlum mezonlari asosida taʼlim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib koʻrsatish demakdir. U taʼlimning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlariga ajratadilar:

1. anʼanaviy;
2. progressiv;
3. zamonaviy.

Taʼlim nazariyasida Ya.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega.

Anʼanaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbart (1776-1841 yillar) nomi bilan bogʻliq. U Ya.A.Komenskiyning sinf-dars anʼanaviy tizimini tanqidiy nuqtayi nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda taʼlim tizimini yaratdi.

I.F.Gerbart taʼlim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat: oʻquvchilarning intellektual rivojlanishini taʼminlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

Progressiv (pedosentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol oʻynashini eʼtirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

Zamonaviy didaktik tizim. XX asming 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga boʻlingan axborotlarni etkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni oʻzlashtirishda samaradorlikka erishish gʻoyasini ilgari suradi. Mazkur gʻoya keyinchalik

dasturiy ta'lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o'quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi.

D.Dyuining nazariy g'oyalari muammoli ta'limning asosi bo'lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta'lim deb nomlanuvchi, ushbu g'oya o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o'quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta'minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta'limning vazifasi fan o'rganish jarayonini rag'batlashtirish, o'quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g'oyalarini amalga oshirish ta'lim jarayoniga insonparvarlik g'oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vigotskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan «Yaqin rivojlanish zonasi» g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra bola kattalar yordamida bilim olib, o'zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

Ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha'ni, obro'si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste'dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik, ta'lim dasturlarini tanlashda o'quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi.

5. Didaktik jarayonning qonuniyatlari.

Pedagogika fanida didaktika o'qitish va ta'lim nazariyasi demakdir. Didaktika o'qitishning qonuniyatlarini o'rganib, u «nimani o'rgatish» va «qanday o'rgatish» degan savollarga javob beradi.

Barcha ta'lim muassasalarida o'qitish, avvalo, o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham didaktika barkamol shaxsni rivojlantirishning ajralmas qismi bo'lgan aqliy tarbiya mohiyatini ochib beradi.

Didaktika hamma predmetlar uchun harakterli bo'lgan o'quv jarayonining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi.

Bilim - insoniyatning umumlashtirilgan tajribasi. Bilim - borliqdagi narsa va hodisalarni, tabiat va jamiyat qonunlarini anglab etish mahsulidir.

Didaktikaning bahs mavzusi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini, ularning vazifalarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'quv jarayonining ishtirokchilari sifatida qarab chiqish hisoblanadi.

O'qitish jarayonining mohiyati bilish jarayonining qarama-qarshiligidadir.

O'qitish jarayoni deganda o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga, ularning rivojlanishi va tarbiyasiga qaratilgan umumiy maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi murakkab mehnati jarayoni tushuniladi.

Didaktika pedagogikaning bir qismi sifatida - umumiy didaktika va metodika, xususi didaktikaga ajratib o'rganiladi.

Umumiy didaktika murakkab nazariy va amaliy muammolarni hal etadi hamda o'qitish jarayonining qonuniyatlarini ochib beradi, ta'limning mazmunini belgilaydi, samarali o'qitish metodlari va ularni yo'lga qo'yish shakllarini ishlab chiqadi, hozirgi zamon texnika vositalaridan ta'lim jarayonida unumli foydalanish va boshqa masalalarni hal etishni maqsad qilib qo'yadi.

Turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarda o'qitishning vazifalari va xarakteriga nisbatan o'ziga xos qarashlar yuzaga kelgan. Bu esa mavjud jamiyatga xos bo'lgan mahlum o'quv jarayonining tiplari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Masalan: a) dogmatik tipi;

b) tushuntiruvchi tipi;

v) tadqiqot-muammoli tipi.

O'quv jarayonining dogmatik tipi - quruq yodlash xarakteriga ega.

Tushuntirish tipi. O'quvchi, avvalo, materialni tushunsin, keyin yodlab olsin. O'quv jarayonining takomillashgan bu tipi bilimlarni egallashda dogmatizmning yo'qotilishiga sababchi bo'ldi. O'tgan asrning 30-50-yillarida bizning maktablarga o'quv jarayoni tushuntiruvchi o'qitish tipi mustahkam kirib bordi. Lekin bu tipning ham o'ziga xos kamchiliklari bor edi. Hozirgi sharoitda har bir odamning mehnati ijodiy xarakter kasb etib borayotgani sababli o'qitishning tushuntiruvchi tipida egallangan bilimlar kamlik qilar edi. Shuning uchun ham keyinchalik umumta'lim maktablarida o'qitishning tadqiqot-muammoli tipi keng joriy etib borilmoqda.

Muammoli o'qitish o'quvchilarda bilish jarayonini mustaqil va ijodiy, izlanadigan tarzda yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Umuman olib qaralganda, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi yosh avlodni ilmiy bilimlar, hayotiy zarur ko'nikma va malakalar bilan

qurollantirish ekan, avvalo, biz ana shu tushunchalarning o'zini anglab etishimiz zarur bo'ladi.

Ilmiy bilimlarni egallash muayyan dalillarni, turmushdagi predmetlararo o'zaro bog'lanishlarni, biri ikkinchisini taqozo etishini idrok etish, faxmlash, ularni izohlay olish, mustahkam o'zlashtira olish va xulosalar chiqara olish demakdir.

Ko'nikma mehnat qilish yo'llari va usullarini bilib olish, o'z bilimlarini amalda qo'llay olish demakdir.

Malaka avtomatlashgan ko'nikmadir.

Ta'lim ikki tomonlama jarayondir (o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faoliyatga asoslangan jarayon hamda o'qitish va o'qish jarayonlaridan iborat).

O'qitish, bu - o'qituvchining o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malaka berish, yangi haqiqatlarni ocha bilishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalash jarayonidir.

O'qish esa o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarini, ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, shu orqali o'zlarida bilish qobiliyatini, fikrlash va harakatlarni tarkib toptirish jarayonidan iborat.

Bu ikkilasi faol, bir-birlarini taqozo etadigan jarayonlar hisoblanadi.

Bilish jarayonining dialektikasi. Bilish jarayoni - o'qitish jarayonining metodologik asosi

O'qitish jarayonining metodologik asosini bilish nazariyasi tashkil etadi. Bu nazariya bilimni obektiv dunyoning inson ongidagi passiv tasviri, shunchaki akslanishi emas, balki uni faol jarayon sifatida qarab chiqish demakdir. Bilimda obektiv dunyodagi hodisa, jarayonlar o'z aksini topgan bo'lib, bular sababiy va qonuniy o'zaro bog'langan bo'ladi. Bilish obektiv dunyoning inson ongidagi in'ikosidir.

Bir qator tadqiqotchilar, pedagog va psixologlar dialektik-materialistik metodologiyaga tayangan holda o'qitish jarayonini dunyoqarashning shakllanishi (E.I.Monaszon, N.A.Menchinskaya va b.q.), pedagogik jarayonda tarixiy mantiqiy bog'liqlikning ahamiyati (F.F.Korolev, Z.I.Ravkin va b.q.), asosiy didaktik tushunchalarning har tomonlama metodologik tahlili (E.I.Monaszon, V.E.Gmurman va b.q.) nuqtai nazaridan qarab chiqdilar. Didaktikaning nazariy tadqiqiga L.V.Zankov (so'z va ko'rgazmalilikning bog'liqligi, ta'limning rivojlantiruvchi tahsirini kuchaytirish), S.G.Sha'ovalenko (o'qitish metodlariga turlicha yondashuv), K.P.Yagodovskiy (tadqiqot metodlari) va b.q.lar o'zlarining samarali hissalarini qo'shdilar.

Bilish nazariyasining birligi to'g'risidagi qoidaga amal qilgan tadqiqotchilar shuni tasdiqlab berdilarki, ta'lim jarayoni bilish jarayonining o'ziga xos sharoitda sodir bo'ladigan turli-tuman faoliyatlar ko'rinishidir.

O'quv jarayonida yangilik yaratish, ixtiro qilish talab qilinmaydi, balki tayyor bilimlarni ijodiy o'zlashtirish yo'lga qo'yiladi. Ushbu jarayon zamirida olimlar tomonidan uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tezkor bilish jarayoni yotadi. Bilimlarning juda ko'plab ko'rinishlari o'quvchilar tomonidan, bevosita o'rganilmaydi, balki o'qituvchi yordamida tezkor bilish yo'llaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Haqiqatga etish o'ta murakkab dialektik jarayondir. Dialektikasiz bilishning o'zi, uning rivojlanishi bo'lmaydi. Bilishda jarayonlarning bog'liqligi, Ya'ni ichki butunlik va ular elementlarining o'zaro bog'liqligi mavjud.

Lekin bilish dialektikasining mohiyati, eng avvalo, uning ichki qarama-qarshiligidadir. Dunyodagi barcha jarayonlar bilish shartlarida, ularning ichki harakatida, o'z-o'zining harakatida, barcha ziddiyatlarning o'zaro bog'liqligidadir. Shuningdek, bilish o'zgaruvchanlikda, rivojlanishda, uzluksizlikda, sakrovchan, doimo bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tib turishda namoyon bo'ladi.

Bilish tafakkurning obektga doimiy to'xtovsiz yaqinlashuvidir. Tabiatning inson ongidagi inhikosini «o'lik», «abstrakt», harakatsiz, qarshiliksiz bir narsa deb emas, balki doimiy rivojlanishdagi, doimiy qarama-qarshilikdagi va uni hal etishdagi jarayon deb bilish kerak.

Shuning uchun ham biz₂ yuqoridagi metodologik asosga tayanib, ilmiy haqiqatlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish qanday kechayotganligini, o'quvchi o'zlashtirishni qaysi bosqichida turganligini, bilish jarayonida ularning harakatidagi ziddiyatlar nimadan iboratligini aniqlashimiz zarur.

Psixologlar va didaktikashunoslar tomonidan isbotlanishicha, o'quvchi shaxsiy tajribasi va ilmiy bilimlar o'rtasidagi, bilish vazifalarini aniqlash zaruriyati bilan uni hal etish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda jonli bilish jarayoni yotadi. Bunda o'quvchi butun imkoniyatlarni (intellektual tajribani) ishga solib, bu ziddiyatdan chiqib ketishga harakat qiladi.

Eng muhimi, bizning vazifamiz shu masalani hal etishda uchraydigan ziddiyatlarni izlab topish, aniqlash, so'ng shu qarama-qarshiliklarni hal etish imkoniyatlarini, yo'llarini, shartlarini ochib

berishdan; o'quvchilarning faol bilish jarayonini tashkil etishga undovchi ichki intilish, ehtiyojni yuzaga keltiruvchi qo'zg'atuvchi vositalarni izlab topishdan iborat. Xuddi shu qo'zg'atuvchi o'qitish jarayonini harakatga keltiruvchi kuch bo'lib maydonga chiqadi.

O'qitish jarayonini harakatlantiruvchi asosiy qarama-qarshiliklar doimiy murakkablashib, qiyinlashib borayotgan talablar bilan o'quvchilar imkoniyatlari (bilim darajasi, rivojlanganligi, motivlar, usullarni egallash darajasi) o'rtasidagi ziddiyatlardir. Bu qarama-qarshilik o'zini mazmun (bilim, ko'nikma)da, qo'zg'atuvchi usullar va operatsiyalar (bilish usullari)da namoyon etadi.

Bu qarama-qarshiliklar quyidagilardir:

1. O'quvchilarning oldingi bilimlari darajasi bilan yangi bilimlar o'rtasidagi;
2. Bilimlar bilan uni qo'llash o'rtasidagi;
3. Yangi qo'yilayotgan talablar bilan oldin o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilish va o'qitishga munosabat o'rtasidagi;
4. Yangi bilish vazifalarini hal etish uchun ilgari surilayotgan metodlar bilan oldin egallangan eski bilish usullari, yo'llari o'rtasidagi ziddiyatlar.

Har qanday bilish amaliy jarayonda ro'y beradi, chunki amaliyot nazariy bilishdan yuqoridir, ya'ni u faqat umumiylik qiymatiga ega bo'libgina qolmay, balki bevosita voqelik qiymatiga ham egadir. Jonli muloqotdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga - haqiqatni bilishning, obektiv reallikni bilishning dialektik yo'li mana shu.

Sezish ongning tashqi dunyo bilan bevosita bog'lanishidir, tashqi ta'sir energiyasining ong faktiga aylanish jarayonidir.

Idrok voqelikdagi mavjud narsa va hodisalarning inson ongida yaxlit holicha aks etishidir.

Tasavvur sezgi va idrok qoldirgan iz bo'lib, u bosh miya po'stlog'ining plastikligi tufayli odam ongida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

7. Ta'lim yo'nalishining rivojlanishi. Ta'lim paradigmalari. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma (modeli)lari. Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» — misol, namuna) — pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan eptirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An'anaviy - konservativ paradigma (bilim paradigmasi).
2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma.
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik paradigma.
5. Ezoterik paradigma.

Ayni vaqtda ta'lim paradigmalarini belgilashga nisbatan uch xil yondashuv mavjud:

1. Qadriyatli (aksiologik) yondashuv — madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli yondashuv asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy yondashuv — madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo'ladi.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir paradigma muayyan ta'limiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o'quv muassasalarining vazifalari;
- ta'limning samarali tizimi;
- o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta'limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmalar mavjud:

1. Bilim olishning an'anaviy paradigmasi (J.Majo, L.Kro, J.Ka'el va boshqalar)

Unga ko'ra ta'limning asosiy maqsadi — «Bilim, qanchalik qiyin bo'lmasin bilim olish». An'anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari — bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga etkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta'lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga etkazish.

2.Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'limning

ratsionalistik modeli asosini B.Skinnerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha *behavior* — xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi — o‘quvchilarda g‘arb **madaniyati ijtimoiy qoidalari**, talablari va ko‘zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi «xulqiy repertuar»ni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, «xulqi» atamasi bilan «insonga xos hamma ta’sirlanishlar — uning fikrlari, sezgi va harakatlari» ifodalanadi (R.Tayler).

Bunda ta’limning asosiy metodlari, o‘rgatish, trening, test sinovlari, individual ta’lim, tuzatishlari bo‘lib qoladi. Buning oqibatida, ta’limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

P.Blum barcha o‘quvchilar faqat o‘zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o‘qishlari mumkin deb hisoblaydi. O‘quvchining optimal qobiliyatlari ma’lum sharoitlarda, o‘quvchiga ta’lim berish natijasi uning sur’ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, ta’lim oluvchilarning 95 foizi ta’lim muddatlariga bo‘lgan cheklashlar olib tashlanganda o‘quv kursining butun mazmunini o‘zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtayi nazardan o‘quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishini ta’minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to‘la o‘zlashtirish etaloni, mezonini aniq belgilab olish asosida, o‘qituvchi ta’lim yakunida erishilishi kerak bo‘lgan aniq natijalarning ro‘yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O‘quv birliklari, ya’ni, o‘quv materiallarining yaxlit bo‘limlari ko‘rsatiladi, ularni o‘zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta’sir ko‘rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari — tuzatish, korreksiyalashdan iborat.

3. To‘la o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan har bir o‘quv kurs materiallarini o‘zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o‘tkazish. Bu o‘rinda har bir o‘quvchiga baho va ta’lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim.

Predmetlarni bo‘sh va o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSh va boshqalar) ta’lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) paradigma g‘oyalariga muvofiq ish ko‘rilganda 70 % o‘quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko‘rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'nalishlari o'zida insonparvarlik g'oyalari ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rin tutishini nazarda tutmaydi.

3. Gumanistik (fenomenologik) paradigmaga ko'ra (A.Maslov, A.Kombs, K.Rodjers, L.S.Vigotskiy va boshqalar) ta'lim **oluvchi erkin** shaxs, ijtimoiy munosabatlar subekti sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo'naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen yunoncha «phainomenon» — hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Uning vakillari o'quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik paradigma g'oyalari 1991-yildan keyin respublika uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, «erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash» masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda, respublika ta'lim muassasalarida quyidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. ... Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».

Ezoterik paradigma (yunoncha «esoterikos» ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo'ljallangan insonning dunyo bilan o'zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o'zgarmas, doimiy ekanligini ta'kidlashdan iborat. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo'lmasligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o'quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan biiga, o'qituvchining himoyalash vazifasi muhimdir, u o'quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma'naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta'lim oluvchilarga «aniq» ilmiy bilimlarni berish va ularning o'zlashtirilishini ta'minlashdir. Bilim kuchdir, shu bois shaxs qimmatini uning o'rganish, **bilim olish**, imkoniyatlari bilan

belgilanadi. Shaxs muayyan (o'rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq-atvor egasi bo'lsagina qadriyat sifatida e'tirof etiladi degan g'oya ushbu paradigmaning asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda noinstitutsional paradigma rivojlana boshladi. U ta'limni ijtimoiy institutlar, ya'ni, maktab va oliy ta'lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Bu ta'lim «tabiatda» — Internet, «ochiq maktablar» — kompyuterlar vositasida ta'lim dasturlariga (masofadan o'qitish) muvofiq o'qitish samarali deya hisoblaydi.

2.3. Ta'lim turlari va ularning tavsifi


Ta'lim - bu inson tomonidan yangi bilimlar, xatti-harakatlar, ko'nikmalar, qadriyatlar yoki imtiyozlarni egallashi yoki ilgari egallaganlarini o'zgartirishi mumkin bo'lgan faoliyat. Bu barcha hayvonlarda keng tarqalgan jarayon, garchi har bir tur uni amalga oshirish mexanizmlari turlicha bo'lsa.

Ta'lim turlarini o'rganish ko'plab turli xil fanlar uchun katta ahamiyatga ega, ular orasida pedagogika, psixologiya, terapiya, va nevrologiya ajralib turadi. Shu sababli, odamlarning xulq-atvorini o'rganish fanining boshlanishidan boshlab, bu uning ichida eng muhim mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Garchi ta'lim turlarini har xil yo'llar bilan ajratish mumkin bo'lsa-da, biz ularni ikkita mezon asosida: o'qitish uslubiga va o'rganish uslubiga qarab tasniflashni o'rganamiz.

O'qitish uslubiga ko'ra o'rganish turlari

Assotsiativ o'rganish



Assotsiativ ta'lim - bu shaxsning ikkita ogohlantiruvchi yoki hodisa o'rtasida assotsiatsiya yaratishga qodir bo'lgan jarayoni. Bu klassik va operant konditsionizatsiya kabi hodisalar ortida turadigan va shu sababli psixologiya tarixidagi

eng muhim ta'lim turidir.

Assotsiativ ta'lim yuzaga kelganda, odam o'z ongida dastlab bir-biriga hech qanday aloqasi bo'lmagan ikki element o'rtasidagi munosabatni o'rnatadi. Tarixda eng taniqli misollardan biri Pavlovning itlari, ular har safar qo'ng'iroq ovozi eshitganda tupurik chiqarishi shart edi.

Assotsiativ ta'lim asosan ikki yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin. Bir tomondan, munosabatlar, biz hozir keltirgan misolda bo'lgani kabi, stimullardan biri tomonidan boshqasiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu psixologiya dunyosida klassik konditsioner sifatida tanilgan.

Boshqa tomondan, shaxs harakatni mukofot yoki jazo bilan bog'lashi mumkin, shunday qilib ular buni amalga oshirish ehtimoli yana kamayadi yoki ular ustida qilgan assotsiativ o'rganishga qarab ortadi. Ushbu turdagi ta'lim operant konditsionerligi deb nomlanadi.

Assotsiativ bo'lmagan ta'lim. Assotsiativ ta'lim tanganing boshqa tomoni assotsiativ bo'lmagan ta'limdir. Birinchisidan farqli o'laroq, bunda xulq-atvor, munosabat yoki fikrning o'zgarishi bitta stimulning doimiy takrorlanishi tufayli yuzaga keladi. Shuning uchun shaxsning ongida hech qanday munosabatlar o'rnatilmaydi.



Assotsiativ bo'lmagan ta'lim shuningdek, bixeviorizmning juda muhim qismidir va ikkita asosiy vositaga tayanadi: odatlanish va xabardorlik. Ta'limning ikkala shakli ham hayvonot dunyosining aksariyat turlarida mavjud bo'lib, butun dunyoda eng keng tarqalgan. Masalan, salyangoz va hamamböcegi assotsiativ bo'lmagan o'rganishga qodir ekanligi isbotlangan.

Assotsiativ bo'lmagan ta'lim bizning kundalik hayotimizda ham, ixtisoslashgan sharoitlarda ham juda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, masalan, odatlanish kognitiv-xulq-atvor terapiyasida eng ko'p ishlatiladigan vositalardan biridir; va sog'ligimiz uchun xavf tug'diradigan zararli ogohlantirishlar bilan ta'sir o'tkazish ehtimolini kamaytirish uchun xabardorlik juda muhimdir.

Yashash. Yuqorida aytib o'tganimizdek, odatlanish assotsiativ bo'lmagan ta'limning yuzaga kelishining ikkita asosiy usulidan biridir. Bilimlarni egallashning ushbu shakli, agar u bizning farovonligimiz yoki omon qolishimiz uchun alohida ahamiyatga ega bo'lmasa, u bir necha marta takrorlanganda stimulga bo'lgan munosabatni kamaytirishga asoslanadi.

O'rganish - bu bizning atrofimizga moslashishga eng ko'p yordam beradigan vositalardan biridir. Dastlab bizni juda ko'p noqulayliklarga olib kelgan stimullar vaqt o'tishi bilan osongina toqat qiladigan narsaga aylanishi mumkin va biz buni sezmaymiz. Bu, masalan, katta shaharlarda dastlab juda bezovta qiluvchi, ammo oxir-oqibat zararsiz bo'lib qoladigan odatiy shovqinlarda sodir bo'ladi.

Boshqa tomondan, odatlanish boshqa yo'l bilan ham ishlashi mumkin; ya'ni ijobiy stimullarga odatlanib, vaqt o'tishi bilan o'z kuchlarini yo'qotishiga sabab bo'ling. Bu, masalan, giyohvandlikning aksariyat turlarining asosidir, chunki odam har safar uni iste'mol qilganda yoqimli ta'sirni his qilish uchun ko'proq dozani talab qiladi.

Sensitizatsiya. Ko'p jihatdan sensitizatsiya odatlanishning teskari jarayoni. O'qishning oldingi turi singari, u ham assotsiativ bo'lmaganlar to'plamining bir qismidir. Bundan tashqari, u deyarli barcha hayvonlarda mavjud bo'lgan atrof-muhitga moslashishning asosiy vositalaridan biridir. Biroq, uning ishlashi odatlanishning aksidir.

Sensibilizatsiya paytida stimulg bo'lgan munosabat odam ta'sirida kuchli va kuchliroq bo'ladi. Bu odatda ikkita mumkin bo'lgan sabablardan biriga bog'liq: yoki rag'batlantiruvchi narsa juda yangi, yoki u shaxsning farovonligi yoki hayoti uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, fobiya bilan og'rikan odamlar, odatda, ularni qo'rqitadigan stimulg nisbatan sezgirlik jarayonini o'tkazadilar. Bu shuni anglatadiki, odam o'zining fobik stimulg duchor bo'lganligi sababli, bezovtalik kamayishi o'rniga, aksincha toqat qilib bo'lmaydigan darajada kuchayadi.

Muhim o'rganish. Ma'noli o'rganish bu odamga yangi ma'lumotni saqlashga qodir bo'lgan bilimlarni olish jarayonidir, chunki u uni miyasida mavjud bo'lgan narsalar bilan bog'laydi. Bunda eski va yangi ma'lumotlar o'zgartiriladi va qayta tiklanadi, bu jarayonda bir-biriga ta'sir qiladi.

Ta'limning mazmunli nazariyasi konstruktivistik psixologiyada mavjud bo'lib, uni birinchi bo'lib psixolog Devid Ausubel taklif qilgan. Ushbu mutaxassisning fikriga ko'ra, yangi o'rganish ilgari mavjud bo'lgan aqliy tuzilmalarga bog'liq bo'lib, ular o'z navbatida olingan yangi ma'lumotlar asosida o'zgartiriladi.

Ushbu nazariya yaratilganidan beri G'arbiy dunyodagi aksariyat ta'lim tizimlari o'z o'quvchilarida mazmunli o'rganish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor berishga harakat qildilar. Chunki nazariyada shu tarzda olingan ma'lumotlar xotirada uzoqroq saqlanib qoladi va ulardan osonroq foydalanish mumkin.

Tajriba asosida o'rganish. Uning nomidan ko'rinib turibdiki, eksperimental o'rganish - bu shaxsning bevosita tajribasi va uning o'z harakatlarida amalga oshiradigan aks etishi natijasida yuzaga keladi. Bu ko'p jihatdan an'anaviy ta'lim sharoitida eng ko'p ishlatiladigan xotira asosida bilimlarni o'zlashtirishga qarama-qarshi jarayon.

Tajribali o'rganishda o'quvchi etakchi rolni egallaydi, chunki ularning harakatlari ular olgan bilim sifatini belgilaydi. Shu tarzda, ushbu ta'lim shakli faol, kooperativ yoki joylashgan kabi boshqalar bilan bog'liq.

An'anaga ko'ra, ushbu ta'lim turi avvalambor jismoniy harakatlar va tanani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos ko'nikmalarni egallashda qo'llanilgan. Masalan, haydashni o'rganish, avvalo, shaxsning o'z tajribasi orqali amalga oshiriladi.

Biroq, ba'zi zamonaviy ta'lim modellari, tajribani o'rganishni ko'proq nazariy mavzularda foydalanishni taklif qiladi, chunki olingan bilimlar boshqa unchalik amaliy bo'lmagan usullarga qaraganda xotirada yaxshiroq o'rnatilishi mumkin. Ushbu usul hali keng tarqalmaganiga qaramay, uning mashhurligi yillar davomida o'sib bormoqda.

Ta'sirchan o'rganish. Tajribali o'rganishdan farqli o'laroq, retseptiv o'rganishda o'qituvchi yoki o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi. Bu o'quvchilarga allaqachon tasdiqlangan, ishlab chiqilgan va qayta ishlangan bir qator bilimlarni o'quvchilar ularni faqat yodlashlari sharti bilan etkazish uchun javobgardir. Odatda bu ularga takroran ta'sir qilish orqali amalga oshiriladi.

Qabul qiluvchi ta'lim an'anaviy ta'lim tizimlarida eng keng qo'llaniladi va hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu turdagi ta'lim asosida o'qitish amalda dunyoning barcha kollejlari, institutlari va universitetlarida mavjud.

Biroq, retseptiv o'rganish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu yangi bilimlarni olishning eng kam samarali usullaridan biri. Buning sababi shundaki, o'quvchilar o'zlariga kelgan ma'lumotni tashqi tomondan qayta ishlashlari shart emasligi sababli, ularni yodlashlari va uzoq muddat yodda tutishlari ancha qiyinlashadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, retseptiv o'qitish, avvalambor, sof xotiraga asoslangan bo'lib, o'quvchilar o'zlari olgan ma'lumotlarini ishlab chiqishi yoki uni aks ettirishi kutilmasligi kerak.

Hamkorlikda o'rganish. Hamkorlikda o'rganish - bu umumiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini ijtimoiy tajribaga aylantirishga qaratilgan nazariya bo'lib, unda o'quvchilar bir-biri bilan yanada murakkab maqsadlarga erishish va yakka o'zi erisha olmagan vazifalarni bajarish uchun hamkorlik qilishadi.

Hamkorlikda o'rganish qisman Lev Vigotskiy tomonidan taklif qilingan proksimal rivojlanish zonasi nazariyasiga asoslangan. Ushbu rus psixologi, agar biz boshqa birovning yordamiga ega bo'lsak, amalga

oshirishimiz mumkin bo'lgan ma'lum bir ta'lim borligini tasdiqladi. Jon Devi kabi boshqa zamonaviy mutafakkirlar ushbu nazariyani kengaytirdilar va bugungi kunda biz biladigan fikrga aylantirdilar.

Mazmunli o'rganish tarafdorlari an'anaviy bilimlarni egallash mustaqillikka asoslangan deb hisoblaydilar. Aksincha, ushbu yangi o'rganish usuli o'zaro bog'liqlik bilan bog'liq; ya'ni bu qismlarning yig'indisi alohida-alohida kattaroq bo'lgan hamkorlik.

O'quv mazmunli nazariyasining eng muhim g'oyalardan ba'zilari guruhlarini shakllantirish, ijobiy o'zaro bog'liqlik mavjudligi, teng ishtirok etish va o'quvchilarning har biri uchun individual javobgarlikning ahamiyati.

Hamkorlikda o'rganish. Hamkorlikda o'qitish - bu kooperativ ta'lim shakli bo'lib, unda o'quvchilar turli darajadagi va qobiliyatli o'quvchilardan iborat kichik guruhlarda ishlaydi. Shu tarzda, ular boshqacha tarzda erisha olmagan maqsadlarga erishish uchun bir-birini kuchaytirishi mumkin.

Hamkorlikda o'qitishda har bir o'quvchi nafaqat o'zi, balki o'z guruhining boshqa a'zolari uchun ham javobgardir. Ushbu turdagi jarayon faqat hamma taklif qilingan vazifani muvaffaqiyatli bajarganida tugallangan hisoblanadi.

Vicarious learning. Vicarious learning nazariyasi odamlar yangi bilimlarni, g'oyalarni yoki munosabatlarni oddiygina boshqa shaxslarni kuzatish yo'li bilan olishlari mumkin degan fikrga asoslanadi. Masalan, ma'lum bir xatti-harakatni amalga oshirishda kimdir azob chekishini kuchaytirishi va jazolarini kuzatish orqali biz kelajakda buni amalga oshirish ehtimolini o'zgartira olamiz.

Hissiy o'rganish. Hissiy o'rganish g'oyalar, tajribalar va ko'nikmalar bizning his-tuyg'ularimizga katta ta'sir ko'rsatganda xotirada yaxshi saqlanadi degan g'oyaga asoslanadi. Ushbu nazariya uni qo'llab-quvvatlovchi katta ilmiy yordamga ega va mazmunli o'rganish kabi boshqalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Hissiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bizni juda ijobiy yoki o'ta salbiy his-tuyg'ularni his qiladigan tajribalar ongimizga ancha ta'sir qiladi. Shu sababli, ularni yodlash va ularga kirish osonroq. Ko'pincha, tajriba etarlicha kuchli bo'lsa, biz undan o'rganish uchun uni faqat bir marta takrorlashimiz kerak.

Kashfiyot orqali o'rganish. Kashfiyotni o'rganish - bu o'quvchi taklif etilayotgan har xil mavzular bo'yicha mustaqil ravishda o'rganishi kerak bo'lgan mazmunli ta'lim turi. Shu tarzda, u o'z bilimlarini

egallashda ancha faol rol o'ynaydi, o'qituvchi faqat savollarga javob beradigan yoki kerak bo'lganda o'quvchini qo'llab-quvvatlaydigan ko'rsatma bo'ladi.

Kashfiyotni o'rganish an'anaviy o'qitish uslublariga qaraganda ancha samarali ekanligi isbotlangan, ammo shu bilan birga uni amalga oshirish ancha qimmatga tushadi.

Rote o'rganish. Kashfiyotni o'rganishga qarshi bo'lgan o'qitish usuli butunlay xotiraga asoslangan. U ishlatilgan kontekstda, odam asosiy vosita sifatida takrorlashni ishlatib, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlashi kutilmoqda.

Uzoq o'qishda o'quvchi yangi bilimlarini bilganlari bilan bog'lashi shart emas, lekin u uchun hech qanday aloqasi bo'lmagan holda toza ma'lumotlarni saqlashi kutilmoqda. Garchi bu ta'lim tizimida eng keng tarqalgan usul bo'lsa-da, u eng kam samarador bo'lganligi ham ko'rsatildi.

Yashirin o'rganish. "Yashirin ta'lim" atamasi inson tomonidan ongli ravishda harakat qilmasdan va aniq metodlar, strategiyalar yoki harakatlar rejalarini qo'llamasdan amalga oshiriladigan barcha ta'lim turlarini qamrab oladi. Ba'zan bilimlarni egallashning bu turi ongsiz o'rganish deb ham ataladi.

Yashirin ta'limda, shaxs hech qachon o'z g'oyalari, qobiliyatlari yoki imkoniyatlarini o'zgartirayotganini bilmaydi. Shuning uchun, odatda, bu tartibga solingan o'qitish sharoitida emas, aksincha kundalik hayotda va norasmiy vaziyatlarda sodir bo'ladi. Biroq, o'qituvchilar bundan ba'zi hollarda ham foydalanishlari mumkin.

Yashirin o'rganishga misol qilib ona tilini egallash mumkin. Bolalar o'rganayotganlarini bilishmaydi, ammo shunga qaramay, atrofdagi kattalarni gaplashayotganda ularni tinglash orqali ular keyinchalik qo'llashlari mumkin bo'lgan juda ko'p yangi ma'lumotlarni saqlashmoqda.

Aniq o'rganish. Yashirin ta'limdan farqli o'laroq, aniq o'rganish - bu odam yangi g'oyalar, ko'nikmalar yoki munosabatlarga ega ekanliklarini to'liq anglab etganda yuzaga keladi. Bu asosan an'anaviy ta'lim sharoitida uchraydi, lekin biz uni boshqa ko'plab holatlarda ham topishimiz mumkin.

Masalan, velosiped haydashni o'rganayotgan bola nima qilayotganidan xabardor, shuning uchun bu jarayon aniq ta'lim shakli bo'ladi. Xuddi shu narsa imtihonlarda tahsil olayotgan o'quvchi yoki til testini topshirishga tayyorlanayotgan shaxsda ham yuz beradi.

O‘qish uslubiga ko‘ra turlari. O‘qitishning turli xil turlari bilan bir qatorda, o‘quvchi yangi bilimlarni olish uchun foydalanadigan asosiy strategiyasiga qarab ham o‘zgaradi. Ushbu bo‘limda biz eng muhimlarini ko‘rib chiqamiz.

Vizual. Odamlarning aksariyat qismi ta’lim olish uchun asosan vizual fikrlashdan foydalanadilar. Shuning uchun o‘qish, video tomosha qilish, diagramma tuzish yoki kuzatish kabi usullar yangi mahoratni o‘rganish yoki ma’lumotni osonroq saqlash uchun juda foydali.

Vizual ta’lim - bu borada asosan ishonadigan har qanday odam. Shu tarzda, o‘z sinfiga dars berish uchun slayd taqdimotidan foydalangan o‘qituvchi ushbu strategiyaga qaratilgan o‘qitish shaklidan foydalangan bo‘ladi.

Og‘zaki. Vizual ta’limdan farqli o‘laroq, og‘zaki o‘rganish asosan so‘zlar va eshitishlarga asoslangan narsadir. Audiokitob yoki podkastni tinglashda yoki o‘qituvchi faqat uning ovozidan foydalanadigan master-klassda osonroq o‘rganadigan odamlar asosan ushbu o‘quv strategiyasidan foydalanishadi.

Og‘zaki o‘rganish vizual ta’limga qaraganda ancha kam tarqalgan, ammo an’anaviy ta’lim tizimlarida ham bu juda muhimdir.

Musiqiy. Musiqiy ta’lim - bu musiqa san’atini o‘rganish va o‘qitishning barcha jarayonlari bilan bog‘liq. U an’anaviy ta’lim tizimida ham, tartibga solinadigan badiiy ta’limotlar kabi boshqa sohalarda ham, hatto bizning kundalik hayotimizda ham qo‘llaniladi.

Musiqiy ta’lim og‘zaki o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq, chunki ikkalasi ham asosan eshitishga asoslangan. Biroq, bu holda yangi bilimlarni olish haqida gap ketganda musiqa ohang, ritm, tembr yoki uyg‘unlik kabi musiqani tashkil etadigan eng muhim elementlar hisoblanadi.

Musiqani o‘rganish uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘lgan odamlar yangi tilni o‘zlashtirish kabi tinglashni talab qiladigan boshqa sohalarda ham rivojlangan ko‘nikmalarga ega ekanligi aniqlandi.

Mantiqiy. Mantiqiy ta’lim - bu asosan g‘oyalar, tushunchalar va nazariyalar o‘rtasidagi munosabatlarga va ularni yangi sharoitlarda qo‘llashga asoslangan. Umuman olganda, bu xotirani ishlatishdan ko‘ra ko‘proq kuch talab qiladi, ammo u yaratgan bilim yanada bardoshli va undan moslashuvchan foydalanish mumkin.

Mantiqiy ta’lim asosan fan va matematika bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sohalarda qo‘llaniladi. Shu sababli, ushbu ko‘nikmaga ega bo‘lgan

odamlar ko‘pincha tadqiqot, muhandislik yoki texnologik rivojlanish sohasida pozitsiyalarni egallaydilar.

Ijtimoiy. Ijtimoiy ta‘lim - bu guruh ichida amalga oshiriladi. Bilim olishning asosan ushbu usulidan foydalanadigan odamlar yuqori darajadagi shaxslararo intellektga ega va odatda juda ochiqchasiga. Ularning asosiy kamchiliklari - guruh mavjud bo‘lmaganda, yolg‘iz ishlashda qiynalish.

Yolg‘izlik. Ijtimoiy ta‘limdan farqli o‘laroq, yakka boshqa odamlarning ishtirokisiz yuzaga keladigan narsadir. Bilim olishning ushbu usulini afzal ko‘rganlar ko‘pincha loyihalarda hamkorlik qilishda qiynalishadi va yangi ko‘nikmalarni egallashga urinayotganda boshqalar to‘sqinlik qiladilar.

Asosan yolg‘iz o‘rganadigan shaxslar o‘rtacha darajaga qaraganda introvert bo‘lib, yaxshi intellekt darajalariga ega.

Didaktik g‘oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g‘oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o‘ziga xos tizimlar ko‘rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta‘lim turlari o‘quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi.

Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestit (Baqtiriya, Sug‘diyona, Xorazmda – Eramizdan avvalgi VII-VI asrlar);
- yunon (Ellins, rim – yunon, rim – eramizdan avvalgi V-I asrlar);
- o‘rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish – ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish, muammoli – dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog‘idan foydalanib o‘qitish va shu kabilar);
- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish–ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish, muammoli – dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog‘idan foydalanib o‘qitish va shu kabilar).

“Avesto” g‘oyalariga ko‘ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo xududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganida tashkil topdi. “Avesto” zardushtiylikning muqaddas manbai bo‘lib, u o‘z davrining qomusiy asari hisoblangan.

Uning g'oyalari binoan yoshlarni o'qitish va tarbiyalash quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- yoshlarni diniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash;
- jismoniy jihatdan tarbiyalash;
- yoshlarni o'qish va yozishga o'rgatish orqali ularning savodxonligini shakllantirish.

“Avesto” g'oyalari bo'yicha Yer, Quyosh, suv, olov muqaddas deb e'tirof etilganligi sababli yoshlarni tarbiyalashda Ona Yerga, atrof – muhit, tabiatga muhabbat hissini o'yg'otish muhim yo'nalish hisoblangan. Shuningdek, unga barkamol shaxs obraziga qo'yilgan talablar haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan.

Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469 – 399 er. avv. yillar) va ularning o'quvchilari tomonidan keng qo'llanilgan **yordamchi savollarga javob topish metodi** hisoblanadi. Bu metod fanda **suqrotcha suhbat metodi** nomini olgan. Bu metodning mazmun – mohiyati quyidagicha bo'ladi, ya'ni bunda eng avval o'qituvchi o'z o'quvchisida qiziqish yo'nalishini va bilishga intilishini o'yg'otadigan savollardan foydalanilgan; keyin esa mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea – hodisalarning mohiyatini idrok etishga undagan. Demak, suqrotcha suhbat metodida qiziqishdan bilishga, bilishdan idrok etishga qarab induktiv metod asosidagi faoliyat dinamikasi shakllantirilgan. Mazkur jarayonda o'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirib turilgan. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o'qitish – bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, u o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ularning ilk ko'rinishlari iste'molda bo'lib, unda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Bu borada **musulmon pedagogik konsepsiyasi** sezilarli darajadagi ma'naviyatlilik va intellektuallik xususiyatlariga hamda mazmun – mohiyatga ega bo'lgan. Ularning g'oyalari bo'yicha o'z faoliyatlarida bilimlardan faol va ijodiy foydalana oladigan odamgina komillikka erishish mumkin, degan hukumiy fikr shakllangan.

“**Haqiqiy g'oyalar**” deb nom olgan pedagogik tizimning asosiy tayanch nuqtasi **haqiqiy bilimlarni** o'zlashtirishdan iborat bo'lgan. Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma” va “Bilimlar kitobi” nomli asarlarida ham mazkur muammo yechimiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularda ta'kidlanishicha haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikkita to'siq halaqit

qiladi. Ular: soʻzlarning aniq emasligi; fikrlarning tushunarli emasligi. Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etishda logika fani yutuqlari va ulardan isteʼmolda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musulmon mamlakatlarida yoshlarni oʻqitish va tarbiyalashda ular tomondan arab tilida yozilgan “Qurʼoni Karim”ni va “Hadisi Sharif”ni yod olinishi bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bulardan tashqari oʻsha paytda bir qator maktablarda fors tili ham oʻrgatilgan. Yoshlar asosiy taʼlimni maktablar – boshlangʻich maktabdan olganlar va unda ilohiy va muqaddas kitobni (“Qurʼoni Karim”ni va “Hadisi Sharif”ni) oʻqish, yodlash va talqin qilish mashgʻulotlari, shuningdek, boshqa manbalar boʻyicha ham oʻqish, yozish va hisoblash tafakkurini shakllantirish faoliyatlari amalga oshirilgan.

Demak, dogmatik oʻqitishda yoshlarning asosiy faoliyatlarini tinglash, oʻqish, yod olish, eslab qolish va matnni soʻzma – soʻz takrorlashlar tashkil etgan.

Yoshlarning oliy maʼlumot olishi oʻsha davrlardagi nufuzli madrasalarda amalga oshirilgan. Movarounnahrda eng yirik oʻquv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va Gʻijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu maʼrifiy markazlarining rivojlanishi XV – XVII asrlarga toʻgʻri keldi. Madrasalarda, oʻqitish fors tilida olib borilgan. Ularda taʼlim oluvchilar majburiy tarzda arab tilini ham oʻrganganlar.

Madrasalar oʻquv rejasiga grammatika, Qurʼoni Karim, Hadisi Sharif, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, ilmi hujum, huquqshunoslik, riyoziyot, handasa, jugʻrofiya va shu kabi fanlar kirgan. Oʻqitish asosan ogʻzaki shaklda olib borilgan. Ulardagi oʻquv adabiyotlari asta – sekin ancha koʻp qirrali, turli – tuman boʻlib boravergan.

Dogmatik oʻqitish oʻrniga asta – sekin oʻquv jarayonida koʻrgazmalilikni keng jalb etish natijasida **tushuntirish, tushuntirish – namoyish etish** kabi taʼlim shakllari qoʻllanila boshlandi.

Hozirgi vaqtda, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan zamonaviy taʼlim muassasalarida taʼlimning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

- **tushuntiruvchi – namoyish etuvchi taʼlim.** Bu anʼanaviy yoki axborot beruvchi taʼlim deb ataladi;

- **muammoli oʻqitish;**

- **dasturlashtirilgan taʼlim yoki kompyuterli oʻqitish.**

Bugungi kunda oʻrta asrda keng qoʻllanilgan taʼlim turlari dogmatik va sxolastik oʻqitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.

Tushuntiruvchi – namoyish etuvchi ta'lim turi. Uning asosiy metodi ko'rgazmalilik asosida tushuntirishdan iborat bo'lib, uning asosini tinglash va eslab qolish tashkil etadi. Bu ta'lim turi vaqtni tejash, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning vaqtni tejash, qiyin bilimlarni tushunishini osonlashtirish, ta'lim jarayonini optimal boshqarishni ta'minlaydi. Biroq bu ta'lim turida ayrim kamchiliklar mavjud, ya'ni, "tayyor" bilimlarni berish va ta'lim oluvchilarni bilimlarini o'zlashtirishida mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiyallashtirish imkoniyatlarining kamligi.

Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Bunday ta'lim texnologiyasi turli tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki ta'lim oluvchilarni faol ishtirok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma – ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi, chunki mazkur jarayonda fikrlash jarayonida qiyinchilik his qilinadi.

Muammoli o'qitishda muammoni ilgari surish **dastlabki bosqich** hisoblanadi. Muammoni hal etishning **keyingi bosqichida** ta'lim oluvchilar berilayotgan savol bo'yicha mavjud muammoni aniqlaydilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. **Uchinchi bosqich** muammoni yechish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan faoliyat bo'lib, u ta'lim oluvchida mustaqil fikr shakllanishi orqali aniqlanadi. Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, egallangan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonlari amalga oshiriladi.

Muammoli topshiriqlar savollar, o'quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savolda javoblar izlash turli variantlarda bo'lishi mumkin.

Muammoli masala esa uni yechish yo'llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o'quv – o'rganish topshirig'idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlar o'rtasidagi qarama – qarshiliklar tashkil etadi.

O'qish jarayonida muammoli vaziyat subyekt (ta'lim oluvchi) o'zi uchun qiyin bo'lgan masalani yechishga qiziqishi, ammo unga

ma'lumotlar yetishmasligi va uning o'zi ularni izlab topishi zarurligini ko'zda tutiladi.

Muammoli o'qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatni tashkil etish asosida bilimlarni mustahkam egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalariga erishish. **Kamchiliklari** ta'lim oluvchilarning idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil hal qilish imkoniyatini har bir ta'lim oluvchiga taqdim etishning qiyinchiligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta'lim (Dasturlashtirilgan ta'lim) harakat (operatsiya) lar ketma – ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish oldindan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi “dastur” terminidan kelib chiqadi.

Dastur – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilarga ta'lim – tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini og'ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Dasturlashtirilgan ta'lim – o'quv jarayonini muayyan tartib (dastur) asosida tashkil etishga mo'ljallangan bo'lib, uning yordamida o'quv jarayonini olib borishning optimal variantlariga erishiladi. U kibernetika, informatika, matematik logika, hisoblash texnikasi asoslari va psixologiya fanlarining samarali tamoyillari va murakkab tizimlaridagi boshqarish vositalarining pedagogikada joriy etilishi natijasi ko'rinishida XX asrning 50 yillarida paydo bo'ldi. Dasturlashtirilgan ta'lim o'quv materialini kichik – kichik qismlarga bo'lish, ushbu qismlarning biridan ikkinchisiga o'tish tartibi (qoidalari) ni belgilash, xususan, har bir qismni o'zlashtirish yuzasidan aniq ko'rsatmalar, topshiriqlar berish, o'z – o'zini nazorat qilishni ta'minlash kabi yo'llar bilan amalga oshiriladi. U ta'lim oluvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o'z vaqtida yordam ko'rsatish, qiyinchiliklarni oldini olish, qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy oqibatlarining oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo'naltiriladi.

Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o'quv jarayonining bilimlarini o'zlashtirish bo'yicha bilimlarning muayyan miqdorlari (bo'laklari) va fikrlash (mantiqiy) amallaridan iborat bo'lgan ketma – ket bosqichlardan iborat bo'lishi;
- har bir bosqichning nazorat bilan yakunlanishi;

- nazorat topshiriqlarini to‘g‘ri bajargan ta‘lim oluvchining yangi materialni o‘zlashtirish uchun olish imkoniyati va navbatdagi bosqichni bajarishga kirisha olish;

- to‘g‘ri javobni topishda ta‘lim oluvchining yordamchi va qo‘shimcha tushuntirishlarni olishi;

- har bir ta‘lim oluvchining mustaqil ishlashi, intellektual salohiyati yetarli bo‘lgan mavzular bo‘yicha o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi;

- natijalar monitoringi, ya‘ni barcha nazorat topshiriqlari bajarilishi natijalarining qayd etilishi;

- ta‘lim jarayonida ta‘lim beruvchining ta‘lim tashkilotchisi va lozim topilganda mazkur jarayonda maslahatchi (boshqaruvchi) sifatida ishtirok etishi va individual yondashuvni amalga oshirishi;

- ta‘lim jarayonida o‘qitishning o‘ziga xos vositalarining keng qo‘llanilishi (kompyuterli o‘rgatuvchi dasturlar, intellektuallashtirilgan dasturlar, kasbiy kompyuterli o‘yinlar, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o‘qitish mashinalari va shu kabilar).

Kompyuterli ta‘lim. Ma‘lumki, o‘qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi natijasida shaxsiy EHM rivojlanishi negizida kompyuterlashtirilgan ta‘lim vujudga keldi.

Kompyuter – (ing. Computer - hisoblayman) – oldindan berilgan dastur bo‘yicha ishlaydigan avtomatik qurilma. Ta‘lim – tarbiya jarayonlarini kompyuterlashtirishda zamonaviy kompyuterlar universal didaktik vositalar (qurilma) bo‘lib hisoblanadi va ularning ta‘lim – tarbiya jarayonlarining optimal variantlarini topishdagi roli beqiyos. Shuningdek, kompyuter ta‘lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishda yangi dasturiy – texnik universal vositasi bo‘lib, ularning amaliy tafakkurini kengaytirish va chuqurlashtirib, ulardagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni yuqori darajaga ko‘taradi.

Maxsus ta‘lim dasturlari bilan ta‘minlangan kompyuterlardan deyarli barcha didaktik masalalarni hal etishda foydalanish mumkin. Ular: axborot berish; o‘qitish jarayonini boshqarish; natijalarni nazorat qilish va tuzatib berish; mashqlarni bajarish; o‘quv jarayoni rivojlanishi haqida ma‘lumotlarni to‘plash va shu kabilar.

Rivojlangan mamlakatlarda kompyuterlardan keng foydalanishning rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni aniqlashga imkon beradi:

- alohida o‘quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, geografiya, chizmachilik va shu kabi fanlar) bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini oshirishni ta‘minlash;

- umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari – qo‘yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlar, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to‘plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko‘nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e‘tiborni kuchaytirish.

Kompyuterlashtirishning asosiy **maqsadi**, ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish ishlarini avtomatlashtirishdan iborat bo‘lsa, uning asosiy **vazifalari** intellektual salohiyatni ko‘tarish, aqliy mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ta‘lim – tarbiyada optimal variantlarni kafolatlashlardan iboratdir.

Kompyuterlar yordamida ta‘lim – tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar qilishga imkoniyat yaratiladi va yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga keng imkoniyatlar yaratiladi hamda yangi ko‘rgazmalilik ta‘minlanadi. Shuningdek, ulardan ta‘lim – tarbiyada universal didaktik vosita sifatida foydalaniladi. Bu o‘qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi va natijada ta‘lim jarayonidagi samaradorlik qo‘lga kiritiladi.

Dasturiy va kompyuterli ta‘limlar o‘qitish algoritmlarini bajarishga asoslanadi. Ma‘lumki, algoritm belgilangan (rejalashtirishgan) natijaga olib keluvchi mantiqiy jihatdan mukammal va izchil tuzilgan ketma – ket amallar (operatsiyalar, harakatlar) tizimi sifatida bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘la o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv faoliyati tartibi va ketma – ketligini ta‘lim oluvchiga ko‘rsatadi. O‘quv dasturlari va kompyuterli ta‘lim samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Kompyuterli ta‘lim dasturlari, odatda **ikki xil**, ya‘ni axborot ma‘lumotli va nazorat ta‘limiy tartibda o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘lgan turlarga bo‘linadi.

Ta‘lim oluvchilarni masofadan turib o‘qitish mobaynida kompyuterlar ta‘lim oluvchilarning o‘z – o‘zining bilimini sinovida ya‘ni joriy va oraliq baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus ishlab chiqariladigan uskunaviy vositalardan foydalanish kompyuterli ta‘lim dasturlarini yaratish jarayonini anchagacha yengillashtiradi. Ular yordamida kompyuter texnologiyalaridan boxabar bo‘lgan tarix, adabiyot, huquq va boshqa fan o‘qituvchilari ham bemaolol ta‘lim dasturini yaratish mumkin.

Chop etilgan materiallar audio va video yozuvlar bilan birgalikda o‘quv materialiga kirishni kengaytirish va soddalashtirish, o‘quv materialini qulay va ko‘rgazmali tarkiblash uchun, shuningdek, oson harakatlanishi (navigatsiya) uchun foydalaniladi.

Kompyuterli ta'limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

- o'qitish dasturlarining mukammalligi;
- hisoblash texnikasining mukammalligi va o'qitish jarayonida foydalanishdagi qulayligi.

“Kompyuterli o'qitish tizimi – bu quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beruvchi o'quv – metodik va dasturiy – texnik vositalar majmuasi bo'lib hisoblanadi:

- bilimning aniq predmet sohasini o'rganish;
- o'quv kurslarida ishlanmalarni qo'llash;
- o'quv jarayonini boshqarish va shu kabilar.

Bugungi kunda o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llanilayotgan kompyuterli o'qitish tizimini quyidagidek sinflarga ajratish mumkin:

A) Ma'ruzani immitatsiyalovchi va o'rganuvchi materialni bayon etishda aniq rejaga ega bo'lgan ma'ruzachi tipidagi tizimlar;

B) Seminar, laboratoriya mashg'ulotlarini immitatsiyalovchi assistent tipidagi tizimlar;

V) O'rganilayotgan va yondash fanlar bo'yicha foydalanishga mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini tashkil qiluvchi maslahatchi tipidagi tizimlar;

G) Bilimlarning boshlang'ich darajasini va o'quvchining psixologik holatlarini tekshirishga imkon beruvchi repititor tipidagi tizimlar.

2.4. Ta'lim qonunlari va tamoyillari

Didaktikada ta'lim-tarbiya jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan qonun-qoidalar va tamoyillar ishlab chiqilgan. Shunday ekan, “qonuniyat”, “qonun”, “qoida”, “tamoyil” degan tushunchalarning tom ma'nosini aniqroq bilib olishimiz lozim.

Qonuniyat - bizning ixtiyorimizdan tashqari ob'ektiv mavjud bo'lgan narsa va hodisalar o'rtasidagi, ularning tadrijiy rivoji (evolyutsiyasi) zaruriyatidan kelib chiqqan bog'lanish. Tabiiy fanlarda, uni qonun deb ham nomlaydilar. Masalan, Yerning tortilish qonuni, Markazdan qochma kuch qonuni, Jovul-Lens qonuni va hokazo.

Ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlarini tushuntiradigan bo'lsak, ular ta'lim-tarbiya jarayonining tadrijiy rivoji zaruriyatidan kelib chiquvchi ta'lim-tarbiyani bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklardir. Chunonchi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi

orasidagi zaruriy bog‘liqlik yoki ta’lim beruchi bilan o‘quv dasturi orasidagi zaruriy bog‘liqlik va hokazolar.

Qonun atamasi aslida insoniyat tomonidan yaratilgan tartib va koidalarga nisbatan ishlatiladi. Ammo tabiiy fanlarda, ularni o‘rganish jarayonida aniklangan tartiblarni Alloh taolo, ya’ni Xudo tomonidan, ishlab chiqilgan tartib-qoida degan mazmunda, uni qonun deb nomlanib kelingan. Izohli lug‘atlarda bu atamalar sinonim sifatida qo‘llanilgan. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, tabiiy fanlardagi tabiat qonunlaridan tashkari, barcha bizning ixtiyorimizdan tashqarida mavjud bo‘lgan va ularning tadrijiy rivoji natijasida paydo bo‘lgan bog‘liqliklarni qonuniyat deyiladi. Ijtimoiy hayotdagi inson va narsalar orasidagi goho zaruriy, goho nozaruriy (birovni foydasini ko‘zlab) o‘rindilgan bog‘liqliklar qonun deyiladi.

Tamoyil (prinsip) – bu ob’ektiv mavjud qonuniyatlardan, ya’ni butunni butun qilib turuvchi qismlari orasidagi zaruriy bog‘liqliklardan kelib chiqib amal qilinishi lozim bo‘lgan harakatlar moyilligidir.

“Prinsip” so‘zining ma’nosi xulqning, xatti-harakatning asosiy qoidasi, yetakchi g‘oya demakdir. Ta’lim qonuniyatlari (prinsiplari) bu o‘qitish jarayoniga qo‘yiladigan talablar yig‘indisidir.

Biz, hatto, turmushda ham “bu odam prinsipli” deymiz va bunda o‘sha odamning o‘ziga xos qoidalariga, o‘zining prinsiplariga muvofiq ish ko‘rishini nazarda tutamiz. Agar kishining xatti-harakatlarida qat’iy qoidalar bo‘lmasa, uni “prinsipi yo‘q” deb hisoblaymiz.

Ta’lim-tarbiyaning tamoyillari o‘qish va o‘qitish jarayonida ob’ektiv mavjud bo‘lgan va uni butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bogliqliklardan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chikilgan va ta’lim-tarbiya jarayonida amal qilishlikka tavsiya etilgan harakatlar tartibining moyilligidir.

Qoida – bu inson harakat tartibining oxirgi bosqichi bo‘lib, ob’ektiv qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan tamoyillarning u yoki bu harakatlarini chuqurlashtirib, konkretlashtirib beruvchi harakat tartibidir. Qoidalar nazariya bilan amaliyot orasini bog‘lab turuvchi vositadir.

Uni pedagogik jarayon misolida ko‘radigan bo‘lsak, u o‘qitish qoidalarida namoyon bo‘ladi. O‘qitish qoidalari tipik vaziyatlarda o‘qituvchilarning tipik harakati ifoda etilgan. Boshqacha qilib aytganda, didaktik qoidalar tipik pedagogik vaziyatda o‘qituvchi va o‘quvchi-o‘quvchilar o‘zini qanday tutishi kerakligini ko‘rsatib beradilar. Shuning uchun ular amaliyotga yaqin turadilar.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik koidalarga ikki xildagi qarash mavjud. Birinchisi, amaliyotchi o'qituvchilarga didaktika qonuniyatlari va tamoyillarini bilish shart emas, ular olimlar tomonidan ishlab chiqilgan dars o'tish qoidalarini o'zlashtirib olsalar, shuning o'zi yetarli deydi. Shu kunda xorijiy mamlakatlarda va Oktabr inqilobidan oldingi rus pedagogikasida bu fikr ustunlik qilgan. Bu masalaga ikkinchi turdagi qarash ham bor, ular amaliyotchi o'qituvchilarning faqat tayyor o'qitish qoidalariga bog'lab qo'ysak, ularning tashabbuskorligini cheklab ko'ygan bo'lamiz deydi. Bularning ikkalasining fikrlarida ham mantiq bor. Haqiqat, har doimgidek, ikkalasining o'rtasida yotadi. O'qituvchilarni pedagogik qoidalarga qattiq bog'lab qo'yib, ularning erkini cheklash yomon bo'lgani kabi, amaliyotdan uzilgan va juda ham nazariylashgan pedagogik tamoyillarni va qonuniyatlarni pedagoglardan talab qilish va pedagogik jarayonni erkin harakatlarga aylantirib ko'yish ham noo'rin.

Ta'lim-tarbiyada, boshqa mehnat turlaridagidek, standart holatlar juda ko'p. Bu holda o'qituvchi uchun ko'p ham tashabbus ko'rsatishi shart emas, aks hollarda, o'qituvchining tashabbuskorligi darsni muvaffaqiyatli o'tishiga halal ham beradi. Bu holda, dars o'tganda aynan pedagogik koidalarga rioya qilish talab qilinadi.

Qoidalar didaktika tamoyillaridan kelib chikkani kabi, didaktika tamoyillari o'z ifodasini pedagogik qoidalarda topadi. Biroq, koidalar o'z ichiga yana ko'p sonli o'qituvchi va pedagoglarning ko'p yillik tajribasini ham qamrab olgan bo'ladi.

Dars o'tish koidalari qancha degan savolga K.D.Ushinskiyning so'zlarini keltirish o'rinlidir. U, barcha pedagogik koidalarni bir varakka sig'dirish ham mumkin, ulardan bir necha jildli kitoblar ham yaratish mumkin, degan ekan.

Odatda ular tavsiyanoma, ko'llanma va eslatmalar sifatida beriladi.

Ta'lim qonunlari. Ta'lim qonunlari to'g'risida gap borganda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlarda goho ta'lim tamoyillarini ham, goho ta'lim qoidalarini ham qonun deb yuritilishi kuzatiladi. Shuning uchun, qonun deb aniq aytilgan Amerikalik Torndayk maktabi bo'yicha kuyidagi qonunlarni qayd qilish bilan cheklanamiz.

O'zaro bog'liqlik qonuni – ta'lim-tarbiya jarayonida ikkita ruhiy harakatning o'zaro bog'liqlikdagi rivojlanish qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayoni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ruhining bir yo'nalishdagi harakatini taqozo yetadi. Bu qonunga binoan, agar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi ikki shaxsning birining ruh harakati ikkinchisining bilan mos tushmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni sodir

bo'lmaydi. Bilim berish jarayoni sodir bo'lishi mumkin, tazyiq yo'li bilan, ammo haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshmaydi. Bu qonunga binoan darsni tashkil qilish va uni amalga oshirish uchun pedagog sinfda yoki auditoriyada bir xildagi ruhiy holatni, ya'ni bilim berish va bilim olish holatini shakllantirishi kerak.

Mashq qonuni – bu qonun bo'yicha, egallangan bilimni ko'nikmadan so'ng malakaga aylantirish uchun, mashq qanchalik tez faol bo'lsa, qaytar reaksiya ham shunchalik tez bo'lib, bilim o'zlashtirilishi ham tez o'tadi, u bilimni xotirada uzoq muddatga saqlanishi ta'minlanadi. Bu qonun bo'yicha, bilim egallaganda har bir kishi o'zining qabul qilish tezligi qobiliyatiga binoan egallasa ham, uni ko'nikma va malakaga aylantirishda, mashqni iloji boricha tez amalga oshirishni taqozo etadi.

Intensivlik qonuni – bu qonun bo'yicha ham, mashqlar javobi qanchalik intensiv ravishda bo'lsa, u shunchalik tez o'zlashtiriladi.

Assimiliatsiya qonuni bo'yicha – har bir yangi turtki qaytar reaksiyani vujudga keltiradi, deyiladi. Shuning uchun egallagan bilimni kaytarish yo'li bilan turtib turish kerak deyiladi.

Natijaviy qonunda – reaksiya ijobiy bo'lsa bilim mustahkamlanadi, agar salbiy bo'lsa xotira uni o'chirib tashlaydi, deyiladi.

Hakikatdan ham bu qonunlar hayotdan olingan bo'lib, amaliyotda minglab, marotaba sinalib ko'rilgan. Shuning uchun pedagogik amaliyotda bulardan kelib chiqishlik pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.¹

Didaktika tamoyillari (prinsiplari). Didaktika tamoyillarining tarixi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar dars oldidan ko'zlagan maqsadlariga ko'p kuch va vaqt sarflamay aniq etishlari uchun, bir necha avlod olimlari tinimsiz izlanishlar olib borib didaktika prinsiplari majmui yaratilishiga sababchi bo'lganlar.

X-XII asrlardagi mashhur qomusiy olimlar ilmiy bilishning asosiy qonuniyatlariga va didaktika prinsiplariga faqat o'qitishning emas, balki ahloqiy tarbiyaning asosi sifatida qaraganlar. Buyuk matematik Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) o'zining bilish nazariyasida moddiy olamdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi ob'ektiv munosabatlarni, tabiiy jarayonlarni "...sezgi orqali bilish, bu qisman bilim bo'lsa, mantiqiy bayon, aqliy bilish esa haqiqiy bilishning muhim tomonini namoyon etadi", deb hisoblaydi. Olimning fikricha "insonning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin".

Sharqda birinchi bo‘lib ilmlar tasnifi bilan shug‘ullangan olim Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy (806-866) fikricha, moddiy olamdagi narsalar, ya’ni “birinchi substansiyalar”ni ularning xususiyatlari – miqdori va sifatini o‘rganish asosidagina bilish mumkin. Olim o‘z tasnifida insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili uning aql kuchini rivojlantirishdir.

Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr bo‘yi Arastuning kitoblarini o‘qisa ham, ularda ifodalangan fanlarning birontasini o‘zlashtira olmaydi. Bunday odam har qancha urinsada, faqat boshqalarning gaplarini takrorlab bera oladigan bo‘ladi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va o‘zlashtira olmaydi. Al-Kindiy ana shu fikrlarini bayon qilar ekan, o‘qitishning ilmiyligi va ongliligi qoidasini, ya’ni prinsipini nazarda tutgan.

Abu Bakr al-Roziy (865-925) ilmiy bilish nazariyasida inson aqli va tafakkuri yuksak darajada rivojlangan ijtimoiy mavjudod bo‘lganligi uchun ham olamdagi hamma narsalardan ustun turadi deb talqin etadi: “Bizga foydali bo‘lgan ishlarda o‘zimiz hukm yurita bilishimiz uchun bizga hayvonotga nisbatan ustunlik aql bilan berilgandir. Aql orqali o‘zimizni ulug‘lovchi, ziynatlovchi va hayotimizni hayrli qiluvchi hamma narsani bila olamiz. Aql bilan biz o‘z xohish maqsadlarimizga yetamiz...”

Abu Nasr al-Forobiy (870-950) “Namunali ta’lim” risolasida ta’lim oluvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan materialni yaxshi yo‘sinda bayon qilish masalasiga alohida to‘xtalib, o‘qitishning ikkita turini, yangi prinsipini tavsiya etgan: ularning biri bevosita sezgi, ikkinchisi aql bilan bog‘liqdir. U o‘zining fikrini shunday talqin etadi: “Narsalar bizdan, hislarimizdan tashqarida turib, bizning sezgi a’zolarimizga ta’sir etadi, ta’sir etadigan narsalar cheksizdir.

Inson o‘zining aqlini, xayolini ishga soladi va shular vositasida bilmagan narsalarini bilib oladi, ularga asoslanib bilish manbai bo‘lgan olam va uning mohiyati haqida chuqurroq, atrofliroq bilim va ma’lumotga ega bo‘ladi” U fikrini davom ettirib: “... avval bilim zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng umuman, jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi.

Kishi bilim va tajriba orttirmasdan oldin juda ko‘p narsalarni nazarga ilmaydi, bilim egallab, tajriba hosil qilgach, haligi narsalarga qarashini o‘zgartiradi, avval behuda deb hisoblovchi narsalarning zaruratligini his etadi, ilgari e’tiborini tortmagan narsa endi aksincha uni hayratga soladi”.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'quv jarayonida pedagog quyidagi didaktika prinsiplariga qat'iy amal qilishi lozimligini ta'kidlaydi:

- ta'lim oluvchini zeriktirmasligi;
- bilim berishda turlilikka asoslanishi;
- uzviylikka, tizimlilikka, izchillikka va mantiqiylikka rioya qilishi;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etishi va h.k.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) didaktikaning prinsiplariga, xususan, ko'rsatmali o'qitishga zo'r qiziqish bilan qarab, inson dastlabki o'quv mashg'ulotlarida buyumning tashqi hossasini o'rgansa, o'sha buyumni va uning tasvirini ko'rib chiqsa, o'zi mustaqil holda bilimlarni o'zlashtira oladi, deb hisoblaydi. Olim inson haqiqatan mavjud narsalarni yoki ularning tasvirini idrok etish tufayli unda ob'ektiv voqelikni to'g'ri aks ettiradigan tasavvur shakllanishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, ibn Sinoning ilmiy bilimlarni egallash usullari va yo'llari, ta'lim oluvchilarni sinf-dars shaklida o'qitish haqidagi didaktik prinsiplari muhim ahamiyatga egadir:

- ta'lim oluvchini bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- o'qitishda jamoa (sinf) bo'lib o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda ilm o'rganuvchilarning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish va h.k.1

Shubhasiz, keyinchalik yuqorida nomlari qayd etilgan va zikr etilmagan boshqa ko'pgina Sharq qomusiy olimlarning ishlab chiqqan didaktika qonun- qoidalari va (prinsip) tamoyillari chex olimi Yan Amos Komenskiy (1592- 1670) tomonidan "Buyuk didaktika" asarining yaratilishiga asos bo'lib, pedagogika tarixida "Didaktikaning otasi, asoschisi" nomiga sazovor bo'ladi.

Avval ham aytganymizdek, yaqin vaqtlargacha pedagogikadagi qonun, qonuniyat va tamoyil degan tushunchalar sinonim sifatida ishlatilib, yoki bularning bitgasiga yo qonun, yo qonuniyat, yo prinsipga ustunlik berilib kelingan.

Ammo, ko'p yillik tajribalar va bu sohadagi izlanishlar shuni ko'rsatdiki

qonuniyat turg'un bo'lib, ular asosida yaratilgan.

Yaratilgan qonun va tamoyillar o'zgarib ham turishlari mumkin ekan. Ba'zi eski tamoyillar, masalan, tabiatga mos ravishda rivojlantirish tamoyili yo'q bo'lib ketib, o'rniga yangi tamoyillar kiritilgan.

Tamoyillar to'g'risida didaktikada shunday koida o'rnatilib qolganki, tamoyillar tarixiy vaziyatdan kelib chiqib konkret jamiyatning ehtiyojlarini ifoda etar ekan. Ijtimoiy taraqqiyot va ilm-fanni rivojlanishi hamda ta'lim-tarbiya jarayonida yangi qonuniyatlarni aniqlanishi, shuningdek, ilg'or psdagogik tajribalar natijasida pedagogik tamoyillar tizimi boyib boraverar ekan.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish yangi qonuniyatlar va pedagogik prinsip (tamoyil)lari to'liq o'z ifodasini topgan. Bu pedagogik ta'lim tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi;
- ta'limning demokratlashuvi;
- ta'limning insonparvarlashuvi;
- ta'limning ijtimoiylashuvi;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoit yaratish kabilardir.

Ma'lumki, o'quv jarayonining muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun-qoidalarini, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablar va tamoyillarga qay darajada amal qilishlariga bog'liqdir. Chunki ta'lim tamoyillari o'quv jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarishda rivoya qiladigan qonun-qoidalar sifatida amal qiladi.

Pedagogik amaliyotlarda ba'zan "o'qitish prinsiplari" atamasi ham ishlatiladi. Lekin ta'lim tamoyillari (prinsitslari) ta'lim jarayonining ikkala sub'ekti o'qituvchi va o'quvchi-o'quvchiga ham dahldor. Shuning uchun taniqli didaktik olimlar O.Roziqov, A.Zunnunov, U.Mahkamov ularni ta'lim prinsiplari deb atagan ma'qul deb ta'kidlaydilar. Chunki ta'limni tashkil yetish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi-o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar, ta'lim prinsiplari deb ataladi.

Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'limning barcha turlari, darajalari, sub'ektlari, o'quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlariga daxldor umumiy qoidalardir. Prinsiplar va ta'lim qonuniyatlari uzviylikda mavjuddir. Qonuniyatlar prinsiplarning ayrim tomonlarini yoritadi. Prinsip umummilliy xususiyatiga ega bo'lib, ta'limda barcha o'quv fanlarini o'qitish bosqichlarida qo'llanadi.¹

O'qitish bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida, insonning tevarak – atrofdagi dunyoni bilishining umumiy qonunlari asosida sodir

bo'radi. Shuning uchun o'qitish tamoyillari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Demak, ta'lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim tamoyillari har ikkala faoliyatning, ya'ni pedagog va o'quvchi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Shunga ko'ra ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Umuman, ta'lim tamoyillari deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malaka hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

Ta'lim tamoyillari ta'lim muassasalari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holda bir sistemani tashkil etadi. Har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechitasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Hozirgi jarayonda o'quvchi- o'quvchilarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan barkamol inson qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir.

Bugungi kunda pedagogika nazariyasida quyidagi ta'lim tamoyillari tizimi ishlab chiqilgan:

Onglilik va faollik tamoyili – bilimni o'quvchilar tomonidan ongli ravishda va faol qatnashib egallashlik;

Ko'rgazma tamoyili «yuz marotaba eshitgandan bir marotaba ko'rgan yaxshi» tamoyilidan kelib chiqib, bilim berishda turli-tuman ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish;

Tizimlilik va muntazamlilik tamoyili – bilimni ma'lum bir tizimda va uzluksiz ravishda berib borish;

Mustahkamlik tamoyili – bilimni tushunarli tilda qayta-qayta takrorlash yo'li bilan berish;

Tushunarlilik tamoyili – bilimni hammaga tushunarli va hammabop qilib berish;

Ilmiylik tamoyili – bilimni ta’lim oluvchilarda avvaldan mavjud bilimlarga asoslanib va ulardan kelib chiqqan holda berish;

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili – bilim berishda nazariy bilimlarni amaliyotda ishlashini, ya’ni uni hayot bilan, amaliyot bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berish.

Bu tamoyillar pedagogik jamoatchilik tomonidan umumiy tamoyillar deb qabul qilingandir.

Onglilik va faollik tamoyili. Bu tamoyil asosida ilm tomonidan aniqlangan, insonni haqiqiy bilim egallashi uchun, u bu bilimlarni chuqur anglab yetgan holda aqliy kuvvatini intensiv ishlatishi natijasida yetishi mumkin, degan qonuniyat yotadi. Bilimlarni anglaganlik holati kuyidagi omillardan ksilib chiqadi: o‘qishning sababiga; o‘quvchi va o‘quvchilarning bilish faolligining darajasiga; ularning bilish faolligini boshqarilishiga va bilim berishni tashkil qilishga hamda boshqa omillarga. O‘quvchi- o‘quvchilarning shaxsiy bilish faolligi bilib olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Onglilik tamoyilini amaliyotda ishlashi kuyidagi qoidalarga rioya kilishni takazo etadi;

Bu bilimni hayotdagi zarurligi va ahamiyatini o‘quvchi-o‘quvchilarga tushuntirib, uning istikbolini ravshan qilib ko‘rsatib berish yo‘li bilan, ta’lim, oluvchilarda aniq maqsad va vazifalarni shakllantirish qoidasi.

O‘quvchi-o‘quvchilarga qanday yo‘l bilan bilim olishni tushuntirib, ularda shunday ishonch hosil qilingki, ular hech kachon olinadigan bilimni chuqur anglab yetmay mexanik holda egallamasinlar.

O‘qitganda barcha bilish shakllaridan: analiz va sintez; deduktiv va induktiv; taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish va hokazolardan foydalanish qoidasi.

O‘quvchi-o‘quvchilardagi mavjud bilim va ko‘nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so‘z va gapning tom ma’nosini ochib berish qoidasi.

5 O‘quvchi-o‘quvchilarning o‘zaro o‘qitish kuchidan unumli foydalanib, ko‘yilgan savollarga guruh bilan javob topish qoidasi.

Bugungi faol o‘quvchi-o‘quvchi, ertangi yetuk xodim ekanligini yaqqol bilgan holda yoshlarni faollashtirishga hech qanday kuchni ayamasklik qoidasi.

Yoshlardagi mavjud bilimlar bilan yangi berilayotgan bilim orasidagi mantiqiy bog‘lanish yo‘q joyda onglilik bo‘lmasligini esda

tutgan holda, yoshlarning akli yetmay turgan joylarni, ulardagi bor bilim bilan mantiqiy bogʻlab berish qoidasi.

Hech qachon oʻquv fanini dars markaziga qoʻymay, dars markazida doimo oʻquvchi-oʻquvchilar turishini, ularning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda oʻquvchi-oʻquvchilarga taʼlimiy taʼsir oʻtkazish qoidasi.

Oʻquvchi-oʻquvchilar fikrini, hayot bilan nazariy bilimlar orasidagi farqlar orligʻiga qaratish yoʻli bilan, ularning tafakkurini faollashtirish qoidasi.

Oʻqitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli oʻtishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash koidasi.

Oʻqitilayotgan narsada asosiy va ikkinchi darajali joylarini ajratish yoʻli bilan, oʻquvchi-oʻquvchilarda berilgan bilim ichidagi asosiy oʻrinlarini ajrata olishga oʻrgatish qoidasi.

Hech qachon quruq obroʻga tayanib oʻqitmay, faqat aql va hissiyotdan kelib chiquvchi dalillarga tayanib oʻkitish tamoyili

Oʻquvchi-oʻquvchilarni kitob oʻqishga oʻrgatish qoidasi.

Taʼlim-tarbiya jarayoniga salbiy taʼsir oʻtkazuvchi ichki va tashqi omillarni doimo bartaraf etib borish qoidasi.

Oʻquvchi-oʻquvchilarga nega?, degan savolni tinmay berish yoʻli bilan, ularda sabab va oqibat orasidagi bogʻlanishni bildirib borish qoidasi.

Berilayotgan bilimning toʻgʻriligiga, oʻquvchi-oʻquvchilarda hech qanday shubha va gumon qolmasligi va uni esdan chikmasligi uchun, bilimni asos va dalillar bilan berish qoidasi.

Haqiqiy bilimga ega boʻlgan deb, uni qaytarib aytib berganga emas, balki bu bilimni amaliyotda qoʻllay olganga aytiladi, degan qoida.

Doimo oʻquvchi-oʻquvchilar qiziqish va ehtiyojlarini oʻrganib borib, ularni jamiyat ehtiyojiga moslashtirib borish tamoyili.

Oʻquvchi-oʻquvchilardagi kuzatuvchanlikni rivojdantirib, hayotdagi voqeliklarni ilmiy asoslab berish yoʻli bilan yoshlarda onglilikni kamol toptirish qoidasi.

Oʻquvchi-oʻquvchilarga shunday bilim beringki, bu bilimlar ularda qatʼiy ishonch hosil qilib, harakat uchun dastur vazifasini oʻtash qoidasi.

Hech kachon oʻqituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan koʻchirish va aytib turish hollarga yoʻl qoʻymaslik bilan, oʻquvchi-oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga oʻrgatish koidasi.

Berilayotgan bilimni har tomonlama taxlil kilib berish yoʻli bilan oʻquvchi-oʻquvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish koidasi.

O'quvchi-o'quvchilarni faollashtirish va rag'batlantirish uchun doimo savollar berib, ularning javobini chidam bilan tinglash koidasi.

Ko'rgazmalilik tamoyili. Bu eng hammaga ma'lum va tushunsa bo'ladigan tamoyillardan biri bo'lib, u qadimiy zamonlardan qo'llanilib kelingan. Buning asosida quyidagi qonuniyatlar yotadi: birinchidan, ko'rish va eshitish orqali olingan axborotlar miyaga turlicha ta'sir etib, turlicha holda saqlanadi. Qisqacha qilib aytganda, ko'z bilan ko'rganda quloq bilan eshitgandagiga nisbatan besh barobar ko'p axborot olinib, uni miyada saqlanishi ham yuqori. Ikkinchidan, ko'zdan borgan axborot qayta ishlashga muhtoj emas.

Ta'lim amaliyoti, ko'rgazmalilik tamoyili amalga oshirishning bir qator qoidalarini ishlab chiqqan:

O'qitish jarayonida, ko'rgan narsa eshitganga nisbatan bir necha barobar tez o'zlashtirilib, uzoq muddatga esda saqlanib kolishligini doimo xotirada tutish qoidasi.

Bolalar shakl, rang, his qilish va tovush orqali fikr yuritishlarini bilish qoidasi.

O'quvchi-o'quvchilarning, kishi nimaiki narsani tasavvuriga keltirish mumkin bo'lsa, ko'ra olsa, sinab ko'rilsa, eshita olsa tafakkur qilinadi degan oltin qoidasini bilish.

Hech qachon ko'rgazmani asosiy maqsad qilib olmaslik, ko'rgazma maqsad emas, maqsadga yetish vositasi sifatida bilish qoidasi.

Bilim berish va bu bilimlarni o'quvchi-o'quvchilar ko'nikmasiga aylantirish jarayonida, barcha tushuncha va mavhumliklar, ular tafakkuriga faqat asos, dalil, misol, timsol va qiyofalar orqali tez yetib borishini anglash qoidasi.

Ko'rgazmalardan, faqat narsalarni ko'rsatish uchun foydalanmay, ulardan muammoli vaziyatlarni shakllantirishda ham foydalanish qoidasi.

Ko'rgazma faqat axborot beribgina qolmay, o'rganilayotgan narsa va hodisa to'g'risida to'g'ri tasavvur xosil qilishligini bilish qoidasi.

Ko'rgazmani namoyish etilayotganda ma'lum bir tartib bilan ko'rsatish yaxshi natija berishini tushunib yetish qoidasi.

9.Ko'rgazmani ko'rsatayotganda avval butunlay, so'ng ularni qismlarga bo'lib ko'rsatib, undan keyin yana butunlay ko'rsatishga e'tibor berish qoidasi.

Turli ko'rgazmali kurollardan foydalanish yaxshi, ammo ularning miqdori haddan ziyod bo'lib ketsa, o'quvchi-o'quvchilar xayolini yoyib yuborishligini bilish qoidasi.

Ko'rgazmani ko'rsatayotganda o'quvchi-o'quvchilar avvaldan egallangan hissiy bilimlaridan unumli foydalanish qoidasi.

Eng yaxshi ko'rgazmalar o'quvchi-o'quvchilar o'zi tayyorlagan ko'rgazmalar vositalar ekanligini bilgan holda ko'rgazmani iloji boricha o'quvchi- o'quvchilar bilan birga tayyorlash qoidasi.

O'zingiz yaxshi bilmagan narsani hech qachon o'quvchi-o'quvchilarga ko'rsatmaslik qoidasi.

Yangi texnik vositalar - o'quv televideniyesi, video, kompyuter va boshqalardan foydalanilayotganda, avval o'qituvchining o'z uni yaxshi o'zlashtirib olishlik qoidasi.

Ko'rgazmali kurollardan foydalanayotganda o'quvchi-o'quvchilar diqqatini, fikrlash madaniyatini, konstruktiv fikrini va o'qishga qiziqishini tarbiyalash qoidasi.

Ko'rgazmani, nazariy bilimni hayot bilan bog'lashda foydalanish qoidasi.

Dars jarayonida ko'rgazma usulidan foydalanish imkoni, kengayishi uchun ko'rgazmali vositalarni ko'rsatish tartibini albatta rejalashtirish qoidasi.

Ko'rgazmali kurollardan foydalanilayotganda, o'quvchi-o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqish qoidasi.

Ko'rgazmali qurollar juda ham kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u o'quvchi-o'quvchilar hayolini o'ziga qattiq jalb qilib, dars mavzusining asosiy maqsadidan chalg'itishi mumkinligini anglash qoidasi.

Ko'rgazmali qurollardan haddan ziyod foydalanish o'quvchi-o'quvchilarda abstrakt tafakkur rivojiga to'siq ham bo'lishi mumkinligini bilish qoidasi.

Tizimlilik va muntazamlilik tamoyili. Bu tamoyil quyidagi ob'ektiv qonuniyatlariga suyanadi: inson faqat tashqi dunyoni o'z tafakkurida aniq aks ettirgandagina haqiqiy va faol bilimlarga ega bo'la oladi; o'quvchi-o'quvchilar tafakkurida ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishning asosiy usuli, maqsadga yo'naltirilgan maxsus ta'limni tashkil qilinishi; maxsus ta'limning tashkil qilinish tartibi o'quvchi-o'quvchilar imkoniyati va beriladigan bilimning ichki mantiqiy tuzilishidan kelib chiqqanligi; bilim berish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi tufayli bilim berish samarasi, bu bosqichlarning orasidagi vaqtni qanchalik qisqa bo'lishligiga bog'liq, bosqichlar orasidagi masofa vaqt jihatdan haddan oshib ketsa bilim berish samara bermaydi; agar bilim va unning negizida shakllangan ko'nikmalar mashq orqali takrorlanib turilmasa, bilim va ko'nikma yo'qolib ketadi; o'quvchi-o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga

o'rgatilgan bo'lmasa, ular doimo fikr yuritishda qiyinchiliklarga duch keladilar; o'qitishda tizimlik va muntazamlikka amal qilinmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni susayadi.

Pedagogik amaliyotda bu tamoyilni ishlashi quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi:

O'quvchi-o'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi to'liq o'zlashtirib olinishi uchun beriladigan bilimlarni mantiqiy tugallangan bilim bo'laklariga ajratib o'qiting.

Mazmunini to'liq ochib bsrishga ko'zingiz yetmagan biron-bir savol va muammoni dars rejasiga kiritmang.

Mantikiylikni hech qachon buzmag, buzilib qoladigan bo'lsa, o'zlashtirilmaslikning oldini olish uchun, uni darrov bartaraf eting.

O'quv fani – katta bir fanning kichraytirilgan modeli ekanini tushuntirib, fanlararo bog'liqlikni ko'rsatib bering.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirilishi to'g'ri ketayotginini doimo tekshirib boring: o'rganilayotganning ob'ekti, predmeti, nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, nazariyasi va uni qoidalarini, chegaralarini doimo eslatib ularni bajarilishini tekshirish.

Doimo esda tutish lozimki, kunda eshitib, go'yoki yaxshi bilgan narsani tushuntirib, ilmiy asoslab berish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'quvchi- o'quvchilardagi avvalgi bilimlari va mantiq usullaridan doimo foydalanish.

Boshlang'ich va umumta'lim bosqichlaridagi bilim mazmuni va uni berish usullari orasidagi vorislikni doimo saqlash zarur.

O'kitishning ilg'or usullaridan doimo foydalaning.

O'qitishda tizimlilikni va muntazamlilikni saqlash uchun, avval o'tilgan bilimlarni doimo takrorlab turing.

O'tilgan mavzularni takrorlash usulidan, faqat dars boshida va uni yakunlayotganda foydalanib qolmay, har bilimni tushuntirilayotganda ham undan foydalaning.

O'tilgan mavzular bilan tez kirishib ketuvchi boshqa yangi fikrlarni bildirmang.

O'quvchi-o'quvchilar til savodxonligini faqat til o'qituvchilari kuzatib boribgina qolmay, balki barcha fan o'qituvchilari ham yoshlarning til savodxonligi va nutq madaniyatiga e'tibor berishi lozim.

Sabr va chidam bilan hamda uzluksiz ravishda o'quvchi-o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga va bilimlarni mehnat qilib topishga o'rgating. O'quvchi-o'quvchilarning o'rniga o'zingiz javob bera qolmang.

Doimo o'quvchi-o'quvchilarga o'qishining istiqbolini eslatib turing. Har bir bilim oxirida albatta umumlashtiruvchi mashg'ulotlarni amalga oshiring.

O'quvchi-o'quvchilar javobida uchrab turadigan xatolarni doimo tuzatib boring.

Charchab qolgan o'quvchi-o'quvchilar faoliyatini hech qachon sun'iy ravishda faollashtirishga harakat qilmang, faollashtirishni ularning jismoniy va aqliy imkoniyatidan kelib chiqing.

O'quvchi-o'quvchilardan egallagan bilimiga ko'nikma va malaka xosil qilishni talab qiling.

Esda saqlash lozimki, bir tizimda egallagan bilim esdan chiqmaydi. Esdan chiqib qolsa, tizim orqali uni darrov esga tushirish oson.

Hamma narsa uzluksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak.

Mustahkamlik tamoyili. Bu tamoyilda barcha ilg'or o'qituvchilar va pedagog olimlarning ko'p yillik izlanishlari o'z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan emperik bilimlar birlashib mustahkamlangan.

Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo'lib keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o'zgartirishlar kiritildi. Bilimni mustahkam yegallash jarayonini shu kundagi tushunilishi, bu jarayonga quyidagi yangi qoidalarni kiritishni taqozo etadi.

Bugungi kungi talimda fikr yuritish eslab qolishdan ustunlik qilishi isbotlangan.

Shuning uchun o'quvchi-o'quvchilar aqliy quvvatini tejash maqsadida, ulardan keraksiz va kam e'tiborli narsalarni eslab qolishiga kamroq e'tibor berib, uning hisobiga fikr yuritishiga ko'proq kuch sarflashiga yordam berish.

O'quvchi-o'quvchilar tushunib yetmagan yoki noto'g'ri tushunib, qolgan narsalarni eslab qolmasliklariga e'tibor berish lozim. O'quvchi-o'quvchi, faqat yaxshi tushunib yetib, uni to'g'riligiga imon hosil qilgan narsasini xotirasida saqlashi kerak.

O'quvchi-o'quvchilar xotirasini kam e'tiborli axborotlarni eslab qolishdan holi qilish maqsadida, ularni turli lug'at va ensiklopediyalardan foydalanishga o'rgating.

Eslab qolinadigan narsalarni nihoyatda qisqa qilib, yod olishga oson bo'lishi uchun, ravon, iloji bo'lsa she'r vazniga solib turib esda saqlashga o'quvchi-o'quvchilarni o'rgatish.

Esdan chiqarish bilimni egallab olgandan keyin tez kechishini hisobga olgan holda, ularni psixologiya fanining esda saqlash qoidasi asosida xotirada saqlashga o'quvchi-o'quvchilarni o'rgatish.

Yod olishni o'quvchi-o'quvchilarga uyga vazifa yoki mustaqil ish qilib bermang yaxshisi uni shu narsaga qiziqtirib qo'ying va vaqti-vaqti bilan bu qiziqishni yangilab turing.

Takrorlash mashqlarini o'quvchi-o'quvchilar yangi bilimni egallagan zahotidan boshlash kerak. Chunki, bu narsalar keyin esdan chiqib ketishi aniq..

O'quvchi-o'quvchilar diqqatini susaytiruvchi ichki va tashqi omillarni faoliyatiga yo'l ko'ymang.

Dangasalik kasali bilan tinmay kurash olib boring, bilim olish sur'atini susaytirmang.

Beriladigan bilimga qizikish va ijobiy munosabatni shakllantirmasdan turib, yangi bilim berishni boshlamang.

Zo'rlab berilgan bilim o'quvchi-o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanmasligini unutmang.

Bilimni egallash sur'ati pasaya boshlashi bilan uning sababini aniqlang va bartaraf eting.

O'quvchi-o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda darsni takrorlash eslab qolishning muxim omili ekanini unutmang va o'zini-o'zi tarbiyalashga katta e'tibor qarating.

Takrorlash darslarini shunday tashkil qilingki, u faqat bilimni fikr yuritishga ham foydasi bo'lsin. Shuning uchun darslarini asosiy dars tizimida uning hajmini yo ko'paytiring, yoki kamaytiring.

Berilgan bilim xotirada mustahkam saqlanishi uchun, uni qiziqarli qilib, ko'rgazmali qurollardan foydalanib tushuntirib bering.

14. Yangi beriladigan bilim mustahkam xotirada qolishi uchun, uni avvalgi bilim bilan bog'lab tushuntirib bering.

15. Bilimni mantiqan bir butun qilib berishga o'rganing.

16. Oson va bir turdagi topshiriq berishdan tiyiling, ular o'quvchi-o'quvchilarga qiziq bo'lmay, toliqtiradi.

Mashqlar o'tkazishdan oldin, ularning bajarilish tartibi va natijasi to'g'risida ma'lumot bering.

Mashq davrida o'quvchi-o'quvchilarni charchab qolishidan saqlang.

Hozirgi zamon nazorat usullaridan to'g'ri foydalaning.

O'quvchi-o'quvchilarni o'z mehnatini nazorat qilish va baholashga o'rgating.

Tushunarlilik tamoyili. Bu tamoyil bir tomondan, didaktikaning boshqa tamoyillarining talablaridan, ikkinchi tomondan, o'quvchi-o'quvchilar yosh xususiyatidan, uchinchi tomondan, ko'p yillik pedagogik tajriba asosida yaratilgan.

Bu tamoyil zaminida tezaurus qonuni yotadi. Bu qonun bo'yicha kishiga bilim faqat uning tezaurusiga mos kelganda tushunarli bo'ladi. "Tazaurus" lotinchada «xazina»ni bildiradi. Ma'nosi, kishining to'plagan bilimi, ko'nikma va fikrlash uslubi uning "tezaurusi"ni tashkil qiladi.

Boshqa qonuniyatlarni ham ko'rsatishimiz mumkin: a) beriladigan bilimning tushunarliliigi, uni yegallayotgan o'quvchi-o'quvchining yoshi individual xususiyatlariga bog'likdir; b) tushunarlilik bilim berishni tashkil qilishga unda qo'llaniladigan bilim berish usul va uslublariga bog'liq; v) bilimni tushunarliliigi uni olayotganning bilim xajmiga va sifatiga bog'likligi; g) bilimni tushunarliliigi uni berilish sur'atiga bog'liqligi va hokazo.

Ya.A.Komenskiy shakllantirgan kuyidagi qoidalari mavjud: osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga va oddiydan murakkabga. Hozirgi zamon pedagogik nazariyasi va amaliyoti tushunarlik tamoyilini qo'llanish qoidalarini kengaytirdi va boyitdi:

Bilimni ta'lim oluvchining yoshiga karab berish.

O'quvchi-o'quvchilar tafakkuri berilayotgan bilimga tayyorlangan bo'lishi shart.

O'qitayotganda o'quvchi-o'quvchilarning tayyorgarlik va rivojlanganlik darajasiga qarab bilim berish.

O'quvchi-o'quvchilarni individual qobiliyatidan kelib chiqib bilim berish.

Bilim berish sur'ati o'rtacha olib borilishi shart.

Bilim berishda, muayyan kuchlanishni hosil bo'lishini esda saqlash, bu kuchlanish oshib ketsa o'quvchi-o'quvchilar toliqib, kuchlanish pasayib ketsa ta'lim oluvchilar zerikib qolishini bilish.

Psixologiya va pedagogikaning yangi kashfiyotlaridan unumli foydalaning, asta-sekin ta'lim jarayonini takomillashtiring.

Yangi dars o'tishda kuchli o'quvchi-o'quvchilardan va darsni mustahkamlayotganda o'rta va kuchsiz o'quvchi-o'quvchilardan foydalaning.

9 Berilayotgan bilimlarni qarama-qarshi tomonlarini ham tushuntirib o'quvchi-o'quvchilarni bilim olishini osonlashtiring.

O'quvchi-o'quvchilarga eng qiyin singadigan bilimlar tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlaridir. Shuning uchun o'z faningizni o'tayotganda ustalik bilan ularni ko'shib tushuntirib keting.

Ta'lim-tarbiya jarayonini asossiz tezlashtirmang va susaytirib yubormang.

O'quvchi-o'quvchilarning oraliq yakuniy fikrlarini bildiga yo'ymasdan, ulardan fikrni davom ettirish uchun foydalaning.

Tushunarlik o'qituvchining so'zlarini yuqori hissiyot va har bir so'zni asoslab berilganligi bilan ham belgilanadi.

Uzoq monolog so'zlardan qoching.

15 O'qitishning bosh qismida barcha bilim hajmini to'kib solmang, faqat asosiylarini aytib o'tish bilan kifoyalaning.

16. Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib ko'ya koladi, yaxshi o'qituvchi bu haqiqatni topishni o'quvchi-o'quvchilarga o'rgatadi, degan iborani unutmang.

17 Tushunarli qilib dars o'tish deganda, butun bilimni o'quvchi-o'quvchilarga tushunarli tilda tushuntirib berish yoki bu bilimlarni topishni tushunarli qilib aytib berishda emas, tushunarli dars o'tish deganda kalavani ta'lim oluvchilar qo'liga ushlatib qo'yib, bilimni sekin-asta chiqib kelishini ko'rsatish, o'quvchi-o'quvchilarni rag'batlantirib turish va hokazo tadbirlarga aytiladi.

Ilmiy tamoyili. Bu tamoyil asosida bir qator qonuniyatlar yotadi. Jumladan; dunyoni o'rganib bo'ladi va insoniyat aniqlagan va amaliyotda sinab ko'rilgan qonuniyatlarni o'rgansa bo'ladi; ta'lim-tarbiya jarayoni, ilmiy faoliyat orqali to'plangan, ob'ektiv olam to'g'risidagi ma'lumot tizimini o'sib kelayotgan avlodga bildiradi; ilmiylik, beriladigan bilimlar ma'lum bir ketma-ketlikda berilishini taqozo yetadi; ilmiylik, o'qituvchilarning bilimni ma'lum bir ketma-ketlikda berishga amal kilishni ham taqazo etadi; ilmiylik yana berilayotgan bilim hozirgi zamon ijtimoiy va ilmiy-taraqqiyot darajasiga mosligi bilan hamda tuzilgan dastur va ishchi rejaga mos bo'lishligi bilan ham belgilanadi.

Didaktika bu tamoyilni amaliyotga ko'llashning bir qator qoidalarini ishlab chiqqan.

Pedagogik amaliyot bilan shug'ullanganda pedagogika, psixologiya va dars berishning usul va uslublarining eng ilg'orlaridan foydalanish.

1. Hozirgi zamon didaktika va psixologiya fanlarining ko'rsatmalari bo'yicha dars berganda mantiqning faqat induktiv usulidan foydalanibgina qolmay, deduktiv usulidan ham bemalol foydalanaverish.

Boshdanoq o'quv fanining ichki mantig'ini ochib berishga intilish.

O'quvchi-o'quvchilarda narsa va hodisalarga dialektik yondoshuvni shakllantirish maksadida, xar bir bilimni berishda uning ichki dialektikasiga ahamiyat berish.

Takrorlanmasa esdan chikadi degan qoidadan kelib chiqib, har bir darsda yangi bilimni takrorlab turish.

Qonuniyatlarni tushuntirayotganda, ularni tashqi muhit, vaqt, eskilik va yangilik orasidagi tafovut hamda ichki sharoitlarga bog'liqlikda tushuntirish.

O'qitganda, o'quvchi-o'quvchilarda izlanuvchanlik hissiyotini rivojlantirish.

Muayyan qonuniyatni tushuntirishda, uni kashf etgan olimning qisqacha tarjimai holini aytish.

Bilim berishda, uni tadqiq qilingan usullarini ham aytib, o'quvchi-o'quvchilarda tadqiqot usullaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Dars o'tganda atama, ta'rif va tushunchalarning eskilariga tanqidiy yondoshib, eng yangilaridan foydalanish.

Bilim berishda tarixiylik qoidasidan kelib chiqib, berayotgan bilimingizni kashf qilinish tarixini aytish.

Fan bilan bog'liq to'g'ri bilimlarini berishda, ular ichidan asosiylarini ajratib, fandagi ustuvor yo'nalishlarini ham ko'rsatib o'tish.

Maktabning yuqori sinflari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va ayniksa, oliy o'quv yurtlarida fandagi bahsli o'rinlarini aylanib o'tmaslik.

O'quvchi-o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirib borish.

Yangilik topishni o'quvchi-o'quvchilarda tarkib toptirish.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Bu tamoyil falsafaning bilish nazariyasining markaziy qoidasiga asoslanadi. Unda, bilishning birinchi va asosiy nuqtai nazari – bu hayotning va amaliyotning nuqtai nazaridir, deyiladi.

U kuyidagi qonuniyatlardan kelib chiqadi: har qanday bilimning to'g'riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi; amaliyot haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadqiqot natijalarini qo'llanish hududi; to'g'ri tashkil kilingan ta'lim-tarbiya hayotdan kelib. chiqadi; ta'lim-tarbiyaning samaradorligi, uni qanchalik amaliyot bilan bog'likligi bilan belgilanadi; bilim berishni samaradorligi, uni politexnik ta'lim bilan bog'liqligi bilan belgilanadi; berilayotgan bilim qanchalik hayot bilan bog'lansa, o'quvchi-o'quvchilardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

Bu tamoyilni amaliyotda koʻllanishi kuyidagi qoidalar orqali kechadi:

1. Bilim va tarbiya berishda, oʻqituvchi-oʻquvchilar bu berilayotganlarni, oʻz hayotiga naqadar zarur ekanini bilib borishi.

2. Bilim berishda hayotdan bilimga yoki bilimdan hayotga qarab borish.

3. Bilim berishda, bu bilim hayotda zarur boʻlgani uchun kashf qilinganligini taʼkidlash.

Oʻquvchi-oʻquvchilarni eng yangi mehnat qurollari va mehnat munosabatlari bilan tanishtirib borish.

Oʻquvchi-oʻquvchilarni olgan bilimlarini amaliyotda albatta sinab koʻrishlarini talab qilish.

6. Taʼlim natijasini ishlab chiqarish bilan bogʻlikligini amalda koʻrsatish.

Bilim berish jarayonini ishlab chiqarish yutuqlaridan misollar keltirish yoʻli bilan bilimni amaliyot bilan bogʻlash.

Dars berishda, oʻquvchi-oʻquvchilarning mehnat tajribalaridan kelib chiqish.

Ijtimoiy mehnat faqat dars jarayonidagi olingan bilimlar asosida amalga oshirilishi.

Aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan qoʻshib olib borish.1

Shunday qilib, didaktika yaʼni taʼlim tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi. Albatta taʼlim tamoyillari har bir davrning oʻziga xos boʻlgan xususiyatlarini xisobga olgan holda oʻzgarib boradi. Chunki taʼlim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Taʼlim (oʻqitish) jarayoni murakkab hamda koʻp qirralidir. Unda pedagog va oʻquvchilar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi taʼlim jarayonining qonun-qoidalari, yaʼni taʼlimga qoʻyilgan didaktik talablarga va taʼlim tamoyillariga qay darajada amal qilishlariga bogʻliqdir.

Yuqoridagi fikrlardan koʻrinib turibdiki, buyuk cheh didaktik olimi Yan Amos Komenskiy oʻzining “Buyuk didaktika” asarida didaktikaning prinsiplarini, yaʼni tamoyillarini ishlab chiqqanidan boshlab, ularni M.I.Skatkin, G.M.Kodjaspirova, S.Rajabov, N.Gʻaybullayev, I.F.Xarlamov, S.P. Ilina, Yu.K.Babanskiy, L.S.Vigotskiy, V.A.Kan-Kalin, R.Yodgorov, R.Mamatqulova, R.Mavlonova, J.Hasanboyev, X.Toʻraqulov, I.Alqarov, N.Usmonov, B.Ziyomuhamedov, N.Vohidova, N.Rahmonqulova va boshqa pedagog olimlar koʻrib chiqdilar, lekin taʼlim (oʻqitish) tamoyil (prinsip)larining soni va mazmunini belgilash

xususida hozirgi kungacha bir fikrga kelingani yo‘q. Ta‘lim tamoyil (prinsip)lari soni 6 tadan 11 tagachadir. Tadqiqotlardan ayrimlarining asarlarida turli prinsiplar tavsiya etilgan. Masalan, M.I. Skatkin uzluksiz ta‘lim tamoyilini xisobga olib, o‘qitishning mustaqil bilim olishga o‘tish prinsipi joriy etilishini taklif qiladi, shuningdek, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga katta e‘tibor berib, ta‘lim ijobiy asosda olib borilishi prinsipini maqsadga muvofiq deb biladi. Yu.K.Babanskiy didaktikaning yangi yo‘nalishlaridan biri – optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqib, mana shu nazariyaning amaliy yo‘nalishini aks ettiradigan uchta yangi prinsipni tavsiya qiladi. Bular esa: 1) ta‘limning og‘zaki, ko‘rsatmali va amaliy, reproduktiv va izlanishli, shuningdek, boshka metodlar hamda usullarini to‘g‘ri birlashtirish; 2) ta‘limning dars, darsdan tashkari, shuningdek, umumsinf, guruhiy va yakka tartibdaga shakllarini to‘g‘ri birlashtirish; 3) o‘quvchi-o‘quvchilarning o‘qishga ijobiy munosabatni kuchaytirish, ularda bilishga qiziqishni, bilimlarga ehtiyojni tarkib toptirishdan iboratdir.¹ Bu prinsiplar hali barqaror prinsiplar tizimiga kirgani yo‘q, lekin tajribali pedagoglar pedagogikaning tegishli mavzulari va bo‘limlarini o‘tishda ulardan foydalanmoqdalar.

Barcha predmet o‘qituvchilari ana ana shu ta‘lim prinsiplariga rioya qilishlari kerak. Aniq predmetlarning mazmuniga, o‘quvchi-o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko‘rsatmali qo‘llanmalar mavjudligiga bog‘liq xolda prinsiplarning nisbati hamda mazmuni o‘zgartirilishi lozim. Masalan; ko‘rsatmalilik prinsipini tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida tajribalarni namoyish etish bo‘lsa, tilni o‘qitishda grammatika jadvallarini ko‘rsatish, doskaga yozish, sxemalarni chizish va hokazolardan iborat bo‘ladi.


Lekin har qanday predmetni o‘qitishda jonli mushohada, ya‘ni narsa va xodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash prinsiplariga amal qilish boshqacha aytganda nazariy xulosalarni tushunish va bilish, ularni hayotda qo‘llay olish zarur.

Umuman, ta‘lim (o‘qitish)ning har hil tamoyil (prinsip)lari tavsiya etilayotgan bo‘lsa ham, lekin barcha tadqiqotchi-didaktlar uchun bir qator umumiy ta‘lim tamoyil (prinsip)lari mavjud. Ular quyidagilardan iborat.

TA‘LIM TAMOYILLARI

Ta‘limning ilmiyligi va tushunarliliigi. Ta‘limning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarliliigi qoidalari o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiradigan didaktik tamoyildir.

Fan va o‘quv-fani o‘rtasidagi aloqadorlik hamda ularning farqlarini sharxlamasdan turib, bu qoidaning moxiyatini to‘g‘ri tushunish mumkin emas.



Maktablarda o‘qitiladigan har bir o‘quv fanida o‘ziga oid fanning umumiy asoslari bayon yetiladi. Fan va o‘quv fanlari o‘zaro tubdan farq qiladi. Fan o‘zini o‘rganuvchi barcha kishilar uchun umumiy xisoblanadi. Xaqiqiy fanda sinfiy, irqiy chegaralar bo‘lmaydi. O‘quv fani esa

o'quvchilarning yosh xususiyatlari, aniq bilish imkoniyatlari, qiziqishlarini xisobga olish asosida yaratiladi.

Ma'lum yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallab tuzilgan o'quv fani, masalan, boshlang'ich sinflarda o'zlashtiriladigan fizika yelementlarini, 8-sinflarda o'tish bolalar uchun zerikarlidir. Bulardan ko'rinadiki, ilmiylik qoidasi amalga oshirish tushunarlik qoidasidan kelib chiqadigan talablarga rioya qilishni taqozo qiladi,

Ta'limning ilmiyligi va tushunarlikligi qoidalarining o'zaro aloqadorlikligi asosida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarini hozirgi zamon fan-texnikasi, san'at va adabiyoti yutuqlari bilan uzluksiz boyitib, yangilab turish: o'quv fanlari, ularga oid o'quv materiallarini o'quv yillariga ratsional bo'lish; o'quv dasturlari darsliklardagi ortiqcha, ikkinchi darajali narsalarni bartaraf yetish.

Ilmiylik qoidasi o'quv fanlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab yetsa, tushunarlik qoidasi o'quv predmetlarini bolalarning yosh, individual xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni taqozo qiladi.

O'quv fanlarini o'rgatishda bolalarning real bilish imkoniyatlarini xisobga olish maqsadida qator qoidalarga rioya qilinadi: yaqindan-uzoqa, oddiydan-murakkabga, osondan-qiyinga qarab borish. Bu qoidalarning birinchisi-yaqindan uzoqa qarab borish-vaqt xarakteristikasiga, oddiydan murakkabga qarab borish-obyektiv, osondan qiyinga-subyektiv ahamiyatga ega.

Ta'limning tizimlilik va izchilligi. Tizimlilik va izchillik qoidalari ta'limning ilmiyligi va tushunarlikligi qoidalari bilan uzviy bog'liq didaktik tamoyillardir. Zero, tizimlilik qoidasiga o'rganilayotgan o'quv fanining tizimini (masalan, o'rta, umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan biologiya kursi tizim sifatida botanika, zoologiya, anatomiya fanlaridan iborat) xisobga olish asosida, izchillik qoidasiga bo'lgan bilimlarning bolalar uchun tushunarli bo'lishi qoidasiga bog'langan xolda amalga oshiriladi.

Tizimlilik va izchillik qoidalarini o'zaro bog'langan xolda amalga oshirish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

-O'quv fani mantig'i va uni o'zlashtirish qoidalariga qat'iy rioya qilish;

-Ta'limni bolalarning qiziqishlari, yosh va individual xususiyatlarini xisobga olgan xolda rejalashtirish;

-Ta'limda o'rganilgan, o'rganilayotgan va bundan keyin o'rganiladigan bilimlar o'rtasida vorislik o'rnatish;

-Xar bir mavzu, xar bir o'quv faniga oid yetakchi g'oyalarni ajratish, o'quv fanlari bo'limlari, shuningdek o'quv fanlararo aloqani o'rnatish;

-Ta'limni bolalarning shaxsiy tajribasi, kuzatishlari va real bilish imkoniyatlarini xisobga olgan xolda tashkil yetishni boshqarish;

-Sinfda, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari o'quv ishlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash;

-Ta'lim jarayoni bo'g'inlari, omillari, ketma-ketligining o'zaro aloqadorligi asosida o'quv-tarbiya ishlarini tashkil yetish, boshqarish.

Mustaqillik va faollik. Mustaqillik va faollik o'zaro sabab va natija shaklida bog'langan didaktik xodisalardir. Ta'limda bolalarning mustaqilligini ta'minlamasdan turib, ularni faolligiga yerishib bo'lmaydi.

Ta'limda o'quvchilarning faolligi mustaqillik orqali belgilanadi, mustaqillik tufayli o'quvchi ta'limning faol sub'ektiga aylanadi. Ta'lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o'taydi. Faollik esa o'z navbatida bolalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi.

Kishining mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, mustaqil o'rganish orqaligina fan asoslarini puxta egallashi xech kimga sir yemas. O'quvchilarga kitob ustida ishlay olish malakalari, dastavval boshlang'ich sinflarida xosil qilingan. Bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi.

Xar qanday faollik zaminida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Faollik to'g'risida gapirilganda, o'qituvchi xikoyasi, suxbati, tushuntirilishi, ma'ruzasini diqqat bilan tinglashi: turli xil yo'llar: ko'rgazmali qurol, mustaqil ish, muammolar, texnik vositalar yordamida o'quvchilarning faolligini oshirish ijtimoiy va ma'naviy hayotda faol ishtirok yetish: moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi xox o'quv-tarbiya, xox ijtimoiy va ma'naviy hayot to'g'risida bo'lmasin, insonning ongli aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi.

O'quvchilarning ta'lim jarayonida mustaqilligi va faolligi quyidagi qoidalarga rioya qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

- Xar bir materialni o'rganishga kirishishdan oldin o'quvchilarga uning maqsadi, hayot uchun zarurligini tushuntirish kerak. Maqsad oldindan anglangan natija bo'lib, bolaning barcha xatti-xarakatini, intilishlarini yagona yo'lga soladi. Maqsadni anglash ta'limning istiqbolliligini ta'minlaydi.

- O'rganilayotgan o'quv mavzularining mazmuni, bolalarning individual xususiyatlari, real bilish imkoniyatlarini xisobga olib muammolar, muammoli savollarni o'rtaga tashlash, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar moxiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish bolalarda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi.

- O'quv materiallarini o'rgatish jarayonida bolalarga analiz va sintez qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va dedektiv xulosalar chiqarishni o'rgatish. Bola aqliy faoliyat metodlarini o'rgana borgan sari, o'z oldiga qo'yilgan muammolarni ham tezlik bilan bajarish sirlarini egallaydi. Bu o'z navbatida, bolada o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatlarini o'stiradi. Ta'limning barcha bosqichlarida, darsning barcha yetaplarida mustaqil ishlarni tashkil yetish, bolalarga fan soxasida qo'llanadigan metodlarni o'rgatish bilan o'quvchilarda o'z kuchiga, o'z bilish imkoniyatlariga ishonchi tarbiyalanadi.

Ko'rgazmalilik va onglilik. Ko'rgazmalilik-ta'limda onglilikni ta'minlash vositasidir. K.D.Ushinskiy «ko'rgazmali o'qitish xaqida» nomli maqolasida «ko'rgazmali o'qitishning o'zi nima?» degan so'roqa shunday javob beradi: «Bu shunday o'qituvki, u mavxum tasavvur va so'zlarga yemas, balki bolalar bevosita idrok qilgan yaxlit obrazlarga asoslanadi, bu obrazlarni bolalar muallimning raxbarligi ostida o'qish jarayonining o'zida bilib olishganmi, yoxud ilgari mustaqil kuzatish natijasida bilib olishganmi, baribir. Xullas, murabbiy bolaning qalbidan tayyor obrazlar topib, o'z ta'limini ana shu obrazlar bilan asoslaydi».

Yendi ko'rgazmalilik qoidasini onglilik qoidasi bilan yonma-yon qo'yib o'rganishga yextiyoj bormi, degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

Ta'limda ko'rgazmali qurollardan foydalanish, o'quvchining tafakkur darajasiga ko'ra belgilanadi. Kichik maktab yoshidagi (7-11yosh) bolalarda yaxlit fikrlash ustun bo'lib, ular rasm, jadvallar asosida narsa-voqealarning moxiyatini chuqurroq anglaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda aniq-obrazli, xarakatchan-obrazli fikrlash shakllarini taraqqiy etganligi ta'limda ko'rgazmali qurollardan ko'proq foydalanishni taqozo yetadi.

Bolaning yoshi ulg'ayib, ijtimoiy tajribasi osha borgan sari, unda tafakkurning abstraksiyalash, umumlashtirish, ajratish kabi sifatleri rivojlanadi, bola induktiv va diduktiv xulosalar chiqarishni o'rganib oladi. Katta maktab yoshidagi (11 va undan yuqori yosh) bolalar bilimlarni ta'riflar, aksiomalar, xulosalar, farazlar shaklida qabul qila oladi. Bu yoshdagi bolalarda ratsional, nazariy fikrlashning o'sganligi ko'rgazmali

qurollar turini o'zgartirishni taqozo yetadi. yendi ko'rgazmali qurol sifatida turli chizmalar, simvolli belgilar, diagrammalardan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Ana shularni barchasi ko'rgazmalilik qoidasi onglilik qoidasi bilan uzviy «bog'liqligini isbotlaydi va ularni yonma-yon tavsiflashni talab yetadi.

Ko'rgazmalilik qoidasiga ko'ra narsa, xodisaarni o'rganish, ularni kuzatish, sezishdan boshlanadi. Kuzatish, sezish, ongda ma'lumotlarni to'plash, narsa-xodisalar to'g'risidagi xissiy yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi. Ta'lim jarayonida bilish xissiy yaxlit tasavvur xosil qilish bilan chegaralanmaydi. O'qituvchi bolalarni qonun-qoida, ta'rif, aniqliklarni sezishdan ularning moxiyatini aniqlashga, tasavvurlardan tashqari tushuncha darajasida o'zlashtirishga olib boradi. Demak, ta'lim jarayonida ham xissiy bilishdan ratsional bilishga va aksincha ratsional bilishdan xissiy bilishga-omillar to'plash, tajribalar o'tkazish orqali olib boriladi.

Didaktik adabiyotlarda onglilik deganda, o'rganilayotgan mavzuga oid qonuniyat, ta'rif va omillarni asosli egallash, xulosa va umumlashmalarni chuqur, atroflicha faxmlash, mavzu yuzasidan bilimlarni izchil va to'g'ri bayon qilish, bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'rgatilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalanish, bilish kabilar tushuniladi. Bulardan ko'rinadiki, onglilik ko'p qamrovli qoida bo'lib, u ta'limda ilmiylik va tushunarlik, mustaqillik va faollik kabi kategoriyalar bilan bog'liq bo'lish bilan bir qatorda o'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vositalari, natijalariga ham aloqadordir.

Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'nalgan qoidadir. Bilim va malakalarni ongli o'zlashtirish quyidagicha xususiyatlarga ega: ta'limning maqsadi, hayot uchun zarurligini anglash; materiallarni ongli egallash va ularni o'zaro farqlay bilish, bilimlarning o'zaro uzviy bog'liqligi.

Bu qoidalarni pedagogik amaliyotga tadbiq yetishda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

-ta'limda bolalarning xissiy bilishdan ratsional va aksincha, ratsional bilishdan xissiy bilishga o'tishlarini ta'minlash;

-ta'lim jarayoni uning bosqichlari, bo'g'inlari, omillari, ketma-ketligini, bolalarni sezishi va anglashiga yerishish;

-o'zlashtirilgan bilim, shakllangan malakalarni bolalarga o'z so'zlari bilan aytib berishni o'rgatish;

-bilimlarni o'rganilgan mavzuga doir omillarga, hayotga, ishlab chiqarishga joriy eta bilish qobiliyatini o'stirish;

- mexanik yodlab olishni chegaralash;
- bolalarda o'quv fanlariga munosabatini tarbiyalash va nixoyat;
- ta'lim manbalari-ko'rgazmali qurol, darslik, o'qituvchining uyg'unlashtirish.

2.5. Didaktik o'yin texnologiyasi

O'yinli texnologiyalar turli shaklda bo'lsada, ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni ular o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, yetuk axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog'lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo'lgan komil shaxsni kamol toptirishdan iborat vazifani hal etadi.

Psixologlar ta'kidlaydilar ki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi.

Ular quyidagilar:

- maftunkorlik
- kommunikativlik (uyushtiruvchilik)
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish
- davolovchilik
- tashxis
- millatlararo muloqot
- ijtimoiylashuv

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1.O'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;

2.O'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;

3.Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratadi;

4.Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini tarkib topishiga yordam beradi;

5.O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash,


kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

6. Shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

8. O'yin ishtirokchilarida ommaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olishi va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: sujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, anjumanlar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.



2.6. Didaktik o'yin turlarini tayyorlash va amalda qo'llash

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;


- o‘yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya’ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e’tibor qaratiladi;
- o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab: syujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O‘qituvchi-pedagog avval o‘quvchilarni individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Ona tili o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo‘llanadigan usullar, mashqlar variantlari ko‘p. Fonetik, grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta’limiy o‘yinlar ham muhim o‘rin tutadi. Ta’limiy o‘yinlarni boshqa mashq turlaridan farqi shuki, bunda bir tamondan, o‘quvchilarning zerikishi, charchog‘iga barham berilsa, ikkinchidan tamondan, bolalarning fikrlash jarayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Didaktik o'yinli dars va uning turlari



Ma'lumki o'quvchi qancha yosh bo'lsa, darslarda qo'llanadigan qiziqarli o'yin elementlari shunchalik ko'p bo'lishi lozim. Chunki darsda qo'llanadigan didaktik o'yin, bir tamondan, ayrim bolalar tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, sho'xlik kabi xususiyatlariga muvofiq kelsa, ikkinchi tamondan, ba'zi bolalardagi odamovilik, indamaslik, uyatchanlik kabi jihatlarini bartaraf etib boradi. Demak, o'yin jarayoni o'quvchi psixologiyasida keskin o'zgarishlar yasaadi. O'yin davomida o'quvchi mavhum grammatik-orfograk tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi, uning xotirasida ko'pgina so'zlar uchun umumiy bo'lgan belgilar o'rin ola boshlaydi, og'zaki va yozma nutqidagi orfoepik – orfografik tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi, yozma nutqidagi orfoepik – orfografik nuqsonlar kamayadi. Ta'limiy o'yinlar sinf jamoasining erkin tutishlarini ta'minlaydi, darsning samaradorligi ortadi. O'yinda ko'pchilik o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanib, reyting ballarini qo'yib borish imkoniyati tug'iladi.

O'yinlarning yana bir diqqatga sazovor joyi shundaki, sinfda inoqlik, shiddat hukm suradi. O'quvchilar bir-birlariga yordam bergilari kelib, sinf jamoasining jipsligi yanada ortadi.

Ona tili mazmuniga ko'ra ta'limiy o'yinlar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. fonetik – grafik o'yinlar
2. so'z yasalishi bo'yicha o'yinlar

3. grammatik o‘yinlar
4. orfografik o‘yinlar
5. nutq o‘stirish tusidagi o‘yinlar.

Ta’limiy o‘yinlar o‘tkazilish xarakteriga ko‘ra quyidagi turlarga ajraladi:

1. og‘zaki o‘yinlar
2. indamas o‘yinlar
3. yozma o‘yinlar

ta’limiy o‘yinlar tashkil qilinishi bo‘yicha quyidagi turlarga ajraladi:

1. guruxlararo musobaqa tarzidagi o‘yinlar
2. tarqatma materiallar yordamida o‘tkaziladigan o‘yinlar
3. qo‘l barmoqlari yordamida o‘tkaziladigan o‘yinlar

ona tilidan ta’limiy o‘yinlar, shuningdek, she’r, ertak, hikoya, topishmoq, tez aytishlardan, turli rebus va boshqotirma jadvallaridan ham unumli foydalanish mumkin.

O‘yinni tashkil qilishda o‘qituvchi quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

- o‘yin qiziqarli, sodda, tushunarli, aniq bo‘lsin;
- o‘yin mavzuga mos, chuqur mazmunli bo‘lsin;
- o‘yinda iloji boricha ko‘proq o‘quvchi ishtirok etsin;
- o‘yinda qiziqarli narsalar ko‘p bo‘lsin;
- o‘yinni o‘tkazilish muddati, tartibi aniq bo‘lsin;
- o‘yin o‘quvchilarni muayyan ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirsin;
- o‘yin g‘oliblari rag‘batlantirib borilsin.

O‘qituvchi o‘yin turlarini mustahkamlanayotgan mavzuga muvofiq tanlab, belgilangan o‘yin turiga mos shaklni tuzib, o‘yin tartibini aniq belgilab olishi lozim. O‘yin uchun kerakli material esa imlo lug‘ati, o‘qish kitobi, bolalar jurnali, turli badiiy asarlar to‘plamlaridan olinadi.

Materialni o‘yin shakliga solishda quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

- o‘yin materialida mavzuga oid misol ilojiborichako‘p bo‘lsin;
- material va o‘yin shakli o‘quvchi yoshiga mos, tushunarli, sodda va qiziqarli bo‘lsin;
- o‘yin shakli va material hajmi dars strukturasi muvofiq bo‘lsin;
- material va o‘yin shakli o‘quvchi nutqini o‘stirish, imloviy savodxonligini oshirish imkongiyatini bersin;
- material va o‘yin shakli o‘quvchi aqliy faolligini yaxshilasin;

- material va o‘yin shakli o‘quvchi dunyoqarashini o‘stirsin, tarbiyaviy elementlarga boy bo‘lsin.

Boshlang‘ich sinf ona tili dasturidagi har bir mavzu bo‘yicha muayyan shakldagi ta‘limiy o‘yinni tashkil qilish mumkin. O‘qituvchi, avvalo, ta‘limiy o‘yinning ta‘lim-tarbiyaviy maqsadini belgilab, o‘yinga kerakli materialni tayyorlab o‘quvchilarga ta‘limiy o‘yinni o‘tkazish tartibini aniq tushuntirib berishi, o‘yinni o‘zi boshqarib borishi, o‘quvchilarning xatolarini yo‘l-yo‘lakay tuzatib borishi zarur. O‘yin oxirida tegishli xulosalar chiqarilib, ballar e‘lon qilinadi.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi-da asosiy e‘tibor o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishga qaratiladi. Shundan kelib chiqib, 2—4- sinflarda o‘quvchilarni tabiat hodisalarini kuzatishga o‘rgatish, narsa-buyumlar, o‘simlik va hayvonot dunyosiga oid tushunchalarning nomlari, belgi, miqdor, harakat-holatni bildiruvchi so‘zlar bilan ularni tanishtirish — o‘zbek tili darslarining asosiy ta‘limiy maqsadi hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarning so‘zlarni imkon qadar ko‘proq o‘zlashtirishi hamda xotirasiga singdirib borishiga qaratilgan mashq turlaridan foydalanish dars samaradorligini belgilaydi. Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim bosqichida didaktik o‘yinlardan foydalanish, ayniqsa, muhimdir.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchi_larning o‘zaro va o‘qituvchilar bilan hamkorligini mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ta‘limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi, o‘quvchilarni darsga to‘liq jalb etishga yordam beradi, ularning ijodiy tafakkuri, faolligini o‘stirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Biroq ta‘limiy o‘yinlarni me‘yorida qo‘llash kerak, ularni haddan ziyod ko‘paytirib yuborish o‘quvchini dars maqsadidan chalg‘itib qo‘yishi mumkin.

Ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘z boyligini oshirish uchun o‘zbek tili darslarida quyidagi didaktik o‘yinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

«Kim ko‘p so‘z biladi?»

Bu o‘yin o‘quvchilarning lug‘at boyligini o‘stirishga yordam beradi. Buning uchun sinf ikki guruhga bo‘linadi va 1- guruh o‘quvchilariga boshlanishi va tugallanishi bir xil unidan tashkil topgan, ikkinchi guruhga esa xuddi shunday: bir xil undosh bilan boshlanib, shu undosh bilan tugallangan so‘zlarni doskaga yozish topshiriladi.

Masalan, 1- guruh «*ikki*», «*alla*», 2- guruh esa «*qiziq*», «*katak*» kabi soʻzlarni yozishi mumkin. Oʻyin shartiga koʻra, guruhlardagi oʻquvchilar navbat bilan vazifani bajaradilar. Soʻz topolmay yozishdan toʻxtagan guruh yutqazgan hisoblanadi.

«Soʻz top»

Ushbu oʻyinni 2—3- sinflarda darsning kirish qismida oʻtgan mavzuni mustahkamlash yoki lugʻat ustida ishlash maqsadida oʻtkazish mumkin. Oʻqituvchi bir soʻz aytadi, oʻquvchilar esa davom ettirishadi. Oʻyin qoidasiga koʻra, birinchi aytilgan soʻz qaysi harf bilan tugasa, keyingi oʻquvchi shu harfdan boshlangan soʻzni aytishi kerak. Masalan, *kitob - barg - gul - lola - anhor - rasm - maktab - bola — ah - ip...*

Jarayonda sinfdagi barcha oʻquvchilarning faol ishtiroki taʼminlanadi. Soʻzlarni takror qoʻllamaslik sharti oʻquvchilarni bir-birini diqqat bilan kuzatishga, qaysi soʻzlar aytilganini xotirasida saqlab turishga, muhimi, hozirjavoblikka oʻrgatadi.

Shuningdek, bu oʻyin turini biror mavzuga oid soʻzlar boʻyicha ham oʻtkazish mumkin. Oʻquvchilarga muayyan soha yoki mavzuga taalluqli soʻz topishlari aytiladi. Masalan, uy jihozlariga oid soʻzlarni aytish topshirigʻi berilganda, 1- oʻquvchi: *xontaxta*; 2- oʻquvchi: *koʻrpacha*; 3- oʻquvchi: *gilam*; 4- oʻquvchi: *guidon* va hokazo tarzida oʻyinni davom ettiradi. Bunda aytilgan soʻzning qaysi harf bilan tugashi emas, aynan shu mavzuga aloqador boʻlishi

bosh mezon qilib belgilanadi. «Soʻz top» oʻyining barcha turida ham tezkorlik bilan javob bermagan oʻquvchi oʻyinni tark etadi, oʻyinda oxirigacha ishtirok etganlar gʻolib boʻladi.

«Jumlani davom ettir»

Oʻyin qoidasiga koʻra, birinchi oʻquvchi birorta qisqa gap aytadi, boshqa oʻquvchi aynan shu gapga soʻz qoʻshib boraveradi.

Masalan:

- 1- oʻquvchi; *Men hikoya oʻqidim.*
- 2- oʻquvchi; *Men qiziqarli hikoya oʻqidim.*
- 3- oʻquvchi; *Men kecha qiziqarli hikoya oʻqidim va h.k.*

Soʻz qoʻsha olmagan yoki xatoga yoʻl qoʻygan oʻquvchi oʻyinni tark etadi. 6—7 daqiqa mobaynida oʻyin davomiyligini taʼminlab turgan oʻquvchilar gʻolib boʻladi va baholanadi.

«**Kim tezroq?**» o‘yini yozma shaklda bajariladi va bunda har bir o‘quvchiga yig‘iq gaplar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Masalan. *Bahor. Daraxtlar gullaydi. Gullar ochiladi. Qushlar say ray boshlaydi. Navro‘zi olam kirib keladi. Doshqozonlar qaynaydi. Sumalaklar pishadi...* kabi. O‘quvchilar esa mazkur gaplarni yoyiq gaplarga aylantirib, daftarlariga yozishlari lozim. Topshiriqni birinchi bajargan o‘quvchi tuzgan gapini o‘qib beradi. Vazifani bexato bajargan o‘quvchi a’lo baho bilan rag‘batlantiriladi.

«**Kuch birlikda**» o‘yinini o‘tkazish uchun xattaxta ikkiga bo‘linib, har bir guruh uchun alohida mavzu yozib qo‘yiladi. (Masalan, «*Gulzorda*» yoki «*Maktabimiz bog‘i*» kabi). Bunda har bir guruh a’zosi gap tuzib, mavzu bo‘yicha matn hosil qilishga o‘z hissasini qo‘shishi lozim. O‘n daqiqa davomida qaysi guruh tez, chiroyli va mazmunli matn tuza olsa, shu guruhga rag‘bat kartochkasi beriladi, so‘ngra tuzilgan matn doskaga yozdiriladi.

«**Muomalani biling.**«O‘zbek tili» darsliklarida beriladigan muomala odobiga oid ma’lumotlarni mustah-kamlash jarayonida ushbu ta’limiy o‘yindan foydalanish tavsiya etiladi. O‘yinda o‘quvchilar bir-biriga muomala odobiga oid so‘z yoki gaplarni takror qo‘llamasdan aytishlari kerak bo‘ladi. Masalan: 1- o‘quvchi; *Xush kelibsiz!*

2- o‘quvchi: *Yaxshi keldingizmi?*

3- o‘quvchi: *Rahmat!*

4- o‘quvchi: *Minnatdorman.*

5- o‘quvchi: *Yaxshi boring.*

6- o‘quvchi: *Omad sizga yor bo‘isin!*

Ushbu o‘yinni boshqacharoq tashkil etish ham mumkin. Bunda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘lingani holda, 1- guruh ishtirokchilari muomala odobiga oid so‘z va birikmalarni, 2- guruh vakillari esa shu gaplarning qayerda qo‘llanilishini aytib berishlari kerak bo‘ladi. Guruh ishtirokchilari navbatma-navbat bir-birlariga murojaat qiladilar.

«**Kim nima qiladi?**»

O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi va har bir guruhdan bittadan o‘quvchi

doskaga taklif etiladi. Birinchi guruh ishtirokchisi «*Kim?*» yoki «*Nima?*» so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni yozsa, ikkinchi guruh ishtirokchisi «*Nima qiladi?*» so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni qayd etadi. Natijada quyidagi yig‘iq gaplar hosil bo‘ladi.

1- guruh	2- guruh
<i>O'qituvchi</i>	<i>o'qitadi.</i>
<i>O'quvchilar</i>	<i>o'qiydilar.</i>
<i>Qush</i>	<i>sayraydi.</i>
<i>Shamol</i>	<i>esadi.</i>
<i>Gul</i>	<i>o'sadi.</i>
<i>Paxta</i>	<i>ochiladi.</i>
<i>Yomg'ir</i>	<i>yog'adi.</i>
<i>Quyosh</i>	<i>isitadi.</i>

O'quvchilar xattaxtaga yozilgan gaplarni daftar_lariga ko'chirib oladilar Bu o'yinda ularning topqirligi va yozma savodxonligi ham e'tiborga olinadi. Qaysi guruh a'zosi topshiriqni bexato bajarsa, shuguruhga rag'bat kartoch_kasi beriladi.

Iqtidorli va ilg'or o'quvchilarga ushbu ish turini ijodiy davom ettirish, ya'ni so'zlarning sinonimlari yordamida topshi_riqni kengaytirib bajarish vazifasi topshirilishi mumkin. Agar o'quvchi topshiriqni quyidagi tarzda bajarsa, unga ikkita rag'bat kartochkasi beriladi.

Shifokor, tabib davolaydi, shifo ulashadi.

Bu o'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda, ularni hozirjavoblikka, topqirlikka, e'tiborli bo'lishga o'rgatishda muhim ahamiyatga egadir.

«**Oltin toj**» o'yinini oyda bir marta o'tkazib turish o'tilgan mavzularni mustahkamlashga, o'quvchilar bilimining darajasini aniqlashga, bilim olish ishtiyoqini, intilishini kuchay-tirishga yordam beradi. Bir oy davomida oltin toj sovrindori bo'lib yurish kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga ko'tarinki ruh beradi, ularning darsga, til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ta'limiy o'yinlardan foydalanish samarali natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi.

2.7. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – SH.SHaron (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma

va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, YAponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahlil olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam ubshirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Komandada o'qitish (R.Slavin) da o'quvchilar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi etarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda

ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin, 1986).

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va o'quvchilarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi;

O‘quvchilarning faolligi asta-sekin o‘tib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosbata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.

Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. faoliyatga kirish;
2. mustaqil harakatlar o‘qituvchi bilan o‘quvchi hamkorlikda bajaradilar;
3. o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o‘quvchini jalb etadi;
4. taqlid harakatlari (o‘qituvchidan ibrat olgan o‘quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);
5. madad harakatlari (o‘qituvchi o‘quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);
6. o‘zini – o‘zi boshqarish harakatlari (o‘qituvchi umumiy maqsadni ko‘rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
7. o‘zini – o‘zi ko‘rsatuvchi harakatlar;
8. o‘zini – o‘zi uyushtiruvchi harakatlar.

2.8. Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining turli shakllarini tayyorlash

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo‘lib, u an’anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanadi: An’anaviy ta’limda o‘qituvchi pedagogik jarayonning sub’yekti, o‘quvchi esa ob’yekti deb qaraladi.

Hamkorlikda o‘qitish o‘quvchining ta’lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o‘quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Hamkorlikda o‘qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- o‘quvchining o‘rganish jarayonini boyitadi;
- o‘quvchilarga ular o‘rtasida taqsim qilinib, o‘zlashtirilgan kognitiv axborotlar to‘plamini beradi;
- o‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyok uyg‘otadi;
- o‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;

- o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;

- turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda ovqitish texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarni o'ziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qo'llash tizimi mavjud bo'lib, quyida shu mahg'ulotlardan ayrim namunalarni ko'rsatib o'tamiz: S uch pog'onali intervyu; S davra suxbati; S ro'yxat tuzish;

S muammolar yechishni tashkil qilish;

S bir daqiqalik ishlar;

S juftlik izohlari;

S muammoni jo'natish;

S baholash chizig'i;

S kam uchraydigan birlik j amoa kuzatuv;

S ikki qismli kundaliq o'zaro savol yo'llash.

Bu mahg'ulot turlarining ko'pida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish, ularga rollar va vazifalar taqsim qilish ko'zda tutiladi. Bunda qo'yidagilar hisobga olinadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedarogik jarayonini takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1-30]. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani ko'rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Hamkorlikda o'qitish mahg'ulotlarini tashkil qilishda: o'qituvchi-sinf, o'qituvchi kichiq guruh. O'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi (juftlikda ishlash), kichik-guruh, guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi. Hamkorlikda o'qitish-bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka o'quvchi hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi.

Umuman, hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhli ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.

2. O'quvchilar 2-5 a'zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. O'quvchilar ijobiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning bir-birlariga ko'maklashishlari talab etilishini qisobga olgan holla tuzilgan bo'ladi.

5. O'quvchilar o'z ishlari iqtisodiga yoki boshqacha aytganda, o'qishga, ta'lim olishga, shaxsan mas'uliyatli va javobgardirdar.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari amalga oladigan ayrim noana'naviy

dars shakllari

Matbuot konferensiyasi darsi - dars mavzusini savol javoblar orqali o'zlashtirish mashqi.

Quvnoqlar, zukkolar klubi darsi - qiziqarli savol-ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o'rgatish mashqi.

Guruhlarda ishlash darsi - o'quvchilarning bir nechta guruhlariga bo'linib vazifalar bajarishini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqi.

O'zaro o'qitish darsi - o'quvchilarning dars mazmuni bo'yicha matnning ayrim abzaslari yoki shunga o'xshash kichik bo'laklarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o'zlashtirish darsi.

O'quvchilar olib boradigan dars - dars mavzusini o'quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o'quvchilar faolligini oshirish mashqi.

Tanlov darsi - sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik ko'rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g'oliblarni aniqlash darsi.

Juftlikda ishlash (binar) dars - o'quvchilarning juft bo'lib, dars mavzusini birgalikda o'zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlash darsi. Bunda zarur bo'lganda juftliklar dars davomida turlicha o'zgartirilishi mumkin.

Dialog darsi - o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrlarini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars

mavzusini o'quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Aylana bo'ylab mashq darsi - o'quvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o'zlashtirish yoki o'tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Innovasiyalar darsi - o'quv fani sohasidagi yoki maktab hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo'llash bo'yicha taqlif va loyihalar bilan tanishirish darsi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi: o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish o'quvchida quyidagilarni shakllantirishni ko'zda tutadi :

- Har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr

- yuritishga o'rgatish;

- shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash;

- har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish;

- o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash;

- Tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirish.

- Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi

muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va

sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga,

o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro

yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Komandada o'qitish(R.Slavin).

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish(R.Slavin, 1986).

3. Hamkorlikda o'qitishning "zigzag yoki arra" metodi (E.Aronson, 1978).

4. Hamkorlikda o'qitishning "Birgalikda o'qiymiz" metodi (Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson,1987).

5. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi (Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan1988 tomonidan ishlab chiqilgan).

Komandada o'qitish (R.Slavin)

Komandada o'qitishda ovquvchilar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzuda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga e'tibor qaratadi. R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish

Bu metodda kichik guruhlar 4 nafar o'quvchidan iborat qilib tuziladi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadi. O'quv topshiriqlari to'rt qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos pedagogik, psixologik va uslubiy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- tashkiliy-pedagogik asoslari - o'quv reja, dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o'zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida

o'quv mashg'uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit, imkoniyatlarni belgilash va amalga oshirish;

- psixologik asoslari - o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish, mashg'ulotda har bir o'quvchi uchun qulay

psixologik muhit yaratish, erkin muloqotni sifatli uyushtirishda dars mavzusi, mazmuni, qo'llanilayotgan tushunchalar, atamalar, ta'riflar, formulalar va boshqa shartlarning o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash;

- uslubiy asoslari - mashg'ulot uchun zarur vositalarni oldindan ishga tayyorlash, ularning talablar darajasida sifatli bo'lishini ta'minlash.

Muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish va boshqalar. Hamkorlikda o'qitish samaradorligini ta'minlovchi omillar: o'quvchilarning dars mazmuniga ijodiy yondashuvi, dars jarayonidagi axborotlarni tahlil va tanqid qilish, o'z xulosalarini asoslash, bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash, amaliy topshiriqlar bajarish uchun vaqtni ko'proq ajratish, hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilarning birbiriga muvaffaqiyatga erishishlari uchun ko'maklashuvi va boshqalar. Pedagogika- psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Faoliyatga kirish.
2. Mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar.
3. O'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi.
4. Taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi).
5. Madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi).
6. O'zini - o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi).
7. O'zini - o'zi ko'rsatuvchi harakatlar.
8. O'zini - o'zi uyushtiruvchi harakatlar.

Keys-stadi bu o'qitish metodologiyasi bo'lib, u o'quvchilar nafaqat boshqa odamlarni yaxshiroq tushunishni, balki katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashni o'rganishi uchun yaratilgan. taklif qilingan biznes vaziyatlarni o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish va ushbu qaror asosida qabul qilish.

Klaster (inglizcha cluster - to'planish, cho'tka, to'da) - ma'lum xususiyatlarga ega mustaqil birlik sifatida qaralishi mumkin bo'lgan bir nechta bir hil elementlarning birlashmasi.

Hamkorlikda o‘qitishning «Birgalikda o‘qiymiz» metodi

Hamkorlikda o‘qitishning «Birgalikda o‘qiymiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o‘quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqni ma’lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to‘liq bajarilish natijasida o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari-komandani taqdirlash, o‘quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Erkin fikrlash darslari

Erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bag‘ishlanadi.

Erkin fikrlash darslaridan ko‘zda tutilgan maqsad:

1. O‘quvchilarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish

2. O‘quvchilarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish.

3. O‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo‘llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish.

Munozarali darslarning muvaffaqiyati qo‘yidagi masalalarni to‘g‘ri hal etishga bog‘liq:

o‘quvchilarning darsga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishiga;

ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga;

o‘quvchilarning o‘z fikr-mulohazalarini to‘liq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga;

o‘quvchilarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko‘nikmalarining hosil qilinganligiga;

o‘qituvchining iqtidori, e’tiqodi, o‘quvchilarning bilim faoliyatini faollashtira olish ko‘nikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Erkin fikrlash darslarini o‘tkazish uchun o‘quvchilarga ko‘pgina ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarni o‘qishni tavsiya etamiz.

Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o‘quvchining muntazam va faol aqliy mehnat

qilishiga, kichik guruhlarni umuman sinf jamoasini jipslashtirishga avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llanilib, yangi bilimlarni o'zlashtirilishiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

-qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'rganishni aniqlaydi va mazkur darslarni taqvim-rejada belgilaydi:

-ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlaydi:

-hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'tiladigan dars turi, dars strukturasi va borishini loyihalashtiradi:

-yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun test savol-topshiriqlarini tuzadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'limning metodologik asoslari nimalarga bog'liq?
2. Zamonaviy didaktik konsepsiya qanday amalga oshiriladi?
3. Ta'lim turlari va ularning tavsifi haqida aytib o'ting?
4. Ta'lim qonunlari va tamoyillari qanday amalga oshiriladi?
5. Didaktik o'yin texnologiyasi qaysi olim tomonidan ishlab chiqilgan?
6. Didaktik o'yin turlarini tayyorlash va amalda qo'llash qanday amalga oshiriladi?
7. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi nimalarga bog'liq?
8. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining turli shakllarini tayyorlash qanday amalga oshiriladi?

III-BO‘LIM. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTEGRATSIYANING O‘RNI

1-MAVZU: O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI

Reja:

1. Ta‘limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi.
2. Maktabda o‘quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli.
3. Darsga qo‘yiladigan talablar.
4. O‘quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli.
5. Dars tizimi strukturasi.
6. O‘qituvchining o‘z darsini tahlil qilishi.
7. Ta‘limning interfaol metodlari.
8. Interfaol mashg‘ulotlarni tashkil qilish va olib borish.
9. Muammoli ta‘lim texnologiyasi

1.1. Ta‘limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida ta‘lim berish va o‘qitish paydo bo‘lgan va mustaqil jarayon sifatida ajralib chiqqan vaqtdan boshlab tashkiliy shakllarida turlicha amalga oshirilgan.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlarida ta‘lim berish ishlarini kishilarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog‘langan hamda bilim berish, katta yoshdagilar hayotiy tajribasini yoshlarga o‘rgatish ishlari yakka tartibda (individual) olib borilgan. Bu o‘qitishning eng qadimgi shakli – ta‘limning individual shakli hisoblanadi. Ta‘limni tashkil etishning individual shakli (kichik guruhlar shaklida) antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan Yevropadagi ba‘zi mamlakatlarda keng foydalanilib kelingan.

Individual ta‘lim (kichik guruhlar shaklida) bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun ta‘limning bu shakli bizning davrimizgacharepetitorlik ta‘limi shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunligi o‘quv faoliyati mazmuni va metodini to‘la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va faoliyati jarayonlarini kuzatib borishdan iborat. Individual ta‘lim o‘qituvchining yuqori pedagogik malaka va mahoratga ega bo‘lishni talab etadi.

Individual ta'lim (o'qitish)ning afzallik(ustunlik)lari bilan bir qatorda uning bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat:

vaqtning tejamli emasligi;

o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchi- o'quvchilarga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

boshqa o'quvchi-o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);

jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi va h.k.

Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning individual – guruhli shakli egallashiga imkon beradi.

Ta'limning individual – guruhli shaklidan Yevropada XVI asrda keng foydalana boshladilar. Vaholanki, Markaziy Osiyo davlatlarida ta'limning individual – guruhli shaklidan qadimgi (antik) davrlarda keng foydalanganlar. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” (miloddan avvalgi VII-VI asrlar)da talqin etilishicha, ibodatxonalar qoshidagi maktablarda individual – guruhli o'qitish jamoali o'qitish bilan birga qo'shib olib borilar edi. Birinchi navbatda, bolalarga zardushtiylik dini asoslari, Oliy Tangri Axura Mazdaga iltijo va murojaatlari-yu farzlari, Zardusht o'g'itlari puxta o'qitilib, kalome – bad'e asoslariga suyangan holda “Gohlar” maxsus yodlatilgan. Ikkinchidan jamiyat taraqqiyoti ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda, bolalarga riyoziyot (matematika), xandasa (geometriya), falakiyot (astronomiya), tarix, falsafa, huquqshunoslik, tabobat va boshqa dunyoviy fanlar o'qitilgan. Kichik yoshdagi bolalarni o'qitishda ustoz- kohin (o'qituvchi) 21 kitob (nask)dan iborat “Avesto”ning “Goh” “Yasht” yoki boshqa kitob (nask)laridan birini ochadi, bolalar navbatma-navbat ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda (individual-guruhli) takrorlaydilar, mashqlarni esa maxsus taxtachalarga yozganlar. O'qitish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat – muloqot uslublaridan keng foydalanilgan. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni shovqinsiz takrorlash, hamisha esda tutish talab qilingan, egallangan bilimni sinash maqsadida ta'lim oluvchilarning bilim darajasi muntazam tekshirilib va baholanib borilgan.¹ Tashkil etish quyosh chiqqandan to botguncha davom etgan, uy vazifalari (topshiriqlari) mavjud bo'lmagan.

Oʻrta asr Uygʻonish davrida (IX-XII asrlar davomida) al-Xorazmiy, al-Forobiy, al-Beruniy, Ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning asarlaridagi gʻoyalarning oʻziga xosligi shundan iboratki, bevosita oʻrganilayotgan fan mantigʻidan ajratilmagan. Shuningdek, taʼlim jarayonini tashkil etish shakllari, taʼlim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublariga xos gʻoyalar alohida kitoblarda berilmay, balki bevosita amalda (tajribada), bironta fanni oʻrganish asosi aniq bilim, malaka va koʻnikmalarni shakllantirish jarayonida yoritiladi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) “Al-kitob al muktasarfi hisob aljabr va muqobala” (“Aljabr va al muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” asari bilan algebra fanining asoschisi sifatida matematika fanida abstraksiya (mavhumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yoʻli bilan masalalarni umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yoʻli bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi.

Al-Xorazmiy oʻqitish jarayonini tashkil etishda bilim berishning koʻrgazmali tajriba usullari, savol-javob, malaka va koʻnikmalarni shakllantirish, oʻquvchilarning bilimlarini sinash usullaridan keng foydalangan.

Abu Nasr Forobiy (873-950) oʻz asarlarida oʻqitish jarayonini tashkil etishda taʼlim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish xususida fikr bildirsa ham, ammo har birining inson shaxsini kamol toptirishda oʻz oʻrni va xususiyati bor ekanligini alohida qayd qiladi:

“Taʼlim – degan soʻz xalqlar va shaharliklar oʻrtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar oʻrtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar oʻrtasidagi tugʻma fazilat va amaliy kasb – hunar fazilatlarini birlashtirish degan soʻzdir.

Taʼlim faqat soʻz va oʻrgatish bilangina boʻladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, yaʼni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat boʻlgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan boʻlishi, oʻrganishidir”.¹

Forobiy oʻqitish jarayonini tashkil etishda taʼlim-tarbiya berishning ishontirish va majbur etish metodlari ustida toʻxtab, shunday yozadi: “Amaliy fazilatlar va amaliy sanʼatlar (kasb-hunar) va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yoʻl bilan hosil qilinadi: birinchi yoʻl qanotbaxsh soʻzlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi soʻzlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi. Odamdagi gʻayrat, kasb-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo‘l (usul) – majbur etish yo‘lidir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazariy bilimlarni o‘rganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi bo‘lib, kasb-hunarlarini va juz’iy san’atlarni egallashlarga intilishi bo‘lsa, bunday yoshlarni majbur etmaslik kerak, maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb – hunar ahillariga aylantirishdir”.²

Ta’limning differensiyasi (darajalanishi) haqidagi al- Forobiyning didaktik xulosalari hozirgi davrning ta’lim nazariyasi uchun ahamiyatini yo‘qotmaganligini alohida ta’kidlash lozim: “Ishontirish metodlari va xayolda paydo bo‘lgan fikriy tasavvurlar oddiy xalqni, xalqlardagi va shaharlardagi oddiy kishilarga ta’lim berish davomida qo‘llaniladi. Qaysiki, ishonchli dalillash metodi, ya’ni narsalarning mohiyatiga o‘zining aql bilan yetishish metodi tanlaganlar qatoriga chiqishi mumkin bo‘lmagan kishilarnigina o‘qitish davomida qo‘llanadi”.¹ Al-Farobiy ta’lim jarayonida bilimlarning boshlanishi va

dalillarning asosi hisoblanadigan kuzatish va tajriba kabi ko‘rgazmali metodlarni keng qo‘llashni taklif etadi. Tajriba natijasida olingan va kuzatishlar yoki tajriba yo‘li bilan tekshirilgan bilimlar natijasida ta’lim oluvchining fikr-o‘yi aqqliroq bo‘lib boradi, uning o‘zi esa – ko‘p darajada mukamallashadi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ta’lim jarayonini tashkil etishda, birinchidan, ta’lim oluvchiga bilim berishda turli mavzular yuzasidan mulohazalar yuritishni, ikkinchidan, tolibi ilmlarni zeriktirmasdan ko‘rgazmali bayon etishni, xotirasiga malol keltirmaslikni ta’kidlaydi: “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir, hadeb bir narsani o‘qiyverish zerikarli bo‘ladi va toqatini toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli-tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi, bir bog‘dan o‘tar-o‘tmas, boshqa bog‘ boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko‘rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag‘ishlaydi”.²

Abu Ali ibn Sino (980-1037) “Tadbiri manzil” asarining “Omuzish va parvarishi modarabo farzand” (Bolalarni maktabda o‘qitish va tarbiyalash”) bo‘limida o‘quvchilarni, ya’ni tolibi ilmlarni jamoali ya’ni sinf-dars

shaklida o‘qitishni tashkil etishda quydagi tomonlarga qat’iy rioya etish zarurligini takidlaydi:

-agarda o‘quvchilar(tolibi ilmlar) birgalikda o‘qisalar,ular zerikmaydilar, fanni o‘rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o‘zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o‘qishi yaxshilanishiga yordam beradi;

-o‘zaro suhbatlarda o‘quvchi(tolibi ilm)lar kitobdan o‘qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma’lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

- bola (tolibi ilm)lar birgalikda yig‘ilganlarida bir-birlari bilan do‘stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar, ular faqat musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bola (tolibi ilm)lar mag‘rurlanadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni o‘rganadilar.1

Burxoniddin Zarnuji (XII asr) “Bilim olish yo‘lida o‘quvchiga maslahatlar” nomli asarida ta’lim (dars)ni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Uning ta’kidlashicha, maktab va madrasalarda dars jarayoni taxminan bir soat davom etishi kerak. O‘qituvchi darsga tolibi ilmlar tushunishi va o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan o‘quv materiallarini tanlab olishi, darsda o‘rganiladigan materiallarni sodda qilib tushuntirib berishi lozim. O‘quv materiallari shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o‘zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo‘lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi.2

Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394-1449) davrida o‘qitishning sinf- dars tizimlari, bolalarni yoshi bo‘yicha tabaqalashtirib o‘qitish, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etishning aniq bir muddatini belgilab qo‘yish, xotin- qizlarga ta’lim-tarbiya berishni aniq bir tizimga solish va boshqa ko‘pgina o‘xshash islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Ulug‘bek madrasalarda o‘qish muddatini qat’iy 8 yil qilib belgilab qo‘ydi.

Shuningdek, maktab va madrasalarda dars berishning individual mashg‘ulotlar tizimini bekor qiladi va “jamoat” sinf-dars tizimiga yaqin bo‘lgan shaklini joriy qildi. Umumiy ma’ruzani 50-70 nafar tolibi ilmlardan iborat guruhga odatda, ilm-fan bo‘yicha o‘z sohasida mashhur Shamsiddin Muhammad Qozizoda Rumi, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi kabi olim mudarrislar o‘qiydi, amaliy mashg‘ulotlarni esa 10-15 o‘quvchidan iborat guruhda kichik mudarrislar olib boradi. O‘qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan.

Ulug‘bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida mudarrislar o‘qituvchilardan tolibi ilmlar (o‘quvchi- o‘quvchilar) bilan rasadxonada amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishni talab etdi, bunga bevosita o‘zi rahbarlik qildi.

Ulug‘bekning fikricha, tolibi imlar hayotida darslik muhim o‘rinda turadi. Shunga ko‘ra, uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, geografiya, tarix va boshqa fanlardan sodda, tili ravon, tushunarli, mantiqiy izchillikda o‘qimishli darsliklar yozilgan. Lekin shu o‘rinda o‘qitishning “jamoat” shaklining salbiy tomonlari ham

bo'lganligini ta'kidlab o'tish lozim. Jamoali o'qitish shakli XX asr ta'lim tizimida mashhur bo'lgan guruhli laboratoriya metodida bo'lgani kabi o'zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o'zlashtirmagan ba'zi shogirdlar ham ilg'or (o'zlashtirgan)lar qatorida bir qo'llanmani o'rganishga o'z-o'zidan o'tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar.¹

Ta'limni individual – guruhli shaklining mazmuni mashg'ulotlarni o'qituvchi bir o'quvchi-o'quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo'lgan turli yoshdagi o'quvchi-o'quvchilar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O'qituvchi navbat bilan har bir o'quvchi-o'quvchidan o'tilgan mavzuni

so'raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan o'quvchi-o'quvchilar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. O'qishni bunday tashkil etishda bolalar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan ham.

XV-XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi o'quvchi-o'quvchilarga ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri o'quvchi-o'quvchilarni guruhli (jamoali) ta'limi sanaladi. U Rossiya (hozirgi Belorusiya va Ukrainaning g'arbiy hududlari) bir odarlik maktablarida ilk bor qo'llanilgan va o'qish sinf-darsli shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Kamenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogika nazariyasiga o'quv yili, o'quv kuni, dars mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi.

Ya.A.Kamenskiy "Buyuk didaktika" (1632) asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida uyushtirib, ularda har yili va har bir o'quv kunini bir vaqtda boshlashni; har qaysi mashg'ulot uchun muayyan muddat belgilashni; mashg'ulotlar o'rtasida tanaffuslar berilishini; guruhlarda o'quvchi-o'quvchilar yoshi va soni bir xil bo'lishini, materialni bir xil sur'atda o'rganishni; o'quv mashg'ulotini muayyan tashkiliy shaklda; o'quvchi-o'quvchilar e'tiborini bir nuqtaga to'plash, o'qituvchining tushuntirishi, tushuntirishlar davomida va undan keyin o'quvchi-o'quvchilarga savol berish, o'quv materialini mazmuni qanday o'zlashtirilganini nazorat qilish shaklida o'tkazishni ta'minlash maqsadga muvofiq va zarur ekanligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Guruhli (jamoali) mashg'ulotlarning bunday shakli **sinf-dars tizimi** nomini olib,

juda ko‘p mamlakatlarga tarqaldi, mustahkamlandi. U bugungi kunda ham takomillashgan ko‘rinishda keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

1.2. Maktabda o‘quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli

Ta‘limni tashkil etishning asosiy shakli maktabda dars va oliy maktabdagi ma‘ruza hisoblanadi. Biror bir ta‘limni tashkil etish shakli o‘quv ishlari masalasi va usullariga qarab tuzilishini va modifikatsiyasini o‘zgartirishi mumkin. Misol uchun, dars — o‘yin, dars - konferensiya, dialog, amaliyot va muammoli ma‘ruza, binar, ma‘ruza — telekonferensiya va boshqalar. Maktabda darslar bilan birga boshqa tashkiliy shakllar ham qo‘llaniladi (laboratoriya praktikum, mustaqil uy ishi, fakultativ, to‘garak). Ma‘lum nazorat shakllari ham mavjud bo‘lib ular: og‘zaki va yozma imtihonlar, nazorat va mustaqil ishlar, nazorat, test topshirish, suhbat o‘tkazish shular jumlasidandir. Oliy maktabda ma‘ruzadan tashqari o‘qitishning boshqa tashkiliy shakllaridan ham foydalaniladi — seminar, laboratoriya ishi, amaliy mashg‘ulot o‘quvchilarning mustaqil ishi, ishlab chiqarish amaliyoti, boshqa o‘quv yurtida yoki chet el o‘quv yurtida stajirovkada bo‘lish va shu kabilar. Ta‘limning natijalarini baholash va nazorat qilish shakli sifatida imtihonlar, nazoratlar, baholash reyting tizimidan, referat, kurs ishlari va diplom ishidan foydalaniladi.

Dars tiplari quyidagilardan iborat:

Aralash dars. Uning tuzilishi: tashkiliy qismi, uy ishini tekshirish, yangi materialni o‘rgatish, yangisini ilgari o‘rganilgan material bilan solishtirish va mustahkamlash, amaliy topshiriqlarni bajarilishi, darsga yakun yasash va uyga topshiriqlar berish.

Yangi materiallarni o‘rganish darsi odatda, katta sinf o‘quvchilarini o‘qitishda qo‘llaniladi. Ushbu turdagi dars doirasida quyidagi darslar olib boriladi - ma‘ruza, muammoli dars, dars — konferensiya, kino dars, dars — tadqiqot.

Bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darsi seminar, amaliy, ekskursiya, mustaqil ishlar hamda laboratoriya amaliyoti ko‘rinishida olib boriladi.

Umumlashtirish va tizimlashtirish darsi fanni to‘liq o‘zlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dasturning asosiy masalalari bo‘yicha o‘quv materialining katta qismlarini tizimli takrorlashga qaratilgan. Bunday darsni o‘tishda o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammoni qo‘yadi, qo‘shimcha ma‘lumotlar olish manbalarini ko‘rsatadi hamda o‘xshash masala va amaliy mashqlar beradi, topshiriqlar va ijodiy

xarakterdagi ishlarni topshiradi. Bunday dars paytida o'quvchilarning uzoq vaqt davomida — chorak, yarim yillik, o'quv yili davomida bir necha mavzular bo'yicha bilim, mahorat va ko'nikmalari tekshiriladi, baholanadi.

Bilim, mahorat va ko'nikmalarni nazorat qilish hamda tuzatish darsi o'qitish natijalarini baholash uchun, o'quvchilarning bilim darajasini diagnostika qilish, o'quvchilarning o'z bilimlarini qo'llashga tayyorliklari, o'qitishning turli vaziyatlarida mahoratlari va ko'nikmalarini tekshirish uchun mo'ljallangan. Bunday darslarning ko'rinishlari og'zaki yoki yozma so'rov, diktant, masala va misollarni ifoda etish yoki mustaqil yechish, amaliy ishlarni bajarish, imtihon, mustaqil yoki nazorat ishi, test olish bo'lishi mumkin. Yakuniy dars natijalariga qarab keyingi mashg'ulot odatiy xatolarni, bilimdagi kamchiliklarni tahlil qilishga, qo'shimcha topshiriqlarni belgilashga bag'ishlanadi.

Maktab amaliyotida darsning boshqa turlaridan — dars muso-baqa, maslahat, bir-birini todirish ma'ruzasi, fanlararo dars, o'yin kabilardan foydalaniladi.

Har qanday ma'ruzaning umumiy tuzilishini asosi — bu mavzuni bayon etish, rejani va mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan adabiyotlarni ko'rsatish, keyin esa — ko'rsatilgan ishning rejasiga qat'iy amal qilishdir. Ma'ruza o'qishga qo'yiladigan asosiy talablar sifatida quyidagilar shart deb hisoblanadi.

Ifoda etilayotgan ma'lumotlarning yuksak ilmiy darajadaliligi, odatdagidek dunyoqarash ahamiyatiga egaligi.

Zamonaviy ilmiy ma'lumotlarning aniq tizimlashtirilgan va metodik qayta ishlab chiqilgan hajmlari.

Bildirayotgan fikr-mulohazalarining isbotlanganligi va asoslanganligi.

Keltiriladigan ishonchli isbotlar, misollar, tekstlar va hujjatlarning yetarlicha boiishi.

Fikrlari aniq, tushunarli bayon etilishi va eshituvchilar fikrlashlarini faollashtirish, muhokama etilayotgan muammolar bo'yicha mustaqil ishlar uchun savollarning qo'yilishi.

Qo'yilgan muammoni hal etish uchun turli nuqtayi nazarlarni keltirib chiqarish, xulosalarni ifoda etish.

Kiritilayotgan termin va nomlarni tushuntirish: fikr-mulohazalarni o'quvchilarga eshitishga, fikrlash va ma'lumotlarni qisqacha yozib olishga imkon berish.

Auditoriya bilan pedagogik aloqa o'rnatish mahorati.

Tekst, konspekt, bloksxemalar, chizmalar, jadvallar, grafiklar, asosiy materiallarini qo'llash.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib ma'ruza quyidagi turlarga ajratiladi:

Kirish ma'ruzasi o'quv fani haqida birinchi yaxlit tasavurni beradi va o'quvchilarni ushbu kurs bo'yicha ishlash tizimiga yo'naltiradi. Ma'ruzachi o'quvchilarni kursning vazifasi va masalalari bilan tanishtiradi. O'quv fanlari va mutaxassislar tayyorlash tizimidagi uning roli va o'rnini bilan tanishtiradi. Kursning va fanning rivojlanish davri, amaliyoti, bu sohada yutuqlar, mashhur olimlar nomlari bo'yicha qisqacha ma'lumotlar beradi, tadqiqotlar istiqbolli yo'nalishlarini ifoda etib beradi. Bu ma'ruzada kurs doirasidagi ishlar metodik va tashkiliy xususiyatlari ko'rsatib beriladi hamda o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv-metodik adabiyotlar tahlili beriladi, shuningdek, hisobot shakli va muddati belgilanadi.

Axborot-ma'ruza tushunib olish esda qolishi kerak bo'lgan bilimlar zaxirasini o'quvchilarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan. Bu oliy maktab tajribasida eng odatiy bo'lgan turdir.

Obzorli ma'ruza — bu aniqlashtirish va detallashtirishsiz fan ichidagi va fanlararo aloqalarni ochib berishdagi bayon etiladigan ma'lumotlarni anglab yetish jarayonida ko'p sonli assotsiativ bog'iqliklarga asoslanishi mumkin. Yuqori darajada hisoblangan ilmiy bilimlarni tizimlashtirishdir. Odatda, bayon etiladigan nazariy qoidalar asosini butun kursning yoki uning katta bo'limining ilmiy-tushunchali va konseptual asosi tashkil etadi.

Muammoli ma'ruza. Bu ma'ruzada bilimlar masalaning, savol yoki vaziyatning muammoliligi orqali beriladi, shu bilan birga idrok etish jarayoni o'qituvchi bilan hamkorlik suhbatlari bilan tadqiqotchilik faoliyatiga yaqinlashadi. Muammoning mazmuni uning yechimini izlashni tashkil etish yo'li bilan yoki an'anaviy va zamonaviy nuqtayi nazarlarni qo'shish va tahlil qilish yo'li bilan ochib beriladi.

Ma'ruza-vizual-alloqa. Ma'ruza materiallarini O'TV vositalari yoki audio-video texnikalari yordamida ko'rsatib yetkazib berishdan iborat bo'lgan bituday ma'ruzani o'qish ko'rilayotgan materiallarni keng va qisqacha izohlab berishdan iborat bo'ladi.

Binar ma'ruza — bu ma'ruzani ikki o'qituvchi suhbat shaklida o'qish turi hisoblanadi, ya'ni ikki ilmiy maktab vakillari sifatida yoki olim va amaliyotchi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida va boshqalar.

Oldindan xatolar ko'zda tutilgan ma'ruza — o'quvchilarni berilayotgan ma'lumotlarni doimiy kuzatib borishga rag'batlantirishga mo'ljallangan (mazmunida xatoni izlash: metodologik, metodik, orfografik). Ma'ruza yakunida tinglovchilarni diagnostika qilish va yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish amalga oshiriladi.

Ma'ruza-konferensiya - oldindan qo'yilgan muammo 5-10 minut davom etadigan axborotlar tizimi bilan ilmiy-amaliy mashg'ulot sifatida o'tkaziladi. Har bir chiqishi o'qituvchi taklif etgan dastur doirasida tayyorlangan mantiqiy yakunlangan matndan iborat boiadi. Beriladigan matnlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritib beradi. Ma'ruza yakunida o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ishlari va chiqishlarini toidirib yoki taklif etilgan ma'lumotlarga aniqlik kiritib yakun yasaydi va asosiy xulosalarni shakllantiradi.

Ma'ruza-konsultatsiya — turlicha ssenariyda o'tkazilishi mumkin. Birinchi varianti «savol-javoblar» usulide tmalga oshiriladi. Ma'ruzachi butun ma'ruza vaqti davomida bir bo'lim /old bir kurs bo'yicha o'quvchilarning savollariga javob qaytaradi.

Bunday ma'ruzalarning ikkinchi varianti «bahs-munozara» usulida o'tkazilib bu uch xilda olib boriladi: ma'ruzachi yangi o'quv ma'lumotlarini bayon etadi, savol qo'yiladi, qo'yilgan savolga javob izlashda tortishuvlar, muhokama tashkil etiladi.

Maktabda o'quv jarayonini tashkil etish turlarining juda ko'pligi va turli tumanligiga qaramay ularning har bir turi va ko'rinishi ma'lum didaktik masalalar to'plamini hal etadi va o'z vazifasini bajaradi. Ularning turli-tumanligi amalda maktab va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining ijodi va mahorati haqida xabar beradi, o'z ishlari samaradorligidan mafaatdorliklarini bildiradi. Shunga ko'ra o'quv ma'ruzasi uning tuzilish komponentlari haqida ma'lumot berishi lozim.

I. O'quv ma'ruzasining tuzilishi (V.Ya.Lyaudis bo'yicha)

1.Ma'ruza mavzusi, mavzusini tanlashni asoslash.

2.Mavzuning butun kurs tizimidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash (konspekt).

3.Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tanlab olish (o'qituvchi uchun adabiyotlar, o'quvchilarga tavsiya etiladigan adabiyotlar).

II. Ma'ruzani tashkil etish shakllari

1. Auditoriya (tinglovchilar tayyorgarligi xususiyatlari va darajasi).

Ma'ruzaning maqsadlari (butun fan mazmunini birlashtiruvchi) ma'ruzaning mazmuni, asosiy g'oyalari.

Asosiy mazmunini amalga oshiruvchi ma'ruzaning vazifalari:

a) vazifaning tarkibi va ketma-ketlik tartibi;

b) vazifalarning xususiyatlari: informatsion-analitik, tizimlashtiruvchi, muammoli;

d) ko'rsatilgan vazifalarni hal etish uchun o'quvchilarga zarur bo'lgan vositalar;

e) qo'yilgan masalalarni hal etishda tinglovchilarda o'qituvchi yuzaga keltiradigan emotsional holatlari va munosabatlari.

4. Ma'ruzani tashkil etish shakli:

a) fikrni monologik bayon etish;

b) evristik suhbat elementlari bilan monolog;

v) evristik suhbat;

g) audio-video namoyish etish vositalariga tayanilgan monolog;

d) dialog-tortishuv (muhokama etilayotgan muammo bo'yicha ikki qarama-qarshi nuqtayi nazarni ifoda etuvchi ikki o'qituvchining tortishuvi).

III. Ma'ruza mazmuni

1. Ma'ruza mazmuni rejasi va konspekti.

2. Yaxlitligi, tizimlilik, ketma-ketligi, tushunarlilik, yaqqolliligi, isbotlilikini ta'minlovchi o'quv vositalari va didaktik uslublari (konspekt chetida ajratib ko'rsatiladi).

IV. Ma'ruza davomida o'qituvchining yaxlitlik obrazi

1. Ma'ruza mazmunining har bir bo'limi bo'yicha masalalarni yechish jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlik qilish usullari (birgalikda masalalarni yechish, namunaga taqlid qilish, sheriklik).

2. Bayon etishning tipik shakli (leksika, grammatika, stilistika).

3. O'qituvchining auditoriya bilan emotsional munosabati, noverbal munosabat vositalari (imo-ishora, mimika, patomimika, vokal mimika, intonatsiya, ovozi balandligi, sur'ati, tezligi, pauzasi).

I. Seminar mashg'ulotlari tuzilishi I. Mashg'ulot mavzusi

Mavzu tanlashni asoslab berish.

Kurs dasturidagi o'rnini aniqlash.

Mashg'ulot maqsadi, vazifalari: ta'limiy, tarbiyaviy, metodik.

Adabiyotlarni o'qib chiqish, hajmi, matnning murakkabligini hisobga olib adabiyotlarni tanlashni asoslab berish.

II. Seminarni tashkil etish shakli

1. Auditoriya tayyorgarligi xarakteri bilan bog'liq seminar o'tkazish shaklini tanlashni asoslab berish:

- savol-javobli;
- reja asosida keng suhbat;
- o'zaro tanqidiy baholab axborot berish;
- yozma referatlarni munozara elementi bilan muhokama qilish.
- guruhli muhokama: yo'naltirilgan, erkin o'quv-rolli o'yin.

2. O'quvchilarni adabiyotdagi mavzu, masalalar, obyektlar, mashg'ulot xususiyati, muhokama ishtirokchilari rollarini taqsimlash, referatlar, hisobotlar, o'quvchilar, mavzuni muhokama qilish shakli va xususiyatiga dastlab yo'naltirish dasturi. III. Mashg'ulot borishini rejalashtirish va konspektlar tayyorlash

Mashg'ulot mazmuni dasturi: mavzuning asosiy bo'limlari, uning vazifalari, ko'rilayotgan muammoni hal etilishi davomida asosiy qarama-qarshiliklarni qayd etish.

Dastur bo'limlari mazmunini konspektlashtirish. Ko'rilayotgan nuqtayi nazarlarni asosligi va isbotlanganligi, qarama-qarshiliklarni aniqlashni ta'minlovchi didaktik uslublarni ko'rsatish. Guruhli muhokama shaklini ko'zda tutuvchi qoidalar va vazifalarni ko'rsatish. Mashg'ulotning turli bosqichlarida guruhlar aloqalari uslublari.

Seminar mashg'ulotida muhokama etilgan mavzu bo'yicha xulosalar,

Seminar mashg'ulotini o'tkazgandan keyin uning borishini o'rganib chiqish.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar psixologiya kursini o'qitishning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularda rns'ruzalarda olingan nazariy bilimlarini faollashtiradi, mustahkamlaydi va aniqlashtiradi. Laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilar psixologik tadqiqotlarning oddiy usullari va ko'nikmalarini o'zlashtiradilar, ulardan keyinchalik maktabda kundalik ishlarida foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Bu yerda ular o'tkaziladigan tajribalarda tekshirilayotganlar sifatida ishtirok etadilar va ularni mustaqil o'tkazishga o'rganadilar. Tajribalarda ishtirok etish va turli test topshiriqlarini yechish o'quvchilarda alohida qiziqish uyg'otadi, chunki bu ularga o'zlarini anglab yetishga, mavjud psixologik sifatlarini o'rganishga, o'zining rivojlanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Turli psixologik masalalarni yechishda ham o'quvchilar o'z bilimlarini amalda ko'rsatishlari mumkin. Shunga o'xshash masalalarni

hal etib, o'quvchilar yana bir bor bo'lajak amaliy ishlari uchun psixologik bilimlarning zarurligiga ishonch hosil qiladilar. Amaliy mashg'ulotlarda masalalardan foydalanish o'qituvchiga ham o'quv materialini o'zlashtirib borishi va shu bilan bu jarayonni nazorat qilishni kuchaytirishga yordam beradi.

Amaliy mashg'ulotlarda kompyuter texnikasidan foydalanish o'quvchining butun intellektual imkoniyatlarini maksimal darajada jamlaydi, faqatgina nazorat qilish va amalga oshirishni ta'minlaydi, bu o'quvchini o'ziga baho berishini shakllanishiga va uning shaxsini tarkib topishiga yordam beradi.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'llanilishi mumkin boigan ishlarning turli xillari mavjud. Ularning har biri aniq mashg'ulotni tanlab olish, mashg'ulot mavzusini va o'qituvchining real imkoniyatiga, shu jumladan, texnik imkoniyatlarga ham bog'liq bo'ladi. Umumiy talablar esa o'qituvchining o'quvchilarni tayyorlash hamda har bir mashg'ulot oldidan tekshirish kiradi.

Tajriba ishlarini bajarish uchun o'quvchilar ikkita daftarga ega bo'lishlari kerak: ish davomida yozuvlarni qayd etib borish uchun va ishlari natijalarini yaxshilab ishlab chiqib, tartibga solib hisobot berish uchun kerak bo'ladi. Hisobot daftarida bayonnoma rasmiylashtiriladi. U yoki bu usul bilan maktabda olingan ma'lumotlar asosida mashg'ulotlarni maktab materiallarida o'tkazsa yaxshi bo'ladi. Bu psixologiya bo'yicha o'quvchi bilimlarini chuqurlashtiradi va aniqlashtirish imkonini beradi, yosh psixologiyasi masalalariga qiziqishini oshiradi.

1.3. Darsga qo'yiladigan talablar

Dars o'z navbatida ta'limning asosiy shakli bo'lib, tuzilishiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlar (elementlar) dan iborat: ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, dars dasturi va rejasi, o'quv-uslubiy qo'llanma va didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar; o'qitishning texnik vositalari. Darsning bu besh tarkibiy qism (bo'lak)lari o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlik, ya'ni dars degan majmuani tashkil qiladi. Birining mavjudligi boshqasining mavjudligini taqozo etib, birinng yo'q bo'lishi boshqa barcha qismlarining faoliyatini yo'qqa chiqaradi. Darsning bu qismlarining har bir o'z navbatida bir butunlik (majmua) bo'la turib, o'z navbatida quyidagi bir necha qismlardan tashkil topgandir.

Darsning shakli. Ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi darsni bir butun qilib turuvchi qismlar tasnifini ta'lim-tarbiya beruvchidan boshlashimiz mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uzluksiz ta'lim-tarbiya

jarayonining bosqichlarida ta'lim-tarbiya beruvchini, avval ham aytib o'tganimizdek, turlicha atalib murabbiy, ustoz, o'qituvchi, pedagog, asistent, katta o'qituvchi, dotsent, professor va ma'ruzachi deb yuritiladi.

Bularning vazifasi davlat tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida darsni tashkil etish va ishchi rejada ko'rsatilgan bilimlarni, ta'lim oluvchilarga didaktikaning barcha tamoyillaridan kelib chiqib, bir qator pedagogik usullardan va o'qitishning texnik vositalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib yetkazib berishdir.

Dars – aniq maqsadni ko'zlab, berilgan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi- o'quvchilar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir. Buni quyidagi shaklda ifodalash mumkin.

D A R S. O'zining aniq maqsadi, mazmuni, vaqti va ishtirokchilari tarkibi

bilan chegaralangan, o'quv muassasalarida tashkil etilib o'tkaziladigan ta'lim-tarbiya jarayonining bir qismidir.

Darsning maqsadi va mazmuni o'quvchi-o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi, tuzilmasi, qat'iy dars jadvaliga muvofiqligi, o'qituvchi rahbarligi yoki nazorati asosida o'tkazilishi, sinf o'quvchilari va guruh o'quvchilarining barchasi bilan yoki har biri bilan alohida yakkama-yakka o'tkazilishi bilan tavsiflanadi.

Dars ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakli. U aniq maqsad, tugal mazmuniga ega bo'lishi bilan birga, o'zidan oldingi va keyingi darslar bilan uzviy bog'langan bo'lishi zarur.

Dars turlari – darsning mohiyati, asosiy maqsadi, mazmuni va ajratilgan vaqti, ishtirokchilarining o'zaro munosabati va muloqoti kabilarga ko'ra turlanadi.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari (o'quv dasturi, reja, darslik) asosida belgilanadi. O'qituvchi uchun dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, o'qituvchi bu jarayonda quyidagilarga amal qilishi shart:

Har bir sinf yoki guruhda o'quvchi-o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishiga;

Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishiga;

Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf yoki guruh bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib borilishiga;

Dars o'quv fanining xarakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalar yordamida olib borilishiga va uzluksiz ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim berishiga va

navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratishiga qattiq rioya qilishi shart.

Shuni unutmaslik kerakki, o'quv yurtlarida talim-tarbiya ishlari faqat sinf-dars yoki ma'ruza-seminar shaklida olib borilmay, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida ham amalga oshiriladi. Bu mashg'ulotlar darsdan va auditoriyadan tashqarida bo'lishi ham mumkin.

Dars – ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirishi, o'quvchi-o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda tashkil etilishi shart.

Pedagogika nazariyasi dars oldiga bir qator didaktik talablarni qo'yadi. Jumladan:

Har bir dars aniq maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilmog'i yoki loyihasi tuzilmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, yangi materiallarni qanday o'tish, qanday tamomlash, ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallardan qanday foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

Har bir dars aniq g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lishi lozim.

Har bir dars ta'lim muassasasining, ijtimoiy muhitining imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko'rsatmali vositalar bilan jihozlanmog'i lozim.

Har bir dars xilma-xil usul va uslublardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

Dars uchun ajratilgan vaqt va uninig daqiqalaridan tejamkorlik va unumli foydalanish lozim.

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-o'quvchilar o'zaro faol munosabatda bo'lishi kerak.

Mashg'ulotlar butun sinf yoki guruh bilan va har bir o'quvchi-o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olingan holda olib borilishi shart.

Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil O'zbekistondagi o'zgarishlardan o'quvchi va o'quvchilarni xabardor etish lozim.

Demak, dars didaktika tamoyiliga muvofiq ta'lim-tarbiyaning birligiga asoslangan holda olib borilishi kerak. Buning ma'nosi shuki,

o'qituvchi har bir darsda o'quvchi-o'quvchilarga ham ta'lim beradi, ham tarbiya beradi.

Darsning ta'lim berish vazifasi – o'quv dasturida ko'rsatilgan, o'quvchi-o'quvchilarning darsda o'zlashtirishi lozim bo'lgan aniq bilim, ko'nikma va malaka bilan belgilanadi.

Darsning tarbiyaviy vazifasi – dars mazmunining ilmiy va g'oyaviy puxtaligi, mantiqiyliigi bilangina emas, balki darsning tashkil etilishi, metodikasi, shuningdek, o'qituvchining shaxsi va ayniqsa, pedagogik mahorati katta ahamiyatga ega. Darsda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi- o'quvchilarning diqqat, xotirasi va tafakkuri o'sadi, o'qish va mehnat intizomiga rioya qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi, ularda dunyoqarash va axloqiy sifatlar tarkib topadi.

Darsning muvaffaqiyati avvalo har bir darsni tashkil etilishiga bog'liqdir. Shuningdek, sinfdagi o'quvchilarning yoki guruhdagi o'quvchilarning o'quv materialini qanchalik o'zlashtirishga tayyorlanganligiga, o'tilgan mavzuni o'rganish va mustahkamlash yuzasidan o'quvchi-o'quvchilarning mustaqil ishlari qanday tashkil etilganligiga ham bog'liqdir.

Har bir darsning ma'lum qismi o'quvchi-o'quvchilarning mustaqil ishiga ajratilishi lozim. Zero, mustaqil ishni (ta'limni) tashkil etishdan maqsad, o'quvchi-o'quvchilar tafakkurini va bilimni egallashga yondashish qobiliyatini o'stirib borish hamda mustaqilligini ta'minlash ko'zda tutiladi. Shuning uchun mustaqil ish o'quvchi-o'quvchilarning individual o'ziga xos xususiyati, kuchi va imkoniyati (qobiliyati)ga muvofiq bo'lishi kerak.

O'qituvchi darsda butun sinf yoki guruh bilan ishlashi va shu bilan bir

vaqtda o'z faoliyatini o'quvchi-o'quvchilarning individual ishi bilan bog'lashi lozim.

Darsda o'quvchi-o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish deganning mazmun-mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi har bir o'quvchi-o'quvchining o'ziga xos xususiyatini bilib olib, ta'lim jarayonida buni e'tiborga oladi. Masalan, o'qituvchi diqqati beqaror bo'lgan o'quvchi-o'quvchilarning parishonxotirligini nazarda tutib dars jarayonida ularga tez-tez savollar berib turadi, ulgurmovchi o'quvchi-o'quvchilarga alohida topshiriqlar berib turadi va hokazo.

Shunday qilib, dars mashg'uloti o'tilayotgan va o'zlashtirilayotgan o'quv materialining mazmuniga qarab turli xil metodlar yordamida va

didaktik talablar asosida olib boriladi hamda tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

Yuqorida zikr etilgan fikrlarni muxtasar holda bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan qo'yilgan didaktik talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Darslarni tashkil etishga qo'yilgan didaktik talablar.

Dars maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi.

Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchilik vazifalarining birligi va uzviyligi.

O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan, o'quvchi-o'quvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarini tanlash.

Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish.

5. O'qituvchining rahbarlik roli bilan o'quvchi-o'quvchilar faol bilish faoliyatini birga olib borish.

6. Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish.

7. O'quvchi-o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

8. Darsda o'quvchi-o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.

Darslarni demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish.

1.4. O'quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli

Dars maktabda o'quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli Hozirgi paytda o'quv ishlarini tashkil etishning quyidagi shakllari qo'llanadi: dars, ekskursiya, o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi shakllari, uy ishlari, sinfdan tashqari o'quv ishlarining shakllari (predmet to'garaklari, studiyalar, olimpiadalar, tanlovlar).

Darsning tashkiliy shakllari Pedagogik adabiyotlarda va maktab amaliyotida darsdagi ishlarni tashkil etishning asosan uchta: yakka tartibdagi, umumiy va guruhli shakllari qabul qilingan.

O'quvchilar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar rejasini quyidagi yo'sinda tuzish mumkin:

- dastlab mustaqil ishlarni o'tkazish hamda o'quvchi yashaydigan va o'qiydigan sharoitlarni tahlil qilish orqali uning imkoniyatlarini o'rganish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashning didaktik vositalarini yaratish;

- har bir o'quvchi uchun eng maqbul topshiriqlarni hamda bilim olishi va kamol topishi nazorat qilish sistemasini belgilash, o'quvchini o'z vaqtida murakkabroq masalalarni hal qilishga o'tkazish, amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tuzatish va xulosalar chiqarish.

O'quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli Umumiy shakl darsda, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining shunday turidirki, unda o'quvchilar hammalari uchun umumiy bitta ishni baravar bajaradilar. Olingan natijalar sinf bo'yicha muhokama qilinadi, taqqoslanadi va umumlashtiriladi. Ommaviy ta'lim sharoitida o'quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli g'oyat muhimdir. U bolalarda jamoatchilik hissini tarbiyalash, ularni mulohaza yuritishga, o'quvchilarning mulohazalaridagi xatolarni topishga o'rgatish imkonini beradi. To'g'ri rahbarlik qilinsa, bolalarning o'quv imkoniyatlari aniqlansa, sinfda turli muammolarni muhokama etish juda samarali tadbir hisoblanadi. Bu tadbir o'qituvchidan hamma o'quvchilarning fikrlashiga mos ishni topish mahoratini, ularning istaklarini tinglay olishni talab qiladi.

Darsning umumiy shaklida ko'zlangan maqsadlar bo'yicha va ayniqsa, o'quvchilarda dalillar bilan muhokama yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda ajoyib natijalarga erishish mumkin. Agar bolaning o'quv imkoniyatlari to'g'ri baholansa, darsni tashkil qilishning umumiy shakli o'quvchilarga yakka tartibda yondashishdan keng foydalanish imkonini ham beradi. O'qituvchi ulardan o'z imkoniyatlariga bog'liq holda turli darajadagi umumlashmalarni so'raydi. Shu tariqa o'quvchilarning tinglashlari ham, o'z bilimlari va fikrlarini o'rtoqlari bilan taqqoslashi, tezda to'ldirishi, undagi xatolarni topish ko'nikmalarini shakllantirishi juda muhimdir.

Ta'limni tashkil etishning guruhiy shakli

So'ngi yillarda darsni tashkil etishning umumiy va yakka tartibdagi shakllari bilan bir qatorda ta'limni tashkil etishning guruhiy shakli ham keng tarqalmoqda.

Darsning guruhiy shaklining asosiy belgilari:

- mazkur darsda muayyan o'quv vazifalarini hal qilish uchun sinf bir necha guruhlariga bo'linadi;

- har bir guruh ma'lum topshiriq oladi va uni birgalashib o'z boshlig'i yoki o'qituvchining bevosita rahbarligida bajaradi;

- topshiriq guruhning har bir a'zosi qo'shgan hissani hisobga olish va baholash imkonini beradigan yo'sinda bajariladi;

- guruhning tarkibi doimiy bo'lmaydi uni tanlashda guruhdagi har bir a'zoning o'quv imkoniyatlari jamoa uchun ko'p foydali amalga oshadigan bo'lishi nazarda tutilgan.

Ta'limni tashkil etishning guruhiiy shakli

So'nggi yillarda darsni tashkil etishning umumiy va yakka tartibdagi shakllari bilan bir qatorda ta'limni tashkil etishning guruhiiy shakli ham keng tarqalmoqda.

Darsning guruhiiy shaklining asosiy belgilari:

- mazkur darsda muayyan o'quv vazifalarini hal qilish uchun sinf bir necha guruhlarga bo'linadi;

- har bir guruh ma'lum topshiriq oladi va uni birgalashib o'z boshlig'i yoki o'qituvchining bevosita rahbarligida bajaradi;

- topshiriq guruhning har bir a'zosi qo'shgan hissani hisobga olish va baholash imkonini beradigan yo'sinda bajariladi;

- guruhning tarkibi doimiy bo'lmaydi, uni tanlashda guruhdagi har bir a'zoning o'quv imkoniyatlari jamoa uchun ko'p foydali amalga oshadigan bo'lishi nazarda tutiladi.

1.5. Dars tizimi strukturasi

Darsning strukturasi, elementlari va tiplari

Ta'limning strukturasi va tizimi haqida tushuncha. Avvalo, strukturaning nimaligini ko'rib o'tamiz. Ma'lumki, strukturasiz tizim bo'lmaganidek, tizimsiz struktura ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra strukturani tizimdagi o'zaro bog'liq elementlarning tartiblari deb ta'riflash mumkin. Biz tizim tushunchasiga nimalarni kiritamiz?

Tizim – o'zining xossalari va bog'lanishlari bo'yicha u yoki bu tartibdagi o'zaro bog'liq ko'p elementlardir.

O'quv jarayoni quyidagi zvenolarga ega bo'ladi:

1. O'quvchining o'quvchilar diqqati va tafakkurini jalb qilishi, shu orqali ularni o'quv materialini faol idrok etishga olib borish maqsadida bilish vazifasini o'rta qo'yishi.

2. O'qituvchi tomonidan bilimlarning berilishi jarayoni va o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirish.

3. Ilmiy tushunchalarning umumlashtirilishi va shakllantirilishi jarayoni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va takomillashtirish.

4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tegishli vaziyatlarda qo'llash.

5. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirayotgani tekshirish.

Darsning tiplari

Dars strukturasi o'quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bo'yicha tasniflanadigan darslarning tipiga bog'liq bo'ladi. Ularni o'tkazish usullari, ta'lim metodlari esa o'quvchilar mustaqil ishining darajasi bo'yicha tasniflanadi.

Darsning quyidagi tiplari mavjud: o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtiradigan, faktli materiallar to'planadigan, kuzatishlar o'tkaziladigan, jarayonlar va hodisalar o'rganiladigan, ularni anglanadigan, tushunchalari shakllantiriladigan, ko'nikma va malakalar tarkib toptiriladigan darslar, bilimlar umumlashtiriladigan va tizimlashtiriladigan darslar, bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni takrorlash, mustahkamlash, boshqacha aytganda, kompleks qo'llash darslari, bilim, ko'nikma va malakalar og'zaki hamda yozma ravishda sinaladigan nazorat - tekshirish darslari; bir necha didaktik masalalar baravar hal qilinadigan kombinatsiyalashgan darslar.

Hozirgi zamon darsining eng muhim xususiyatlari yangi o'quv materialini va uni amalda qo'llashni o'zlashtirish bilan birga ilgari o'rganilgan narsalarni o'zlashtirish, sintez qilish, takrorlash va mustahkamlash, nazorat qilish kabi elementlarining o'zaro bog'lanishidir. T.A.Ilina darsning o'z strukturasi barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya'ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi.

Darsning birinchi bosqichi – tashkiliy qism. Odatda bu qismga salomlashish, o'quvchilarning, sinf xonasidagi jihozlarning darsga tayyorgarligini tekshirish, darsda yo'q o'quvchilarni aniqlash, ishning rejasini e'lon qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi – darsda ish vaziyatini vujudga keltirishdir.

Ikkinchi bosqich – yozma uy vazifasini qo'yilgan maqsaddan qat'i nazar turli metodlar bilan tekshirish.

Darsning uchinchi bosqichi – o'quvchilarning bilimlarini og'zaki tekshirish (yoki ulardan so'rash).

Darsning to'rtinchi bosqichi – o'qituvchining bayon etishi asosida yoki o'quvchilarning mustaqil tahlil qilishi orqali yangi materialni tushuntirish.

Beshinchi bosqich – uyga topshiriq berish. Darsning bu qismiga mazkur topshiriqning mohiyatini, lozim bo'lsa uni bajarish metodikasini ham tushuntirish, uni o'qituvchining o'zi doskaga yozishi, o'quvchilarning daftarga yoki kundalikka ko'chirishi kiradi.

Darsning oltinchi bosqichi – yangi materialni mustahkamlash, ya'ni dastlabki yoki yo'lakay – mazkur material bayon qilinayotganda amalga oshiriladigan mustahkamlashdir.

Darsning yettinchi bosqichi – uni tugallashdan iborat bo'lib, bu ish tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak. Chunki, dars faqat o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha mustahkamlanadi. Muallif darsning ana shu yettita elementini nazarda tutib, uning strukturasi quyidagicha ifodalaydi:

1. Tashkiliy qism.
2. Yozma topshiriqni (bor bo'lsa) tekshirish.
3. So'rash - mustahkamlash.
4. Uyga vazifa berish.
5. Darsni tugallash.

Bunday darsni bilimlarni mustahkamlash darsi deb atash mumkin.

Yangi murakkab materialni tahlil qilishda uy vazifasi tekshirilmaydi.

1. Tashkiliy qism.
2. Yangi materialni tushuntirish .
3. Yo'lakay mustahkamlash.
4. Uyga vazifa berish: darsni tugallash.

Muammoli darslar:

1. O'quvchilarni uyushtirish.
2. Muammoni ifodalash, taxminni bayon qilish (natija qanday bo'lishi mumkinligini aytish) va yechimning variantlarini bildirish: muammoni amaliy hal qilishni izlash.
3. Natijalarni muhokama qilish.
4. O'qituvchining sharhi va umumlashtirishi.
5. Uyga vazifa berish.
6. Darsni tugallash.

Darsning turlari

Darslarning turlari quyidagicha:

1. a) dars - leksiya, b) dars - suhbat, v) kino darsi, g) nazariy yoki amaliy mustaqil (tadqiqot tipidagi) ishlar darsi, d) aralash dars (bitta darsda darsning har xil turlari birikmasi).

2. a) mustaqil (ogʻzaki yoki yozma mashqlardan iborat reproduktiv tipdagi) ishlar darsi, b) dars - laboratoriya ishi, v) amaliy ishlar darsi, g) dars - ekskursiya.

3. a) ogʻzaki (umumiy, yakka tartibda, guruhiy) soʻrash, b) yozma (yakka tartibda) soʻrash, v) sinov, g) sinov amaliy (laboratoriya) ishi, d) kontrol ish, y) aralash dars. Oldingi uchta turning birikmasi. Darslarning tipi

Tushuntirish darsi. Maʼlumki, maktabdagi taʼlimning asoslaridan biri onglilik prinspidir. Shunga koʻra, koʻnikma va malakalarning shakllantirishning dastlabki bosqichi nazariy masalalarni oʻrganishdan iborat boʻlishi kerak. Bunda oʻqituvchining materialni tushuntirishi eng muhim zveno hisoblanadi.

Tushuntirish darsining strukturasi, yaʼni undagi qismlarning oʻzaro joylashuvi quyidagicha boʻlishi mumkin:

1. Ilgari oʻrganilgan materiallarga doir bilimlarni eslash (oʻquvchilardan soʻrash);

2. Materialni tushuntirish;

3. Materialning oʻzlashtirilganini tekshirish;

4. Nazariyani qoʻllash namunasini koʻrsatish;

5. Uyga vazifa berish;

6. Darsni yakunlash.

Ana shu tipdagi darsning strukturasi elementlariga dars mavzusini eʼlon qilish, uning maqsadini ifodalash va vazifalarning qoʻyilishini ham kiritish mumkin.

Bilimlar, koʻnikmalar va malakalarni mustahkamlash darslari. Bu tipdagi darsning strukturasi quyidagi darsning asosiy elementlarini oʻz ichiga oladi:

1. Nazariya boʻyicha bilimlarni eslash;

2. Mavzu boʻyicha koʻnikma va malakalarni rivojlantirish (mashqlar);

3. Darsni yakunlash;

4. Uyga vazifa berish.

Takrorlash darsi. Mustahkamlash va takrorlash darslari oʻrtasida anchagina umumiylik mavjud. Bu umumiylik, eng avvalo, mazkur darslarning vazifalari va strukturalariga taalluqlidir. Shu bilan birga mustahkamlash va takrorlash darslari orasida tafovut ham bor.

Shuningdek, takrorlash darsida material to‘liq emas, balki tanlab ko‘rib chiqilgan, oldingi darslarda yetarlicha o‘zlashtirilmagan masalalar takrorlanadi. Materialni umumlashtirish va ko‘nikma hamda malakalarni takomillashtirish darslari.

Umumlashtirish darsining elementlari quyidagilardan iboratdir:

1. Umumlashtiruvchi materialga doir bilimlarni eslash;
2. Materialni umumlashtirish;
3. Nazariyani o‘zlashtirilganini tekshirish;
4. Umumlashgan qoidani qo‘llash namunasini ko‘rsatish;
5. Mavzu bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish (mashqlar);
6. Darsning natijalarini yakunlash;
7. Uyga vazifa berish.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish darsi (kontrol dars). Kontrol ish o‘tkaziladigan darsning strukturasi murakkab emas: o‘qituvchi topshiriqlarni aytib turadi (yoki doskaga yozadi), o‘quvchilar ularni bajaradilar va dars oxirida ishlar yig‘ib olinadi. Kontrol ishning savollari va topshiriqlari shunday ifodalanishi kerakki, o‘quvchilarning javoblaridan ular materialni shunchaki eslab qolgani emas, balki ishning mohiyatini tushungani ham ko‘rinib turishi lozim.

1.6. O‘qituvchining o‘z darsini tahlil qilishi

O‘qituvchining o‘qitish faoliyatini o‘zi tomonidan tahlil qilinishida bilimni og‘zaki, frontal, yakka tartibda so‘rashini, yozma ishlarni (diktant, insho, bayon, nazorat testlarini) o‘tkazishda qo‘llangan metodlarning maqsadga muvofiqligini aniqlaydi. Bunda u: a) bergan bilimining, o‘quvchilar ongini shakllantirishda qo‘llagan usul-larining to‘g‘riligini; b) o‘zlashtirilgan material asosida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tekshirishini tashkil etishda qo‘llangan metodining to‘g‘riligini; ye) o‘tkazgan mustaqil ishlari asosida o‘quvchining o‘z-o‘zini tekshirishini tashkil etishda tutgan yo‘llarining qanchalik talabga javob berganligini, o‘tkazgan darslarining ta’limda qanchalik samara berganligini aniqlaydi — tahlil qiladi.

Umumta’lim maktablarida o‘qituvchilar o‘z dars berish mahorati va o‘zini-o‘zi tahlil qilishida darsga kirganda qo‘lida yoki sinfxonada sinf jurnali, o‘quv dasturi, taqvim-mavzu rejasi, darsning texnologik xaritasi borligiga e’tibor qaratishi muhim.

Dars tahlilining asosiy tarkibiy qismlari:

O‘qituvchining darsga qanday tayyorgarlik ko‘rganligi. O‘qituvchida darsning o‘quv rejasi, mavzu bo‘yicha turli ishlanmalarning

borligi, shu bilan bir qatorda turli didaktik tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar tayyorlanganligi.

Dars maqsad va vazifalarining qo'yilishi. O'qituvchi har bir darsga aniq maqsad qo'yadimi? Maqsadni qanchalik to'g'ri qo'yadi?

Tashkiliy tahlil. Dars o'tilayotgan xonaning tayyorligi, bolalarning kayfiyati va sinfxonasi, doskaning tozaligi, bo'r va namlangan lattaning borligi, sinfxonaning tozaligi, mabodo ayrim o'quvchilar biron sababga ko'ra darsga qatnashmayotgan bo'lsa, ularning nomi yozilgan varaqaning o'qituvchi stoliga qo'yilishi kabilardan tashqari o'qituvchi_ning darsga hozirligi, uning tashqi qiyofasiga ham e'tibor beriladi.

4. Didaktik (ta'limiy) tahlil. Tahlilning bu turida mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkablik tomon yo'nalishi, ko'rsatmalilik va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyliigi, jonli va ravon tilda ochib berilishi.

5. Metodik (uslubiy) tahlil. Bunda o'qituvchi faoliyatining ikki tomoni nazarda tutiladi. Bi_rinchidan, quyidagi dastur asosida mavzu necha soatga mo'ljallangan bo'lsa, uni qanday usul asosida o'quvchining yoshi va individual-psixologik xususiyatini hisobga holda yetkazib bera olishi. O'quv_chilarni o'ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi. Ikkinchidan, o'zining o'qituvchi sifatidagi tajribalarini namoyish eta bilishi. Mana shu ikkinchi qismida o'qituvchining ijodkorligi, metodik mahorati ko'zga tashlanishi lozim.

6. Metodologik tahlil. Xalq ta'limi yo'nalishidagi qarorlar, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go'zal durdonalari, shu soha bo'yicha buyuk olimlar, allomalarning qilgan ishlari, fikrlari, o'zgarishlar asos qilib olinishi mumkin.

7. Psixologik tahlil. Jamoadagi sog'lom muhit, o'quvchining hushyorligi, fanga bo'lgan qiziqishi, dars berayotgan o'quvchisiga munosabati, hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashi, o'quvchidagi qobiliyat, bilim, ko'nikma va malakalar ko'lami, o'qituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan chiqqa olishi, o'zini boshqara olishi kabilar kiradi.

8. Pedagogik tahlil. Tahlilning bu turi ancha murakkab, mas'uliyatli bo'lib, o'qituvchining tashqi qiyofasi, sinf bilan til topishish mahorati, madaniyati, odobidan tashqari qanday qilib dars jarayonida o'quvchiga tarbiya bera olishi hamda nutq madaniyati nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda dolzarb bo'lgan ekologik, iqtisodiy, axloqiy, jinsiy, tarbiya hamda milliy g'oyani singdirish, tarbiya elementlari qan_day amalga oshiriladi? Bu tarbiya turlaridan qay biriga aynan shu darsda

e'tibor beriladi? Darsning tarbiyaviy ta'sirining samarasi qanday bo'ldi? Bu masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etadi. Yana shuni ham aytish kerakki, o'qituvchining ma'noli nutqini hech qachon boshqa narsaga qiyoslab yoki almashtirib bo'lmaydi.

9. O'qituvchining hamkorlikdagi vazifasi tahlili: o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish, aniq fikr va materiallarni o'rganib, mulohaza yuritish, fikr bildirish; o'qituvchilarni izlanishga, qidirib topishga o'rgatish; o'quvchining o'zi mustaqil fikrga ega bo'lishi.

10. Yakuniy tahlil yoki xulosa qismida o'zimizning mutaxassis sifatidagi taklif va tavsiyalarimizni bayon etamiz.

Dars tahlili yakunida, avvalo, dars o'tgan mutaxassis gapirgani ma'qul. So'ng tahlilda ishtirok etuvchilar fikr bildiradi.

O'qituvchining faoliyatiga bir dars tahlili orqali baho berib bo'lmaydi, buning uchun uning har xil shakldagi, bir necha darsini kuzatish kerak. Kuzatuvchilar an'anaviy, noan'anaviy, rivojlantiruvchi ta'limning maqsadi va mazmuniga qarab darsni tahlil qilishlari mumkin.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi jiddiy va o'z navbatida, mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Ko'p yillik pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar bilan olib borgan suhbatlarimiz shuni ko'rsatdiki, bunday o'qituvchilarning aksariyati DTS asosida tayyorlangan dastur va darsliklarni ko'zdan kechirish va xotirasida qayta tiklash bilan cheklanish evaziga dars berib kelayotganliklari ham ma'lum bo'ldi. Ijodkor bo'lmagan o'qituvchilar aybni ko'proq o'quvchiga yuklashadi. "Qancha gapirma, qancha tushuntirma, o'qiydiganing o'zi o'qib oladi" shioriga amal qilishadi. Bunday o'qituvchilar yaxshigina tayyorgarlik ko'rib qilib, bir o'quv yilida bir yoki ikki marotaba ochiq dars ham o'tib berishadi. Aslida o'qituvchining har bir darsi ochiq bo'lishi lozim. "Ochiq", "yopiq" degan sun'iy muhit ta'lim tizimida bo'lmasligi kerak. Bu holni o'quvchi (o'quvchi) ham yaxshi farqlaydi. Oxir-oqibat hamma gap o'qituvchini mas'ullik hissi bilan darsga tayyorgarligiga bog'lik hisoblanadi.

Bir soatlik dars loyihasini yangi pedagogik texnologiyalar tatbiqi asosida tayyorlagan o'qituvchi hech qachon yutqazmaydi. Kasb faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni yengib o'ta oladi. O'qituvchi shunchaki yuklama bajarish bilan cheklanmaydi. Uning ijodkorlik faoliyati moddiy va ma'naviy jixatdan rag'batlantirilib, pedagogik mahorati takomillashib boradi.

Yana bir zarur jihat, o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganda qanday ko'rsatmali materiallardan foydalanishni aniq bilish lozim. Ko'rsatmalilik - didaktikaning oltin qoidasi deyiladi. Har doim o'qituvchi

darsdan kamida bir kun avval ko'rsatmali materiallarni o'tayotgan fani uchun ajratilgan kabinetga hozirlab videoprojektorda ekranga chiqarib, qurib quygani ma'qul.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotgan jarayonda uyga beriladigan vazifani ham alohida hisobga olmog'i lozim. Chunki uyga vazifa o'quvchini mustaqil ta'limini belgilab, o'qituvchi tomonidan darsda o'tilgan materialni takrorlashdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. O'quvchini ijodiy izlanishga undovchi muammoli savollar, topshiriqlar va qiyosiy-tahliliy materiallardan iborat bulgani maksadga muvofik xisoblanadi. Uyga vazifa o'quvchini o'zlashtirish darajasiga mos ravishda tanlangan bo'lishi va o'qituvchi tomonidan qisqacha sharhlanib ketilishi lozim. Uyga vazifa (mustaqil bilim) yuzasidan tuzilgan savollar javobsiz qolmasligi shart. Shuning uchun dars jarayonidagi vaqt taqsimotining 5-7 daqiqasi uyga vazifa uchun ajratiladi.

Dars mazmuni o'quvchining xotirasida uzoq saqlanishi va hayotiy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlashda sezgi a'zolarining o'rni muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ko'rish va eshitish analizatorining uyg'unligidagi ko'rsatmalilik (audio, video, tabiiy, tasviriy va boshqa) xotira va tafakkur jarayonini mustahkamlaydi. Shunga muvofiq inson:

Ko'rish a'zosi orqali-83% Eshitish a'zosi orqali-11% Hid bilish a'zosi orqali-3,5% Teri sezgisi orqali-1,5%

Ta'm bilish sezgisi orqali-1% bilimlarni o'zlashtirib olinishi o'z isbotini topgan.

Demak, yana bir karra ta'kidlab shuni aytish lozimki, turli sezgi a'zolari ishtirokida o'zlashtirilgan axborot (ayniqsa ko'rish va eshitish 94%) hayotiy ahamiyati bilan o'rganilsa, o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanishi muqarrar hisoblanadi. Shu jihatlarni ham inobatga olish va o'qituvchi o'z faoliyatini doimiy tahlil qilib borishi va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi

1.7.Ta'limning interfaol metodlari

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik

guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemallashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan: Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash. Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish. Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nnaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish. Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish,

tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash. Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, birnechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash. Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash. Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

1.8. Interfaol mashg'ulotlarni tashkil qilish va olib borish

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz:

An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar.

No	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish,	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.

		mustahkamlash.	
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchilarning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqttaqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh;kichik

		faol.Muloqot shakllari:o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi;	guruh-kichik guruh;o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
1	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muzokara, munozara, tahlil, mutolaa va boshqalar. muhokama, bahs, mulohaza, mushohada,	Muloqot, mushohada, muzokara, mulohaza, tahlil va boshqalar. mutolaa, muhokama, bahs, munozara,
1	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, suhbat, munozara, konsultastiya va boshqalar. seminar, davra bahs,	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar.
1	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg'ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o'xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta'siri to'g'risida bir necha asr muqaddam A.Navoiy o'zining mashhur «Mahbub ul-qulub» asari muqaddimasida shunday yozgan edi: «Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar...». Bunda shu asarni har kim turlicha, ya'ni o'z fahmi idroki darajasidagina tushunishi, o'zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo'llay bilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bundan biz interfaol ta'lim usullarining an'anaviy usullardan asosiy farqlari to'g'risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o'quvchilarning fahmu idroklarini o'stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim usullari O'zbekistonda qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan o'quvchilar hamda o'quvchilar bilan o'quvchilar o'rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo'llab kelingan.

Bu usullar o'quvchilarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi — har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz

mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o‘qituvchiga, o‘quvchilarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

-o‘qituvchilardan interfaol mashg‘ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

-o‘qituvchilarga interfaol usullarni o‘rgatishni tashkil qilish;

-o‘quv xonasida interfaol mashg‘ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;

-ma’ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo‘lishini ta’minlash;

-sanitariya-gigiena me’yorlari buzilishining oldini olish;

-xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta’minlash;

-davomatni va intizomni saqlash;

— nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

-DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko‘zda tutilgan maqsadga to‘liq erishishni ta’minlash uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol usullarni to‘g‘ri tanlash;

-interfaol mashg‘ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

-interfaol mashg‘ulotning har bir elementi o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lishini ta’minlash;

-mashg‘ulotlar mavzusi va mazmunini so‘nggi ilmiy-nazariy ma’lumotlar asosida belgilash;

-zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo‘llash;

-o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

-interfaol mashg‘ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O‘qituvchiga tegishli omillar:

-mavzuni sayoz bilishi;

-nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me’yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so‘zlar, atamalarning ma’nosini tushuntirmasdan qo‘llashi, shevaga xos so‘zlarni ko‘p qo‘llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo‘l qo‘yishi va tushunarsiz yozishi;

-o‘zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;

-kiyinishi va tashqi ko‘rinishiga e’tiborsizligi;

-ta’lim vositalaridan unumli va to‘g‘ri foydalana olmasligi;

-kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi etishmasligi;

-tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;

-o'quvchiga xayrixohlik, samimiylik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;

-mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

o'quvchilarga tegishli omillar:

-davomat pastligi, mashg'ulotga kechikib kelishi;

-zarur tayyorgarliksiz kelishi;

-ilmiy atamalarni bilmasligi;

-diqqatni jamlay olmasligi;

-eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;

-qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;

-dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;

-manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

-ta'lim vositalarining etishmasligi, ta'mirtalab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;

-mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;

-vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'yimaslik;

-vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

o Moderator – ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.

○ Trener–o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o‘tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassis.

○ Tyutor–masofadan o‘qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta‘minlash.

○ Fasilitator–darsda ko‘makchi, yo‘naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

○ Mentor–ustoz, o‘rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

○ Kouch–ta‘lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlari uchun yordam ko‘rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg‘ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching- imtihonlarga yoki sport bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish).

○ Konsultant–maslahat berish, tushuntirish, qo‘shimcha ma‘lumot berish.

○ Lektor–nazariy ma‘lumotlar bilan tanishtiruvchi.

○ Ekspert – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

10. Innovator–yangiliklarni ta‘lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy q

11. Kommunikator–o‘zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

12. O‘qituvchi–mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha ko‘zda tutilgan mazmuni tushuntirish, o‘quv jarayoniga rahbarlik.

13. Menejer–tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.

14. Spekter–kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

15. Assistent–mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.

16. Sekretar–zarur ma‘lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rnatilgan tartibda saqlash.

17. Texnolog–pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta‘minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.

18. Metodist-ta‘lim-tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

19. Koordinator-loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

20. O‘quvchilar – ta‘lim oluvchilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash. Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

O'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;

O'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

1.9. Muammoli ta'lim texnologiyasi

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy bo'g'ini muammoli ta'lim yo'nalishi sanaladi.

Muammo-grekcha πρόβλημα. so'z bo'lib, keng ma'noda o'rganish, hal qilishni talab qiladigan murakkab nazariy yoki amaliy savoldir; fanda - har qanday hodisalarni, ob'ektlarni, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi pozitsiyalar ko'rinishida ishlaydigan va uni hal etish uchun etarli nazariyani talab qiladigan qarama-qarshi vaziyat; Hayotda muammo odamlar tushunadigan tarzda shakllantirilgan: "Men nimani bilaman, qanday ekanligini bilmayman", ya'ni nimaga erishish kerakligi ma'lum, ammo buni qanday amalga oshirish noma'lum.

Muammoli ta'lim – ta'lim jarayonini olib borishda o'quvchilar oldiga yechish uchun muammoni qo'yish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashg'ulot davomida uning yechimini topish. Muammo o'qituvchi tomonidan yoki o'quvchilar tomonidan qo'yilishi mumkin.

Muammoli ta'lim texnologiyalari – o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi – insonni fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarini aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda jiddiy ahamiyatga ega. **Muammoli vaziyat yaratish usullari:**

- O'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntirish va uni yechish yo'lini topishni taklif qilish;
- Bir masalaga doir turli nuqtai nazarlarni bayon qilish;
- Hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni taklif etish.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- O'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- O'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birgalikda topadi;

- O'quvchilarning o'zlari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

- Muammoni turli nuqtai nazardan o'rganish, tahlil qilish;
- Solishtirish, umumlashtirish;
- Dalillarni aniqlash va qo'llash;
- Vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- O'quvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'lim bosqichlari: 1. Muammoli vaziyat hosil qilish. 2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish. 3. Yechimning to'g'riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoni hal etish bosqichlari:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqlarini topish asosida amalga oshiriladi.

2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.

3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi

Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog D.Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60 yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80 yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi"-degan g'oya yotadi.

Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.

Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
2. Muammoning qo'yilishi.
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi.

Muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol, mustaqil

faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli o'qitish jarayonida beriladigan topshiriqlar o'quvchilarga tadqiqiy, evristik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar beriladi.

Bunda:

- nostandart masalalarni tuzish bo'yicha;
- shakllantirilmagan savol bilan;
- ortiqcha ma'lumotlar bilan;
- o'zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;
- yo'riqnomalardan foydalanmasdan qandaydir ob'ekt mohiyatini bayon etish;
- olingan natijalarni qo'llash chegaralarini va darajalarini aniqlash;
- hodisaning namoyon bo'lish mexanizmini aniqlash;
- «bir lahzada» topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algoritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi Muammoni qo'yish, ma'lumotlar fondini to'plash, qayta ishlash, yechim modelini aniqlash, qo'shimcha ma'lumotlar to'plash va ularni tanlangan yechim modelida aks ettirish, yangi ma'lumotlar va yechim modeli o'rtasidagi zidlikni aniqlash, zidlikni yechimini topish, yangi yechim modelini yaratishdan iboratdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Maktabda o'quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli haqida gapirib o'ring?
3. Darsga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. O'quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli haqida aytib o'ring?
5. Dars tizimi strukturasi haqida nimalarni bilasiz?
6. O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi nimalarga asoslanadi?
7. Ta'limning interfaol metodlari haqida aytib o'ring?
8. Interfaol mashg'ulotlarni tashkil qilish va olib borish kimga bog'liq?
9. Muammoli ta'lim texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?

2-MAVZU: INTEGRASIYANING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI

Reja:

1. Ta'lim integratsiyasi pedagogik muammo sifatida.
2. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlaridagi integratsiya jarayonlarining tarixiy tadrijiy rivoji.
3. Boshlang'ich ta'lim tizimida integratsiya.
4. Boshlang'ich maktabni integratsiya qilish.
5. Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi.

2.1. Ta'lim integratsiyasi pedagogik muammo sifatida

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilyapti.

Bu- tushuncha kichik maktab o'quvchisi atrofdagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiiy fanlar, rus tili, musiqa va boshqa o'quv predmetlarini nomi emas, balki atrofdagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi mavjuddir. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabimi? Bu savol qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada?

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshladi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirish etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish mumkin.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarining bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va ematsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir.

Bunga turli darslarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin.

Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyasiga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi.

Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron" kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiiy fanlar, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalashgan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tishi metodikasiga ega bo'ladi.

Umumiy ta'limning poydevorining qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiiy fanlar, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir.

Hozirgi kunda bir qator predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitishning vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar; integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarning mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmunan, metod, usullarni tanlash.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'quv fanlariaro aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'minlangan pedagogik sharoitda o'qitish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda o'qituvchining tutgan o'rnini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda

ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni turli o'quv predmetlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

O'quv fanlariaro aloqadorlik muammolari O'zbekistonlik olimlarning ham tadqiqotlarida yetakchi pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunonchi, A.Ch.Choriyev, U.Q.Musayev, N.S.Fayzullayeva, T.Z.Dayanayeva, A.A. Salomov, M.K.Ashirova va boshqalar o'quv fanlariaro aloqadorlikning turli qirralari, o'quv-biluv jarayonini optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar natijasidan ma'lum bo'ldiki, matematika bilan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlariaro aloqadorlikning didaktik imkoniyatlari aniqlanmagan.

Hozirgi kunda ta'lim mazmunida matematik bilimlarni taqdim qilish, o'quvchilarning yuqori darajadagi hisoblash ko'nikmalari, tafakkurini shakllantirish yuzasidan e'tiborga olinmay kelinayotgan holatlardan biri o'quv fanlarining matematika bilan o'zaro aloqadorligiga umumiy o'rta ta'lim mazmunida yetarli darajada e'tibor berilmaganligidadir.

Xorijiy mamlakatlarda fan va texnologiyaning jadal sur'atda rivojlanishi olimlar oldida murakkab muammolarni qo'yimoqda. Shu sababli tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni ta'lim mazmuniga kiritish, barcha fanlardan o'zaro aloqadorlikda eng zarur bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, ijtimoiy hayot tajribalari va ilm- fanning turli sohalari uchun muhim bo'lgan bilimlarni o'quvchilar egallashlari uchun yuksak bilim va mahoratga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash nihoyatda zarurdir.

Mazkur vazifalarni yechish uchun o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o'quv fanining fanlararo aloqadorlikdagi mazmunini tanlash, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan so'nggi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv fanlarining bir - biri bilan bog'langan tizimini shakllantirish lozim.

Matematik tushunchalar orqali barcha o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi mohiyatiga tayanish, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar turkumdagi fanlarni o'qitishning yangi jihatlarini aniqlash zarurdir. O'quvchilarga taqdim etiladigan matematik bilim, tushuncha va hosil qilinadigan hisoblash ko'nikmalari umumlashgan mazmunga ega bo'ladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'minlanganda o'quvchilarga o'zaro bog'langan bilim va tushunchalar taqdim etiladi.

Demak, “o‘quv fanlariaro aloqadorlik” o‘quv mavzulari mazmunini atroflicha ochib berish uchun zarur. O‘quv fanlariaro aloqadorlik dars mavzularining mazmunini o‘rganish, undagi muhim qoidalarni ajratib olib o‘zlashtirishda quyidagi jarayonlarni faollashtirish imkoniyatini beradi:

- o‘quv mavzularini o‘rganish jarayonida o‘quv fanlariaro aloqadorlik holatini aniqlashga subyektiv yondashish ehtimolini pasaytirish;

- fanning muhim g‘oyalarini ochib berishda birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv fanlari asosiy jihatlariga o‘quvchilar e’tiborini jalb etish;

- doimiy ravishda idrok etishni murakkablashtirib borib, o‘quvchilar ijodiy tashabbuskorligi va o‘quv-biluv faoliyati mustaqilligi ko‘lamini kengaytirish, ko‘p tomonlama o‘quv fanlariaro aloqadorlikni samarali yo‘lga qo‘yish uchun didaktik vositalarning har xil turlarini qo‘llab, o‘quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish bo‘yicha tashkiliy ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- turli didaktik vositalar yordamida o‘quv fanlarining o‘zaro uzviy birlikda o‘zlashtirilishiga erishish;

- o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida ijodiy hamkorlikni vujudga keltirish;

- hozirgi zamon talablari asosida o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini matematikaning ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlari bilan aloqadorligi vositasida, ijtimoiy hayot bilan hamohang shakllantirish.

Integratif funksiya – bu funksiya umumta’lim va kasbiy ta’limni boglovchi zvenodir.

Bunda ta’lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmkasini – bilim, ko‘nikma, malaka, me’yor, pedagogik tizimlarni uzida mujassamlab:

bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, o‘quvchilarda har xil predmetlarda utiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir buladigan hodisalar, tushunchalar, goyalar, nazariyalar orasidagi uzaro integratsiya va har tomonlama boglanish borligini urnata olish kunikmalarini shakllantirish;

bu boglanishlar kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta’minlash;

o‘quvchilarda ijodkorlik masalalarini nazariy tugri texnik va amaliy jixatdan maqsadga muvofik echishda, turli O‘quv predmetlarini urganishda olgan bilim va maxoratlari asosida texnikaviy – iktisodiy,

ijtimoiy – ekologik, tashkiliy – pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini tugri shakllantirish kunikmalarini xosil kilishlarini nazarda tutadi. [Alimov N.N.]

Integratsion ta’limning tuzilishi qanday? Integratsion ta’limning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo’lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o’z rivojini topadi. Shunday qilib, kurs asosiga qo’yilgan g’oyalari (fikrlar)ning gorizontali harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo’l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinf dan sinfga), bunda bir mavzu bolaning o’sishiga qarab, murakkablashib boradi.

Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmii ta’lim sistemasida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko’rgazmali) tarmog’ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta’lim rejasidagi o’qitish joyida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to’la o’zlashtirish vaqti o’quvchilarning o’zlashtirish darajasi: ko’p maqsadli va rang-barangligi hamda ko’p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi (ko’rgazmali).

Integratsiya kursi - o’quv fanlaridan biri bo’lib, fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o’rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya ob’ektlari asosida tuzilgan.

Integratsiya kurslarining sinflarga bo’linishini turli asoslarda qilish mumkin: □ maqsad va muammolar asosida; □ maktab tabiiy - ilmiy tizimidagi vazifalari asosida; □ qo’shiluvchi fan tarmoqlari asosida; □ integratsiya usullari va yo’llari asosida; □ o’quv rejasidagi o’rni asosida; kursni o’rganishga sarflangan vaqt asosida; □ o’quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h. k.

SHuni e’tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflar i odatda o’z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo’yadilar, shu sababli kurslar ko’p maqsadli, turli vazifali bo’ladi.

Ko’p miqdordagi dasturlar va ularni tadbiq etishga urinishlarni ko’rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo’nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab sinflarga bo’lishimiz mumkin.

Integrativ yo’nalish – axborotlarni tashkil kiluvchi cheksiz kup kichik qismlarning uzaro ajralmas boglikligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona tugri xulosani aniklash jarayoni.

Bu texnologiyalar urganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chO’qur mazmunga ega bulishi, bilimlarga tizimli nO’qtai nazardan

yondoshish, O‘quvchilar bilimlarini egallashning eng maqsadga muvofik yullarini urgatishdan iborat.

Integrativ yo‘nalish ta’lim-tarbiya jarayonlariga kompleks yondashuv, tizimiy yondashuv, tizimiy taxlil tadqiqot usullarini joriy etishda va bilishning indO‘qtsiya hamda dedO‘qtsiya usullaridan foydalanishda kul keladi.

Integrativ yo‘nalish ta’lim va tarbiyani ierarxik tizim sifatida karab, ular ustida olib boriladigan tadqiqotlar olib borishda ijobiy pedagogik samaralarni kafolatlaydi.

O‘quv jarayonini tizim sifatida karab, uni tashkil etuvchilar, ya’ni O‘qituvchining O‘qitish vositalari yordamida ta’lim oluvchilarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda kursatgan, ta’sirini va ta’lim natijasini nazorat jarayonida baxolab beruvchi, texnologiyalashgan ta’limiy tadbirlar olib borishda rivojlanib boradi.

Pedagogik texnologiya ham bilimlarni uzlashtirishning hamma jixatlarini kamrab oluvchi muammoni taxlil kilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baxolash faoliyatni tashkil kilish usullarini uz tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

Integratsiyalovchi ta’lim kursining yo‘nalishlari: - ko‘p predmetlilik bunda (ikki yoki undan ortiq) fundamental fanlarni qiyoslash; - chegara fanlar asosida – yangi fanlarni vujudga keltirish, buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi; - asosiy (o‘zak) fanlar –zamonaviy bilimlarning hamma tarmoqlariga singib ketuvchi fanlar va umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalardir. - kompleks ob’ektlarini o‘rganish bu- «koinot», «odam», «muhit» degan tushunchalarni birlashtirish; - mahalliy (tabiiy-ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar – ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o‘rni bilan chambarchas bog‘liq. - faoliyat asosida-o‘quv tarbiya faoliyatining har xil ko‘rinishlari kitoblar, kuzatishlar, tajribalar, bilim, maxorat va ko‘nikmalar. - tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlariga bo‘lgan shaxsiy munosabatni shakllantirish: ko‘rgazmalar asosida integratsiya, didaktik sistemada (o‘qituvchi va o‘quvchinng faoliyati); Ko‘rgazmali yondoshishga olib keluvchi metodlar va usullar – evristik suhbatlar (savol- javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar, antomimika, sahna ko‘rinishlari, namunali qiroat bilan o‘qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish. - tabiat va inson yagona tizimi va o‘zaro aloqada faoliyat ko‘rsatish hamda insoning planetada yashab qolishi uchun ilmiy

asoslangan foydalanishni tashkil qilishi zarurligi; - ilmiy o'rganishning gumanizatsiyasi jarayoni ijtimoiy gumanitar, tabiiy amaliy va texnik fanlar metodlarining o'zaro ta'siri, ilmiy faoliyatning gumanitar- shaxsiy metodlari sohalarida ifodalandi; - ta'limni rivojlantirishning eng umumiy samarali yo'li zamonaviy fanni turlicha uslubiy yondoshuvlarning optimal o'zlashtirish; - «tabiat-inson» tizimidagi tabiiy – ilmiy va gumanitar fanlarni integratsiyalashuvi sifatidagi gumanizatsiyalashuvi; - tabiatda mavjud obyektiv aloqalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarda shaxsini shakllantirish; - boshlang'ich sinflarda integratsion bilim malakalarini va ko'nikma hosil qilish; - har bir o'quv predmetini o'kiyotgan paytda o'quvchilarga to'g'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining xar hil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

- tabiatda mavjud bulgan obyektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish; -«tabiat –inson» sistemasida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish; -materiallarni anglab yetish va didaktik adaptatsiya shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning xar xil tarmoqlaridan olish; -o'quvchilarda sistemalashgan fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning xar xil tarmoqlaridan olish uchun dunyoning zamonaviy ilmiy kontekstidan foydalanish; -tabiatning obyektlari va ko'rinishlarini, jarayonlarining, qonunlarini, jamiyatning rivojlanish qonunlarini iqtisodiyot gumanitik va demokratik bilimlarni shakllantirish; -bilim, ko'nikma, malaka sistemasini ishlab chiqish; -maktab ta'lim kurslaridagi integratsiyani ma'nosi, keng miqdordagi fikrlar va faktlar majmuasi, bir- biriga yaqin fanlarning birlashuvi; -maktab o'quvchilarida har xil tipdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o'zlashtirilishiga yordam beradi, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi

2.2. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlaridagi integratsiya jarayonlarining tarixiy tadrijiy rivoji

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim – tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi tubdan o'zgarimoqda va

pedagogik texnologiyalar, integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qoʻllanilmoqda.

Oʻquv fanlararo aloqadorlik taʼminlangan sharoitda oʻquvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Oʻquv fanlararo aloqadorlikni turli oʻquv predmetlari boʻyicha oʻquv dasturlari, darsliklar mutanosibligini taʼminlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Integratsiyalash – lotincha «integer» - umumiylik, «integera» - umumiylikni tuldirish, yaratish, tiklash demakdir. Taʼlim mazmunidagi uygunliklarni taʼminlash muammolari ham integratsiyalashning shugullanadigan soxasi xisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni urgatish. Taʼlim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, kunikmalar va malakalarni shakllantirishlarni umumlashtirib, konun yoki koida kurinishiga keltirishni amalga oshiradi.

Integratsiya gʻoyasi XVIII asrning yigirmanchi yillarida ingliz olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan. Integratsiya muammosini hal etish borasida olimlar birmuncha ishlarni amalga oshirganlar. Rivojlangan davlatlarda taʼlim mazmunini integratsiyalash borasida muhim va dolzarb ishlar amalga oshirilgan. Angliya, Yaponiya, Vengriya, Gong Kong davlatlarda taʼlim mazmunini integratsiyalashga erishilgan.

Taʼlim va tarbiyani takomillashtirishda integratsiya muammosi bilan shugʻullangan olimlar uning ahamiyati haqida toʻxtalib, unga turlicha taʼrif berganlar.

Integratsiya – oʻquvchilarni oʻqitish va tarbiyalashga yangicha yondashuv.

Integratsiya- yangi sifat.

Integratsiya – taʼlim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsipi.

Integratsiya – oʻzaro bogʻlangan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirish, yaxlit holga keltirish.

Integratsiya – tarqoq, boʻlak – boʻlak, ayrim – ayrim xoldagi narsalarni bir butun, yaxlit, tizimlashgan holatga keltirish.

Integratsiya – turli fanlarga oid bilimlarni yagona maqsadni hal etishga yoʻnaltirishdan iboratligini anglash.

Integratsiya- olamning yaxlitligi (bir butunligi)ni ifodalaydi kabi yuzdan ortiq taʼriflar mavjud.

Integratsiyalash tushunchasi muhim ilmiy termin bulib, u umumlashtirish, xulosalashlarda metodologik vosita bulib xisoblanadi,

chunki uning yordamida jaryon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uygunlik algoritmlari yaratiladi.

Pedagogik tadqiqotlarda tadqiqot ob'ekti va metodologiyasiga tegishli ma'lumotlar urtasidagi aloqadorliklarni urnatish (funktional boglanishlarni) masalalarini xal etishda integratsiyalashdan foydalaniladi.

Tadqiqot ishlarni bajarishda va turli fanlardagi ta'lim mazmunlarini umumlashtirish va tuldirishda integratsiyalash jarayoni doimo kul keladi va kuzlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi:

birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. 60-yillarda o'qitish jarayonini faollashtirish, uni ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashgan holda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash sohasidagi harakatlar kuchaydi.

O'quv fanlariaro aloqadorlikning turli jihatlari o'rganildi:

chunonchi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish didaktik vosita;

o'quvchilarning o'quv faoliyatida idrok etish faolliklarini rivojlantirish, ularning idrok etish qobiliyatlarini shakllantirish sharti sifatida; o'qitishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda ilmiylik tamoyiliga amal qilish hamda o'qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni birgina o'quv fani doirasida ta'minlash mumkin emasligi asoslab berilgan.

70-yillarda didaktikada o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash muammosiga jiddiy e'tibor qaratildi. Ushbu muammolar tahlili asosida o'quv fanlariaro aloqadorlikning metodologik yo'nalishlari belgilab berildi. Ayniqsa, V.N.Fedorova rahbarligida amalga oshirilgan tadqiqotlar fanlararo aloqadorlikning nazariy asoslarini bayon etganligi bilan muhim ahamiyatga ega. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashning didaktik jihatlari faqatgina muayyan o'quv fanlari mazmunida turli bilim va tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashga oid pedagogik tadqiqotlarda uni mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida mujassam rivojlanayotgan shaxsga nisbatan pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyati sifatida qarash lozim.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazaridan ikkita tushunchaga ega:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differentsiatsiya – fransuzcha (diffe’rentiofion lotincha differentia - farq, har xillik, ya’ni butunni bo‘laklarga bo‘lish, ajratish. Ta’lim mazmunini integratsiyalash – dunyo tendensiyasi (g‘oya, fikr, intilish). Integrativ yondashishi turli darajadagi tizimli aloqalarning ob’ektiv yaxlitligini aks ettiradi. (tabiat - jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo‘lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o‘rganish ob’ektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta’limida qo‘llash mumkin?

Zamonaviy didaktik va metodikada ta’kidlanishicha, o‘quvchilarni o‘qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularning dunyoning birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o‘z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo‘lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiiy fanlar kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni echaolishlari bilan bog‘liq. Ta’limdagi integratsiya o‘quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko‘rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang‘ich, tabiat haqidagi elementlar bilimlarni birlashtiradi; oraliq-fanlar bo‘limlarini bo‘lish integratsiyasi; yakuniy - tabiiy fanlarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. SHu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta’limini to‘liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktab ta’limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog YU.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to‘g‘risidagi fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarniig mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o‘xshatish, bilimlar tizimi esa o‘xshatishlar tizimidir. YU.A.Samarin o‘xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi:

lokal (mahalliy, ma’lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo‘lgan, tizim ichidagi, tizimlar orasidagi va aqliy

faoliyat darajalarini o'xshatishlarning mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tabiat yoki fan haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddasi tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi.

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlartizimining bilishini ta'minlaydi (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi), o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlarni aks ettiradi. Fanlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishiga imkoniyat beradi. SHu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasida bo'shliqliklarni aniqlashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninning «Pedagogika» kitobida darslarda qo'llaniladigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta'lim muammolari aks etmagan.

O'quv fanlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi integratsiya tizimini takomillashtirishning, kamchiliklarni bartaraf etishning yo'li bo'lib, fanlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv- differentsiatsiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi.

Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element vaqismlarni bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiyani amalga oshirishda o'qituvchilarga yordam berishdir. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari u yoki bu fanlarni o'rganib, shu bilim ko'nikmalarni boshqa fanlarni

o'rgatishda qo'llashga qiynaladilar, ularga mustaqil fikrlash, olingan bilimlarni o'xshash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari etishmaydi.

L.P.Elanko o'zining «Boshlang'ich sinflarda ta'limni integratsiyalash tajribasi» ichida maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tiboriniqaratib, integratsiya darsini samarali qilish vositasi, fanlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli deb hisoblaydi. Integratsiya o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir.

Ular faoliyat turli shakllarining almashib turishi orqali o'quvchilarning charchashi va asabiylashishining oldini oladi.

Yu.S.Tyunnikovning fikricha, integratsiya tushunchasiga tegishli bir qator belgilar mavjud bo'lib, ularga:

- Integratsiya turli o'zaro aloqadagi elementlar asosida quriladi.
- Integratsiya o'zaro aloqadagi elementlarning sifat va son o'zgarishi bilan bog'liq.
- Integrativ jarayon mantiqiy mazmun asosiga ega.
- Integrativ jarayon o'zining tuzilmasiga ega.
- Pedagogik yo'naltirilganlik va uning nisbatan mustaqilligi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, integratsiya pedagogik jarayonda qo'yilgan maqsadga bog'liq holda yaxlit tizimni ifoda etuvchi bilimlar, usullar va ular bilan o'zaro bog'liq bo'lgan bilish jarayonlari, o'quv-bilish muammolari, o'qitish vositalari hamda metodlarini qamrab oladi.

V.S.Bezrukovaning ta'rifi bo'yicha pedagogic integratsiya – bu ilmiy integratsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, uning ilmiy integratsiyadan farqli xususiyatlarini e'tiborga olgan holda pedagogic nazariya va amaliyot doirasida amalga oshiriladi.

Integratsiya – obyektiv sabablarga ko'ra har xil elementlarni ibirlashtirish va ularni bir butun holda qarash natijasida sodir etilayotgan tizim sifatida e'tirof etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarning turli tumanligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalari va milliy o'quv dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhitga jiddiy munosabatlarning poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta'limning natijasi maktab ta'limining birinchi bosqichiga bog'liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchalarni ko'rib chiqishga imkon beradi.

Bu boshlang'ich iqtisodiy ta'limning barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirish va yangilashga asos yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

2.3. Boshlang'ich ta'lim tizimida integratsiya

Integratsiyalangan yondashuv metodlar va usullariga quyidagilar kiradi; evristik suhbatlar, umumlashtirish rejasidagi suhbatlar; ekskursiya; ijodiy ishlar; o'qitishning ko'rgazmali metodlari: mustaqil ishlar; o'qish darslarida og'zaki tasvirlash; pantamimo sahnachalari; darslarda peyzaj tasvirlarini ifodali o'qish, ona tili darsida tabiiy fanlar mazmunidagi matnlar bilan diktant yozdirish; o'lkashunoslik asosida matematik masalalarini yechish va shu kabi. Integratsion tizim - bu to'liq dunyoqarashga ega, o'zida bor bilimlarni mustaqil tizimlash qobiliyati va turli xil muammolarni yechishda noan'anaviy yondashadigan to'liq ma'lumotga ega yosh insonni tarbiyalashga imkon beruvchi o'qitishning differentsiyasidir (turlanishidir).

O'qitish maqsadidagi integratsiya - bu o'quvchini o'qitishni birinchi qadamlaridanoq olamni bir butunlikda va uni barcha elementlari o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur berishdir.

Integratsiya — an'anaviy ta'lim vositasi; oldin mavjud turlangan bilimlar kesishuvida bilmaganlarni to'ldirib olish, ular orasidagi mavjud aloqani o'rnatish; o'qitishda mavjud tor ixtisoslashuvni yangilash bilan o'quvchini bilim darajasini oshirish.

Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi (klassifikatsiya). **Ko'p fanlar integratsiyasi** Ularni yana universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri

ketma - ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilar, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma - ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limga ham darslarga ajratib o'qitish an'analari tarqalgan deb hisoblaydilar.

Tabiiy fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qiladilar. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, o'quvchilarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi «Tabiiy fanlar») kiradi.

Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Keng integratsiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiiy fanlar, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlariga ekologik mavzular kiritilgani ko'rinadi. Bir - biriga yaqin chegaradosh fanlarning qatoriga molekulyar biologiya, biofizika, geofizika, biokimyo, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi: kibernetika- boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash: informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika. Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasida tuziladi.

Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar.

Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: «materiya», «harakat», «modda», «maydon», «energiya» va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sarmahsuli tabiatni saqlash

qonuni, odamlarning ish faoliyatiga tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasida integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy - ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovishmaganligi va ma'lum ketma - ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Kompleks obyektlar asosida.

Integrativ kurs yaratishga asos bo'lgan kompleks ob'ektlarga Yer, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir ob'ekt turli fan nuqtai nazaridan ko'riladi.

Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigir manchi yillarda maorif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda, aytish mumkinki qaytadan tug'ildi. Bizning nazarimizda, ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Turli muammolar asosida.

Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tadbiiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy ilmiy bilimlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ kurslar (asosan ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi. Bu yo'nalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning ekonomika, fan, siyosat, ma'naviyatining uzviy bog'liqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli ta'sir ko'rsatadi degan tasdiqlashni asos qilib olganlar.

Faoliyat asosida.

Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish - turli o'quv-ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadilar.

O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi mumkin va

kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tadbiiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik o'quvchilarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirsalar ham, uni tadbiiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar. Ko'pchilik bunga sabab asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi.

Sabab nimada? Balki ularning biri ko'p yillar davomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir? Bu yerda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflari sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlar ini integratsiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin.

Birinchidan. Aytib o'tilgan tabiiy integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha bir - birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish, ilmiy asos yaratish qiyinlashadi.

Ikkinchidan. Integrativ kurslar fanlararo aloqaning o'rnini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha, ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri.

Uchinchidan. Tabiiy ilmiy ta'limning optimal tuzilishi shundayki, integrativ kurslar o'quv rejasining o'zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

To'rtinchidan. To'liq o'quv metodik qo'llanmalarning yo'qligi integrativ kurslarning o'quv jarayoniga tadbiiq etilishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning avtorlari programma tuzib, umumiy metodik ko'rsatmalar tuzishgandan so'ng to'xtab qoladilar.

Beshinchidan. Integrativ kurslar uchun o'qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali yetilgani yo'q.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazardan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondoshuvning metodik asosidir. Bunga turli darslarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. SHunday qilib yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu

o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi.

Masalan, «qish», «sovuq», «bo'ron», kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiiy fanlar musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning taxlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga hos o'tish metodikasiga ega bo'ladi.

Umumiy ta'limning poydevorining qo'yadigan **boshlang'ich maktabdagi** ko'p tushunchalar tabiatshunslilik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish yosh avlodga fundamental bilim berish jarayoniga kompleks yondashuv muammosini, tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

Muammoga doir izlanishlar olib borishda, tajriba–sinov ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishga harakat qildik:

1) Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalarini o'rganish;

2) An'anaviy metodlar asosida boshlang'ich sinflardagi qator o'quv fanlariga aloqador bilim va tushunchalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash va natijalarini tahlil qilish.

3) Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlar integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladigan vositalar hamda metodlarni keng qo'llash asosida fanlararo aloqadorlikka oid tushunchalarni hosil qilishga erishish.

4) O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashni osonlashtirishga sharoit yaratadigan, o'quvchilarning boshlang'ich sinflardagi o'quv predmetlarini samarali o'zlashtirishlariga imkon beradigan o'quv mashg'ulotlari dasturini tuzish.

5) O'quvchilarning o'quv fanlarini mukammal o'zlashtirishlari, muayyan bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, o'rganilayotgan o'quv predmeti bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishda fanlararo aloqadorlikning ta'sirchanligini oshirish.

Olimlarning mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari, falsafiy, psixologik, pedagogik muammolar yoritilgan ilmiy asarlar o'rganildi va tahlil etildi. Birinchi bosqichda pedagogik tajriba-sinovni amalga oshirishga xizmat qiladigan dastur tuzildi. Dissertatsiyaning birinchi bobi uchinchi paragrafida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalari tahlil qilindi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish darajalari test sinovlari asosida aniqlandi.

Mazkur bosqichda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining chuqur tahlillari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

birinchidan, ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarga o'quv materiali mazmunini tushuntirishda asosan ta'limning reproduktiv metodlaridan foydalanadilar. Dars jarayonida taqdim etilayotgan bilimlarning asosiy mazmuni o'quvchilarga tayyor tarzda taqdim etiladi. Shuning uchun o'quvchilarning o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalari, fan asoslarini o'zlashtirganlik darajalari aksariyat hollarda DTS talablariga javob bermaydi;

ikkinchidan, barcha o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan dars jarayonida o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi imkoniyatlardan to'la foydalanilmaydi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida ilmiy farazimiz asosida boshlang'ich sinflardagi o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini aniqlash bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Boshlang'ich sinflarda o'rganilayotgan o'quv fanlarining o'zaro aloqadorlik xususiyatlari va shu asosda o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan dasturlar yaratildi. Ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilari orasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalanildi. Unda o'quvchilarga ilmiy tushuncha va o'zlashtirilgan bilimlari asosida muayyan ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi shakl va vositalarini samarali qo'llash, o'zaro aloqadorlikni ta'minlash va uni tajriba-sinovdan o'tkazish asosiy maqsad qilib olindi. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarining biz taklif qilgan

texnologiyaga nisbatan munosabatlarini aniqlashga e'tibor qilindi. Ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi vositalarga nisbatan ularning munosabatlari aniqlandi, vujudga keladigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf etish chora- tadbirlari taklif qilindi. Shu bilan bir qatorda, o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi ba'zi vositalar orqali o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarining sifat va samaradorligini oshirish muammolari o'rganildi.

Integratsiyalashgan o'quv dasturlarini tuzishda mavzularning o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishiga, mavsum bilan aloqadorligiga va har bir fan dasturida o'zgarishlar bo'lmasligiga (mavzularning o'zni almashmasligiga) alohida e'tibor qaratdik.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish yosh avlodga fundamental bilim berish jarayoniga kompleks yondashuv muammosini, tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Muammoga doir izlanishlar olib borishda, tajriba–sinov ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishga harakat qildik:

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalarini o'rganish;

An'anaviy metodlar asosida boshlang'ich sinflardagi qator o'quv fanlariga aloqador bilim va tushunchalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash va natijalarini tahlil qilish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlar integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladigan vositalar hamda metodlarni keng qo'llash asosida fanlararo aloqadorlikka oid tushunchalarni hosil qilishga erishish.

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashni osonlashtirishga sharoit yaratadigan, o'quvchilarning boshlang'ich sinflardagi o'quv predmetlarini samarali o'zlashtirishlariga imkon beradigan o'quv mashg'ulotlari dasturini tuzish.

O'quvchilarning o'quv fanlarini mukammal o'zlashtirishlari, muayyan bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, o'rganilayotgan o'quv predmeti bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishda fanlararo aloqadorlikning ta'sirchanligini oshirish.

Olimlarning mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari, falsafiy, psixologik, pedagogik muammolar yoritilgan ilmiy asarlar o'rganildi va tahlil etildi. Birinchi bosqichda pedagogik tajriba-sinovni amalga oshirishga xizmat qiladigan dastur tuzildi. Dissertatsiyaning birinchi bobi uchinchi paragrafida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalari tahlil

qilindi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish darajalari test sinovlari asosida aniqlandi.

Mazkur bosqichda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining chuqur tahlillari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

birinchidan, ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarga o'quv materiali mazmunini tushuntirishda asosan ta'limning reproduktiv metodlaridan foydalanadilar. Dars jarayonida taqdim etilayotgan bilimlarning asosiy mazmuni o'quvchilarga tayyor tarzda taqdim etiladi. Shuning uchun o'quvchilarning o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalari, fan asoslarini o'zlashtirganlik darajalari aksariyat hollarda DTS talablariga javob bermaydi;

ikkinchidan, barcha o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan dars jarayonida o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi imkoniyatlardan to'la foydalanilmaydi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida ilmiy farazimiz asosida boshlang'ich sinflardagi o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini aniqlash bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Boshlang'ich sinflarda o'rganilayotgan o'quv fanlarining o'zaro aloqadorlik xususiyatlari va shu asosda o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan dasturlar yaratildi. Ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilari orasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalanildi. Unda o'quvchilarga ilmiy tushuncha va o'zlashtirilgan bilimlari asosida muayyan ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi shakl va vositalarini samarali qo'llash, o'zaro aloqadorlikni ta'minlash va uni tajriba-sinovdan o'tkazish asosiy maqsad qilib olindi. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarining biz taklif qilgan texnologiyaga nisbatan munosabatlarini aniqlashga e'tibor qilindi. Ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi vositalarga nisbatan ularning munosabatlari aniqlandi, vujudga keladigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf etish chora- tadbirlari taklif qilindi. Shu bilan bir qatorda, o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi ba'zi vositalar orqali o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarining sifat va samaradorligini oshirish muammolari o'rganildi.

Integratsiya ta'lim oluvchini bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan.

Bu kursning maqsadi avval boshida «hamma narsa to‘g‘risida o‘zgina bilish» lozim bo‘lsa, oxirga kelib «**o‘zgina narsa to‘g‘risida hammasini bilish**» kerak bo‘ladi.

Misol tariqasida o‘quvchilar tasavvurida iqtisodiy tushunchani shakllantiradigan bo‘lsak, fanlar aro aloqalar katta yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflardagi «Tevarak atrofimizdagi olam», «Mehnat ta‘limi», «Tasviriy san‘at» darslari insoniyat tomonidan foydalaniladigan mehnatvositalarini turli tomondan tabiiymateriallar sifatida uning xossalari, amaliy ahamiyati ochib beriladi. Bu bilan predmetlar aro aloqa iqtisodiy tafakkurni har tomonlama rivojlantirishga va shakllantirishga imkon beradi.

Kichik maktab yoshdagi o‘quvchining aql idroki tabiat va jamiyatni o‘rab turgan olamdagi qo‘p qirrali munosabatlarning, iqtisodiy va ekologik munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi uchun yaxshi zamindir!

O‘quvchilarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish jarayonida ularda iqtisodiy muammolarini tushunish tajribasi to‘planadi, natijada ota-ona va ularning muammolarini yaxshiroq tushunadigan, oila byudjetiga tejamkorlik xissi shakllanib boradi.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quv predmetlarini integratsiyalash yo‘llari. Olingan natijalar o‘qituvchiga amaliyotda o‘quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanishi zarurligi haqida xulosaga kelishga imkon beradi. O‘quv fanlariaro aloqadorlikning dolzarbligi quyidagilarda ko‘rinadi:

- bir dars doirasida o‘qitish shakllari va faoliyat turlarini almashtirish;
- o‘qituvchining darsga tayyorgarligini osonlashtirish;
- darsni ko‘rgazmali, illyustrativ tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish;
- o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik faoliyatlarini tashkil etish;
- o‘qituvchi va o‘quvchi uchun o‘rganiladigan materiallarni tayyorlashda qulaylik yaratish.

Dars jarayonini tashkil qilish va o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini takomillashtirishda o‘quv fanlariaro aloqadorlikka muammoli yondashish zarurdir.

Ta‘lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan dars davomida o‘quv va ijodiy masalalar hamda mavjud bilim, malakalar darajasi, o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi o‘rtasida vujudga keladigan foydali qarama-qarshiliklardan iborat.

O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlash bo‘yicha o‘qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. **Ko‘rgazmalilik asosida tashkil etiladigan dars**da o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo‘llaniladigan o‘quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, boshlang‘ich sinflarda ona tili, o‘qish yoki tasviriy san‘at darslarida mazmunan o‘xshash bo‘lgan “Qish”, “Bahor” kabi mavzularni o‘rganish bo‘yicha.

2. **Mavzularning bir-biriga o‘xshashligi**: o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o‘quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. **Umumlashtirish**-o‘quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o‘rgatish maqsadida turli o‘quv fanlari bo‘yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash- umumlashtirish darslarida o‘quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi **didaktik shartlarga** amal qilinsa, o‘qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi:

□ o‘rganilayotgan o‘quv fanlari bo‘yicha mavzularni mazmunan uyg‘unlashtirish orqali o‘quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish;

□ o‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta’lim sifatini ta’minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish;

□ darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o‘quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

□ O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlashda o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o‘quv kurslari bo‘yicha, muammolilik, ko‘rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

O‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida o‘rganilayotgan dars materiallarini o‘quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o‘zaro aloqador bo‘lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o‘rganish, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo‘lishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlik o‘quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu

o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir.

O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslar davomida o'quvchining fikrlash faoliyatini determinatsiya mexanizmlari asosida tahlil qilish, o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida bilim va tushunchalarni umumlashtirish yo'li bilan bajariladi. Buning natijasida harakatlarning umumlashtirilgan maqsadi paydo bo'ladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida muammoni yechishning har tomonlama mukammal dasturini ishlab chiqish - bu doimiy ijodiy jarayondir.

Chunki bunday dasturlar turli o'quv fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlardan mazmunli vaziyatda foydalanish usullarini tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan yaratiladi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga qo'yidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi.

Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini

tushuntirishga qaratilgan bo'lishi. Masalan, o'qish darslarida qish fasliga doir she'r yoki matnni o'qishdan oldin o'qituvchi mavzuni tabiiy fanlar bilan bog'liqligi haqida "tabiiy fanlar darsida biz qish faslida bo'ladigan tabiatdagi o'zgarishlarni o'rgandik. Ushbu she'r (matn)da ham xuddi shu holat tasvirlangan" degan fikr bilangina cheklansa, unda o'quv fanlari o'rtasidagi bunday aloqadorlik faqat tashqi xususiyatga ega bo'ladi, tasavvurlar va reproduktiv harakatlar darajasida qoladi. O'quv fanlariaro bilim va tushunchalarni tizimlashtirish uchun alohida o'quv mavzulari bo'yicha umumlashtiruvchi jadvallarni tuzish maqsadga muvofiqdir (yoki fanlararo turli mavzudagi o'quv muammolari bo'yicha).

4. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin.

5. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim.

Ushbu faoliyatning samaradorligiga erishish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan dars mavzusini fanlararo aloqadorlikda idrok etib, amaliyot bilan bog'liqligini aniqlash;
- ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari mazmunida o'zaro aloqador matematik atamalarni qo'llash;
- fanlararo aloqadorlik asosida amaliy, mustaqil ishlarni bajarish;
- boshqa fanlardan qo'llaniladigan ko'rgazmali vositalarni ushbu fanlarga yaqin, fanlararo aloqadorlik xususiyatiga ega bo'lgan ilmiy-ommabop adabiyotlardan foydalanish; bunda o'quvchilarning boshqa fanlarga qiziqishlariga tayanish, ular bilan individual ishlash jarayonida mazkur qiziqishlarni rivojlantirish va mustahkamlash;

6. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan o'quv materiallari umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, o'quv fanlariaro aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni ta'minlovchi ta'limning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar.

Yil va chorak mundarijasiga turli ertak qaxramonlarini (kichik shaxzoda, Karlson, Dyumovochka va boshqalar) kiritilishi ham shu

maqsadga mos keladi. Ular bolani mavzudan mavzuga yetaklab yurgandek bo‘ladi va shu yo‘l bilan inson muloqot qiladi, yangi narsalarni bilib oladi.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo‘nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida ko‘rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. U maqsadda «O‘z yulduzingni yoq», «Guldatsada sening guling», «Sen sevgan kitob» kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin davomida diqqat - e‘tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, tug‘ilgan kuni munosabati bilan osmonda yangi yoritilgan yulduz uning nomi bilan ataladi yoki katta guldatsa bayram egasiga yoqadigai gul bilan boyitiladi). Sevimli kitob esa sinf kutubxonasini to‘ldirish bilan birga egasining (imzosi)ga ega bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish, ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o‘ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni rag‘batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning she‘r va hikoyalar yozish, yangi raqs o‘ylab topish, shirin taom pishirish, biror asbob yaratish, o‘simliklardan shakllar yaratish kabi mustaqil ijodiyoti turli yo‘llar bilan rag‘batlantirib borish taqozo etiladi.

Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mashg‘ulotlar bolalarda ko‘rish va eshitish qobiliyatlarini (materiallar sifatini (fakturasini) ushlab ko‘rib ajrata bilish qobiliyati), sezish tuyg‘ularini (hid va ta‘mni ajrata olish qobiliyatlarini) rivojlantirishga yordam beradi. «Ovchilar», «Hayvonlar», «Izquvarlar» o‘yinlarini o‘ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo‘lish, masalalarni mantiqan hal eta bilishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg‘ular ham muhim ekanligini ko‘rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o‘ta nozik tuyg‘ularning shakllanishiga yo‘ldir. Bunga yorqin obrazlarga, san‘at asarlariga, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin. Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatini rivojlantirish lozim.

Bunga ertaklar o‘qish, turli sahna ko‘rinishlari qo‘yish yordam beradi. Bolaning his-tuyg‘ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog‘liq bola faoliyatiga harakat qilishga, o‘z holatini badan harakatlari, imo-ishoralar, raqs orqali ko‘rsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Dars o'tishdagi asosiy shart - sinfda zarur, mos muhitni yaratish: polga gilam solish, partalar o'rniga qulay bo'lgan stul va kreslolar o'rnini almashtirish. Mashg'ulot jarayonida bolalar o'z yashash muhitlarini yaratishadi. Yil va chorak mavzusi «devorlardagi suratlar», «Hayvonot va o'simliklar dunyosi» paydo bo'ladi, ularni o'quvchilar o'zlari o'ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma'lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, xaritalardan foydalanish mumkin.

Ko'pincha vaqtni sinfdan va maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Muzey va kutubxonalarda, xiyobon yoki ko'chalarda o'tiladigan darslar odatiy bo'lib qoladi.

Integratsiyalangan kurs utsidagi ishlar davom etadi. Tanlangan yo'l juda qiyin va mutlaqo shubhasiz emas. Qiyin muammolarni hal qilish lozim.

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilayashti. Bu tushunarli - kichik maktab o'quvchisi atrofdagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiiy fanlar, ona tili, musiqa va boshqa o'quv predmetlarini nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi mavjuddir.

Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi.

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshladi. Agar boshlang'ich ta'limni tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida o'quvchilar qiziqishlarini faollashtirish yotsa, integratsiyaning asosida esa turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish kabi vazifalar yotadi.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosga ega bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishni taqozo qiladi. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar; integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi

harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlash lozimligini ko'rsatadi.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. **Maqsadli bosqichda** o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligida predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular o'z e'tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki, ko'chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobilyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. **Isbotlash bosqichida** o'qituvchi o'quvchilar dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'barlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.

3. **Faoliyatning mazmun bosqichida** o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.

4. **Vositalar tanlash bosqichida** o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni-darsliklar, tablitsalar, sxemalar, savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini integratsion masalalarni hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. **Keyingi bosqich - natija.** O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirishlarni amalda qo'llaydi.

6. **Nazorat qilish bosqichida** o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi.

O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qiladilar.

Boshlang'ich sinf darslarida pedagogika bilan bog'liq fanlarni integrallashtirish.

Fanlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu jarayonni pedagogika fani bilan boshqa fanlarni integrallash orqali kuzatamiz.

Odobnoma darslarida axloqli tarbiyaga oid matnlar, she‘r va hikoyalar beriladi. 4 sinf «Umr o‘tib borar misoli» ertak... Umr o‘tib borar misoli ertak, Ertakning ketidan kelib qolar shom, Faqat g‘aflat ichra yotmagin yurak, Qaytib kelmas sirabu yoshlik ayyom.

Yoki 3 – sinf odobnoma darsligida «**Qarilik va donolik**» mavzusi beriladiki, uning tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchiga oson va tushunarli qilib yetkaziladi.

Axloqiy tarbiyanitabiiy fanlar darsida ham olib boriladi. 4-sinf darsligida «**Tog‘ o‘rmonlari va o‘tloqlari**» mavzusida: Tog‘larda dam olish vaqtida va turistik poxodlarda tabiatni juda avaylab, ehtiyot qilish zarur, daraxtlarga zarar yetkazmay shox-novdalarni sindirish, qushlarni va hayvonlarni bezovta qilish mutloqo yaramaydi. O‘rmonda gulxan yoqish mumkin emas. Chunki gulxanlardan ko‘pincha o‘rmonda yong‘in chiqib, noyob o‘simliklarga emas, balki xayvonlar ham nobud bo‘ladi... **O‘qish darsligining** ko‘p mavzulari axloqiy tarbiyaga qaratilgan. 4 sinf o‘qish darsligida «**Buzilmagan uya**» mavzusi bor. Bu asarda ba‘zi o‘quvchilarni betarbiyaligi oqibatida noxush voqealar sodir bo‘ladi. Mehnat darsida ham o‘quvchilarga ovqatlanishi odobi, mehmon qilish odobi, kabi axloqiy tarbiya me‘yorlari o‘rgatib boriladi. Yuqoridagi misollarni ko‘rib shuni aytish mumkinki, demak fanlararo integratsiya mavjud, ya‘ni fanlararo uzviylik, bog‘liqlik mavjud.

Integrativlik insonning olam bilan o‘zaro aloqalariga aks etuvchi mavzularga kiritilgan: o‘quvchi idrokida abstrakt bo‘lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar, yer planetasi, katta bo‘shliqlar va yer qa‘rini). Yaqin olam (mikro olam, uy xayvonlari va o‘simliklar dunyosi va ona vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati).

Kurs oddiydan murakkabga, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg‘unlikka va ijodga bo‘lgan xarakterni rivojlantiradi.

O‘quvchi dunyoning yaralishi bilan tanishadi, olamning boshlanishiga insonning yerda paydo bo‘lishiga murojaat qiladi. O‘quvchilar sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar sirlarini ochish fikriga qiziqib boradi. O‘quvchi makon va zamon bo‘ylab sayohatga otlanadi. SHunday qilib o‘quvchi har kuni ochishi kerak bo‘lgan olamning go‘zalligini his qiladi.

Kurs shaxsga moslangan yo‘nalishga ega faqatgina sifat yoki guruhga emas har bir o‘quvchiga ahamiyat beriladigan qilibshuni tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlarini

alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlarixisobga olinadi. SHuningdek o'quvchining emotsional tomonlarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi.

Mashg'ulotlar o'quvchilarda ko'rish va eshitish qobiliyatlarini, ushlab ko'rib ajrata bilish, sezish tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi. His tuyg'ularini rivojlantirishga doir o'yinlarni ham tashkil qilish mumkin yoki san'at asarlariga tabiyat bilan zavqlanishga murojat qilish orqali erishish mumkin. O'quvchining his tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq, o'quvchi faoliyatiga harakatqilishga o'z xolatini badan harakatlari imo-ishoralar raqs orqali kursatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Kursni tashkil qilish va ish shakllari kurs xaftasiga 2 soatga mo'ljallangan. Hafta oxirida 2 soatli dars o'qish maqsadga muvofiq sababi, o'quvchilar asosiy darsdan ancha dam olishadi.

Bunday 2 soatlik darsni «ijodiy soat» yoki «hayol darsi» deb nomlash mumkin. Ko'pincha vaqtni sinfdanva maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Integratsiyalashgan kurslar orqali shu tariqa o'quvchilarning rivojlanish darajasi qiziqtirishlari integratsiyalar aniqlanadi.

Onatili darslarining noan'anaviy shaklva usullari. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar savodxonligini oshirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, ona tili asosiy va yetakchi fanlardan biri hisoblanadi. U yuqori sinflarda o'rganiladigan ona tili va adabiyot darslarining tarkibiy qismidir.

Ona tilini o'qitish savodxonlikning asosiy kaliti ekanligini unutmasligimiz kerak. CHunki savodxonliksiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Savodxonlikning zaminida husniyat ham yotadi.

Bu ham o'quvchining aqliy qobiliyatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu esa ushbu jarayonni amalga oshirishda pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda interfaol usullarni qo'llash orqali o'quvchilar bilimi va ko'nikma malakalarini mustahkamlashni taqozo etadi. 1-sinf «Ona tili» darsligida «Insonning yaxshi do'sti» hikoyasi mavjud. Dars jarayonida bu hikoya orqali o'quvchilar qushlar olami bilan tanishadi. Qushlar o'zlari- ning jozibali raqsga tushishi, turli xil ohanglarda sayra- shi va insonlarga zavq - quvonch olib kelishi bilan o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bugungi kunda 450 turga yaqin qushlar yurtimizda yashaydi. Qushlar va jonivorlar ob-havo darakchisi sifatida ham xarakterlidir. Jumladan, havo bulutli kunlari qanotli

chumolilar paydo bo'lsa, yomg'ir yog'adi. Turnalar erta uchib kelsa, ko'klam erta boshlanadi.

Yozda pashshalar ko'paysa, havo dim bo'ladi. Qaldirg'och yer bag'irlab uchsa havo buziladi, u balandlab uchsa, havo yaxshi bo'ladi. Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilarga turli inter-faol usullar orqali yetkazish darsning sifat va samaradorligini yanada oshiradi va o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi. O'quvchilar bu qo'shimcha ma'lumotlar orqali hikoyaning mazmunini chuqur o'zlashtiradilar, qushlarning tabiati haqidagi tushunchalari kengayadi.

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o'zaro bog'liqlikni ta'minmagan holda o'qitilmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, o'quvchilar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Zamonaviy didaktika **o'quv fanlarini integratsiyalashga** bir qancha **yondashuvlarni taklif qiladi**, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limdagi integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar. Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqalganligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, o'quv fanlari ilmiy fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o'z aksini topadi.

O'quv fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi obyektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda subyektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. SHu sababli, o'quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma'noda **integratsiya** – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O‘quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o‘quv fanlari bo‘yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma’noda qaralganda, o‘quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o‘zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O‘quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi subyektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo‘lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – subyektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

O‘quv fanlarini integratsiyalashgan holda o‘rganishda subyektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o‘quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko‘rsatmoqda. Biz, ta’lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo‘lib o‘qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdorimiz.

O‘quv fanlari nisbatan mustaqil bo‘lishi kerak, chunki ularning har biri o‘z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va konsepsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

Shu bilan birga, ularni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish bilan bog‘liq imkoniyatlar ro‘yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta’minlanadi. Uni o‘quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, subyektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz fanlararo yondashuvni umumta’lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo‘nalish sifatida qaraymiz.

Biz o‘quv fanlarini integratsiyalash natijasi fanlar o‘zaro bog‘lanmagan holda o‘rgatilganda shakllantirish mumkin bo‘lmagan subyektiv yangi bilimlarning o‘zlashtirilishi, - degan kontseptual g‘oyaga tayanamiz.

Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o‘n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi bir yoki bir necha mashg‘ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida o‘quvchini ilgari turli fanlariga oid o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi subyektiv yangi bilimga “olib kelishi” kerak bo‘ladi. Ya’ni, **bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak.** Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni

boshqasiga olib o'tish bilan bog'liq bo'lib, u fanlararo aloqalarni o'rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, bilimlarning har qanday olib o'tilish holati subyektiv yangi bilimlar sinteziga olib kelmaydi. Buning uchun ushbu bilim inversiyaga uchrashi lozim.

Bilimlarning inversiyasi quyidagi jarayonlarni qamrab oladi: o'quvchi aqliy faoliyatini faollashtirish maqsadida bilimlarni shakllangan fandan boshqasiga o'tkazilgandagi tavsifining o'zgarishi; ilmiy bilimlar mohiyat jihatidan o'zaro bog'liqligini o'quv vazifalariga aylantirish; o'quvchi ijodkorlik qobiliyatlari ham kasbiy yo'nalganligining tarkib topishini ta'minlovchi fanlararo bilim va ko'nikmalarni egallash darajalarini belgilab olish.

Inversiyaning mohiyatini quyidagi misolda izohlash mumkin. I.Nyuton tomonidan kashf etilgan mexanika qonunlariga oid bilimlar inversiya natijasida hali maktab fizika kursidayoq texnika va texnologiya ob'ektlariga tatbiq etilib, politexnik ko'rinishda taqdim etiladi. Ushbu bilim boshqa ob'ektlarga o'tkazilganida o'zga yo'nalish kasb etib, boshqa kasbiy vazifalar yechimiga xizmat qiladi. Misol uchun, fizikani o'qitish metodikasiga o'tkazilgan fizikaga oid bilimlar inversiyaga uchrab, bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy bilimlarga aylanadi. Fan yo'nalishlariga oid bilimlar bo'lajak muhandisning maxsus fanlarni o'rganishi hamda ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasbiy bilimga aylanadi. Bu kabi o'zgarishlar amalga oshirilmasa, umumta'lim hamda maxsus fanlarga oid bilimlar kasbiy faoliyatga tatbiq etilmasa ular bo'lajak muhandis uchun kasbiy bilim emas, balki propedevtik ahamiyat kasb etuvchi ma'lumot sifatidagina ahamiyatga ega bo'ladi.

Umumta'lim, umumtexnik hamda maxsus turkumdagi fanlarni integratsiyalash imkoniyatlari ularning mazmunida mujassamlashgan, zero, u o'zida tabiatiga ko'ra yagona bo'lgan atrof-olam to'g'risidagi bilimlarni ifoda etadi. Pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o'quv fanlarini o'qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalari tizimini, ularning asosi bo'lgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabda o'quvchilar shaxsiy ishini samarali tashkil etish zamon talabidir. Buning uchun ularga mehnatni ilmiy tashkil qilishning oqilona eng oddiy usullarini o'rgatish zarur. Bu bilan ularga eng kam kuch sarflab eng ko'p samaraga erishish imkonini yaratgan bo'lamiz.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishning quyidagi asosiy talablari mavjud:

1. Maqsadni aniqlab olish.

2. Ishni qismlarga ajratish.

3. Qismlarni keraksiz narsalardan tozalash, qolganlarini oqilona joylashtirish.

4. Eng kerakli qurol-asboblarni tanlash.

5. Eng yaxshi usullarni o'rganish.

6. Maqsadga erishish.

Bularni o'quvchilar hayotiga qanday tatbiq qilib bo'ladi?

O'qish – aqliy mehnat turlaridan biri. Mamlakatimizda millionlab o'quvchilar maktablarda o'qishadi. O'qish – bu o'ziga xos xususiyatga ega mehnatdir. SHu narsa aniqki, bu mehnat ham ayni bir natijaga erishish uchun ko'p yoki oz kuch sarflanishiga qarab u yoki bu darajada samarali bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og'zaki reja tuzib olishga o'rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartibli, tejamlilik rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog'liqdir: Reja – ishdagi muvaffaqiyatning asosidir.

Reja – harakat uchun dastur.

Rejaning tarkibiy qismlari:

1. Ish maqsadini aniqlash.

2. Ish uchun nimalar kerak?

3. Ish tartibi, ish jarayoni, vaqti, joyi.

Nihoyat, ishning o'zini: uning nimadan boshlanishi, qanday borishi, nimadan keyin nima kelishini aniq tasavvur qilish kerak.

Ishni bajarish uchun eng avvalo tegishli ish o'rni kerak. Maktabdagi ko'pchilik darslar uchun parta yoki stol singari ish o'rni to'liq kifoya qiladi.

Endi ish o'rniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ish o'rnida hech qanday ortiqcha narsa bo'lmadligi kerak. Aks holda kerakli narsani topish uchun ko'p vaqt sarflanadi.

2. Ish o'rnida tozalikni ta'minlash kerak. Ish o'rni qanchalik toza bo'lsa, ishlash shunchalik oson, zavqli bo'ladi.

3. Ish o'rnida bajariladigan ishga muvofiq tartib ta'minlanishi lozim. Bizga kerak bo'ladigan hamma narsani bir tomonda (yaxshisi chapda), bajarilgan va foydalanilgan narsalarni o'ng tomonda saqlash kerak. Ko'p ishlatiladigan narsalar yaqinroq turishi kerak.

Stolda tartib saqlanishi uchun ruchka, qalam, knopka, qisqich, o'chirg'ich va maxsus qalamdondan foydalanish o'rinli. SHuni unutmaslik kerakki, sinf xonasidagi tartib, ozodalik har bir ish o'rnidagi tartib va ozodalikka bog'liq.

Bu xildagi ish jarayoni o‘quvchilarni tartiblilikka, ozodalikka, o‘z-o‘zini nazorat qilishga, qiziqib mehnat qilishga o‘rgatadi.

Sinf rahbari turli rejalar tuzib olishi mumkin: kelajakka mo‘ljallangan, ya’ni istiqbolli (yillik, bir necha yillik) va muvaqqat (oylik, haftalik, kunlik).

Xo‘sh rejaning asosiy manbai nimalardan iborat bo‘lishi kerak?

Bosh manba – hukumatimizning farmon va qarorlari, prezidentimiz I.Karimovning qator risolalari hamda xalq ta’limi tizimining rasmiy yo‘l-yo‘riqlari, hujjatlari hisoblanadi.

Rejaning yana bir muhim manbai – o‘tgan o‘quv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlilidir.

Reja quyidagi bir qator talablarga javob berishi kerak:

1. Rejaga Istiqlol g‘oyalari singdirish.
2. Rejaning shakl va yo‘nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo‘lishi.
3. Reja uzluksiz va izchil bo‘lishi.
4. Rejaning aniqligi.

Rejaning aniqligi.

Rejaga bajarib bo‘lmaydigan ishlarni kiritmaslik kerak. Ishni rejalashtirishda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish lozim. Rejada hamma narsa: ish vaqti, joyi, mas’ullar aniq bo‘lsin.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjatdir. Uni amalga oshirish uchun sinf rahbari shaxsan mas’uldir. «Sinf rahbari haqida Nizom»-da: «Sinf rahbarining ishi reja asosida olib borilishi lozim» deb belgilab qo‘yilgan.

Ishning istiqbolli rejasi sinf jamoasi tomonidan to‘plangan tajribaga qarab va sinf rahbarining o‘z vazifalariga muvofiq ravishda bir yoki bir necha yilga tuzilishi mumkin. Nizomda «Sinfning yillik ish rejasi tuziladi. Uni tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari tasdiqlaydi» deyilgan.

Rejaning ifodalash shakli juda oddiy bo‘lgani ma’qul: ishning nomi, bajarish muddati, mas’ul kishi. Reja qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Bo‘lar-bo‘lmas ishlar ro‘yxatini qalashtirib, qappaygan reja tuzishga berilib ketmaslik kerak. Rejaga faqat hayot ilgari surgan va o‘quv yili davomida muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin bo‘lgan tadbirlarigina kiritmoq lozim. Kiritilgan tadbirlar ham biri bog‘dan, biri tog‘dan olib yozilmasligi, balki ular tarbiyaviy ishlar tizimida bir- biri bilan bog‘langan, bir-birini to‘ldiradigan holda bo‘lishi zarur.

Reja o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarni ham o‘z

ichiga olishi kerak. Biz quyida sinf rahbari ish rejasining asosiy bo‘limlari va mazmunini beramiz:

I. Uquvchilar jamoasi bilan ishlash.

Uquvchini o‘rganish (o‘quvchi haqida ma’lumot to‘plash, uning aqliy, jismoniy, ruhiy rivoji, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini, tarbiyalanganlik, jamoatchilikka intilish darajalarini diagnostik dasturlar asosida o‘rganish), sinf jamoasini o‘rganish (o‘quvchilar soni, jinsi, millati, yoshi, rasmiy va norasmiy liderlar, ilg‘orlar, qoloqlar, intizomsiz va tarbiyasi qiyin o‘quvchilar, ularning sinfga ta’siri, sinfning jamoatchilik topshiriqlariga munosabati, sinfning tarbiyalanganlik, jipslik, rivojlanganlik darajalarini diagnostik dasturlar asosida o‘rganish), sinf jamoasini tashkil etish va yo‘naltirish (tashkiliy ishlar, sinf faollari bilan ishlash, umumiy ishlar ustidan nazorat, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatish, navbatchilikni, o‘zaro yordamni yo‘lga qo‘yish, gazeta tahririyati bilan ishlash, kasalmand va nogiron o‘quvchilarga g‘amxo‘rlik, vaqtli matbuot nashrlariga yozilish, mehnat harakatlarida qatnashish, sinf mulkini saqlash, kundalik rejimga bo‘ysunish va hokazolar).

II. O‘quvchilar va o‘smirlar uyushmasi («Kamolot» jamg‘armasi) bilan birgalikda olib boriladigan ishlar. Ushbu bo‘limda o‘quvchilar Yetakchisiga, «Kamolot» jamg‘armasi kotibiga ularning tarbiyaviy ish faoliyatlarida beriladigan yordamning aniq shakllari ko‘rsatiladi.

III. Sinf o‘qituvchilari bilan ishlash. Darslarda o‘quvchilarni o‘rganish (o‘quvchining darsda o‘zini tutishi, ularning o‘zlashtirmasligi, bilimdagi nuqsonlar, xulqi), o‘quvchilardagi bilim ko‘nikmalarini aniqlash (o‘quvchilar kundaliklari, daftarlarini ko‘rib chiqish, o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, o‘quvchilarning o‘quv ishlarini kuzatish, darsliklar, ma’lumotnomalar, jadvallar va hokazolar bilan ta’minlanish ahvolini o‘rganish, nutq madaniyati, uyga vazifa, kasb tanlash masalalari bilan qiziqish), o‘quvchi-o‘qituvchi munosabati (o‘quvchi bilan o‘qituvchining chiqishimligi, o‘qituvchiniig pedagogik odobga, pedagogik talablarning bir xilligiga erishishi masalalari), o‘zaro yordamni tashkil etish (qoloq o‘quvchilarni aniqlash, fan o‘qituvchisi bilan birgalikda uning saablarini tahlil qilish va tegishli tadbir belgilash, a’lochi o‘quvchilardan o‘zaro yordam harakatini uyushtirish), o‘qituvchilarga yordam berish (o‘quvchilar haqida tegishli ma’lumotlar, maslahatlar berish, fanga oid tadbirlarni o‘tkazishda ko‘maklashish).

N.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, AleksyO‘q Yu.K.Babanskiylarning tekshiruvlarida ta’lim uslublariga taalluqli ikkilamchi tur belgilarining

ta'rifi beriladi, Ular uslub-ifoda, mazmun va ta'lim usuli ekanligi isbotlab berishgan.

Gegel falsafadagi uslubni mazmun harakatining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayoiida turli xil mantiqiy tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini dedO'qtsiya, indO'qtsiya, sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish, taqqoslash taklida ifodalaydidar. Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichkn tomonini tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli tumanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi **o'quv rejalari va dasturlariga** o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasndagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof- muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv rejasi – me'yoriy hujjat bo'lib, unda har bir o'quv predmetining mazmuni ochib beriladi, muayyan o'quv yilida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

O'quv rejasida quyidagilar aks etadi: - o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta'tillarning davomiyligi; - ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlarining tartibi; - fanlarning o'qish yillari bo'yicha taqsimlanishi; - har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi; - har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi; - praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar kabilarning davomiyligi.

O'quv rejalarning quyidagi turlari mavjud: 6) tayanch o'quv rejalari; 7) namunaviy o'quv rejalari; 8) ishchi o'quv rejalari.

Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tashkiliy qismi hisoblanuvchi asosiy me'yoriy hujjat bo'lib, u namunaviy va amaliy o'quv rejalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Namunaviy o'quv rejalari tayanch o'quv rejasi asosida uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ishchi o'quv rejalari namunaviy o'quv rejalari asosida o'quv muassasalarining mavjud sharoitlarini hisobga olgan holda yaratiladi.

O'quv dasturi muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar mazmuni, umumiy vaqtning muhim bilimlarni o'rganilishi

bo'yicha taqsimlanishi, mavzular ketma-ketligining belgilanishi va ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'quv dasturlarini yaratishda: - ilmiylik; - g'oyaviylik; - amaliyot va nazariya birligi; - ta'lim va tarbiyaning o'zaro aloqadorligi; - tizimlilik; - tarixiylik; - o'quv predmetlarining o'zaro bog'liqligi; - o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish; - o'quvchilar tarbiyasining ijtimoiy maqsadlarga mos kelishi kabi tamoyillar ustuvor o'rin tutadi.

O'quv dasturlarining quyidagi turlari mavjud: 9) namunaviy o'quv dasturlari; 10) muqobil o'quv dasturlari; 11) ishchi o'quv dasturlari; 12) mualliflik o'quv dasturlari; 13) individual o'quv dasturlari.

Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirishning quyidagi shakllari mavjud: 1) muddatli (perspektiv) rejalashtirish; 2) yillik rejalashtirish; 3) yakuniy rejalashtirish.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so'nggi yillarda ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo'ljallab qabul qilinadi.

Muddatli rejada quyidagi masalalar aks etadi: 1. Rejalashtirilgan muddatda ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar. 2. Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning yillik o'zlashtirish darajasi muddatlari. 3. Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari. 4. Ta'lim muassasasini pedagogik kadrlariga qo'yilgan talablar. 5. Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish. 6. Ta'lim muassasasini tashkiliy-texnik va o'quv-metodik (qurilish ishlari axborotlashtirish, ko'rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko'lamini rivojlantirish. 7. O'qituvchi va o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

Yillik rejalashtirish butun o'quv yili hamda yozgi ta'tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o'quv yili davomida ta'lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan holda amalga oshiriladi.

- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;
- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;

- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;

- kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o'qituvchi shaxsidir.

O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng hamrovli qiziqish va mashhullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

1.3. Yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari


Pedagogik jarayon, bilamizki, pedagogik tizim asosida o'tib boradi. Pedagogik tizim - bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmuyi bo'lib, ular o'zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o'zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo'lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o'rniga yangi boshqa xususiyatli tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim - elementlarning juda mustahkam birlashuvidir. Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar variantlari yig'indisi, o'zaro bog'liqligi ko'rinishi: o'quvchi; tarbiyaning maqsadi; tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni; o'quvchilar (yoki TTV-ta'lim texnik vositalari); tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllaridan iborat bo'ladi.

Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday darajada elementlarga detallashtirib yoyib ko'rsatilishi mumkin.

Qurilgan tizimning tarkibiy tuzilishi emas, deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko'rsatib o'tilganlarga qo'shila olmaydigan pedagogik

tizimning muhim tarkibiy qismlari, «Natijalar», «O‘quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish», «Texnologiya»lardan iborat.

Ular quyida berilgan Pedagogik tizim modelida ko‘zga tashlanadi. Maqsadlar natijalar bilan mos kelib, uzluksiz sikl tashkil etiladi. Maqsadlarning natija bilan to‘la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o‘lchov ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik tizim boshqaruv, birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o‘z maqsad va tuzilishlariga ega:



Pedagogik tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida uni alohida omillar birligi ekanligini ta'kidlagan holda, ko‘pincha, o‘quv-tarbiya jarayonining texnologiyasini ko‘rsatadilar. Bunday yondashish pedagogik tizimda ko‘zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo‘ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir, Ana shu belgisi bo‘yicha pedagogik tizimni tarkibiy qismlar ixtiyoriy «to‘plamidan» ajratib olish osondir. Texnologiya bu qat'iy tashkiliy mantiqqa bo‘ysunuvchi imkoniyatlarni belgilovchi tizimning ichki sifatidir.

Shu bilan birga topshiriqni baholash darajasining o‘zidayoq texnolog ma’lum jarayonlar hamda hodisalarga tayanadi. Ma’lum jarayonlar muvaffaqiyat ifodasi, ajoyib hodisalar natijalari esa yangi sabab va formula manbalari sifatida amalga oshiriladi. O‘quv texnologiyalarni loyihalashtirish metodik «Tajribalarni umumlashtirishdan» farqli «Mumkin emas» xulosasini bilmaydi. Texnolog uchun bu faqatgina vaqt va xarajatlar masalasidir. Texnolog faqatgina yaxshi ma’lum, tekshirib ko‘rilgan, asoslangan, shubha qilinmaydigan fikrlarga asoslanadi. Texnolog tajribalar o‘tkazmay, aniq ko‘zlangan natijalar bilan ish olib boradi. Texnologiya variantlikka yo‘l qo‘ymaydi, uning asosiy vazifasi -aniq kafolatlangan natija olishdir, u har doim ham asosiy yechimida oddiydir. Asosiy yechimni tushunish qolgan hammasini, o‘zaro zarur elementlar sistemasi tartibining mazmunini

ochib beradi. Texnologiyadan hech bir qismni olib tashlab bo'lmaydi, u yerda ortiqchasi bo'lmaydi, bo'lishi mumkin emas. Bu juda murakkab holat, har ikkinchi o'qituvchi izlash - tadqiqotchilik tartibida ish olib boradi, shu bilan bolaning maktabdagi hayoti natijasi noaniqligini kuchaytiradi.

Pedagogika tizimining har bir modifikatsiyasi ko'zlangan natijaga erishish, aniq xususiyat va imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar sistemaning aniq xususiyatlari bilan belgilanadi. Bunda biz ta'lim va tarbiyadan ko'zlangan daraja va sifatga erishmoqchi bo'lsak, unda shunga mos pedagogika tizimini ishlab chiqishimiz kerak. Buning natijasi o'quv-tarbiyaviy jarayonning yana-da yuqoriroq samaradorligi, har doim pedagogik tizimni takomillashtirish oqibatidir. Bu juda murakkab muammo, ularni ishlab chiqishga dunyo bo'yicha endi kirishilmoqda.

Tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki, tizimni baravariga bir necha parametrlar bo'yicha yaxshilash mumkin emas. To'g'ri yo'l yangilikni asta-sekin, uning foydaliligiga ishonch hosil qilib, hartomonlama tekshirib ko'rib, keyingi ishlarni o'ylab kiritishdan iborat. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgariyisidan ham yomon ishlaydi. Chunki o'rganish, moslashish, sustkashlikni yengish kerak.

Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo'llari ikkita: intensiv va ekstensiv. Intensiv rivojlanish pedagogik sistemani ichki imkoniyatlar hisobiga, ekstensiv yo'l esa qo'shimcha kuchlar jalb etish - ya'ni, vositalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar hisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi. Pedagogika texnologiyaning intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblaydi: maktabning mavjudligi mingyilliklar davomidahammayo'llarni sinab ko'rib bo'lgan, tarbiya mazmuni va vazifasini, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat.

G'arb maktablari ekstensiv yo'l bilan pedagogik mahsulotni yangi informatsion texnologiyalar, vaqtni turli xil o'quv faoliyatlariga taqsimlash, sinfdagi differentsiatsiya va individuallashtirish hisobiga oshirish bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanmoqda: ko'pchilik mustaqil ekspertlar bunga ishonchsizlik bildirmoqdalar. Bu holatdan chiqish yo'li innovatsion yangiliklar deb ataluvchi, intensiv va ekstensiv yo'llarni birlashtirishga imkon beruvchi pedagogik sistema rivojlanishi hisoblanadi. Bu pedagogikaning foydalanilmagan imkoniyatlarini chuqur tekshirishni talab qiladi, ular turli

ko‘rinishdagi, turli xarakterli va turli darajadagi pedagogik tizim tashkil etuvchilari uchrashgan nuqtada namoyon bo‘ladi.

Yangi pedagogik texnologiyalami mustahkamlab, pedagogik sistema- ning umumiy samarasini yaxshilash mumkin bo‘ladi.

Agar shunday nuqtayi nazar bilan innovatsion chaqiriqlarga qaralsa ularda deyarli yangi jihatlaryo‘qdek tuyuladi. Jumladan, eski muammolarni hal etish uchun yangi «retsept»lar ham yo‘q. Umuman olganda, innovatsion g‘oyalarga insoniyat taraqqiyoti jarayoni haqidagi yangi bilimlarga asoslangan, pedagogik muammolarni hal qilishda ilgari qo‘llanilmagan nazariy yondashuvlar, aniq amaliy texnologiyalardan olingan yuqori natijalami kiritishga majburmiz.

Pedagogika fanida berilgan g‘oyalarni ishlanganlik darajasining muvofiqlik jihatlari bo‘yicha umumiy va qisman innovatsion loyihalar miqdori, shuningdek, pedagogik amaliyotda ulardan foydalanishning imkoniyatlari mavjud.

Pedagogik amaliyot tizimi quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik fan tizimi va pedagogik amaliyot yangi bo‘lmagan, biroq doimiy dolzarb va o‘zidan o‘quv-tarbiya jarayonini bitimlashtirishning umumiy g‘oyalari va amaliy texnologiyalarini o‘zida mujassam qilgan.

2. Insonparvarlik pedagogikaning barcha nazariy qoidalari va amaliy texnologiyalarining yig‘indisi.

3. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda yangi g‘oyaviy yondashuvga asoslangan.

4. Axborotlashtirish, ommaviy kommunikatsiyalashning yangi g‘oyalari va vositalarini qo‘llashga asoslangan texnologivalar innovatsion texnologiyalar hisoblanadi.

Pedagogik tizimda innovatsion tuzilmalarining bosh yo‘nalishi:

- yaxlit pedagogik tizim;
- o‘quv yurti;
- pedagogik nazariya;
- o‘qituvchi;
- o‘quvchilar;
- pedagogik texnologiya;
- mazmun;
- shakl, metodlar, vositalar;
- boshqaruv;
- maqsad va natijalardan iborat.

Tizim osti tuzilmalarning chuqurligi bo'yicha innovatsion yangi kiritmalarning mohiyati, sifati va maqsadga muvofiqligi haqida xulosa qilish mumkin.

1.4. Refleksiv - innovatsion texnologiyalar

Refleksiv-innovatsion texnologiyalarning barcha ko'rinishlarini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Yangi g'oyalar izlash bosqichi.
2. Yangiliklar yuzaga keltirish bosqichi.
3. Yangiliklar kiritishni amalga oshirish.
4. Yangiliklarni mustahkamlash bosqichi.

Yangi g'oyalar izlash bosqichi innovatsion pedagogika asoslari kursi bo'yicha axborot innovatsion sharoit yuzaga keltirish, maktab muammo va talablarini dolzarblashtirish, maqsad, yangilik yaratish g'oyalarini ifoda etish bo'yicha dastlabki ishlar, bo'lajak maktab sharoitini tasavvur etishdan iborat. Yangilik kiritishni shakllantirish bosqichi yangilik kiritish ishlarini faol ravishda loyihalashtirish, tanlangan yangiliklarni sinab ko'rish, maktabda yangiliklarni kiritish bo'yicha qaror qabul qilishdan iborat.

Yangiliklarni kiritish bosqichini amalga oshirish maktabda tajriba o'tkazish uchun sharoitlar yaratish, tajriba jarayonini tahlil qilib borish, yangilik kiritish va mazmunini tuzatib borishdan iborat bo'ladi. Yangilik kiritishni mustahkamlash bosqichi maktabning yangidan shakllantirilgan obrazini o'qituvchilar ongida mustahkamlash, o'qituvchining innovatsion harakatlarini mukammallashtirish bo'yicha psixokorreksion metodik ishlardan tashkil topadi. Barcha to'rt bosqichning asosiy maqsadi yangilikni o'zlashtirishni rivojlantirish va o'zlashtirilayotgan yangilikka subyektiv munosabatda bo'lishdan iborat.

O'qituvchilarni refleksiv-innovatsion texnologiyaga tayyorlash modeli quyidagi jadvalda keltirilgan:

Vazifalari	Pedagogik munosabat va pedagogik faoliyatning umumiy texnologiyasini takomillashtirish, innovatsion faoliyat texnologiyasini o'zlashtirish.
Mazmuni	Mualliflik dasturlarini tuzatish metodikasini o'zlashtirish. Tajriba bosqichlarini rejalashtirish, tatbiq etiladigan yangilikni tahlil qilish, rivojlantirish, yangilikni pedagogik jarayonga tatbiq etish, tuzatish, tajriba ishlari natijalarini kuzatish.

Texnologiyalari	Tashkiliy faoliyat o'yinlari. Refleks-innovatsion amaliyot mualliflik konsepsiyalarini o'rganish. Mualliflik dasturlarini tuzish. Innovatsion turdagi o'quv yurtlarida amaliy ishlar, turli xil malaka oshirishda ishtirok etish. Pedagogik ustaxonalar.
Daraja	Psixologiy tayyorgarlik metodologik tus oladi, reffektiv-analitik mahorat, yuqori mas'uliyat, ijodiy faoliyat rivojlanadi.

Ilgari aytilganidek, muhokama qilinayotgan texnologiyalarni tatbiq etish innovatsion sharoit maktab muammolarini dolzarblashtirishdan boshlanadi. Buning asosi innovatsion pedagogika bo'lib, u o'quvchilarni innovatsiya asosiy bo'limlari bilan tanishtiradi. Bular: neologiya, aksiologiya, varaksiologiya. Bu kursning asosiy vazifasi faqatgina o'qituvchi innovatsion faoliyatining sabab, omil, to'siqlarini ochib berishgina emas, balki yangilikni qabul qilish uchun psixologik tayyorgarlikni yuzaga keltirish, pedagogik innovatsiyalarni qabul qilishni ham rivojlantirdi. Ijodiy faoliyat psixologik qonuniyatlarini yechish, izlash, tanlash mexanizmini o'rganish, treningli ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Dasturning asosi shaxsning o'zini ijodiy rivojlantirish tamoyilidan iborat. Qachonki subyekt o'z faoliyatida faqatgina namoyon bo'lib va ko'rsatibgina qolmay, balki ijodkorlik qilsa va aniqlasa, uning faoliyati vo'nalishiga qarab uning o'zini aniqlash va shakllantirish mumkin (S .L.Rubinshteyn).

Innovatsion pedagogika asoslari bo'yicha dasturning asosiy bo'limlari innovatsiya, yangilik, ta'limning innovatsion jarayonlari, o'qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishi, yangilik kiritish texnologiyasi tushunchalarini ochib berishga mo'ljallangan.

Ushbu kursda o'ziga xoslik sifati bilan ajralib turuvchi pedagogik g'oyani ta'riflashga mualliflar turli ta'lim modellari orqali yondashgan.

Eng avvalo ommaviy pedagogik harakatlar, gumanistik pedagogik rivojlanishgaturtki bergan konsepsiya va ta'lim metodlari o'rganib chiqiladi, o'quvchilar turli o'quv yurtlarini o'rganadilar, ularning maqsadi, tashkiliy tizimi o'ziga xosligi, ta'lim va tarbiya mazmuni, amaliy tajribalarini o'rganish bilan shug'ullanadilar.

Asosiy e'tibor mualliflik dasturi, ta'lim va tarbiya konsepsiyalari yaratish darajasida pedagogik tajribalar ishlab chiqish va o'tkazish texnikasiga qaratiladi. O'quvchi amaliy faoliyati konsepsiyalarini o'rganish, qoida, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, haqiqiy muqobil o'quv yurtlari bilan tanishish kabi ishlar olib boriladi. Bakalavriat, ayni magistraturada bo'lajak pedagoglar shu kabi konsepsiya ishlab chiqish bo'yicha ijodiy

jamoaga jalb etiladilar. Kurs dasturi 120 soatga mo'ljallangan bo'lib, 10 ta nazariy bo'limlardan iborat va ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil tadqiqot ishlarini tashkil etishni ko'zda tutadi. Ma'ruza mashg'ulotlarida innovatsion pedagogika asosiy muammolarini yagona tushunishini ta'minlovchi, keyingi mustaqil ishlari uchun metodologik va ilmiy asoslar yaratuvchi eng umumiy nazariy savollar o'rganiladi.

Kursni yana-da mukammal o'rganishni belgilaydigan muhim nazariy bo'lim innovatika asosiy qoidalariga bag'ishlangan.

Ta'limda yangiliklar kiritish mohiyati nimadan iborat? Ularni qanday tahlil qilish kerak?

Shu tariqa kurs boshlanishidan asosiy konseptual g'oyalar, innovatika qoidalari ko'rib chiqiladi, innovatsion jarayonning ba'zi metodlari va bu jarayonga ta'siri bayon etiladi. Bu keyingi mustaqil ishlari uchun vazifa qo'yish imkonini beradi, seminar mashg'ulotlari innovatsion pedagogika asosiy g'oyalarni tushunishga, bolalarni tarbiyalash va o'qitish modellarining muqobil turlarini o'rganish asosida analitik mahorati konseptual yondashishni yuzaga keltirish, nazariy bahslardan iborat bo'ladi. Seminar mashg'ulotlarida turli konsepsiyalarni tahlil asosida muqobil ta'lim ba'zi modellariga daliliy baho beradilar. Laboratoriya mashg'ulotlari o'quvchilarning innovatsion turdagi maktablarda ishlashga tayyorgarligini yuzaga keltirish, yangilikni ishlab chiqish va o'zlashtirish texnologiyasi bilan tanishish, pedagogik tajribani tashkil etish metodikasi, mualliflik dasturini tuzishga yordam beradi. Laboratoriya mashg'ulotlarida ijodiy faoliyat to'siqlarini olib tashlash bo'yicha psixologik trening o'tkaziladi.

Maktabda amaliyot o'tkazish o'quvchilarini pedagogik jarayonga faol ishtirok ettirish, ularni individual talablariga tayanib innovatsion pedagogika tamoyillarini tashkil etish, ularga ta'lim shakli va mazmunini tanlash erkinligini berish, o'z nuqtayi nazarlari va suhbatini dolzarblashtirish asosida o'quv muammolarini yechish, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda kommunikativ guruhlar tashkil etishni ko'zda tutadi. O'quvchilarning bakalavriat va magistratura bosqichlarida mustaqil ishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega: ikkinchi bosqichda u ko'p jihatdan mavjud ta'lim loyihalarini mustaqil tushunish bilan bog'liq; uchinchi bosqichda u o'z shaxsiy ijodiy mahsulotini yaratish, individual yoki ijodiy jamoada muqobil maktab konsepsiyasi ishlab chiqish bilan bog'liq.

Innovatsion pedagogika asoslari kursini amalga oshirish pedagogik o'quv yurtlarida mavjud shartlarga ko'ra ikki variantni ko'zda tutadi:

1) hamma o'quvchilar uchun asosiy qismlar bo'yicha kursni tizimli o'tish va tadqiqot ishlari mavzusini mustaqil tanlash, ularga yakka holda maslahatlar berish;

2) innovatsion pedagogikaning eng muhim muammolari bo'yicha yo'naltiruvchi ma'ruza va seminar o'tkazish.

Ta'lim va tarbiyaning alohida muqobil modellari va ularga mos maktab turlarini o'rganish o'quvchilarning qiziqishi va layoqatidan kelib chiqib, ularning tanlovi asosida amalga oshiriladi. Dasturning birinchi varianti bakalavriat uchun ko'proq to'g'ri keladi, ikkinchisi esa magistratura uchun. Umuman olganda, variantni tanlash o'quvchi va o'qituvchi xohishiga bog'liq bo'ladi. Asosiy maqsad yangiliklarga ijobiy munosabat va o'z mualliflik dasturini ishlab chiqish va tatbiq etish istagini rivojlantirishdan iborat. Chunki innovatsion texnologiyalarni egallash faqatgina o'quvchilar o'z faoliyati, o'z kamchiliklari va qarama-qarshiliklarni ko'rib va o'rganganlarida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun innovatsion pedagogika asoslari kursini o'rganishda kurs ishlari yozish bilan bir vaqtda olib borish to'g'ri bo'ladi. Bunday ta'lim berish yangilik kiritishning maqsadini aniq belgilash, haqiqiy va mumkin bo'lgan yangilik manbalarini aniqlash, muammoni ifoda etish imkoniyatlarini beradi. Innovatsion pedagogika asoslari kursini o'qitish va tatbiq etish birga olib borilganda ma'noga ega bo'ladi. Agarda o'qitish jarayoni o'quvchilarning shaxsiy amaliy muammolarini tahlil qilish va yechish asosida tashkil etilmasa, unda faqatgina innovatsion faoliyat uchun shart- sharoit yaratishgina mumkin.

Kursni o'rganishning muhim omili bo'lajak pedagoglarning yangilik- larning ijtimoiy-madaniy muammolarini tushunib yetishlari, bu esa yangilikni ishlab chiqish va tatbiq etish yo'llaridagi to'siqlarni yenga olishga, maktab rahbariyati va kasbdoshlari o'zaro munosabatlari dinamikasining hamda boshqa o'zgarishlarning uzluksiz reaksiyasini ko'ra bilishga imkon beradi. Ko'rsatilgan o'qituvchi-innovator sifatlari shakllanishi quyidagi asosiy savollarni tushunib yetishni ko'zda tutadi:

Innovatsion faoliyat samaradorligini amalga oshirish omillarimalardan iborat?

Innovatsion dasturni qanday ishlab chiqish mumkin?

Yangi g'oyalarni tatbiq qilish metodlarini qanday qo'llash kerak?

Yangilikni kasbdoshlar, ota-onalar, o'quvchilar, maktab rahbariyati qanday qabul qiladi?

Innovatsion salohiyatni yangilik kiritish samaradorligi omili sifatida qarasaq, bu jarayon ishtirokchilari turli roliarini muvofiqlashtirish, ishtirok- chilar harakatlariga maqsadga muvofiq ta'sir etish imkoniyatlari nazariy jihatdan yuzaga kelishi mexanizmini to'g'ri tushunishga bog'liq bo'ladi: tashabbus, ko'maklashish, qarshilik yoki befarqlik, ma'lumki, bu savollar pedagogik fanlarda maxsus o'rganilmaydi, bu talablarda innovatsion jarayon qarama-qarshiliklarsiz va kurashsiz, vakuumda sodir bo'ladigan jarayon sifatida taassurot yuzaga keltiradi. Bu yangiliklarni shakllantirish bosqichini biz reflektiv-innovatsion amaliyotda amalga oshirdik. Reflektiv - bu qayta anglashdir. Reflektiv muhit yaratish o'qituvchiga nisbatan alohida, juda yaxshi sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Unda faqatgina uning shaxsiy va intellektual tajribasi yetarli emas, balki maqsadga erishish yo'lida o'ziga xos to'siq (faqatgina vosita emas) bo'ladi. Shu bilan birga muammoli intellektual qarama-qarshilik sifatida ochiladi. Ma'lum bilim va mahoratlar to'qnashuvi ko'rinishida dolzarblashadi. Bu innovatsion vaziyat sharoitlari xususiyatlari bilan pedagog o'ziga tushunarli harakat usullarini amalga oshiradi. Shu bilan birga uni yechishda nizolar yuzaga keltiruvchi xususiyati aniqlanadi. Ya'ni, o'qituvchining shaxs sifatida yuzaga kelgan harakat usullari bilan unga aniq bir vaziyatda ko'rsatilgan haqiqiy talablar o'rtasidagi shaxsiy xususiyatdagi qarama-qarshiliklar. Shunday qilib, muammoning mohiyati hal etish jarayonida men ifodasi bilan (ya'ni, intellektual va shaxsiy iboradagi) yangilik kiritish jarayonining talab hamda harakatlari o'ziga xosligi o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklardan iborat bo'ladi. Bu qarama-qarshilik mustaqil natijada yangilik ochishga olib keladi va bir vaqtning o'zida fikrlashni qayta tashkil etish, shaxsning faol qayta shakllantirishdan iborat shaxsiy va intellektual rivojlanish sifatida sodir bo'ladi. Ijodiy faoliyatda yangilikning yaratilishi shaxsda maxsus yangiliklar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi, u o'qituvchi o'zi haqidagi tasavvuri o'zgarishidan iborat bo'ladi.

Reflektiv innovatsion amaliyot o'qituvchi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilib, bunda pedagogik fanda faqatgina yangilik yaratish qobiliyatigina emas, balki o'z-o'ziga, o'z mehnatiga, bolalarga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman hayotga o'ziga xos ijodiy munosabatda bo'lishtushuniladi. Bular o'qituvchi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki zamonaviy vaziyatlar murakkabligi dinatizmi undan odatiy mutaxassislik ko'nikmalardan xoli bo'lish, erkinlikni talab qiladi. Shu bilan birga o'qituvchi innovatsion faoliyatini ko'rsatuvchi xususiyati bu yuzaga kelgan vaziyatda maksimal ravishda

erkin bo‘lish va maktabda yangilikni joriy qilishni o‘zi belgilay olish qobiliyati hisoblanadi. Bu bosqichda innovatsion harakatlar rivojlanish jarayonini biz shunday tasavvur qilamiz: yangiliklarni yaratish va joriy **qilishga** qarshilik qiluvchi bir xildagi odatlarni buzish va qayta tuzish.

Xususan, eski odatlarni buzish ularni yo‘q qilib yuborish emas, chunki ular osonlik bilan yangilari bilan almashtiriladi. Ushbu bosqichda innovatsion harakatlarni yuzaga keltirish uslublariga quyidagilarni kiritish mumkin: polilog, munozara, refleksiv inversiya, intervyu. S.N.Maskov fikricha ijodga o‘rgatish, ijobiy qobiliyatlarni yuzaga keltirish mumkin emas, xuddi qandaydir ko‘nikma yoki bilim va mahoratlar yig‘indisi sifatida ijodda chiniqqanlik, ijodiy qobiliyatlarni taraqqiy qilish zarurligini bildiradi. Ana shu g‘oyani biz katta kurs o‘quvchilari bilan refleksiv-innovatsion amaliyoti mavzusida kiritdik. Amaliyotda metodologik va metodik mavzuga birgalikda ijod qilishni yoyish refleksiv muhit g‘oyasiga tayandik.

Asosiy masalalardan biri qulay innovatsion muhit yaratishdir. Refleksiv innovatsion amaliyot ishtirokchilari haqiqiy pedagog sharoitda bo‘lishlari sababli, qisqa vaqt ichida ilgarigi stereotiplarni bartaraf qila oldilar. Refleksiv innovatsion amaliyot ilgarigi tajribani dolzarblashtirish, uni qayta anglash bo‘lajak maktabning yangi muammo va munosabatlarini aniqlash uchun imkon berdi. Asosiy masalalardan biri o‘z-o‘zini va o‘z faoliyatini qayta anglash jarayonini yangiliklar yaratish sohasiga yo‘naltirishdir. Qayta anglashga talab nizoli vaziyatga duch kelganda paydo bo‘ladi, unda ilgarigi tajriba tubdan o‘zgargan sharoitlarda mutaxassislik sohasida kerakli natijalarni ta’minlashga qodir bo‘lmay qoladi. Ushbu vaziyatni ijodiy inqiroz sifatida ifoda etish mumkin. Buning ijobiy tomoni shundan iboratki, inqiroz holati yangilik izlashga yordam beradi, ammo bunga erisha olinmasa, unda vaziyatning keyingi rivojlanishi o‘zi barbod bo‘lishiga olib keladi. Alohida ijodiy muhit yaratash natijasida ushbu muammo bo‘yicha ma’lumot va tajriba almashish sodir bo‘libgina qolmay, undan tashqari, alohida birga ijod qilish muhitini yaratish hisobiga yangi fikrlarga, beg‘arazlikka erishiladi, u keyinchalik innovatsion faoliyat asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, refleksiv innovatsion amaliyotni amalga oshirish quyidagi masalalarni hal etadi:

1. Munozarani rivojlantiradi.
2. Tez o‘zgaruvchi sharoitlarga o‘qituvchilar moslashuvini ta’minlaydi.
3. Yangiliklarni taxmin qiladi.

1.5. An'anaviy va innovasion ta'limning qiyosiy tahlili

Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvga kirib borishini taqozo etmoqda. O'qitish muammolari nafaqat pedagoglar, sotsiologlar, balki faylasuflar, psixologlarning ham diqqatini o'ziga qaratmoqda. «Innovatsiya» tushunchasi o'zining asosiy mazmun- mohiyatiga ko'ra yangiliklarni kiritish, ularni tarqatishni emas, balki bu faoliyat bilan bog'liq bolgan ta'limdagi faoliyat o'zgarishlarini, fikrlash yo'llarini ham o'z ichiga oladi.

Innovatsion ta'lim o'quvchini jamiyatda o'zgarishlarini qabul qila oladigan, ijodkor, ishbilarmon qilib tarbiyalaydi. Innovatsion ta'limning asosiy mohiyati quyidagi lardan iborat: ta'limning ochiq istiqbol, qadriyatlam baholay olish, yangi vaziyatlarga kirisha olish.

Innovatsion ta'lim qirralari quyidagi jadvalda keltirilgan:



Bu holat o'qituvchidan pedagogik faoliyatdagi innovatsion xulqni talab etadi.

V.A.Slastenin va L.S.Podimovalarning ishlarida keltirilgan psixologik nazariyaga oid ma'lumotlarga ko'ra o'qituvchilarning innovatsion faoliyatiga xalaqit beruvchi quyidagi sabablar mavjud:

1. Pedagog tomonidan tanaffuslarning maqsadi tushuntirilmasligi. Noaniqlik va ikkifikrlilik o'qituvchida yangilikka nisbatan qo'rqinch hissini uyg'otadi.

2. Yangilikning kiritilishi va amalga oshirilishida pedagoglarning ishtirok etmasligi.

3. Jamoada mavjud an'analarni hamda ishlash uslubining o'zgarishi.


4. Yangiliklarga subyektiv yondashuv.

5. Ish hajmining ortishi. Bu holatning bo'lish xavfi asosan tajriba rahbarining faoliyati oldindan rejalashtirilganligi.


6. Yangilikni olib kiruvchi nisbatan ishonchsizlik, hurmatning talab darajasida emasligi. Afsuski, o'qituvchilar asosan yangilik mazmuniga

emas, balki uning muallifiga e'tibor qaratishadi. Agar bu muallif jamoada hurmatga, e'tiborga ega bo'lmasa, bu o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

V.A.Slastenin va L.S.Podimovalarning pedagogning kasbiy tayyorgarligi, uning qarashlarining innovatsion tizimi, yangiliklarni ular tomonidan tavsiya etilgan texnologik xarita quyidagi modellar yordamida aniqlashtirigan:



Kasbiy tayyorgarlikning 2-bosqichida o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi



Ta'lim o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi bilan bog'liq, ko'p darajali ta'lim agar OTM da shaxsga yo'naltirilgandagina o'z samarasini beradi. Afsuski, hozircha o'quv dasturlari faqatgina bilim, malaka va ko'nikmalarning hajmini ko'rsatib, o'ziga xos tinglovchilarning individual xususiyatlaridan qat'i nazar o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan o'ziga xos axborot tizimidan iborat bo'lmoqda.

Ularning ko'pchiligida innovatsion faoliyatning asosini tashkil qiluvchi shaxsiy sifatlarinirivojlantirishga kam e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham mahoratni egallash uzoq yillarga (oliygohni bitirgandan so'ng) cho'ziladi va ko'pgina hollarda katta qiyinchiliklar, ko'p mehnat evaziga erishiladi. Bundan xulosa shuki, o'quvchilarning qobiliyatlarini differentsiyalashga xizmat qiladigan, shaxsiy xususiyatlarini yuzaga chiqaradigan o'rganuvchi muhit qanchalik erta yaratilsa, yangiliklarni kiritish jarayoni shunchalik tezlashadi va osonlashadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tashkil etilishi o'quv dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'limning turli bosqichlaridatayanch tayyorgarligiga nisbatan talablarning qo'yilishi turlicha tavsiflanadi. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etishiga ko'ra o'quv dasturining baholanishiga munosabat bildiradi. Psixologik-pedagogik fanlarda bo'lajak o'qituvchi-innovatorning shaxsiy sifatleri: tashabbuskorlik, mustaqillik, refiektivlik, natijaning yaxshilanishi, o'z imkoniyatlarini adekvat baholash, tanqidiy tahlil shakllanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, OTM bitiruvchilari faqatgina bilim, ko'nikma va malakalari bilangina farq qilmaydilar. Bir xil ta'lim muassasalarini tugatgan bitiruvchilar turli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lib, bu holat ularning kasbiy o'sish darajalarini ham belgilaydi.

Yaxshi o'zlashtirilmagan bilimlarni o'z ustida ishlab to'ldirish mumkin, lekin kasbiy ijodkorlikni tarbiyalash ancha qiyin kechishini qayd etish lozim. Buning uchun ta'limiy dasturlar talab etiladi.

Agar bilim yetarli bo'lmasa, uni o'qib-o'rganish mumkin, biror kasbiy ijodkorlik haqida bunday ish qilish qiyin kechadi. Inson xulqida bunday sifatlarni shakllantirish uchun maxsus dasturlar asosida ularni modellashtirish va qabul qilishni amalga oshirish mumkin. Bizningcha, bu jarayonda unchalik qiyin bo'lmagan psixotreninglar, innovatsion o'yinlar, refleksiv amaliyotlar o'qitishning asosiy vositalari bo'lishi darkor.

Ilmiy bilimlarni o'zlashtirish mobaynida yuqorida keltirilgan metodologik yondashuvlar xilma-xildir. Bunday holatlarning bo'lishi saralash, ta'minlash asosida amalga oshadi.

Tabiiyat, jamiyat qonuniyatlarini o'rganish metodologik yondashuvning xilma-xilligini aniqlaydi.

Aytish lozimki, ilmiy metodologiyada hech bir yondashuv rad etilmaydi va hech biri asosiy o'ringa chiqmaydi. Ularning har biri yordamida umumiy tarzda obyektiv borliq qonuniyatlarini o'rganish mumkin.

1.6. Innovatsion faoliyat – ta'lim sifatining kafolatidir

O'zbekiston Respublikasining 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-sonli Innovatsion faoliyat to'g'risida Qonuni qabul qilingan. 6 bob 39 moddadan iborat.

Innovatsion faoliyat — to'plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlari majmui. Yangi yoki qo'shimcha tovarlar/xizmatlar yoki yangi xususiyatlarga ega tovarlar/xizmatlar innovatsion faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish, tarqatish va ulardan foydalanish faoliyati sifatida ham belgilash mumkin^[1].

Innovatsion faoliyat — ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) nomenklaturasini kengaytirish va yangilash va sifatini yaxshilash, ularni tayyorlash, keyinchalik ichki va xorijiy bozorlarda joriy etish va samarali amalga oshirish texnologiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini ishlatish va tijoratlashirishga qaratilgan, birgalikda innovatsiyalarga olib keladigan ilmiy, texnik, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlarini kompleksni nazarda tutuvchi faoliyat^[2].

Turlari va shakllari [\[tahrir | manbasini tahrirlash\]](#)

Innovatsion faoliyatning bir necha turlari mavjud:

Ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI);

Yangi foydali xususiyatlarga ega mahsulotlarni yaratish;

Texnologik innovatsiyalar: mavjud mahsulot, buyum, texnikani yangi yoki samarali ishlab chiqarishni olish; ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil etish, yangi mahsulotni ishlab chiqarish yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish va sifat nazorati taomillari, usullari va standartlaridagi o'zgarishlar;

1. Jarayon innovatsiyalari: ishlab chiqarishni loyihalash, ishlab chiqarishning yangi usullari, yangi ishlab chiqarish jarayonlari, shu jumladan rejalar va chizmalarni, texnik spetsifikatsiyalar va boshqalar dizayni va ishlab chiqish;

2. Tashkiliy yangiliklar — menejment tizimini takomillashtirish;

3. Amalga oshirilgan texnologiyalar — o‘z texnologik maqsadiga ko‘ra texnologik va boshqa innovatsiyalarni joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan mashina va uskunalarni sotib olish;

4. Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellardan foydalanish, nou-xauni oshkor qilish, shuningdek texnologik mazmundagi xizmatlardan foydalanish uchun patent, litsenziyalar (shartnomalar) shaklidagi amalga oshirilmagan texnologiyalarni xarid qilish; texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq dasturiy vositalarni xarid qilish;

5. Xodimlarni o‘qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

6. Marketing innovatsiyalari — mahsulotlar dizayni va qadog‘idagi muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan marketing usullarini amalga oshirish, mahsulot (xizmatlar) ni sotish va taqdimoti, ularni marketing bozorlarida taqdim etish va targ‘ib qilish, yangi narx strategiyalarini shakllantirishning yangi usullarini qo‘llash.

Innovatsiya jarayonida amaliyot va fanning o‘zaro ta’siri ham fandan amaliyotga, ham aksincha - amaliyotdan fanga yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Birinchi holda, biz innovatsiya va joriy etish faoliyati haqida, ikkinchisida - innovatsiya va tadqiqot haqida gapiramiz.

O‘qituvchilarning innovatsion va amalga oshirish faoliyati moslashuvchan. Uning mohiyati yangi ilmiy g‘oyalar, tamoyillar, pedagogik texnologiyalar mazmunini muayyan ta’lim muassasasi sharoitlariga moslashtirish va integratsiya qilishdan iborat. Shu bilan birga, joriy etilayotgan, professional olimlar tomonidan ishlab chiqilayotgan yoki amaliyotchilar tomonidan yaratilgan innovatsiyalar ilmiy ekspertizadan o‘tishi kerak[1].

Pedagogik xodimlarning innovatsion ilmiy-tadqiqot faoliyati g‘oyaning o‘zini ham, uni amaliy amalga oshirish yo‘llarini ham mustaqil rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatdir. Innovatsiya va amalga oshirish faoliyatidan farqli o‘laroq, bu erda g‘oyalar manbai amaliyotning o‘zidir [2].

Ushbu turdagi innovatsion faoliyatning samaradorligi, agar ular birlashtirilgan bo'lsa va ulardan ikkinchisi birinchi turdagi faoliyat uchun birinchi qadam bo'lishi mumkin bo'lsa, ularning samaradorligi ortadi.

Uslubiy ish va pedagogik jarayonning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan innovatsion ishlar samarasiz: u tizimsiz - uning alohida shakl va turlari parchalangan. Innovatsiya va joriy etish o'rtasida etarli darajada bog'liqlik yo'q

va innovatsion va tadqiqot faoliyati. Innovatsion ishlar o'qituvchilar va maktab rahbarlarining ijodiy tashabbusini yanada rivojlantirish va pedagogik jarayonni takomillashtirishga yetarli darajada rag'batlantirmayapti.

Amalda, innovatsion ish ko'pincha o'quvchilarning ehtiyojlarini, o'qituvchilar va maktablarning kasbiy ehtiyojlarini, jamiyatning ijtimoiy-psixologik sharoitlarini hisobga olmasdan, innovatsion pedagogikaning ba'zi "moda" yo'nalishlarini tasodifiy kiritishga urinishlar bilan bog'liq. Innovatsion faoliyatning mavzulari va yo'nalishlari ko'pincha faqat maktab rahbarlari yoki o'qituvchilar ishtirokisiz ta'lim organlari xodimlari tomonidan belgilanadi.

Hozirgi innovatsion ish tizimida o'qituvchi va rahbarlarni rag'batlantirishning ichki mexanizmlari, shaxsning ijodiy faolligi, uning talab va qobiliyatlari, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatlari e'tibordan chetda qolmoqda yoki yetarlicha baholanmaydi.

Innovatsion ish va uning natijalarini loyihalash va baholash jarayonida o'qituvchilar ko'pincha passiv bo'lib qoladilar. Innovatsion faoliyat ishtirokchilari o'z faoliyatining introspeksiyasini, aksini tashkil qilmaydi.

Ta'lim sifatini real oshirishning muhim vositalaridan biri, bizningcha, binar-refleksiv asosda keng qamrovli innovatsion ishdir. Binar-refleksiv yondashuv tushunchasi innovatsiyada shuni anglatadi

Pedagogik faoliyat o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro ta'sir qiluvchi jarayon sifatida, introspektsiya va mulohaza yuritishning tarkibiy jarayonining sub'ektivligi sifatida diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Ushbu tushunchaga asoslanib, binar-refleksiv yondashuvga asoslangan murakkab innovatsion ish innovatsion ishlarning yangi tizimidir.

Bunday tadbirlarning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirishga, shaxsni samarali ijtimoiylashtirishga, umumta'lim muassasasi bitiruvchilarini pedagogik jarayonga tayyorlashga qaratilgan innovatsiyalar majmuasini (ya'ni, innovatsiyalar tizimli bo'lishi kerak)

maqsadli ravishda joriy etishdir. zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'lim va mehnatni muvaffaqiyatli davom ettirish;

Texnologiya ikki tomonlama (ikki tomonlama) jarayon bo'lgan o'quv jarayonining mohiyatiga asoslanadi, ya'ni. o'qituvchi, o'qituvchi (o'qituvchi) faoliyati va tinglovchilar (o'qituvchi) faoliyatidan iborat va shunga muvofiq:

- maktab muammolari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tegishli va istiqbolli yo'nalishlar majmuasida o'qituvchilarning innovatsion-tatbiq etish va innovatsion-izlanish faoliyatini tashkil etish hamda barcha pedagogik yangiliklarni tizimli tahlil qilish to'g'risida;

- pedagogik xodimlarning innovatsion faoliyatini ham, bu ishda maktab rahbarlarining rolini ham bosqichma-bosqich baholash to'g'risida;

- loyihalash jarayonida faol ishtirok etish, tashkil etish; innovatsion ishlarning samaradorligi va boshqa bosqichlari va uning natijalarini, ham maktab rahbarlari, ham o'qituvchilari va o'quvchilari uchun diagnostika qilish;

- innovatsion faoliyat ishtirokchilari (rahbarlar va o'qituvchilar) tomonidan introspeksiyaning tashkil etish, ularning faoliyatini aks ettirish.

Umumiy ta'lim muassasasi bitiruvchisining ta'lim sifati quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

1. Kasbga e'tibor qaratish (kasbga qiziqishning mavjudligi, kasbni egallash uchun barqaror maqsadning mavjudligi, kasb-hunar ta'limi muassasasiga kirishdagi muvaffaqiyat, kasb-hunar ta'limi muassasasida kadrlar tayyorlashning samaradorligi va sifati, ya'ni muvaffaqiyati. kasbni egallash).

2. Profil va umumiy ta'lim kompetensiyasi (universitetga, boshqa kasb-hunar ta'lim muassasalariga kirishda va keyingi ishda asosiy bo'lgan fanlar bo'yicha bilim, ko'nikmalarning yuqori darajasi; boshqa fanlar bo'yicha bilim, ko'nikmaning yetarli darajasi).

3. Ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga molik fazilatlarining shakllanish darajasi (masalan, kommunikativ fazilatlar, tashkilotchilik qobiliyatlari, tadbirkorlik (shu jumladan, oqilona tavakkal qilish qobiliyati) va boshqalar).

4. Shaxsiy fazilatlar (masalan, ijodkorlik - muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati, aks ettirish qobiliyati, o'zini o'zi anglash qobiliyati, ishlash (shu jumladan sog'liq) va boshqalar).

Integratsiyalashgan innovatsion faoliyatning asosiy yo'nalishlari
Ikkilik-refleksiv asosda o'rta maktab o'qituvchilari:

a) innovatsion ishlarning maktab ehtiyojlari hamda pedagogika fani va amaliyoti yutuqlarini hisobga olgan holda joriy va istiqbolli pedagogik innovatsiyalarni kompleks tatbiq etishga qaratilganligi;

b) ta'limni rivojlantirishning tezkor va strategik vazifalarini hal etishga qaratilgan innovatsiyalarning to'liqligi va etarliligi;

v) demokratik munosabatlar va innovatsion faoliyat sub'ektlari (rahbarlar, o'qituvchilar, o'quvchilar) maqomining tengligi;

d) pedagogik xodimlarning innovatsion faoliyatini baholash jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;

e) maktabda innovatsion-tadqiqot va innovatsion-tadqiqot ishlarining axborot bazasining birligi va murakkabligi (har bir vazifani hal qilish uchun yangi axborot fayllarini yaratishda yuzaga keladigan ma'lumotlarni asossiz takrorlash istisno qilinadi);

f) innovatsion imkoniyatlar majmuasini pedagogik amaliyotga joriy etish maqsadida tanlashda ularni yaxlit o'rganish;

g) innovatsion-rag'batlantirish va innovatsion-tadqiqot faoliyati jarayonida axborotni standartlashtirish va tizimlashtirish;

h) innovatsion faoliyatning asosiy bosqichlarini avtomatlashtirish (agar tegishli dasturiy mahsulotlar mavjud bo'lsa, innovatsiya va innovatsiyalarning asosiy bosqichlarini avtomatlashtirish mumkin.

kompyuter vositalariga asoslangan joriy etish va innovatsion-tadqiqot faoliyati).

Binar-refleksiv asosda kompleks innovatsion ishlar ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon sifati samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biridir.

Umumta'lim maktabida ta'lim sifatini oshirishga ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini (maqsadli, rejalashtirilgan va prognostik, mazmun-tashkiliy, kommunikativ, nazorat va tahliliy) asosiy va asosiy ta'limni sifatli shakllantirishga yo'naltirish asosida erishiladi. samarali ijtimoiylashuvga qodir bo'lgan shaxsning vakolatlari. Maktabning innovatsion resurs yordami ham ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Mezonlar tizimini ajratib ko'rsatish kerak. Mezonlar ko'rsatkichlar tizimlarida konkretlashtiriladi, ularda ob'ektning tahlil qilinadigan xususiyatlari namoyon bo'ladi. Mezon ob'ektning ma'lum bir xususiyati mavjudligi yoki yo'qligini baholash uchun standartlar tizimi sifatida ishlatiladi.

O'rta maktabda innovatsion ishlarning sifati va samaradorligini baholash va o'zini o'zi baholashning asosiy mezonlari:

a) maktabning yakuniy natijalari sifatini baholash va o'zini o'zi baholash mezonlari:

- bitiruvchining kasbga yo'naltirilganlik darajasi (kasbga qiziqish darajasi, barqaror maqsadning mavjudligi - kasbni egallash);

- yuqori darajadagi ixtisoslashtirilgan kompetentsiya (mavzu bo'yicha yuqori darajadagi bilim, ko'nikmalar universitetga kirishda profilni aniqlash);

- bitiruvchining umumiy ta'lim kompetensiyasi darajasi (kasbiy ta'lim muassasasiga kirishda noprofessional bo'lgan fanlar bo'yicha bilim, ko'nikmalarning etarli darajasi);

- kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlar darajasi (masalan, kommunikativ fazilatlar, tashkilotchilik qobiliyati, tadbirkorlik ruhi va boshqalarning shakllanish darajasi);

- umumiy shaxsiy fazilatlar darajasi (o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati, ijodkorlik, muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati, ishlash, shu jumladan salomatlik va boshqalar);

- maktab bitiruvchisining kasb-hunar ta'limi muassasasida (universitet, o'rta kasb-hunar ta'limi muassasasi) muvaffaqiyati;

b) maktabdagi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash va o'z-o'zini baholash mezonlari:

- samarali ijtimoiylashuvga qodir shaxsni shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniqlash sifati;

Samarali sotsializatsiyaga qodir shaxsni shakllantirishga qaratilgan umumiy ta'lim jarayonini tashkil etish sifati (o'qituvchi tomonidan asosiy bilimlarni yangilashni tashkil etish sifati, o'qituvchi tomonidan bilimlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish sifati). 1, 2, 3-darajali bilimlar, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish sifati, o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash);

v) innovatsion faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari (bosqichlari) sifatini (samaradorligini) baholash va o'zini o'zi baholash mezonlari:

— maktab amaliyotini aks ettiruvchi tahlil sifati;

— innovatsiyalarni tizimli tahlil qilish sifati;

— innovatsiyalarni tanlash sifati va boshqalar;

d) innovatsion ishlarni resurs (kadrlar, materiallar, axborot) bilan ta'minlash sifatini baholash va o'zini o'zi baholash mezonlari:

- o'qituvchining innovatsion ish uchun tayyorgarligi sifati;

— innovatsion ish uchun o'quv, moddiy va axborot resurslarining sifati va yo'nalishi.

Umumiy ta'lim maktabida binar-refleksiv asosda samarali innovatsion ish olib borishning asosiy tashkiliy-pedagogik shartlari quyidagilardan iborat:

— mazkur faoliyatni me'yoriy-huquqiy va rejalashtirish va prognostik ta'minlash;

– loyiha faoliyati va zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish;

— jamoani yangi sharoitlarda ishlashga rag'batlantirish va texnologik tayyorlash.

Maktabda innovatsion ishlarning yangi tizimining samarali faoliyat yuritishida pedagog va rahbar xodimlarni yangi sharoitda ishlashga texnologik tayyorlash muhim o'rin tutadi. Innovatsion faoliyatning yangi tizimining sub'ektlari innovatsion ishlarning zamonaviy texnologiyalarini o'zlashtirishlari kerak. O'qituvchi va rahbarlar psixologik-pedagogik diagnostika, yutuqlarni tizimli tahlil qilish texnologiyalarini o'zlashtirishlari kerak

pedagogika fani va amaliyoti, ularning natijalari, maktabning innovatsion resurs ta'minoti. Innovatsion pedagogik va boshqaruv faoliyatini va ularning natijalarini baholashning yagona mezonlarini belgilash muhim rol o'ynaydi. Yangi tizim sub'yektlarini innovatsion ishiga sifatli tayyorlash maqsadida maxsus seminar va maslahatlar o'tkazish kerak.

Umumta'lim muassasasining ehtiyojlari va muammolarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotga innovatsiyalar majmuasini samarali tatbiq etish nafaqat maktab faoliyatini tez tahlil qilish, balki ta'lim sub'ektlariga ta'sir etish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi. yakuniy natijalar sifatini oshirish uchun jarayon.

1.7. Boshlang'ich ta'limda innovatsion dars o'quv tarbiya ishining asosiy shakli ekanligi

Innovatsion yondashuvning asosi faoliyat orqali o'rganishdir. U zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Bunday yondashuv bilan o'qituvchi bilim tarjimoni, yagona ma'lumot manbai bo'lishni to'xtatadi: o'quvchi mustaqil ravishda ma'lumot olishni va uning ishonchliligini tekshirishni o'rganishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning faol va interfaol usullaridan foydalanish alohida qiziqish uyg'otadi.

Birinchi usul dars davomida har bir o'quvchining faol faoliyatini o'z ichiga oladi. Asta-sekin yangi materialni o'rganish jarayoniga kirib, bola olingan ma'lumotlarga va bilimlarni qo'llashning haqiqiy tajribasiga o'z nuqtai nazarini shakllantiradi.

Ikkinchi usul jamoaviy ishlashga asoslanadi, bunda har bir o'quvchi natija uchun javobgardir. Bola boshqa odamlar bilan muloqot qilish orqali ijobiy natijalarga erishishni o'rganadi. Amalda muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalari, shuningdek, o'z nuqtai nazarini ishonchli tarzda bahslasha olish qobiliyati olinadi.

O'quv jarayoni quyidagi tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin:

Ijodiy mashqlar;

Guruh vazifalari;

Ta'limning o'yin shakli;

Ekskursiya shaklida darslar;

Axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda vazifalar.

Aynan boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatidagi an'anaviy va innovatsion faoliyat usullarining uyg'unlashuvi o'quvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga va o'qituvchi qo'ygan muammolarni hal qilishga ijodiy yondashishga undaydi va o'qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi: Professional darajani oshirish; Qamoqqa olingan shaxsning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish; O'quv muammolarini hal qilishning eng samarali usullarini tanlash; Pedagogik jarayonni boshqaring va natijani aniqroq taxmin qiling. GEF reglamenti Umumiy ta'lim tizimidagi islohotlardan biri davlat ta'lim standartlarini (FSES) joriy etish edi. Mamlakatdagi barcha ta'lim, maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'lim muassasalarigacha, davlat akkreditatsiyasidan o'tgan barcha muassasalar standartlarda belgilangan talablarning butun majmuasiga mos kelishi kerak. Davlat ta'lim standartining bunday choralari zamonaviy dunyoda bitiruvchilarni tayyorlash zarurati bilan bog'liq. GEF quyidagilarni tartibga soladi: Har bir darajadagi ta'lim olish shartlari; O'quv dasturlarini ishlab chiqish; O'quv fanlari va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish; Ta'limni moliyalashtirish. Davlat standartlari tufayli ta'lim faoliyatini to'g'ri tashkil etish, yakuniy va oraliq attestatsiyani o'tkazish ta'minlanadi. Davlat ta'lim standarti barcha ta'lim dasturlarining uzluksizligini ta'minlaydi va nafaqat insonni tarbiyalashga, balki yangi avlodlarni axloqiy tarbiyalashga ham hissa qo'shadi. Rivojlanishning mumkin bo'lgan usullari Zamonaviy maktabning asosiy tamoyili - har bir bolaning qobiliyatini ochib berish, jamiyatda yashashga qodir fikrlaydigan shaxs fazilatlarini tarbiyalash. O'qituvchi innovatsion

texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lib, bolalarni qarorlar qabul qilishga undaydigan, ularning harakatlarini to'g'rilagan holda direktor rolini o'ynaydi. O'quv jarayonidagi hozirgi va istiqbolli usullar qatoriga quyidagilar kiradi: o'yin usuli. Bolaning qobiliyatlarini rivojlantiradi, tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilishni o'rgatadi. O'yin o'quvchiga darsni o'rganish va mustahkamlashga yordam beradi. Ko'pgina kombinatorli o'yinlar muammolarni hal qilishda tezkor samaradorlikni o'rgatadi va analitik ko'nikmalarni rivojlantiradi;

Muammoli o'rganish. U darsda tadqiqot faoliyati shaklida amalga oshadi - muammoli vaziyat vazifa shaklida tuziladi. Vazifalar qiyinchilik nuqtai nazaridan ochiq bo'lishi va bolalarning kognitiv qobiliyatlarini hisobga olishi kerak. O'quvchilar ish jarayonida faqat ma'lumotni o'zlashtiribgina qolmay, balki yangi bilimlarni o'zlashtirishga kiritiladi. Loyiha. Loyiha ustida ishlayotganda, o'quvchilar o'zlari yangi faktlarni o'rganadilar va ularni o'qituvchidan olmaydilar. Loyiha faoliyati kompyuter texnologiyalari bilan birgalikda o'quvchilarning potentsialini ochib berish uchun cheksiz imkoniyatlarni beradi, maktab o'quvchilaridan tadqiqotchilarni chiqaradi va ularni hissiy jihatdan zaryad qiladi. Kompyuter, interfaol doska loyiha texnologiyasida yordam beradi - nafaqat sinfda, balki darsdan tashqarida ham; Integratsiya usuli. Bu har bir bolaning qobiliyatini rivojlantirishga va keyingi faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llanilishiga yordam beradi. Bir darsda olingan bilimlar boshqa darsda qo'llaniladi, buning natijasida bolalar ob'ektlar orasidagi haqiqiy aloqalarni ko'rishni boshlaydilar. Bunday o'quv dasturlari o'qituvchilar uchun ham qiziqarli bo'lib, ular darsda ishni samarali tashkil etadi, o'quvchilarni o'quv, loyiha, tadqiqot faoliyatiga jalb qiladi va shaxsiy xususiyatlarni shakllantiradi. Case Studies Sinquain texnikasi o'quvchiga matnni o'qish va yozish orqali matnni samarali tahlil qilish va ma'lumotni umumlashtirish imkoniyatini berishga qodir. Yozuvchi doimo faol, tanqidiy fikr yuritadi. Syncwine texnikasi besh qatorda ko'rib chiqilayotgan muammoga munosabatni aniqlashga imkon beradi. Bir dars davomida o'quvchilar matnlar tuzadilar va ularni baholaydilar. Bunday darslar davomida bosqichma-bosqich vazifalarni aniq shakllantirish va o'quvchilar uchun mavzular ustida o'ylash kerak. Maktab o'quvchilari topshiriqni a'lo darajada bajaradilar, bepul mavzular bilan ishlaydilar - bepul mavzu solishtirish, klişelardan qochish va o'zingizni eng to'liq va mazmunli ifoda etish imkonini beradi. Sinkvinlarni yozish algoritmi Birinchi qatordagi mavzu bitta so'z (ot) deb ataladi. Mavzuning qisqacha

tavsifi ikkinchi qatorda (sifatlar) uchraydi. Uchinchi qatorning uchta soʻzi - mavzu formatida harakatni tasvirlash (fe'llar, ishtirokchilar). Muallifning mavzuga munosabati toʻrtta soʻzdan iborat toʻrtinchi qatorda koʻrsatilgan. Beshinchi qatorda mavzuning mohiyatini ifodalovchi sinonim yoki metafora ishlatiladi. Muallif sinquainning qatʼiy qoidalariga rioya qilib, nafaqat qatʼiy belgilangan sonli soʻzlarni, balki nutqning ayrim qismlarini ham qoʻllaydi. "Klaster" texnikasi matnning semantik dominantlarini ajratib koʻrsatish va ularni maʼlum bir tartibda toʻda shaklida joylashtirishga asoslangan. Kosmik sayyora modeli chizilgan: quyosh, sayyoralar va ularning sunʼiy yoʻldoshlari. Markazdagi yulduz sayyoralar bilan oʻralgan mavzu - katta semantik birliklar, ular oʻz navbatida sunʼiy yoʻldoshlar bilan oʻralgan. Bu usul matni savollar yoki semantik bloklarning sarlavhalari shaklida oʻqishdan oldin qoʻllaniladi. Matni oʻrganish jarayonida klasterlarga tuzatishlar kiritiladi.

Boshlangʻich sinflarda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilgʻor pedagogik texnologiyalaridan foydalanish taʼlim mazmunida oʻziga xos hamda oʻquvchi shaxsida oʻziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilgʻor pedagogik texnologiyalarni taʼlim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, taʼlim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga koʻtarish bugungi kunning dolzarb masalasi.

Boshlangʻich taʼlim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma-xil shakllari oʻqitishni takomillashuviga taʼsir koʻrsatadi. Darslarni "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "Oʻz oʻrningni top", "FSMU", "Nima uchun?", "Ikki qismli kundalik" metodlari, "Pinbord" usuli, "She'rni tikla" kabi mashqlaridan foydalanib oʻtish dars samaradorligini yanada oshiradi.

"Oʻz oʻrningni top" metodi. Mavzu boʻyicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yoʻnaltirilgan. Bunda oʻquvchilar oʻz fikrini bayon qilishi, muloqot koʻnikmalarini qaytadan tuza tishga imkoniyatlar mavjud boʻladi va dars soʻngida oʻqituvchi tomonidan mavzuni oʻzlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

Maqsadi: oʻquvchilarda oʻz fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga oʻrgatish.

Vazifasi: oʻquvchilarni muammoli vaziyatlar orqali mustaqil tarzda oʻz fikrlarini isbotlashga oʻrgatiladi. Masalan, Xans Kristyan Andersenning "Bolalar gurungi" ertagida (2-qism) qoʻllanilgan.

"Arra" metodi.

Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a'zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o'quvchilar rivoyat matnini qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib "mutaxassis"ga aylanadi. Ma'lum vaqtdan so'ng har bir kichik guruhdagi "mutaxassis"lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi. Shu tarzda rivoyat mazmunini barcha o'quvchilar o'zlashtirib oladilar.

Maqsadi: o'quvchilarda muloqotlashuv, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Vazifasi: o'quvchilarni guruh bilan ishlash, guruh a'zolariga o'z fikrini tushuntirib, isbotlashga o'rgatish. Masalan, Xondamirning "Tanbeh" rivoyatida qo'llanilgan.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.

Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi. Darslar jarayonida bolani qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o'quvchini o'qish, bilim olishga ishtiyoqini o'stirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo'lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo'lamiz.

Nazorat uchun savollar:

1. Innovatsion ta'limda mualliflik maktablarining rivojlanishi nimalarga bog'liq?
2. Innovatsion pedagogika tushunchasi qachon paydo bo'lgan?
3. Yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Refleksiv - innovatsion texnologiyalar qanday amalga oshiriladi?
5. An'anaviy va innovatsion ta'limning qiyosiy tahlili haqida nimalarni bilasiz?
6. Innovatsion faoliyat – ta'lim sifatining kafolati ekanligiga nimaga bog'liq?
7. Boshlang'ich ta'limda innovatsion dars o'quv tarbiya ishining asosiy shakli nimaga bog'liq?

2-MAVZU: TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK TIZIM. PEDAGOGIK MUNOSABATLARNI INSONPARVARLASHTIRISH VA DEMOKRATLASHTIRISH

Reja:

1. Tarbiya tizimida innovatsiyalar.
2. Tarbiya tizimida ijtimoiylashtirish.
3. O'qituvchi pedagogik faoliyatidagi psixologik to'siqlar.
4. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish tushunchasi.
5. Bolaga do'stona munosabat.

2.1. Tarbiya tizimida innovatsiyalar

Hozir respublikamizda pedagogik innovatsiyalarning yaratilishi va rivojlanishi, keng pedagogik jamoatchiligining harakati, umumta'lim maktablarining moderinizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarning yangilanish jarayoni ketmoqda.

Yangiliklarni yaratish, izlash, to'plash, qo'llash ishlari jadallashib bormoqda. Maktabda innovatsiyalar masalasini muhokama etganda, tarbiya tizimlarida innovatsiyalar tashkil topishi to'g'risidagi masalalarni gapirib o'tmay bo'lmaydi. Lekin buning uchun avval tarbiyaviy tizimning ichki tushunchasini kiritamiz. Shundan keyin tarbiyaviy tizimni falsafiy va texnologik jihatdan ko'rib chiqishda innovatsiyalar yuzaga kelishini o'rganamiz.

Shunday qilib, pedagogikada «tarbiya» kategoriyasining bir vaqtda, bir necha. tushunchalari mavjud tarbiyani o'rganayotgan avlodga tarbiyani eng muhim ijtimoiy tajribalarni yetkazish bo'yicha maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida tushunish eng keng tarqalgan tushunchalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, har qanday tarbiya jarayonining asosi, haqiqatda, o'qitish hisoblanadi, degan xulosaga kelish to'g'ri bo'ladi. Ushbu holatda tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko'rinish boshlaydi.

Tarbiyajarayoni o'zining o'ziga xosligini «saqlab qolish» uchun «tarbiya, tarbiya... tarbiya!» birgalikdagi monografiya mualliflari V.A.Karakovskiy va psixolog X.I.Laymete taklif etgan uning boshqa tushunchasidan foydalanadilar. Agarda tarbiya jarayonini «Laymete bo'yicha» qaraydigan bo'lsak, unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo'lmaydi, balki bir tomondan psixologo-pedagogik, boshqa tomondan esa ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo'ladi.

Bu o'z navbatida tarbiya tizimi o'quvchilarga faqat didaktik tizim sifatida emas (o'qituvchilar, darslar, darsliklar, uy vazifalari orqali), balki ijtimoiy omil sifatida bolalarning atrof-muhitga jalb etilganligi orqali; ot-onalar, o'qituvchilar va bolalar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali, albatta, har bir ta'lim muassasalarida tashkil topadigan ma'lum psixologik muhit orqali ta'sir ko'rsatadi.

Didaktik tizim tushunchasi pedagogikada ancha qadimdan shakllangan.

Maktabning didaktik tizimi ta'lim maqsadlari, o'qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari orqali ifodalanadi. Albatta, tarbiyaviy maqsadlar o'rganilayotgan material mazmuni, uni yetkazish shakli va metodlari hamda shu kabilami belgilash orqali o'qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Lekin tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantiqida didaktik tizim o'zi tarbiyaviy tizimining didaktik tizimida ishtirok etadi, ya'ni uning tizimi hisoblanadi.

Ta'lim muassasining tarbiyaviy vazifasi, birinchi navbatda, o'quvchilar dunyoni anglab yetishi, boshqalar orasida o'z o'rnini topish qadriyatlarini shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o'qitish jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan bog'liq dam olish doirasidagi o'yin, mehnat, ijodiy faoliyat bilan ham bog'liq. Shunday qilib, xususan, tarbiya tizimi innovatsiyalarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Uni yaratish va rivojlantirish jarayonida har gal qator aniq masalalarni hal etish kerak bo'ladi: yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar ularning beshtasini alohida urg'u bilan ko'rsatadilar: 1. Bolalarda dunyoning yaxlit va ilmiy asoslangan ko'rinishini shakllantirish. 2. Fuqarolik, o'zini anglashni, vatani taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish. 3. Bolalarni umuminsoniy qadriyatlarga jalb etish, ular orasida mana shu qadriyatlarga mos bo'lgan xulqni shakllantirish. 4. O'sib kelayotgan kelajak avlodda shaxs xususiyatlarini sifatida «ijodkorlikni» shakllantirish. 5. O'z-o'zini anglashni shakllantirishda bolaga yordam ko'rsatish.

Albatta, bu masalalar ro'yxatini davom ettirish mumkin. Lekin har qanday holatda ham mana shu vazifalarning o'zi yuqorida sanab o'tilgan tarbiyalash vazifalarining «alohidaligini» ko'rsatadi.

Yuqorida bayon etilgan didaktik qarashlarda innovatsiyalar yuzaga kelishi va shakllanishi imkoniyatlarini chuqur muhokama qilish hamda tarbiya tizimini falsafiy va texnologik jihatlarini o'rganishda tarbiyaviy innovatsiyalardan foydalaniladi.

Tarbiya tizimining falsafiy jihati tarbiyaning mazmun-maqсадlarini asoslashni va tarbiyaning kerakli mazmuni bilan aloqasini asoslab berishni koʻzda tutadi. Biz av al aytganimizdek, bugungi kun qarashlari ostida tarbiya tizimida ikki - turlicha boʻlgan konseptual (koʻp jihatdan qarama- qarshi) yondashishlar mavjud.

Birinchi yondashish tarbiya - bu oʻziga xos mazmunga ega boʻlgan (falsafiy-pedagogik, gʻoyaviy, psixologo-pedagogik, m aʻnaviy va boshqa) bola shaxsiga ijtimoiy belgilangan va maqsadga muvofiq taʻsir koʻrsatishga asoslanadi. Bunday tarbiya m aʻlum shakllarda (frontal, guruhli, individual) va m aʻlum metodlar bilan amalga oshiriladi. «Tarbiya taʻsir koʻrsatish sifatida» pedagog barcha choralar bilan samarali tarbiyaviy taʻsir koʻrsatishga erishishi kerak. U (pedagog) oʻzi ixtiyorsiz bolalar va ota-onalar teng qimmatli ishtirokisiz - mana shu tizimda asosiy subyekt boʻlib qoladi, chunki bolalar va «olib boruvchilar» rovida ishtirok etadilar. Va, albatta, tarbiyada teng huquqli sherik hisoblanmaydilar.

Bu yerda bola «tarbiya predmeti» sifatida ishtirok etadi va bolaning faolligi subyektivlik toʻgʻrisidagi murojaat har gal «kerakligini faol oʻzlashtirish» yoki adaptiv faollik deb ataluvchi xususiyatga ega boʻladi.

Bu yondashish biz ilgari keltirib chiqargan ijtimoiylashtirish kategoriyasi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq, bunda biz tarixiy ishlab chiqilgan ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlar, munosabatlar, m aʻnaviy va moddiy mada- niyat bilan munosabat usullarini inson tomonidan oʻzlashtirilishi jarayonini tushunamiz. Umumiy qabul qilingan tip asosida aytadigan boʻlsak - bolani tarbiyalash (mana shu tushuntirilishda) - uni kattalar dunyosiga olib kirish, uni umumiy qonunlar boʻyicha «birga» yashashga oʻrgatish demakdir.

Shunday qilib, ijtimoiylashtirish insonning «adaptik faollik» qobiliyatiga ega boʻlishni koʻzda tutadi va maqsadga muvofiq jarayonlar (oʻqitish va tarbiyalash), maktabgacha, maktab, maxsus kasb-hunar muassasalarida hamda tasodifiy omillar (oila, ommaviy axborot vositalari, sanʼat bilan muloqat qilish) taʻsiri ostida amalga oshiriladi.

Bu taʻsir koʻrsatish tarbiya tizimi (yoki ijtimoiylashtirish) insonparvarlikka zid kabi baholanishi mumkin emas. Unda oʻqituvchi va bolalar oʻrtasida insonparvarlik munosabatlari mavjud boʻlishi, gumanitar qadriyatlar targʻib qilinishi, guruhli va individual ijodkorlik elementlari tatbiq qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, taʻsir koʻrsatish ushbu tarbiya tizimi oʻzi tarbiya jarayoniga demokratik qadriyatlar va qoidalar kiritishi kerak (atrof-hayotdagi oʻzgarishlarortidan): hayotni tashkil etish demokratik usullarini

o'zlashtirish (bolalar hamjamiyatidan boshlab), boshqalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini o'zlashtirishga amal qilish.

Lekin, tarbiya bilan bog'liq bu yondashish amalda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lib chiqmoqda, chunki bolaning xulqi va hayoti bu holatda to'laligicha tashqi kuchlar bilan belgilanadi. Va unda bu tanlovni amalga oshirish imkoniyati qolmaydi. Yetkazish kerak bo'lgan qandaydir tarbiyaviy mazmun, mana shu tarbiyaviy standartdan kelib chiquvchi ijtimoiy-pedagogik-nazariy - bu narsalarning barchasi bolaning ichki «xohlayman» istagiga, balki tashqi «kerak» talabiga yo'naltirilgan metodlarni talab etadi. Shuning uchun ushbu tarbiyaviy tizim qandaydir jazo va majburlashsiz mavjud bo'lishi mumkin emas.

Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog'liq. Bu yondashish, birinchi navbatda, biz ilgarigi bo'limda batafsil ko'rib chiqqan individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi (lekin uni bola ijtimoiylashtirish masalalarini iloji boricha yaxshi o'zlashtirib olishi maqsadi bilan bog'liq yondashish bilan adashtirish kerak emas). Yana bir bor eslatib o'tamiz, individuallashtirish, - bizning tushunishimizcha, - bu bolada mavjud yoki o'zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o'ziga xosligini ta'minlab turish va rivojlantirish bo'yicha kattalarning hamda bolaning faoliyatidir.

Individuallashtirish - birinchidan, birlamchi asosiy ehtiyojlarni individual yo'naltirilgan holda yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi, busiz tabiiy «o'zligini» his etish mumkin emas: ikkinchidan, aynan mana shu individ uchun xos bo'lgan tabiat bergan (meros bo'lib o'tgan) jismoniy, intellektual, emotsional qobiliyatlar imkoniyatlarni maksimal, erkin amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Va, nihoyat, uchinchidan, individuallashtirishning belgisi, asosiy xislati - avtonom ma'naviy o'zini qurishda, o'zini ijodiy gavdalantirishda, «moslashuvchan bo'lmagan faollik», hayotiy o'z y o'lini tanlashdagi qobiliyatini rivojlantirishda insonga yordam ko'rsatish.

Shaxsni individuallashtirish uning o'zligini rivojlantirish, shunday qilib, keng ma'noda insonparvarlik-tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi bolalarga, ularning subyektiv mavjudliklarini tashkil etishda yordam ko'rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda insonga o'zini anglash va o'zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqiladi. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimining subyekti endi faqat pedagog emas, balki bolalarning o'zlari ham hisoblanadi (bola, asosan, tarbiya obyekti hisoblangan ta'sir ko'rsatish tarbiyaviy tizimidan, uning asosiy farqi ham

mana shundan iborat). Ushbu paradigmadagi pedagoglar ham, bolalar ham maktab oldida turgan maqsadlarini birgalikda aniqlashtiradilar, ularni amaliy vazifalar darajasiga koʻtaradilar va hamkorlikdagi faoliyatda amalga oshiradilar. Maktab insonparvarlik tarbiyaviy tizimi samaraliligining muhim sharti, bolalar va kattalarni umumiy jamoaga birlashtirish hisoblanadi. Bolalar va kattalarning oʻzaro munosabatlari maʼlum munosabatlarni yuzaga keltiradi, ular birinchi navbatda tizimning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi.

Har qanday insonparvarlik tarbiyaviy tizimi aniq tizim hisoblanadi.

Uning tashkil topishi, faoliyati va rivojlanishida muhit, shu bilan birga faqat tashqi taʼsir koʻrsatuvchi omil sifatida emas, balki ushbu tizimning tarkibiy qismida katta rol oʻynaydi.

Tarbiyaviy tizimning ikki turini taqqoslash, tahlil qilish, yakunida taʼsir koʻrsatish, taʼlim tizimi va insonparvarlik tarbiya tizimi oʻzining predmeti mazmunida ham farq qilishini alohida aytib oʻtamiz.

Birinchi navbatda, dunyoning ijtimoiy koʻrinishini oʻrganadi.

Ikkinchi tizim oʻzini oʻzi oʻrganish usulini oʻrganadi. Maʼlum ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlarni, munosabatlarni yetkazib taʼsir koʻrsatish tarbiya tizimi bolalarda oʻzini anglashga qobiliyatni rivojlantirish masalasini oʻz oldiga qoʻvmaydi - bu uning predmeti hisoblanmaydi.

Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi - bu boshqa gap. Inson tanlab olish subyekti sifatida ishtirok etar ekan, u bu tanlovni oʻziga nisbatan amalga oshirishi koʻzdatutiladi, demak, oʻzini anglashjarayonisizbutizimni amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun turli insonparvarlik-tarbiyaviy tizimlar, hozirgi kunda, aynan mana shu yoʻnalishda rivojlanmoqda.

Innovatsiya (anglagan holda, umuman yangilikni kiritish sifatida) ishchi (amaliy) tushunchasini eslab, aniq misolda tarbiya tizimini falsafiy jihatdan qanday shakllanishini koʻrib chiqamiz.

Taqdim etilgan yondashishlarning har birida innovatsiya yondashish- lardan birini aniqlashtirish hisoblansa ham, har gal qandaydir yangi gʻoya bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, O.S.Gazman tarbiya insonparvarlik paradigmasini muhokama qilib, tarbiya maqsadini birinchi navbatda oʻzini rivojlantirish va pedagogik yordam koʻrsatish gʻoyasi bilan bogʻlaydi.

Koʻpchilik hozirgi zamon mualliflari insonparvarlik paradigmasini oʻrganishlarida, shaxs rivojlanishiga amal qilib, oʻzini rivojlantirishga (yoki oʻzining oʻzligini rivojlantirishga) turli tomondan yondashadilar.

Ba'zi mualliflar ushbu soʻzning keng maʼnosidan kelib chiqadilar: oʻzini umumiylikka yetkazish, barcha odamlar uchun xosliklar, hammasiga mos kelish, yaʼrii u yoki bu sotsial ideologik talablarni kontekstidan chetga chiqadilar, umuminsoniylikni, oʻzini rivojlantirishdagi ahamiyatini taʼkid- laydilar.

Mualliflar ikkinchi guruhi esa boshqacha fikrlaydilar: inson oʻzining individualliligini, alohidaliligini, oʻzining oʻzligini rivojlantiradi (bu koʻpincha umuminsoniylikni namoyon etish individual ifodalangan usullarini oʻz ichiga oladi).

O.S.Gazman «Erkinlik pedagogikasi: XXI asr insonparvarlik taraqqiyotidagi yoʻl» nomli asarida « Oʻzini rivojlantirish» terminida yuqorida aytilgan ikki mazmuni birlashtirish va oʻzini rivojlantirishni faqat yagona subyektda taqdim etilishi mumkin boʻlgan yangi sifatni tashkil etish uchun insonning oʻzida sanʼatni (madaniyatligini) va tabiiyki, toʻplash, birlashtirish jarayoni sifatida tasavvur etishni taklif etadi. Faqat ijtimoiy va biologik emas, balki erkin (ekzestensial) mavjudot sifatida oʻsib borayotgan inson toʻgʻrisidagi tasavvur madaniyligi va tabiiyligi tamoyillarini erkinlik tamoyili bilan toʻldirilishini talab etadi.

Tarbiya texnologiyasi deganda biz tarbiyaning maʼlum maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus pedagogik uslublar tizimini tushunamiz.

Har qanday tarbiya metodikasi tarbiya texnologiyalaridan tashkil topadi.

Masalan, jamoani rejalashtirish, oʻsmirlar bilan aloqa oʻrnatish, pedagogik diagnostika texnologiyasi va boshqalar.

Agar texnologiya-bu tarbiya metodikasining yakunlangan qismi boʻlsa (uning birligi), uslub esa oʻz navbatida bu umumiy yoki shaxsiy pedagogik madaniyatda qayd etilgan tarbiya texnologiyasiga nisbatan yakunlangan elementdir. Agarda uslub biror bir tarbiya masalasi bilan barqaror bogʻliq boʻlsa, u oddiy tarbiyaviy texnologiya boʻlib qoladi.

Masalan, sinfni mikroguruhlariga boiish (qiziqishi boʻyicha, qurʼa tashlash boʻyicha, yetakchilari boʻyicha): hamkorlikdagi faoliyatda oʻyin rollarini yaratish usullari; guruhni muhokamada soʻzga chiqish tartibi va boshqalar- bularning barchasi tarbiyachilari aniq uslublariga misollar. Lekin ulardan hech biri qandaydir aniq tarbiyaviy masala bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq emas, shuning uchun mana shu uslublarni turli xil texnologiyalarga kiritish mumkin.

Mikroguruhlariga ajratish uslubini jamoa boʻlib maqsadni belgilashda ham, hamkorlikda rejalashtirish va umumiy ishlarni bajarish texnologiyasida ham, guruhli tahlilni tashkil qilish usuli sifatida ham va

muloqot reytingida mashqlar o'tkazish uslubi sifatida ham qo'llash mumkin. Shunga mos ravishda ishlab chiqilayotgan pedagogik yordam texnologiyalari ham ilgari ma'lum bo'lgan uslublar yo'nalishidan iborat bolishi mumkin, lekin ma'lum tartibda tuzilgan ularning ketma-ketliklari yangi tarbiya vazifalariga javob bera boshlashi mumkin. Pedagogik yordam texnologiyasi - bu o'sib borayotgan odamning boshqalardan o'zining farqini anglab yetishga yordam beruvchi o'quvchining jismoniy, intellektual, ma'naviy, ijodiy vositalardan foydalanish tizimidir.

Bu o'quvchining ta'lim olishida mustaqil va muvaffaqiyatli ilgari borishi, shaxsiy hayot yo'li va hayot mazmunini tanlashi uchun zarurdir.

Ushbu texnologiyani amalga oshirish o'quvchining savolidan boshlanadi: «Men kim bo'laman?», «Qanday bo'lishim kerak?» Pedagog bilan birgalikda mana shu savollarni muhokama qilish yana boshqa bir mustaqil savolni ham keltirib chiqaradi: «Qanday yashash kerak?» Maxsus tashkil etilgan maslahatlar orqali aynan mana shu o'quvchiga xos bo'lgan individual hayot tarzi asta-sekin tuziladi, intellektual, emotsional, jismoniy yuklamalar qulay rejimi tanlanadi. O'quvchi pedagog yordamida muvaffaqiyat va baxtsizliklarga bardosh berishning o'zi uchun mos usullarini topadi, mehnat faoliyati mos turini aniqlaydi, bo'sh vaqtini uzluksiz ish shakllari, odamlar bilan munosabatlar xususiyatlari bilan belgilaydi. «Pedagogik yordam» tushunchasining semantik ma'nosi birinchi navbatda faqatgina biror narsaga ega bo'lgan, lekin yetarli darajaga ega bo'lmagan odamgagina yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash mumkinligidan iborat. Shuning uchun bolaning o'zida biror narsani bilish istagi paydo bo'lsa va bu yo'lda uning oldida qiyinchiliklar paydo bo'lsa pedagogik yordam harakatga keladi.

Shunday qilib, pedagogik yordam texnologiyasi, birinchi navbatda, vaziyatga javob qaytarishdan iborat bo'ladi. O'z navbatida bu texnologiya turli uslublardan iborat. Ulardan biri baholash - algoritmik uslub hisoblanadi.

Bola faoliyatini tuzatish va baholash munosabati: «yaxshi - yomon», «to'g'ri - noto'g'ri», «mumkin - mumkin emas» kabilar ma'lum yosh bosqichida belgilar xulqi doirasini belgilaydi. Bu uslub o'qituvchi obro'si hali juda kuchli bo'lmagan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ancha samarali bo'ladi.

Pedagogik yordam texnologiyasi bu - bir uslub ijtimoiy ko'nikmalar kursini maqsadga muvofiq kiritish hisoblanadi. Ushbu kurs ijtimoiy munosabatlar, shaharlararo munosabatlar, qaror qabul qilish, o'zini anglash kabi sifatlardan iborat. Ushbu ikki fanning - amaliy m

ashgʻulotlar yoki oʻzini namoyon etish va oʻzaro aloqalar hamda hamkorlik tajribasi uchun jamoani ijodkorlik boʻyicha mashgʻulotlar koʻrinishida qurilishi juda muhim.

Pedagogik yordamni amalga oshirishdan keyingi uslub - bolalar jamoasini tashkil etish va boshqarishda pedagogning yordami hisoblanadi. Oʻzini boshqarish buyruq boʻyicha yuzaga kelmaydi, balki bolalar va oʻsmirlar qiziqishlari hamda maktab fuqarosi huquqlari ham oʻz manfaatlarini oʻzaro himoya qilishlari ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ushbu oʻzini boshqarish (aynan mana shu yerda pedagogning yordami kerak) maktab doirasida bolalar qiziqishlarini birlashtiruvchi boʻlganida va maktabning oʻzi fuqarolik jamiyati sifatida qurilganda paydo boʻladi.

Diskoteka oʻtkazish, sayohatga borish yoki qandaydir tanlovlar oʻtkazish uchun oʻsmirlar birlashtirishni xohlasalar, mana shu vaziyatda oʻzini boshqarish lokal tajribasi paydo boʻladi. Kattalar esa bu vaziyatda yordamchi boʻlib qolishlari mumkin. Oʻzini boshqarishda qoidalar ishlab chiqarish majburiy element hisoblanadi. Bolalarning oʻzlari yaratadigan qoidalar, qonunlar, huquq qoidalarining muhim ahamiyatga egaligi pedagogikada ancha avval payqalgan.

Bolalarning oʻzlari yaratgan qoidalar ularni birlashtiradi. Maktab hayoti muammolarini yana-da demokratik hal etishga imkon beradi. Lekin, asosiysi, bunday qoidalar erkinlik va masʼuliyatlilik doirasini belgilab beradi. Ushbu holatni intizomlilikni rivojlantirishning kuchli vositasi sifatida tushunib, koʻpchilik maktablar oʻzlarining qonunlarini, oʻrtoqlik nizomlarini, vijdon kodekslarini yaratmoqdalar. Lekin ushbu uslubda ham maʼlum xavfli tomonlar mavjud. Pedagog baʼzi bolalar boshqalar ustidan nazoratchi bolib qolmasliklarini kuzatib borishi zarur. Bunday holatda bolalar jamoasida adovat ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda bolalar qonunni bajaruvchilar va ularga qarshi kuzatuvchilarga ajralib qolishlari mumkin.

Shunday qilib, yuqorida tasvirlangan uslublar (ularning roʻyxati, albatta, davom ettirilishi mumkin) toʻplami yangi maqsad - pedagog yordam uchun texnologiyani belgilab beradi va mana shu mazmunda innovatsion texnologiyalarni qoʻllash maqsadga muvofiq boladi.

Umuman olganda, har qanday tarbiya tizimining yangilanishi innovatsiyalar hisobiga amalga oshiriladi. Bu esa ikki - revolutsion (inqilobiy) va evolutsion yoʻl bilan sodir bolishi mumkin.

Inqilobiy yoʻl odatda maktab hayotida jamiyat hayotidagi favqulodda vaziyatlar bilan kelib chiqadi. Ikkinchi yoʻl tarbiya tizimini

samarali pedagogik boshqarish bilan bo'ladi, chunki yangilanish mexanizmlari tizimning o'zida mavjuddir.

Tizimning holati va faoliyati to'g'risida yaxshi yetkazilib turiladigan obyektiv axborotlar, pedagoglar va O'quvchilar jamoasining doimiy, ijodiy izlanishiga yo'nalgan ishlari ta'lim tizimi yangilanishini rejali va boshqariladigan qiladi. Innovatsion maktab tashkil topishi didaktik jihatini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi: I. Innovatsion maktab tashkil topishi jarayonini didaktik ko'rib chiqish turlicha jihatlar orqali amalga oshiriladi: • Falsafiy-metodologik (o'qitish maqsadlari). ■ Nazariy (o'qitish mazmuni, o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari). • Texnologiya (o'qitish jarayoni qoidalar tamoyili).

Didaktik qarashning falsafiy-metodologik jihatini quyidagidan iborat.

I. U yoki bu ijtimoiy buyurtmaning mazmunidan qat'i nazar, maqsadlarni aniqlashtirish jarayoni har doim ma'lum pedagogik strategiyani tanlash bilan berilishi kerak. Ijtimoiy buyurtmadan o'qitish jarayonini tashkil etish aniq maqsadlariga o'tish jarayonida haqiqatda ishtirok etuvchilar barchalari shunday tanlovni amalga oshirishga majburlar: olim-didaktiklar, maktab m a'muriyati, birinchi navbatda esa yangi ta'lim modellarini ishlab chiquvchi innovatsion maktablar o'qituvchilari.

II. Turli pedagogik strategiyalardan tanlab olishning to'rtta yo'nalishi mavjud: Ta'lim sohasida eng yuksak vazifalar. O'qitish va rivojlantirish jarayonlari nisbati.

Ta'lim mazmuni konsepsiyasi ma'lum turiga yo'nalganligi.

Inson madaniyati tuzilishi to'g'risida tasavvur.

Ushbu ma'lum pedagogik strategiyani tanlash ilmiy obyektiv vazifalar bilan umuman hal etilishi mumkin emas. U har bir aniq innovatsion guruhning umumiy dunyoqarashi bilan, metodologik, falsafiy, antropologik qarashlari bilan bogliq.

III. Didaktik qarash falsafiy metodologik jihatdan maktabning innovatsionligi g'oyaning o'zi umuman yangiligidan tashqari, maktabda maqsadni shakllantirish jarayoni mavjudligi qayd etilganligidan ham iborat bo'lishi mumkin. Maqsadni shakllantirish innovatsion maktabning mavjudligiga sabab bo'ladi va o'z navbatida o'qitishning o'zi u sababli bo'ladi.

IV. Innovatsion maktabning tashkil topishi didaktik qarash (O'qitish mazmuni, O'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) nazorat jihatlari quyidagilardan iborat. Zamonaviy ta'lim vaziyatlari sharoitlarida deyarli har bir maktabda variantiv qismini aniqlash hisobiga boshlash, keyin esa,

invariant asosini aniqlashtirib shaxsiy pedagogik strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Ya'ni zamonaviy asosiy o'quv rejasi faqatgina turli innovatsiyalar yuzaga kelishiga yordam beruvchi omil sifatida emas, balki haqiqiy rag'batlantirish sifatida ham amal qila boshlaydi.

V. O'qitish nazariyasi (o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) o'qitish mazmunidan farqli ravishda innovatsiyalar yuzaga kelishi uchun imkoniyat hisoblanmaydi. Lekin innovatsion maktab tashkil topishini didaktik qarashda texnologik jihatida yuzaga keladigan innovatsiyalar uchun cheklovchi rolda ishtirok etishi mumkin.

Innovatsion maktab tashkil topishini didaktik qarashdagi texnologik jihati quyidagilardan iborat. O'qitish mazmuni va texnologiyasida o'zaro bog'liqlik mavjud. O'qitish mazmunidagi o'zgarish (misol uchun o'quvchi fikrlarini tashkil etuvchi sxemalar kiritish) darhol mana shu mazmuni yetkazib berishga qodir yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqishni talab qiladi. Va, aksincha, ma'lum texnologiyalar o'qitish mazmuni hajmining o'ziga xos chegaralovchilarini ilgari suradi, masalan, davomiyligi va qamrab olish kengligi. Aniq pedagogik texnologiyalar ko'rinishida berilgan har qanday innovatsiyalar didaktik qarash texnologik jihatida, bir tomondan, o'qitish nazariyasi va mavjud maqsadlar bilan cheklangan, ikkinchi tomondan esa ushbu innovatsion texnologiya «mos» keladigan yondashish xususiyati bilan (texnoizlanish) cheklangan.

2.2. Tarbiya tizimida ijtimoiylashtirish

Pedagogik jamoa har bir bolaga ta'sir ko'rsatish imkoniga ega. Ular bolalarda boshqalarni tushunish, jamoada bir-biriga ta'sir ko'rsatish, tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlik qilish malakalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishning ana shu ommaviy shakllarini ikkita katta guruhga ajratish mumkin. Bu guruhlar bolalar faoliyatining xarakteri bilan farq qiladi.

Birinchi guruh - frontal shakllar. Bolalarning faoliyati «yonimda», «yonida» prinsipi bo'yicha tashkil etiladi, ya'ni ular bir-birlari bilan o'zaro ta'sirda boimaydilar, har bir bola aynan bir xil ishni mustaqil ravishda bajaradilar. Pedagog har bir bolaga biryoMa ta'sir ko'rsatadi. Cheklangan bolalar bilangina teskari aloqa o'rnatiladi. Sinfning hammasi bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarning ko'pchiligi «yonida» prinsipi bo'yicha tashkil etilgan.

Bolalarning sinfdan tashqari faoliyatini tashkil etish shakllarining ikkinchi guruhi «birga», «birgalikda» prinsipi bilan xarakterlanadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o'z rolini bajaradi va umumiy natijaga o'z hissasini qo'shadi. Hammaning xatti-harakati muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog'liq. Ishning bunday tashkil etilishi jarayonida bolalar bir-birlari bilan yaqin hamkorlikda ish ko'rishga majbur bo'ladilar. Bunday faoliyat jamoa faoliyat nomini olgan, tarbiyaviy ish esa jamoa tarbiyaviy ishlar deb nomlanadi. Pedagog har bir bolaga alohida ta'sir ko'rsatmaydi, balki bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqaga ta'sir etadi, bu esa pedagog bilan o'quvchilar o'rtasidagi teskari aloqaning yaxshilanishiga yordam beradi. Bolalarning juft-juft, kichik guruhlarda sinfdagi faoliyati «birgalikda» prinsipi bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

Har bir yo'nalishning o'z afzalliklari va kamchiliklari bor.

Birinchi guruh pedagog uchun tashkil etishda oddiyligi bilan farq qiladi, lekin jamoa o'zaro ta'sir malakalarini kamroq shakllantiradi. Ikkinchi guruh bolalarda hamkorlik, bir-biriga yordam berish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish malakalarini rivojlantiradi. Biroq kichik yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra (ular boshqa kishida teng huquqli insonni ko'rolmaydi! ar, kelishib olishni, birga bo'lishni bilmaydilar) jamoa shakllami tashkil etish pedagogdan ko'p vaqt va muayyan tashkilotchilik malakalarini talab etadi.

Uning pedagog uchun murakkabligi ham mana shunda.

Ikkala yo'nalish o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradi, shu sababli quyida biz har bir yondashuv imkoniyatlarini aniq bir forma (shakl) misolida qarab chiqamiz.

Jamoa ijodiy ish texnologiyasi demokratik maktab sharoitida ayniqsa aktualdir, chunki u gumanistik negizga - o'quvchilarning kichik guruhlardagi o'zaro hamkorligi asosiga qurilgan. U to'rtta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda bolalar oldiga umumiy maqsad qo'yiladi. Bu maqsadga erishish uchun ular guruhlarga (3 dan 7-9 kishigacha) bo'linadi.

Har bir guruh o'z variantini, bu maqsadga erishish loyihasini taklif etadi. Bu bosqichda faoliyatning umumiy maqsadi asosida bolalarning birlashuvi ro'y beradi va har bir bolada bu faoliyatni asoslash uchun sharoitlar yaratiladi.

Ikkinchi bosqichda taklif qilingan barcha variantlarni muhokama qilish davomida bittasi tanlanadi yoki yig'ma variant yaratiladi. Shundan

soʻng har bir guruh vakillaridan ish kengashi saylanadi. Bu kollektiv boshqaruv organi boʻlib, ishning barcha ishtirokchilari oʻrtasida vazifalarni, bajaradigan ishlarni taqsimlaydi. Bolalar boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish, kelishib olishga oʻrganadilar.

Uchinchi bosqichda ish kengashi tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi, guruhlar oʻrtasida topshiriqlarni taqsimlaydi, zarur yordam koʻrsatish maqsadida ularning ishini tekshirib boradi. Har bir guruh umumiy loyihani amalga oshirishga oʻz hissasini qoʻshadi. Bunda boshqalarning muvaffaqiyati bir guruhning ishiga bogʻliq boʻladi. Shuning uchun guruhlarning ishi ular oʻrtasidagi raqobatga emas, balki hamkorlik asosiga quriladi. Bu bosqichda bolalar jamoa boʻlib faoliyat yuritish tajribasini egallaydilar, bir-birini tushunish, bir-biriga gʻamxoʻrlik qilish, yordam koʻrsatishga oʻrganadilar, turli xil amaliy koʻnikma va malakalar hosil qiladilar, oʻz qobiliyatlarini rivojlantiradilar yoki kashf etadilar.

Toʻrtinchi bosqichda oʻtkazilgan ish muvaffaqiyat va kamchiliklar nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi. Har bir guruh oʻzining xatti-harakatini tahlil qiladi, kelgusi ishga doir takliflar aytadi. Mazkur bosqich bolalarda oʻzining va boshqalarning ishlarini tahlil qilish, ularga oʻzgarishlar kiritish, malakalari shakllanishiga yordam beradi. Bolalarda, shuningdek, obyektiv ravishda oʻziga-oʻzi baho berish hissi rivojlanadi, chunki bunday muhokamalarda hech qachon bolalarning shaxsiy fazilatlariga daxldor gaplar aytilmaydi.

Jamoa ijodiy ishlar bolalarga har tomonlama ijobiy taʼsir koʻrsatadi, ularning shaxsiy tajribasini boyitadi, muomala doirasini kengaytiradi.

Jamoa ijodiy ishlar texnologiyasini muntazam ravishda qoʻllashda har bir bola turli guruhlarda ishtirok etish va turli rollarni (tashkilotchi va ijrochi rolini) bajarish imkoniyatiga ega boʻladi.

Jamoa ijodiy ishlar texnologiyasi bilan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish texnologiyasi oʻrtasida baʼzi bir oʻxshashliklar bor: unda ham, bunda ham modellashtirish, ishlarni amaliy ravishda bajarish va tahlil qilish mavjud. Shu sababli, agar pedagog oʻzini tarbiyaviy ishlarni mazkur algoritm asosida tashkil etishga oʻrgatsa, uning bolalarni Jamoa ijodiy ishlarga jalb etishi oson boʻladi.

Umumsinf tarbiyaviy mashgʻulotni tayyorlash. Faraz qilaylik, algoritmik muvofiq bolalar jamoasini oʻrganish bosqichi tugallangan va pedagog mashgʻulotning mana shu shaklini tanlagan. Birinchi navbatda mashgʻulotning mazmuni belgilanadi, unga muvofiq mazkur sinf aktual boʻlgan mashgʻulot mavzusi tanlanadi va mashgʻulot gʻoyasi ifodalanadi.

Pedagog o'zidan fikran shunday deb so'rashi kerak: «Mazkur mavzuni ochib berish orqali bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijasida nimaga ega bo'lishni istayman?» Umumsinf tarbiyaviy mashg'ulotning mazmuni rivojlantirish, to'g'rilash, shakllantirish vazifalarini aks ettirishi kerak. Ta'lim berish vazifasi umumiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'tishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda: «...haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish» tarbiyaviy mashg'ulotning maqsadi bo'lishi mumkin emas (vazifalardan biri bo'lishi mumkin). Pedagog sinfdan tashqari mashg'ulotning maqsadi hamda **vazifalarini** qanchalik aniq ifodalasa, **uning** istalgan natijalar haqidagi tasavvuri ham aniq bo'iyadi. Faqat shundan keyingina mashg'ulotning mazmunini, metodlarni vositalarni tanlashga kirishish mumkin. Bunda mashg'ulotning mavzusi, mazmuniga alohida ahamiyat berib, uning maqsadini ifodalashga yondashiladi yoki uni umuman e'tibordan chetda qoldiradigan pedagoglar mahorat bilan ish ko'radilar. Bunday holda tarbiyaviy ishning maqsadga yo'naltirilganligi va tizimligi yo'qoladi.

Mashg'ulot modelini tayyorlash natijalari umumsinf tarbiyaviy mashg'uloti konspektida aks ettiriladi. U quyidagi tuzilishda bo'iyadi: Mashg'ulotning nomi.

Maqsadi, vazifalari.

Jihozlanishi. o'tkazish shakli.

Borishi.

Mashg'ulotning nomida sinfdan tashqari mashg'ulotning mavzusi aks ettiriladi. U faqat aks ettirib qolmay, shakl bo'yicha lo'nda qilib ifodalangai,, jozibali bo'lishi lozim.

Vazifalar juda aniq bo'lib, mazkur mazmunni aks ettirishi kerak.

Ular universal xarakterda bo'lmasligi lozim. Masalan, «Jonajon shahriga muhabbat uyg'otish» vazifasi o'rniga «Shahar tarixiga qiziqishni oshirish», «Bolalarda shahar yubileyiga tayyorgarlik ishlariga o'z hissasini qo'shish istagini uyg'otish», «Bolalarda o'tmishda shaharning mashhur kishilariga nisbatan hurmat hissi shakllanishigayordam berish» kabi vazifalarni qo'yish yaxshi bo'ladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotning jihozlanishiga turli vositalar: qo'llanmalar, o'yinchoqlar, videofilmlar, diapozitivlar, adabiyotlar va boshqalar kiradi. Adabiy manbaning nominiгина emas, balki uning muallifi, nashr etilgan joyi va yili ko'rsatilishi kerak.

Sinf mashg'ulotlari ekskursiya, viktorina, konkurs, spektakl va hokazo shaklda o'tkazilishi mumkin. Bunday holda mashg'ulot rejasida uni o'tkazish shakli «Matematik viktorina», «Fantaziyachilar konkursi»,

«Hayvonot bogMga ekskursiya» nomi bilan birlashtiriladi. Agar sinf mashgʻuloti oʻzida bironta oʻtkazish shakllarini birlashtirsa, unga bolalarni joylashtirish usuli koʻrsatiladi: aylana, komandalar va hokazo.

Mashgʻulotning borishida uning mazmuni, tarbiya metodlari tavsif etiladi va pedagogning mashgʻulotni birinchi shaxs nomidan batafsil, izchillik bilan bayon qilinishdan iborat boʻlishi yoki (pedagogning shaxsiga qarab) asosiy mazmuni kartochkalarda ifodalangan tezisli plandan tashkil topishi mumkin.

Mashgʻulotning borishini modellashtirishda uning davomiyligi va strukturasi hisobga olish zarur. Sinf tarbiyaviy mashgʻuloti olti yoshlilar uchun 15-20 daqiqadan oʻn-oʻn bir yoshlilar uchun 1-2 soatgacha davom etishi mumkin.

Mazmuni va metodlari boʻyicha xilma-xil boʻlgan sinf mashgʻulotlarini samarali oʻtkazish maqsadida uning asosiy toʻrt bosqichdan iborat boʻlishiga amal qilish maʼqul: 1. Tashkiliy qism (0,5 - 3 min.).

Pedagogik maqsad: bolalarni oʻquv faoliyatidan faoliyatning boshqa turiga koʻchirish, ana shu faoliyat turiga qiziqish, ijobiy his-tuygʻular uygʻotish.

Tipik xatolar: darsning boshlanishini aynan takrorlash, uning vaqt jihatidan uzoq davom etishi.

Tavsiyalar: tashkiliy qismida kutilmagan holatni yuzaga keltirish, yaʼni topishmoqlar, muammoli masalalar, oʻyin davri, tovush yozuvlari va hokazolardan foydalanish; bolalarni uyushtirish shakllarini oʻzgartirish; boshqa binoga (matematika, tabiiy fanlar, fizika, musiqa sinflariga, kutubxonaga, maktab muzeyiga) oʻtkazish yoki ularni sinfda gilamcha

144istida, aylana shaklda joylashtirish bolalarning darsdan tashqari faoliyati samarali koʻchishiga yordam beradi. Bu boʻlajak mashgʻulotga qiziqish, ijobiy his-tuygʻular uygʻotadi. 2. Kirish qismi (butun mashgʻulot vaqtining 1/5 qismidan 1/3 qismigacha).

Pedagogik maqsad: bolalarni faollashtirish, ularni tarbiyaviy taʼsiriga moyil qilish. Pedagog oʻzining pedagogik maʼlumoti haqiqatda bolalarning imkoniyatlari, shaxsiy sifatlari, mazkur mavzu yuzasidan xabardorlik darajasi, emotsional kayfiyati, faollik, qiziqish darajasi bilan qanchalik mos tushishini aniqlaydi. Bu bosqichda pedagogdan bolalarni qiziqtirishgina emas, balki mashgʻulotning borishi davomida unga qanday tuzatishlar kiritishi kerakligi va tuzatishlar qanday xarakterda boʻlishini aniqlash talab etiladi. Masalan, pedagog oʻzi maʼlum qiladigan

narsalarning yangiligiga umid bogʻlab, hikoyani planlashtirgan edi, ammo kirish suhbat bolalarning bu muammoni bilishini koʻrsatdi. Bunday holda pedagog hikoyani suhbat yoki oʻyin vaziyati bilan almashtirishi zarur. Shunday qilib, kirish qismining maqsadi bolaning shaxsiy tajribasidan mashgʻulot mavzusiga «koʻprik tashlash»dan iborat.

Tipik xato - pedagogning kutilmaganda bolalarning taʼsirlanishidan (bolalar pedagog kutayotgan narsani aytmashligi yoki qilmasligi mumkin) qoʻrqqani tufayli bu bosqichni inkor etishi.

Pedagog mashgʻulotning kirish qismini bolalarning faolligiga emas, balki shaxsiy faollik asosiga quradi, teskari aloqani mensimay, bolalarga passiv tinglovchilar rolini beradi. U bolalarning emotsional kayfiyatini eʼtiborga olmaydi.

Tavsiyalar kirish qismi mashgʻulotning mazmuniga qarab kirish suhbatidan (bilish), xarakteridan, estetik va axloqiy mashgʻulotlar yoki aqlni «charxlab olish» topshiriqlaridan (viktorina, konkurs va h.k.) iborat boʻlishi mumkin.

Birinchi holatda savollar, ikkinchisida topshiriqlar bolalar uchun qiziqarli boʻlib qolmay, pedagogga oʻquvchilarning tayyorlangan materialni idrok qilishga tayyorligi haqida axborot berishi kerak. Kirish qismida pedagog bolalarning boʻlgʻusi mashgʻulot haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi, ularning faoliyatini tashkil etadi, yaʼni baholash sistemasi bilan tanishtiradi, mashgʻulot planini maʼlum qiladi, ularni komandalarga boʻladi. Baholashning anʼanaviy tizimida pedagog aniq mezonlarni berishi, zarur qoidalarni tushuntirishi kerak.

Bolalar komandalarga boʻlinganda ularning xatti-harakatlarini raqobat asosiga emas, balki hamkorlik asosiga qurish lozim. Buning uchun quyidagi usul samaralidir: komandalarga toʻgʻri javoblar uchun ochkolar oʻrniga qirqib ajratilgan rasmning boʻlakchalari tarqatiladi. Mashgʻulotning yakuniy qismida bu boʻlaklardan umumiy rasm yigʻiladi hamda ballar miqdori emas, balki umumiy natija muhimligi ayon boʻlib qoladi.

Mashgʻulotning kirish qismida bolalarni faollashtirishning turli-tuman metodlari hamda vositalaridan: muammoli suhbat, rebus, krassvord, topqirlik va chaqqonlikka doir topshiriqlar va hokazolardan foydalanish mumkin. 3. Mashgʻulotning asosiy qismi vaqt jihatidan eng davomli boʻlishi kerak (mashgʻulotning 2/4, 1/3 dan sal koʻproq qismi).

Pedagogik maqsad: mashgʻulotning asosiy gʻoyasini amalga oshirish.

Tipik xatolar: bolalarning qisman yoki butunlay passivligida pedagogning faolligi. Metodlarning bir xilligi - faqat hikoya yoki suhbat.

Ko'rgazmalilikning yo'qligi, foydalaniladigan tarbiya vositalarining juda ham kamligi. Ongni shakllantirish metodlarining xulq-atvorni shakllantirish metodlaridan ustunligi. Darsning o'quv muhiti yaratilishi. Ibratlilik, o'rganish, nasihatgo'ylik qilish.

Metodik tavsiyalar: agar bolalar maksimal ravishda faol bo'lsalar, mashg'ulotning rivojlantiruvchi, to'g'rilovchi, shakllantiruvchi, tarbiyalovchi, ta'lim beruvchi vazifalarini amalga oshirishda tarbiyaviy samara yuqori bo'ladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotda bolalarni faollashtirishda darsdan farq qiladigan alohida emotsional muhitni yaratish birinchi darajali ahamiyatga ega. Masalan, bolalardan qo'llarini ko'tarish, o'rnilaridan turish talab etilmaydi. Intizomni saqlab turish uchun alohida qoidalar joriy qilinadi.

Bir masala yuzasidan bir necha o'quvchi o'z fikrini bildirishi eng qulaydir. Pedagogning nutqida «to'g'ri», «balli», «ofarin» deb baholaydigan fikrlaming bo'lmasligi, baholar o'rniga xayrixohlik, his-hayajon, pedagogning his-tuyg'ularini ifodalovchi, qoyil qolish bilan aytilgan «Na». «Juda qiziqarli». «Yangi xabaring uchun rahmat», «Shundaymi?», «Buni qarang-a!» kabi iboralardan foydalanish iliq, xayrixohlik muhitining yaratilishiga yordam beradi.

Agar pedagog xulq-atvorni shakllantirishning xilma-xil metodlaridan iloji boricha ko'p foydalansa: vaziyatni, o'yinni tarbiyalovchi mashqlar, o'rgatish, topshiriqlar berish, mashg'ulotga turli xil faoliyat turlari: mehnat, ijodiy ishlar, sport elementlari va hokazolarni kiritsa samaradorligi oshib boradi. Pedagog turli faoliyat turlarini tashkil etishda bolalarni komandalarga birlashtirar ekan, ularni bir-birlari bilan erkin muomalada bo'ladigan qilib joylashtirishi, vazifalarni esa har bir ishtirokchi o'zi uchun alohida emas, balki o'zini jamoaning bir qismi deb his etadigan qilib taqsimlashi kerak. Topshiriqni bajarish uchun vaqt berishda komandaga uni bajarishni muhokama qilishiga vaqt ajratish va komanda vakilidan tayyorligini so'rash lozim. Shunday taqdirdagina bolalarda faoliyatning umumiy maqsadi, xilma-xil vazifalar va hamkorlik uchun sabab (motiv)lar bo'ladi.

Ongni shakllantirish metodlari bolalarda e'tiqodning, amaliy yetik (axloqiy) tushunchalarning tarkib topishiga yordam berishi kerak. Bu maqsadlarda hikoya metodini o'quvchining axboroti, dokladi tarzida o'zgartirish, tez-tez munozaradan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning quyidagi ommaviy shakllarida

bolalami munozara qoidalariga o'rgatish lozim: - Shuni yodda tutingki, bahslashuvchilar haqiqatni izlaydilar, ammo uni turlicha tasavvur qiladilar; bahsda umumiy mazmunni aniqlash, keyin esa qarashlardagi farqni oydinlashtirish va bunga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak. - Munozaraning maqsadi - tomonlardan birining haqligini aniqlash emas, balki haqiqatni qaror toptirishdir. - Haqiqatni opponent shaxsiga ayblar qo'yish bilan emas, balki faktlar yordamida qidirish zarur. - So'zlovchini avval hurmat bilan tinglash, keyin esa o'z nuqtayi nazarini bildirish lozim. - Mashg'ulotning yakuniy qismi.

Pedagogik maqsad: bolalami egallagan tajribalarini o'zlarining maktabdan tashqi hayotlarida amalda qo'llashga moyil qilish (xohish uyg'otish) va mashg'ulot qanchalik muvaffaqiyatli bo'lganligini aniqlash.

Shunday qilib, yakunlovchi qism pedagogning bolaga boshqa muhitda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishiga imkon beradi.

Tipik xatolar: bu qism umuman inkor qilinadi yoki «Yoqdimi?», «Yangidan nimalarni bilib oldingiz?» qabilidagi ikki savoldan iborat bo'lib qoladi.

Tavsiyalar: dastlabki natijalami aniqlash uchun krossvord, kichik viktorina, berilgan savolga uzoq o'ylamay tez javob qaytarish, o'yin vaziyatlari kabi bolalarni qiziqtiradigan test xarakteridagi kontroi topshiriqlar. Bolalarning egallash tajribalarini shaxsiy hayotlarida qo'llashga doir turlicha tavsiyalar berish. Bu mazkur muammoga doir kitoblarni ko'rsatish, bolalarning mashg'ulotda egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llashi mumkin bo'lgan vaziyatlarni muhokama qilish bo'iishi mumkin. Hosil qilingan tajribani qo'llashga doir bolalarga maslahatlar: ular o'z yaqinlariga nimalarni gapirib berish, mazkur mavzu yuzasidan nimalar haqida so'rash mumkin; qayerga borish, u yerda nimalarga e'tibor berish, qanday o'yinlar o'ynash, mustaqil ravishda nimalar qilish va hokazo. Yakunlovchi qismda mashg'ulot mavzusini kelgusida yana yoritib borish zarurati bormi, bor bo'lsa buni qanday yo'l bilan amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotning yakunlovchi qismidan pedagog bundan keyingi sinf mashg'ulotlarini o'tkazishda bolalar tashabbusini rivojlantirish uchun ham foydalanishi mumkin.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning individual va ommaviy shakllari, agar ularni tashkil etish va o'tkazishda ota-onalar bevosita ishtirok etsalar bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ancha samarali bo'ladi.

2.3. O'qituvchi pedagogik faoliyatidagi psixologik to'siqlar

Insonda qachonki u o'z g'oyalarini amalga oshirsa, o'z qobiliyatlarini ishlatsa va shu odam uchun o'zgacha subyektiv mazmunga ega bo'lgan, o'z ishlariga va o'z qadriyatlarining tizimiga qarshi chiqishga majburlanmaganda hayotdan to'liq qoniqish hissi paydo bo'ladi. Bu tizimning ortiqcha inersiyaligi, ishonchlarini psixikmustahkamligi deb ko'rsatiladi. Boshqa tarafdin, qadriyatlar tizimining harakatchanligi, o'zgaruvchanligi qabul qilingan qonunlarning qadrsizlanishida, har xil xatolarga yo'l qo'yishda aks etadi.

Insonning tashqi va ichki muhitidan chiquvchi ma'lumotlarning hammasi qadriyatlar va to'siqlar tizimi tomonidan kuzatiladi. Psixologiyada psixologik to'siqlar odamga ma'lum bir harakatni muvaffaqiyatli bajarishga xalaqit qiluvchi ichki to'siqlar (istamaslik, qo'rquv, o'ziga ishonmaslik va hakoza) deb tushuniladi. Psixologik qarshiliklar yig'indisini himoyalash uchun ishlatib, tashqi muhitning turli xil akslarini yaratamiz. Har bir odam tashqi axborotlar yig'indisidan uning ruhiy hayoti bilan hech qanday qarshi chiquvchilarni kiritmay, o'zgartiriladigan ma'lumotni tanlaydi. Lekin dunyo haqidagi bu tasavurning saqlanishi anchagina fikrlash ijodiy jarayoniga to'siq bo'la oladi. Shuning uchun kirib keluvchi yangi ma'lumotlarni buzuvchi himoyalashning ta'siridan ishonchni ozod qilish degan masala kelib chiqadi.

Qadimdan yangi va noma'lum hodisalar odamlarda xavotir hamda qo'rquvtug'dirgan. Demak, salbiyjinslarning paydo bo'lishi bilan individual va jamlangan onglarning streotip bo'lishini hayot tarzi, insonparvarning qiziqishi va odatlariga qarashli bo'lgan innovatsiyalar, ularda ko'ngilsiz taassurotlarni paydo qilishi mumkin. Bu hoi hayotiy ehtiyojlarining xavfsizlik, himoyalash, o'zini hayotda topish bilan bog'liq. E.Yermolayeva tomonidan innovatsiyada quyidagilar ajratiladi:

- a) juda tez kiritiladigan innovatsiyalar;
- b) juda ko'p kiritiladigan innovatsiyalar (doimiy);
- d) ko'p hajmli (tizimli) innovatsiyalar;
- e) alternativsiz innovatsiyalar.

Psixologik qarshiliklarning shunday transformatsiyasi yangilik kiritishning turli bosqichlarida har bir aniq holatlarda (obyektiv va subyektiv) to'siqlar determinantini o'rganish, uni turli usullar bilan boshqarishning yo'llarini ishlab chiqish va tadqiq etishni talab etadi.

M.V.Kroz uning ko‘rinishini ijtimoiy o‘rgatishi, aniqrog‘i, ushbu o‘rgatishning negativ qutbi deb hisoblaydi. Shunday yo‘nalish muammoning chegarasini kengaytirishga yordam beradi hamda psixologik to‘siqlarda ham salbiy, ham ijobiy qutblarida diqqatni o‘rnatadi.

Himoyalalanishning barcha turlari umumiy xususiyati - ularni anglay olmaslik, shuning uchun himoya qiluvchi mexanizmlar ishining faqat tashqi ko‘rinishlarini kuzatsa bo‘ladi. Odatiy xulq zaiflashadi: qo‘rquv, o‘ziga ishonmaslik, xavotirlanishlar paydo bo‘lishi mumkin. Yoqimsiz ma‘lumotni eshitib, inson unga har xil munosabatda bo‘lishi mumkin. Tezda uning ahamiyatini kichraytirish (unga istalmas edi) uni bajarilishiga imkoniyat yo‘qligini bilib o‘z xohishlarining darajasini pasaytirish, uning muvaffaqiyatsizligi omillariga diqqat qilmaslikka urinadi. Psixologik himoyaning yaqin o‘rganilgan ko‘rinishlari maxsus nomlarga ega bo‘ldi: inkor etish, susayish, ratsionaliatsiya, chiqarib qo‘yish, proyeksiya, indentafikatsiya, begona bo‘lish, o‘rin almashish va boshqalar.

Pedagogik jasorat o‘z xulqining o‘zgarishi haqida yechimni qabul qilishida eng muhim onlardan biri bo‘ladi. Shu paytda kuch, vositalar, noma‘lum munosabatda yutuq munosabati qo‘rquv va yangilanish bilan qiziqishlarning aralashmasidan yaratiladi.

Izlanish jasoratining ma‘nosi yangilashga qiziqligining to‘g‘ri yo‘lini tanlashdan iborat. Kirituvchi jasorat yangilanishni yangiliklar kiritishga o‘tkazib ko‘rishda shunday o‘tkazishning istagan va zararli natijalarning solishtirishdan kelib chiqadi.

Pedagog xulqining o‘zlashtirish mexanizmlaridan biriga indentifikatsiya qaraydi. Indentifikatsiya - ongsiz ravishda o‘zini boshqa odam bilan solishtirish va o‘ziga yoqqan hissiyot sifatlarining unga o‘tkazilishi. Bu o‘z individualligining chegaralarini kengaytirish bilan o‘zini boshqa insonga kotarib qo‘yishi ekan: agar inson o‘zining meniga boshqasini kiritisa, uning fikr, his yoki harakatlarini olib keladi. O‘zini «namuna» o‘rniga qo‘yib ko‘rib, o‘zining «men» markazini umumiy fazoda joylashtirib, u mehrligni, emmotsiyani, boshqasini o‘zidek sezish va uni yaxshiroq bilib olish mumkin, ammo kechinmalarini tushunishi umumiy his va tuyg‘ular orqali individualliklarning «qo‘shilishini» anglatadi. Indentifikatsiya faqatgina o‘zini birortasi bilan solishtirganda emas, balki o‘zini ma‘lum bir bo‘limga, sinfga psixologik tur ko‘rinishida ishlanadi. Demak, o‘qituvchilar, uyoki bu pedagogik oqimning davomchilari («Zankovetslar» va boshqalar) o‘zining ichki

dunyosiga ulartomonidan hurmatning qadriyatlarini kiritadi. Pedagogik oqimga kirishi o'z hurmatini qadriyat sifatida tutib, o'z hurmatini oshiradi, chunki o'qituvchi o'zidan batand, zo'r hodisaga qatashtrigini sezadi. Bu o'qituvchiga kuchi bo'iishga, himoyasizlikni yechishga yordam beradi. Identifikatsiya o'zini tarbiyalash vositasi bo'lib, uning asosi boshqa odamlar his va ahvoni bilan emotsionali umumiylikni sezishdan iborat.

Turii xii psixologik himoyalarni ko'rib chiqish odamlarini tinchlantiradi, qadriyatlar tizimini o'zgartiradi va bu tizimga yangilanishni kiritadi: boshqalar esa yangilanishning inkor etishiga yordam beradi va o'z ichki «men»ni saqlab qoyadi. Lekin pedagogik yangilanishlarni o'zlashtirishni ijtimoiy himoyasini yaratuvchi ijtimoiy jamoaga, pedagogik jamiyatga bog'liq. Ijtimoiy himoya - bu jamiyatda bor bo'lgan xalq usullari, ular qarama-qarshilikdan va tushunmovchilikdan tug'liadi.

Antipedagogik to'siq - jamiyatshunoslik, psixologik adabiyotda an'anaviy ishlatiladigan tushuncha. Psixologik, ichki shaxsiy to'siq o'qituvchining individual xossalardan va o'zi kiradigan jamoaning ijtimoiy-psixologik beqarorlikdan kelib chiqadi.

Uning ko'pchiligi pedagogik yangilanish holatida ishlatiladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Bizda bu holat bor. Tarkib qilinadigan yangilanish bilan o'xshash beqarorlikga bir misol keltiriladi. Muxolifkar bu holatda farqlarning mazmunini va o'xshashligini inobatga olishi lozim. Ikki taraf bahs san'atiga qarab ish tamomlashga imkoniyat bor.

2. «Bu narsa bizda chiqmaydi». Quyidagi yangilanishni imkoniyatsiz qiluvchi obyektiv sharoitlari, xususiyatlari sanab chiqiladi, ularning hammasi tanqidi bo'lmaydi: agar u «o'zini» bo'lsa, tashqi tartibning tushuntirishi ko'p, agar ichida bo'lsa, joydagi xossasiga e'tibor beriladi («bizda moddiy asos yo'q»).

3. «Bu narsa bizning asosiy muammolarimizni yechmaydi» - qisman yechimlarining tarafdosh fikri. Shu vaqtda innovatsiya haqiqiy rivojlanishning uncha mard va aktiv bo'lmagan o'tkazuvchining xossalari ega bo'ladi. Agar bosh va ikkinchi darajalikning - interpretatsiya ko'rib chiqiladigan bo'lsa, o'lib qo'yilishining imkoni doimo kafoatlanadi.

4. «Buni qayta ishlanishni talab qiladi». Yangilanishda uning haqiqiy kamchiliklari, chetlanishlar, ishlay olinmagan elementlar chiqib turadi, chunki har qaysi loyiha ish rejasi ko'rib chiqishga muhtoj. Lekin

shunisi bilan yangiashni «tayyor emas», «oxirigacha o'yiab olinmagan» va agarda ishiatishga juda kerem xossasiga ega bo'iadi.

5. «Bu yerda hammasi ham bir xii bo'ia oimaydi» - ayrim detaiiaming kesib oiishga qarorgohni, shuning uchun yangiashni o'zining pedagogik potensiali bo'yicha «begunoh» bo'ladi, «o'rgatiladi» yoki bu sababdan ma'nosiz bo'lib qoladi yoki seziladigan taassurotlar bo'lmaydi.

Boshqa fikrlar ham bor. Boshqa mualliflar, maktablar tomonidan chiqariladigan quyidagi yangilanishga real alternativa tushuniladi. Shunda opponent parallel innovatorlar bilan raqobat munosabatda qo'yiladi. Bu holat masala yechish muammosini ular orasidagi o'zaro munosabatlar sohasiga o'tkazadi. Yangilashning hayotiy antipedagogik ongning va yangilanishini o'zlashtirish bosqichidagi xulqning kelib chiqishini xarakterlaydi. Boshlangan pedagogik jarayon yangilashga o'tsa, uni to'xtalishida metodlarning yaxshi ishlab chiqilgan to'plami mavjud. Ular orasida eng keng tarqalganlari quyidagilar hisoblanadi:

a) «konkretlashgan hujjatlarning usuli» - yangilashning, uning mazmunining, hajmining keng tarqalishiga yo'l qo'ymaslik;

b) «bo'lakli kiritish metodi» - birgina elementning kiritilishi;

d) «doimiy tajriba metodi» - tajribali situatsiyada sun'iy ushlab olish;

e) «hisobot kiritish metodi» - haqiqiy kiritishning o'zgartirishi;

f) «parallel kiritish metodi» - yangilashning eskisi bilan birga mavjud bo'lishi. Elementlarning ko'pchiligi yangilarga almashmaydi, ammo ular bilan bog'liq bo'lgan yangilanishida harakatlarni davom etadi.

Psixologik to'siq bilan bog'liq bo'lgan yangilanishga qarshilik degan o'zgacha ichki sabablar mavjud. Ular orasida omilkor emasligini ko'rsatishdek, shaxsiy mulkdorsizligidan, o'zini o'zi baholash haqida xavotirlanish, qo'rquvni aytsa bo'ladi. Innovatsiyalarni o'zlashtirmaslik sabablaridan biri rivojlanmagan, yecha olsa bo'ladigan motivatsiyadir, shunda o'qituvchilarda omadsizliklardan qochish usullari bo'ladi.

Yangi o'qituvchi uchun o'zining diqqat-e'tiborini bir joyga jalb etish hamda o'z kechinmalari, o'z xulqiga diqqat qilishi xos. Yosh o'qituvchi yangilanishga mardona intiladi. Kichik yetakchi o'qituvchining qiziqishlari, kechinmalari, ish usullariga o'tadi. O'quvchining tushunishiga yordam beruvchi, u bilan muloqot o'rnatish, uning rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan yangilanishlar o'qituvchini qiziqtiradi. Quyidagi holatda o'qituvchining markazlanishi faqat o'quvchilarga ma'lum bir ma'noni o'tkazish uchungina emas, balki ijodiy

izlanish va shaxsiyatining o‘zida borishiga qaratiladi. Ilgariroq ko‘rsatilgan pedagogik to‘siqlarga ijodiy to‘siqlarni kiritsa bo‘ladi. Ular quyidagilar:

1. Boshqa odamlarga o‘xshash, ulardan o‘z mulohazalarda, xulqlarda farqlanmaslikka intilishda ijoddan ustun bo‘lishda konformizmga ishtiyoq.

2. Odamlar orasida «oq-qora» (o‘zgacha) bo‘lishi va tentak ko‘rinishidan qo‘rquv. Bu ikkala yo‘nalishlar o‘qituvchining birinchi mustaqil pedagogik xulqida, birinchi ijodiy mulohazalar, pedagoglar, ota-onalar, bolalar orasida kerakli taskinlarni topmasa paydo bo‘lishi mumkin.

3. Boshqa insonlarning fikrini tanqid qilish va o‘zining yoqtirmasligi uchun agressiv (serjahi) ko‘rinishdan qo‘rquv. Bizning madaniyat sharoitida quyidagi fikr keng tarqagan: agar odamni tanqid qilsang - o‘zingning hurmatsizligingni bildirasan.

4. Biror insonning vaziyatini tanqid qilsak, u tomonidan qasd qilihdan qo‘rquv. Odamni tanqid qilsak, u javob reaksiyani qaytaradi. Shu reaksiyadan qo‘rqib, o‘z ijodiy tafakkuri - rivojiga to‘siq qo‘yishimiz mumkin.

5. Shaxsiy xavotirlanish, o‘ziga ishonmaslik, o‘zini saibiy o‘zlashtirish («Men konsepsiya»), o‘z shaxsiyatini bahoiashda pasayishlar bilan xarakterlangan.

6. Tafakkur rigidiash («yopishqoqlik»)ni Arxangeiskiy o‘zlashtirgan bilimlarni ularning xiima-xiiiik imkoniyatisiz yaxshi tushunib olish degan xossasi deb ko‘rib chiqadi.

Odatiy o‘yash qobiliyati ko‘pchilik hoiarda yangiliklarni qabul qilmasdan, ularni chetlab o‘tishga olib keiadi. O‘qituvchi to‘satdan keiuvchi yangiliklarni o‘zlashtirmay ijodga intilishga urinmaydi. Tafakkurning yangi fikriga, o‘z xuiqining modeida doimiy o‘zlashtirishda ixchamligi bo‘imasa, o‘zgaruvchan muhitga mos keioimaysiz. Dunyo o‘zgaradi va har qaysi odam birgailikda o‘zgarishi kerak, aniq, to‘g‘ri tasavvurlar o‘zgarmay turib vujud bo‘imaydi, deb tushunish kerak. Eskirgan tasavvurlarning buzilishi o‘qituvchining kasbiy bilimida kamchilikka ayianadi va u yangi taxminlar bilan to‘ldirishga urinadi. Lekin buni o‘zgartirish oson emas. chunki o‘yashlar o‘rnatiisa, o‘z fikrini o‘zgartirmaslikka harakat qiliadi, shunda paydo bo‘igan qarashlar tasavvurni susaytiradi, ya‘ni fikrlarni chiqarganda ozodlikka chek qo‘yadi.

O‘tmish yondashuvlarining qotib qo‘yish - stereotipi yangi fikrlar va kashfiyotlar yo‘lida turadi. Yangi usullar pedagogik jamiyatda qizg‘iniik

tugʻdiradi, shu hoida oʻqituvchi oʻz kechinmalarini oʻz-oʻzi bilan keishmovchilikka keiadi.

Boshqa hoida u pedagogik jamoa madaniyatiga moslashadi. Qachonki u «kerakli» ish qissa oʻzining ruhiy sogʻligʻini asray oadi. Lekin bu yomon ichki keishmovchiliklarga oib keiadi.

Pedagogik xuiq - bu oʻz individualligining maksimai rivoj lanishi, oʻzini muhim boʻlishini anglash. Oʻqituvchi shuni bilishi kerakki: agar inson oʻzining axloqiy, intellektual bir butunligini buzsa, oʻz qadriyat, gʻoyalarning boʻlagidan voz kechsa, demak, u baxtsiz boʻladi va ozodligini yoʻqotadi. Ozodlik boshqalarning hurmatini hamda shaxsini izzat qilishga oib boradi. Agar oʻqituvchi oʻzining ichki bir butunligiga yetsa, boshqalarga qaraganda, omadi kam boʻlsa ham, iekin oʻziga ishonchi bor, boshqalarning fikriga qoʻshilmaydi. Bu hodisa uning ijodiy ishlab chiqarishni aniqaydi, chunki u oʻz faoliyatining oʻzgarishlarini ijobiy qabul qiladi. Chunki qiyinchiliklar bilan mustaqil kurashga tayyor boʻladi. Jamiyatda shunday maxsus usullar «borki», insonni pedagogik faoliyatni tamomlashga majbur etadi.

Ijtimoiy toʻsiqlarni shakllantiruvchi operatsiyalaridan biri inson ustidan kulishdir.

Insonni yenga olish uchun uning oʻz boʻlmagʻurligini anglab olish va sezdirish kerak. Boshqa operatsiya - ijtimoiy statusni tekshirish, ham yuqori, ham past statuslar oʻz afzallik va kamchiliklariga ega. Odatda oʻqituvchi afzalliklar va kamchiliklarni qoʻshib yozish oʻqituvchining statusni aniqlashdan soʻng va statusga binoan amalga oshadi. Bu narsa koʻproq oʻzini oqlash va oʻz mavqeyini himoyalagan chuqur ehtiyojini bildiradi. Agar oʻqituvchi pedagogik jamoaning kutishlariga munosib boʻlmasa, unda uyat hissi - his uygʻonadi. Shu hisni oʻqituvchi «Men» konsepsiyaga binoan boshqaradi. Shu konsepsiya shaxsiy tajriba emas, balki madaniyat natijasidir. Eng muhim operatsiyalardan biri - personifikatsiya ijtimoiy harakatlarni aniqlaydi. Personifikatsiya proyeksiya va indentifikatsiya mexanizmlarni bajaruvi, shunda salbiy qiliq va uygʻotishlar qanday sabablarga koʻra mos boʻlgan oʻqituvchiga yoʻnaltiriladi. Bunday holatda innovator - oʻqituvchining salbiy xossalari: urishqoq, mahmadona, kasbiy bilim va koʻnikmalarni uncha bilmaydi, deb oʻzidan qoʻshib yozadilar.

Oʻqituvchi pedagog faoliyatni olib borishga xalaqit beradi. Psixologik toʻsiqlar, «komplekslar»ni yaxshi oʻzlashtirib, ulardan kechishi zarurdir. Xulqning va ichki dunyosining standartlashtirishi pedagogning faoliyatida yoʻl-yoʻriq qonunlari juda katta ahamiyatga

egaligi bilan kuzatiladi. Ongda pedagogik faoliyatining shaxssiz tayyor namunalari ko'payib boradi. Biroq jamiyatning rivojlanishi o'qituvchidan pedagogik xulqni, ya'ni aktiv va tizimli ijodni uning pedagogik faoliyatida talab qiladi. O'qituvchining pedagogik faoliyatini olib borishga xalaqit beradigan psixologik to'siqlarni umumlashtirib yangilik kiritishlarga o'qituvchilarning ko'proq qarshilik bildirish sabablarini ta'kidlab o'tish zarur.

2. O'zgarishning maqsadi o'qituvchilarga tushuntirilmagan yashirin gapning ikki ma'nosi xavotir va noma'lumlikni keltiradi. Noma'lumdan qo'rquvi har qaysi yangi usulga o'qituvchilarni yo'llashi mumkin.

3. O'qituvchilar yangilikni kiritishda, rejalashuvda va ishlab chiqarishda qatnashmaganlar.

4. Jamoa an'alarini diqqatga olmaslik o'z ishining odatiy usuli.

5. Yangi usullarga subyektiv munosabati va qo'rquv, status, yo'qotish hislari.

6. Ish hajmining ko'payishi rahbar o'qituvchilar faoliyatida, o'zgarishlarni rejalashtirmasa, shunda qo'rqish paydo bo'ladi.

7. Yangilik kirituvchi initsiatori (g'oyali odam) hurmat va ishonchga ega bo'lmasa. Afsus, ko'pincha o'qituvchilar loyihaga emas, uning muallifiga qaraydi. Agar bu insonning hurmati kichik bo'lsa, pedagog uning qadriligiga qaramay, bu odamga ishonchsizligi uning g'oyasiga o'tkaziladi. o'qituvchi ijodining muammolarini shaxsiyatning axloqiy munosabatiga qarab mulohaza qilish mumkin. Qancha odamdan foydali g'oyalarni topsa, shunda uning savobiy kuchiga qaratilgan yoki egoistik hislar uni boshqaradi deb uni javobgar deb qo'yadi. Agar ijodiy aktivlik asossiz va absolut qadriyatlarga e'tiborini qaratmasa, demak, bu aktivlik juda xavfli. Yosh o'qituvchining bilim berish va kasbiy faoliyatida ijodiy rivojlanishi uchun ko'p variantli yechimlarga olib boruvchi mashqlarni topmaganlar. M.V.Klarining «Chet el pedagogik izlanishlarda ta'limotning pedagogik modellari» monografiyasida katta sinf o'quvchilari bilan darslarni tashkillashtirish asosiga kiritilgan quyidagi masalalar taqdim etiladi: • Ijodiy yaratishlarda ichki to'siqlarni yo'qotish. o'quvchilar ijodiy izlanishga tayyor bo'lsa, ularga o'quvchilar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarda o'zida ishonchni o'rnatishga yordam berish lozim. Ular qabul qilinadimi yoki ular ustidan kulinadimi, xavotirlanishiga yo'l qo'yimasligi kerak. Ular xato qilishdan qo'rqimasligi kerak. • O'ngsiz ishga e'tibor berish. Agar muammo diqqatning markazida joylashmasa ham miyaning ongsiz qismi uning ustida ishlaydi. Ayrim g'oyalar chiqib qolsa, ularni vaqtida eslab qolish kerak hamda tushuntirib,

joylashtirib qo'yish va foydalanish kerak. • Baholashdan chetda yurish. Bu ham o'quvchilarning g'oyalar oqimini kengaytirish, muammoning ustidan erkin fikrlashiga ko'proq vaqt va e'tibor berishga imkoniyat beradi. • o'quvchilarga ijodiy izlanish va yangi tasavvur - bog'lanishlarning topilishi uchun metafora va o'xshatishlarni ishlatilishiga imkonlar hisobiga kengayadi. ■ O'rta va oliy maktablarda ixtirolar bilan ishlash, obrazli tafakkurga chaqirish, obrazlarning yaratilishida va ularni anglashiga yo'nalishida spantallikning birlashuvini kiritadi. • Aqliy mashqlar imkoniyatini berish. Boshqa holatlarda o'rganishi uchun o'quvchilarga mashqlar beriladi: sababi - yechimni topish holatida ular o'zgacha his etadi, o'zini yo'qotishga yo'l qo'ymaslik. • Tasavvurning aktivligini qo'llab-quvvatlash bu ijodiy o'ylashning asosi bo'ladi. Tasavvurni, xayolni o'z joyiga qo'yish, ularni nazorat qilish, ichki ozodalik yaratilgandan so'ng hamma gaplar mulohaza qilinadi va ko'rinadi. • o'zlashtirishni rivojlantirish, sezish, o'zlashtirishni kengaytirish va to'ldirishlarni kuchaytirish.

o'quvchilarga ularning ijodiy faoliyatida ma'nosining umumiy yo'nalishlarini anglashga yordam berish, o'z imkoniyatlarining rivojlanishini bilish. Shunday tushunchasiz ijodiy faoliyatni kuchaytiradigan mashqlar o'yin deb o'zlashtiriladi.

Sanab o'tilgan maslahatlar erkin muloqotda, fikr almashuvda, ijodiy bahslashuvda, eksperimental ish jarayonida bo'lib o'tishi mumkin.

Mashg'ulotlarning tashkil etishda asosiy shart - o'quvchilarni ijodga shaxsiy kiritish. Shunday ta'lim bilim, idroklarni shaxsiyat sohasining shakllantiradi, katta sinf o'quvchilari ochiq, o'zlashtirish va boshqa nuqtayi nazarini tushunishi uchun qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Misol uchun qobiliyatlar rivojlanishining natijasini ko'rib chiqamiz: «Shuni ko'rib o'tish kerakki, hozir nimalarni mulohaza qilsa, hammasi tushunarmikan...Nimagau o'z qarashigameni ishontir-moqchi?» Menimcha: «Ma'lumotlarim yetarli emas: to'la-to'kis bilib olsam, yaxshi bo'ladi...

Uni nohaq deb bildiryapmanmi yoki ochiqchasiga o'z munosabatimni bildiryapmanmi? Bu hoi ishonchliroq va men o'z fikrimni o'zgartirishim kerak»...

O'quvchilarda ijodiy fikrlash rivojlanish metodlarini va mazmunini didaktik izlash bilim va usullarini shakllantirishga olib keldi. Shunday tadqiqiy oriyentatsiya o'quv jarayoniga pedagogik yondashuvni o'ziga kiritadi, shularda ta'limning maqsadi yosh o'qituvchilarda yangi tajriba, kasbiy-tadqiqiy faoliyatning qurollanishining, rolli va o'xshatish modellashlarini o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Bolalar tomonidan mazmunan ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan aniq shakllarga murojaat qilamiz. Ta'lim modellarining misollari orasida biz muammolar tizimi yechimi asosida ijobiy izlanishni tashkillashtirishning bahslashuv va didaktik o'yinlarini ajratamiz.

Sanab o'tilgan modellar orasida biz didaktik va rolli o'quv o'yinlarga alohida joy beramiz.

Didaktik o'yinlar metodikasinnig asosiylari ularning tizimida o'rnatilgan, shu yerda 4 bosqichni ajratsa bo'ladi.

Oriyentatsiya - o'rnatiladigan mavzuning tasavvuri, o'xshatilishi va uning qoidalar xarakteristikasi, o'yin mulohazalarining bayoni, o'yin o'tkazishda uning sahnalashtirilishi, o'yin mazmunining detallar ishlab chiqarishi katta ahamiyatga ega. Sahna - bu o'yinning tashkiliy va sujetli sxemasi, umumiy reja ekan.

Sahna odatda o'z ichiga shunday bilimlarni kiritadi: qiyin holatning tasviri, o'yin atributlari; o'yin harakatlarini, o'yin qatnashuvchilarining repertuarini ishlab chiqish; o'yin qatnashuvchilari uchun metodik ko'rsatkichlarni yaratish.

2.4. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish tushunchasi

Shaxsiy munosabatlar ta'lim jarayonining natijalarini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi.

Bolalarga insonparvarlik munosabati quyidagilardan iborat:

- bolalarga pedagogik muhabbat, ularning taqdiriga qiziqish;
- bolaga optimistik ishonch;
- hamkorlik, muloqot qobiliyatlari;
- to'g'ridan-to'g'ri majburlashning yo'qligi;
- ijobiy rag'batlantirishning ustuvorligi;
- bolalarning kamchiliklariga toqat qilish. Munosabatlarni

demokratlashtirish quyidagilarni belgilaydi:

- o'quvchi va o'qituvchining huquqlarini tenglashtirish;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi;
- Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyaga rioya qilish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar uslubi: taqiqlash emas, balki yo'naltirish; boshqarish emas, balki birgalikda boshqarish; majburlash emas, balki ishontirish; buyruq berish emas, balki tartibga solish; cheklash emas, balki tanlash erkinligini ta'minlash.

Majburlashsiz o'rganish. Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni g'ayriinsoniy va samarasiz vosita sifatida majburlashni bekor qilishdir. Muammo printsipti mutlaqlashtirishda emas, balki oqilona o'lchovni belgilashda. Umuman olganda, ta'lim majburlashsiz mumkin emas: bu ijtimoiy taqiqlar tizimini o'zlashtirishdir. Lekin jazo kamsitadi, ezadi, rivojlanishni sekinlashtiradi, qulni tarbiyalaydi. Majburlashdan voz kechish kerak, chunki u rad etishga olib kelmaydi.

Majburlashsiz o'rganish quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- majburlashsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik;
- qiziqarli o'qitishdan tug'ilgan ishtiyoq;
- majburlashni muvaffaqiyatga olib keladigan xohish bilan almashtirish;
- bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligidan manfaatdorlik;
- jamoa orqali bilvosita talablarni qo'llash.

Muloqotni demokratik uslubda tashkil etishdan maqsad, ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, pedagogik faoliyat markazida inson shaxsi turganini unutmaslik, insonga nisbatan bebaho boylik sifatida munosabat tuyg'ularini o'quvchilarda ham shakllantirish vazifasi bajariladi.

2. O'quvchilar bilai do'stona munosabat. Aslida muloqotdan maqsad o'quvchilar bilan do'stona munosabatni ro'yobga chiqarishdir. O'quvchi shaxsini xurmat qilish o'qituvchining insonparvarlik tuyg'ularidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muhabbat ko'rsatish va ishonish shart. Bolalarga nisbatan xurmat tuyg'usi ularning kuchiga kuch ko'shadi, o'z imkoniyatlariga ishonch tuygusini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish va munosabatni adolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do'stona muloqot o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi o'qituvchining axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. O'qituvchining o'ziga va o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

O'z faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi, ayniqsa, har bir o'quvchining kelajagiga umid bilan qarashi, unga individual yondashishga harakat qilishi, tarbiyaviy jazolash usullarini tartibsiz qo'llamasligi, o'quvchilar jamoasi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsadparni ko'yishga intilishi lozim. O'qituvchi ma'lum bir pedagogik mahorat sirlarini egaplashga intilmasa, o'z fanidan bilimi sayoz bo'lsa,

shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondashmasa, kommunikativ qobiliyatini tako millashtirib bormasa, o'quvchilar uni asta - sekin tan olmay qo'yishadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi muloqotida tuzatib bo'lmay xatoliklar paydo bo'lishi mumkin.

3. Muloqotni ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan boglab olib borish. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatlari ham muntazam ta'sir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati bo'lib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning tarbiyalanib, shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmui tushuniladi. Muhit tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit xususiyatlarini ifodalaydi. Ayniqsa, oila, maktab, do'stlar davrasi, tengqurlar kabilarni o'z ichiga oladigan mikromuhit shaxsni tarbiyalash jarayoniga muhim ta'sir etishi pedagog va psixolog olimlar tomonidan e'tirof etishgan. Oila muhiti o'quvchining tarbiyasi va komil inson sifatida shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega.

Shuning uchun o'qituvchi muloqotni tashkil etishda ota-onalar, mahalla faollari, uchastka nozirlari bilan doimiy aloqada bo'lib, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Muloqotda ijtimoiy hayot qonuniyatlarini hisobga olish, o'quvchilarni maqsadli tarbiyalashda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zamin yaratadi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, o'quvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o'rgatish, intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o'qituvchidan chukur bilimga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi.

1.5. Bolaga do'stona munosabat

Bolaga do'stona munosabat maktab hayotini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish jarayonlarida: dars mashg'ulotlari, darsdan tashqari ishlarda, maktab hududida, turli tadbirlarda o'quvchilarning o'quvchilar bilan, o'qituvchilar va maktab rahbarlarining o'quvchilar, ota-onalar bilan hamda o'zaro munosabatlarida amalga oshiriladi. Shu maqsadlar yo'nalishida ishlab chiqilgan bolaga do'stona munosabatdagi maktab dasturi bo'yicha o'quv seminarlari, treninglar, konferentsiyalar va boshqa tadbirlar maktablarda o'tkazib kelinmoqda. Bu tadbirlarda ishtirokchilarni bolaga do'stona munosabatdagi maktab tamoyillari va tashkiliy-pedagogik hamda psixologik masalalari bo'yicha nazariy, uslubiy bilimlar

va amaliy ish tajribalari bilan tanishtirish koʻzda tutilgan. Mazkur masalaga bagʻishlangan seminarlar, trening mashgʻulotlari, taqdimotlar, amaliy mashgʻulotlar uchun materiallar, maʼruza matnlari, oʻquv-metodik qoʻllanmalar malaka oshirish institutlari mutaxassislari, metodistlar tomonidan tayyorlangan. Maktab pedagoglarining bolaga doʻstona munosabatda boʻlishi maktab haqidagi bilim, koʻnikma, malakalarini oshirishi maktablardagi taʼlim va tarbiya sifati va samaradorligini oshirib borishda ijobiy natijalar bermoqda. Oʻquvchilarga doʻstona munosabatdagi maktabning qoida va tamoyillari koʻp yoʻnalishlarga ega boʻlib, bulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi: — taʼlim—tarbiya jarayonida maqsadga erishish uchun oʻquvchilar bilan hamkorlik, hamfikrlik ham ijodkorlik muhitini yaratish, oʻquvchilar bilan hamkorlikda qatʼiy nazoratni yoʻlga qoʻyish; — oʻquvchilarga munosabatda samimiylik, hurmat munosabatlarida boʻlish; oʻzaro munosabat madaniyatini rivojlantirib borish shakllarini joriy qilish; maktabda intizom qoidalariga rioya qilishni tatbiq qilish; oʻquvchilarga erkinliklar berish va nazorat qilish shakllarini joriy qilish; — oʻquvchilarga nisbatan, talabchanlik, adolatlilik va ishonch munosabatlarini oʻrnatish; — oʻquvchilarning qiziqishlariga, tashabbuslariga xayrixohlik va munosib sharoit yaratish va boshqalar. Bugungi kunda boshlangʻich sinflarda —Tarbiya|| darslarini oʻqitishning innovatsion shakllari va metodlari keng qoʻllanilmoqda. Oʻqitishning zamonaviy metodlarini qoʻllash oʻqitishi jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ana shunday samaradorlikni taʼminlovchi zamonaviy oʻqitish texnologiyalaridan biri taʼlim jarayonida oʻquvchilarning hamkorlikdagi jamoaviy faoliyatini tashkil etishdir.

Ayniqsa, boshlangʻich sinflarda oʻqitiladigan “Tarbiya” darsi hamkorlikda oʻqitish texnologiyalarini qoʻllash uchun keng imkoniyatlarga ega boʻlib, unda barkamol insonga xos boʻlgan - tashabbus koʻrsatish, mustaqillik, hamkorlik qilish, oʻzaro raqobatga dosh berish, faollik, muvafaqqiyat, gʻalaba qozonishga ishonch hissini tarbiyalash mumkin. Shuningdek —Tarbiya” darsi maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qila olishini nazarda tutadigan boʻlsak, hamkorlikda oʻqitish texnologiyalaridan foydalanish asosida oʻquvchilarning aqliy, maʼnaviy-axloqiy, jismoniy, ruxiy barkamolligiga erishish, bilimlarini egallash uslublari, oʻzlashtirgan bilimlarini yangi, turli vaziyatlarda qoʻllashga oʻrgatish, oʻz ustida erkin va izchil ravishda ishlash koʻnikmalarini hosil qilish mumkin deb oʻylaymiz.

—Tarbiya” darslarida axloqiy fazilatlarini egallash oʻquvchilarning hayotiy maqsadlariga aylanishi uchun oʻqitish jarayonida oʻquvchilarning

o'quv - bilish faoliyatlariga kreativ yondashish talab etiladi, ya'ni bola o'zining barcha jihatlarini yuzaga chiqara oladigan muhit yaratilishi lozim. Bu sharoitda o'quvchi-tashabbus ko'rsatishi o'ziga ishonch, burch va javobgarlikni his etish, mustakil fikr yuritish kabi xislatlarni egallashi lozim.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari ongli, ishbilarmon, bilimdon va faol o'quvchilarni shakllantirish jarayonini ta'minlovchi yuqorida qayd etilgan -hamkorlikda o'qish muhitining maxsus shakli hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxsning eng asosiy xislatlari sifatida eng avvalo-jamoatchilik, faollik, erkinlik va intizomlilikni shakllantirish zarur.

Har qanday faoliyatdagi faollik ishbilarmon, epchilikda va xarakatchanlikda namoyon bo'ladi. Hamkorlikda o'qish har bir o'quvchidan ana shu xatti-harakatlarni talab etadi. Faol odam jamoa ishlasa qarab tura olmaydi, jamoa ishiga tezda qo'shib ketadi, darsda faol o'quvchi diqqat bilan tinglaydi, berilgan vazifalarni bajaradi. Hamkorlikda o'qish jarayonidagi o'quvchi faolligi uning mustaqilligi va intizomliliigi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarbiya darslarida hamkorlikda o'qitish bilan o'quvchilarda faol faoliyatga haqiqiy tabiiy ehtiyoj paydo bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim dargohlarida o'quvchilarning o'z faolliklarini nomoyon qila olishlari uchun deyarli barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ta'lim jarayoning turli-tumanligi, nazariy bilimlarni amaliyotda puxta o'zlashtirish bilan uzviyligi, o'qitish va kasbiy malakalarni egallashning zamonaviy didaktik vositalari pedagogik texnologiyalardan foydalanish yoshlarning faollik ko'rsatishlari uchun zaruriy sharoitdir.

Ayniqsa Tarbiya darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta'lim jarayonida dastlabki muvaffaqiyatlar; darslarga qiziqish, o'zlashtirishning sifatli bo'lishi, boshlang'ich sinfdagi o'qishga qiziqishi, shuningdek, fanlarini chuqurroq egallashiga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'la boshlaydi. O'zini chetga olish, extiyotkorlik sekin - asta yo'qolib, uning o'rnini intiluvchanlik, mas'uliyatni xis qilish, g'oliblikka intilish o'zaro do'stona va jamoatchilik munosabatlari shakllanadi.

Bularning barchasi bugungi kunda boshlang'ich ta'limning jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga, barkamol shaxsning shaxsiy sifatlarining takomillashishiga va mustaqil O'zbekistonda ehtiyoj kuchli bo'lgan bilimli kadrlar tayyorlash sifatiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi — Tarbiya” darslarida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'rganishni aniqlaydi va mazkur darslarni taqvim-rejasini belgilaydi;

J ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlaydi;

J hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'tiladigan dars turi, dars strukturasi va borishini loyihalashtiradi;

J yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun test - topshiriqlarini tuzadi.

Ta'limda o'quvchi shaxsiga faoliyatiga yondashuv bu tizimning kontsepsiyasini tashkil etib, bunda shaxs “sub'ekti” kategoriyasi erkinlikka intilish, o'z-o'zini rivojlantirish, yaxlitlik, mustaqil o'qish, o'zligini nomoyon etish va faollashtirish xususiyatlari asosida anglashiladi, o'quv jarayoni va uning tarkibiy qismlari-maqsad, mazmun, metod, shakl, usul, vositalar o'quvchilar uchun ahamiyatga ega bo'lgan, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatida tatbiq etiladi.

Ta'lim-tarbiya asosida shaxsning ichki rivojlanishi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi faqat uning shaxsiy faoliyati orqasidan amalga oshadi.

Agar o'quvchi o'quv foliyati mazmunini anglay olmasa, o'quv maqsadini tan olmaydi, o'qituvchi qo'ygan topshiriqlarni tushunmaydi va qabul qilmaydi, u tomonidan sodir etiladigan barcha xatti- harakatlar majburiyati va taziq ostida sodir bo'ladi, uning bilimlari rasmiy xarakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo'ladi. Bilim ularni amaliyotga qo'llashga qaratilgan faoliyat natijasidagina shakllanadi. Bu darslik mazmunidan ba'zi ilmiy ma'lumotlarni shunchaki ko'r-ko'rona yodlab olish bo'lmay, balki o'quvchining shaxsiy, su'bektiv tajribasiga asoslangan haqiqiy bilimlar bo'ladi.

Inson ongi hamisha su'bektiv mohiyatga egadir.

O'quvchi muayyan bilimlarga nistaban befarq bo'lmay, bilimlar uning uchun shaxsiy mazmunga ega bo'lsagina puxta o'zlashtiriladi. O'quvchining ruxiy xususiyatlarini o'rganish o'rganilayotgan bilimlarning o'quvchiga qiziqarli va kerakli bo'lishi, zarurligi, aks holda, ular rad etilishini ko'rsatadi.

Bu holat obrazli ifodalansa, individual tasavvur va shaxsiy fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etadi, bilimlar turli nuqtai nazarlarning

to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi, bu esa o'quv jarayonini noan'anaviy usulda tashkil yetishning muhim shakllari (bahs-munozara o'zaro hamkorlik) ni talab etadi. Shunday qilib, hamkorlikdagi faoliyat shaxs rivojlanishining asosiy sababchisi hisoblanadi. Shaxs faoliyati uning ichki hissiyotlari bilan bog'liq. O'qituvchi o'z darsida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metoddan foydalanib, shunday shart-sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki, natijada o'quvchi uchun dastlab oddiy bo'lgan ob'ektiv narsa kutilmaganda sub'ektiv xususiyat kasb etishi mumkin. O'quv materialining mazmuni avval o'qituvchi tomonidan ijodiy qayta ishlanadi va o'quvchini qiziqtiradigan uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan, uni fikirlashga undaydigan jihatlari belgilanadi. Bir qarashda zerikarli tuyuladigan matematik yoki geografik ma'lumotlar agar o'quvchi shaxsiga bevosita taalluqli bo'lsa, uning hayotiy va shaxsiy tajribalariga muvofiq kelsa, u holda ahamiyatli xususiyat kasb etadi. Ushbu holatda o'quv vaziyatlari shaxs uchun ahamiyatli vaziyatga, o'quv axborotlari o'quvchi uchun muhim hodisaga aylanadi. O'quvchi o'zini ushbu hodisaning ijodkori deb hisoblay boshlaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari o'quvchi bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog'liq. Bu usullar muammoli-izlanish, tadqiqot, dialogik munosabat metodlari (dialog, evristik suhbat, munozara, jamoali ish turlari va boshqalar)dan iborat. Shuningdek, o'quv mashg'ulotlarining turlari ham o'zgachadir. Alohida e'tibor tadqiqot-izlanish metodlariga qaratiladi, shuningdek reproduktiv metodlar ham rad etilmaydi, albatta.

Noan'anaviy darslar (o'yin-dars, teatrlashtirilgan dars) bilan tadqiqot, izlanish mashg'ulotlari kabilar ham tashkil etiladi. Bunday mashg'ulotlarning mazmuni va mavzusi bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv kontseptsiyasi va tamoyillariga mos kelib ular bola ichki dunyosi va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda o'quv faoliyatiga rag'bat uyg'otish, uni bilim egallashga yunaltirilsa, ular ta'limning shakl va usullari, shaxs bilimi, tajribasi va hissiyotlarining asosiy manbai sifatida nomoyon buladi. Bunday mashg'ulotlarning asosiy maqsadlaridan biri - topshiriq sifatida qo'yilgan muammolarga o'quvchining o'zi javob topishini ta'minlashdir. O'quvchining javoblari o'qituvchi yoki o'rtoqlarining javoblariga mutlaqo o'xshamasa-da, biroq, o'quvchi o'z javobidan qoniqish hosil qilsin, muammo yechimini shaxsan o'zi topa olganidan g'ururlana olishi muhimdir. An'anaviy ta'lim mohiyatiga ko'ra o'qituvchi tomonidan

berilgan topshiriq va savollar o'quvchini o'qituvchi tanlagan, o'zi uchun esa mutlaqo notanish tarzda fikirlashga majbur qiladi. Aksincha, o'qituvchi o'quvchilar ko'z o'ngida topshiriqni shakllantirar ekan, ularni topqirlikka asoslangan qiziqarli yechimlar vositasida yechimni topishga undaydi. Bunday mashg'ulotlarda qo'llaniladigan metodlar o'qituvchining bolalar bilan hamkorlik munosabatlariga, o'quvchilarni uz bilimlarini o'zlari mustaqil rivojlantirish, axborot va ilmiy malumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lishi hamda o'zgalar fikriga hurmat bilan yondashish kabilarga asoslanadi.

Bolalarga do'stona munosabatda bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi sinfdagi bolalarning o'ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va istiqbollari tan oladigan kishidir. Ular o'z o'quvchilariga hurmat, mehr va hamdardlik ko'rsatadilar va o'rganish va o'sish uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratadilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaga do'stona munosabatda bo'lishining ba'zi usullari:

Faol tinglash bilan shug'ullaning: o'quvchilarni sabr va diqqat bilan tinglang, ularning savollari va tashvishlariga o'ylangan va hurmat bilan javob bering.

O'quvchini rag'batlantiring: O'quvchilarni sa'y-harakatlari va yutuqlarini rag'batlantiring va maqtang va ularni rivojlantirishga yordam beradigan konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim eting.

Hamjamiyat tuyg'usini tarbiyalash: sinfda inklyuziv, mehmondo'st va qo'llab-quvvatlovchi muhit yarating, bu erda barcha o'quvchilar o'zlarini qadrlil va hurmatli his qilishadi.

Ijodkorlikka yo'naltirilgan o'yin texnologiyasini qo'shing: sinfda ijodkorlik va qiziqarlilikni rag'batlantiradigan amaliy va interaktiv o'quv mashg'ulotlaridan foydalaning.

Hamdardlik ko'rsating: o'quvchilarning his-tuyg'ulari va nuqtai nazarlarini tushuning va tan oling, hamdardlik va hamdardlik bilan javob bering.

O'quvchilarning ishtirokini rag'batlantirish: O'quvchilar o'zlarini ifoda etishlari va sinfdagi muhokamalar va tadbirlarga hissa qo'shishlari uchun imkoniyatlar yarating.

Yordam bering: Akademik yoki hissiy jihatdan qiynalayotgan o'quvchilarga yordam bering va kerak bo'lganda resurslar va yordam bering.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalarga do'stona munosabatni namoyon etish orqali o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini va

muvaffaqiyatini ragʻbatlantiradigan ijobiy va tarbiyalovchi oʻquv muhitini yaratishga yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya tizimida qanday innovatsiyalar mavjud?
2. Tarbiya tizimida ijtimoiylashtirish qanday amalga oshiriladi?
3. Oʻqituvchi pedagogik faoliyatidagi qanday psixologik toʻsiqlar mavjud?
4. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish tushunchasi qachon kelib chiqqan?
5. Bolaga doʻstona munosabat qanday amalga oshiriladi?

3-MAVZU: BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA INTEGRATSIYA VA INTEGRATIV ASOSDA TASHKIL ETILGAN TA‘LIMNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. Integrativ - pedagogik faoliyatning elementlari.
2. Integrativ faoliyatning pedagogik tuzilmasi.
3. Ta‘lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari.
4. Integrativ asosda tashkil etilgan ta‘limning o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quv predmetlarni integratsiyalash yo‘llari.
6. Ta‘lim jarayonidagi integratsiya turlari.

3.1. Integrativ - pedagogik faoliyatning elementlari

«Integrativ faoliyat» tushunchasi qator holatlar bilan bog‘liqdir. Birinchidan, «boshqariladigan» pedagogik integratsiyaning «betartib» (boshqarilmaydigan) integratsiyadan ajralish zaruriyati. Zamonaviy pedagogikaning rivojlanish qonuniyati bo‘lmish bu zaruriyat bugungi kunda maxsus tashkil qilingan integratsion ish sohasidan tashqarida ham amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilayotgan integrativ faoliyat ham o‘zining mavjudligidan darak bera boshladi. Ikkinchidan, integratsiyani faoliyat sifatida baholash uning texnologik o‘lchamlarini ham batafsilroq tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, pedagogikada allaqachon «integrativ ish» (V.I.Zagvya- zinskiy), «integrativ faoliyat» (D.D.Semyonov), «integrativ-pedagogik tafakkur» kabi tushunchalarni qo‘llash holatlari mavjud. Integrativ-pedagogik faoliyat (IPF) - bu pedagogik faoliyatning o‘ziga xos turi bo‘lib, uning davomida ta‘lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti sohasidagi u yoki bu vazifalar dolzarb tus oladi. Amaliyot darajasida IPFning ikki xil ko‘rinishini ajratish mumkin: shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyat turlari. Shakllantiruvchi faoliyat - bu ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladigan va o‘quvchilarda integrativ harakatchanlik xislatlarini va xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

Shakllanuvchi IPF esa shakllantiruvchi faoliyatning mahsulidir. Shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyat tuzilmalarining o‘zaro mosligi omilini hisobga olgan holda taxmin qilish mumkinki, birinchiga xos bo‘lgan tavsif ikkinchiga o‘tkazilishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

Birinchi faoliyatning tarkibini inversionlik, polimodallik, polivalentlik tashkil etadi. «Inversion obyektlar - bu an'analar birlashadigan va boyiydigan nuqtalardir» (M.A.Rozov), degan formulaga tayangan holda IPF inversionligi tushunchasi ostida biz uning muayyan tizim «chorraha»sida turib o'zida shu tizim haqidagi ma'lumotlarni mujassam etishni tushunamiz.

Integral pedagogik faoliyat - bu o'qitishga yondashuv bo'lib, u o'quvchilar uchun yanada yaxlit va samarali ta'lim tajribasini yaratish uchun pedagogikaning turli elementlarini birlashtirishga qaratilgan. Pedagogik faoliyatga birlashtirilishi mumkin bo'lgan asosiy elementlardan ba'zilar:

O'quv rejasini loyihalash: dolzarb, qiziqarli va real dunyo muammolari bilan bog'liq bo'lgan o'quv dasturini yaratish.

Faol ta'lim: tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan amaliy va interaktiv ta'lim faoliyatini o'z ichiga olish.

Differentsial ta'lim: o'quvchilarning turli ehtiyojlari va o'rganish uslublarini qondirish uchun o'qitishni moslashtirish va individual ta'lim uchun imkoniyatlar yaratish.

Baholash: o'quvchilarning o'rganishi va taraqqiyotini o'lchash uchun turli baholash usullaridan foydalanish va keyingi o'rganishga yo'naltirish uchun fikr-mulohazalarni bildirish.

Texnologiya integratsiyasi: Ta'limni yaxshilash va o'quvchilarning faolligi va ishtirokini rag'batlantirish uchun texnologiya vositalari va resurslarini birlashtirish.

Madaniy kompetentsiya: o'quvchilarning madaniy xilma-xilligini tan olish va baholash va madaniyatga mos keladigan o'qitish amaliyotini ta'limga integratsiya qilish.

Mulohaza: o'quvchilarga o'z bilimlari haqida fikr yuritish va yangi bilimlar va oldingi tajribalar o'rtasida bog'lanish imkoniyatini berish.

Ushbu elementlarni o'zlarining pedagogik faoliyatiga integratsiyalashgan holda, o'qituvchilar tanqidiy fikrlash, faollik va akademik muvaffaqiyatga yordam beradigan o'quvchilar uchun yanada dinamik va samarali o'rganish tajribasini yaratishi mumkin.

3.2. Integrativ faoliyatning pedagogik tuzilmasi

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, faoliyat tuzilmasiga turlicha yondashuvlar mavjud ekan. Shulardan ikkitasiga: faoliyatning umumiy tuzilmasiga va invariant tuzilmalariga to'xtalib o'tamiz.

Integrativ pedagogik faoliyatning umumiy tuzilmasi o'z ichiga subyektlarni, predmetlarni, maqsad, jarayon, vosita, mahsulot va natijalarni qamrab oladi.

Integrativ pedagogik faoliyatning subyekti rolini ayrim shaxslar (o'quvchilar, pedagoglar va guruh (jamo)), masalan, o'quvchilar va pedagoglar guruhi, shaxssiz subyektlar: maktab, kollej, litsey, institut, universitetlar o'ynashi mumkin.

Integrativ pedagogik faoliyatning predmeti - ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti sohasida integrativ jarayonlarni tashkil etish, o'tkazish, boshqarish.

Integrativ pedagogik faoliyatning maqsadi - shaxsga xos barcha sohalarda: ma'naviy, kognitiv, afektiv (hissiy-qiymatli), psixomotorik sohalarda u yoki bu sifat jihatidan yangi integrativ hosilalarni shakllantirish. Benjamin Blum tomonidan tavsiya qilingan asosiy o'quv maqsadlari ham bu yangi hosilalar rolini bajarishga qodir.

Integrativ pedagogik faoliyatning maqsadi maxsus tashkil qilingan o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi. Integrativ-pedagogik maqsadga erishishning nazariy metodologik va axboriy ta'minoti, faoliyatga mos keladigan texnologik dastakni tanlash, maqsadlarni muvofiqlashtirish va zarur vaziyatlarda ularni to'g'rilash (korrektirovkalash), IPFni nazorat qilish va yakuniy xulosalar chiqarish, uning maqsad va natijalarini solishtirish kabilar bu jarayonning tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadi.

Integrativ pedagogik faoliyatning vositalari IPF texnologik infrastrukturasining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular maqsadga erishish hamda vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Masalan, falsafiy, umumilmiiy va pedagogik kategoriyalarning o'zi ilmiy pedagogik integratsiya vositalari bo'lib maydonga chiqishi mumkin.

Integrativ pedagogik faoliyatning mahsuloti - shu faoliyat davomida qo'lga kiritilgan hodisalar, jarayonlar, narsalar majmuyidir. Bu pedagogik va g'ayriilmiiy bilimlarni (falsafa va ta'lim tarixi misolida) sintez qilish yo'li bilan hosil qilingan pedagogik fanlar; integrativ-pedagogik konsepsiya (masalan, umumiy kasbiy ta'lim integratsiyasi); integrativ pedagogik jarayon (masalan, G'arbdagi integratsiyalashgan ta'lim muassasalari deb ataladigan muassasalarida amalga oshiriladigan jarayon); pedagogik jarayonning integrativ qismlari (masalan, integrativ kun, integrativ dars, boshlang'ich kasbiy ta'lim mazmunini integratsiyalash); integrativ-pedagogik vaziyatlaridir.

O'quv fanlariaro aloqadorlik muammolari o'zbekistonlik olimlarning ham tadqiqotlarida yetakchi pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunonchi, A.Ch.Choriyev, U.Q.Musayev, N.S.Fayzullayeva, T.Z.Dayanayeva, A.A. Salomov, M.K.Ashirova va boshqalar o'quv fanlariaro aloqadorlikning turli qirralari, o'quv-biluv jarayonini optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar natijasidan ma'lum bo'ldiki, matematika bilan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlariaro aloqadorlikning didaktik imkoniyatlari aniqlanmagan.

Hozirgi kunda ta'lim mazmunida matematik bilimlarni taqdim qilish, o'quvchilarning yuqori darajadagi hisoblash ko'nikmalari, tafakkurini shakllantirish yuzasidan e'tiborga olinmay kelinayotgan holatlardan biri o'quv fanlarining matematika bilan o'zaro aloqadorligiga umumiy o'rta ta'lim mazmunida yetarli darajada e'tibor berilmaganligidadir.

Xorijiy mamlakatlarda fan va texnologiyaning jadal sur'atda rivojlanishi olimlar oldida murakkab muammolarni qo'yimoqda. Shu sababli tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni ta'lim mazmuniga kiritish, barcha fanlardan o'zaro aloqadorlikda eng zarur bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, ijtimoiy

hayot tajribalari va ilm- fanning turli sohalari uchun muhim bo'lgan bilimlarni o'quvchilar egallashlari uchun yuksak bilim va mahoratga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash nihoyatda zarurdir.

Mazkur vazifalarni yechish uchun o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o'quv fanining fanlararo aloqadorlikdagi mazmunini tanlash, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan so'nggi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv fanlarining bir - biri bilan bog'langan tizimini shakllantirish lozim.

Matematik tushunchalar orqali barcha o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi mohiyatiga tayanish, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar turkumdagi fanlarni o'qitishning yangi jihatlarini aniqlash zarurdir. O'quvchilarga taqdim etiladigan matematik bilim, tushuncha va hosil qilinadigan hisoblash ko'nikmalari umumlashgan mazmunga ega bo'ladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik ta'minlanganda o'quvchilarga o'zaro bog'langan bilim va tushunchalar taqdim etiladi.

Demak, **"o'quv fanlariaro aloqadorlik"** o'quv mavzulari mazmunini atroflicha ochib berish uchun zarur.

O'quv fanlariaro aloqadorlik dars mavzularining mazmunini o'rganish, undagi muhim qoidalarni ajratib olib o'zlashtirishda quyidagi jarayonlarni faollashtirish imkoniyatini beradi:

- o'quv mavzularini o'rganish jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlik holatini aniqlashga subyektiv yondashish ehtimolini pasaytirish;

- fanning muhim g'oyalarini ochib berishda birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan o'quv fanlari asosiy jihatlariga o'quvchilar e'tiborini jalb etish;

- doimiy ravishda idrok etishni murakkablashtirib borib, o'quvchilar ijodiy tashabbuskorligi va o'quv-biluv faoliyati mustaqilligi ko'lamini kengaytirish, ko'p tomonlama o'quv fanlariaro aloqadorlikni samarali yo'lga qo'yish uchun didaktik vositalarning har xil turlarini qo'llab, o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish bo'yicha tashkiliy ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- turli didaktik vositalar yordamida o'quv fanlarining o'zaro uzviy birlikda o'zlashtirilishiga erishish;

- o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ijodiy hamkorlikni vujudga keltirish;

- hozirgi zamon talablari asosida o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini matematikaning ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari bilan aloqadorligi vositasida, ijtimoiy hayot bilan hamohang shakllantirish.

Integratif funksiya – bu funksiya umumta’lim va kasbiy ta’limni boglovchi zvenodir.

Bunda ta’lim mazmunidagi barcha tashkil etuvchi elementlar majmkasini – bilim, ko‘nikma, malaka, me’yor, pedagogik tizimlarni uzida mujassamlab:

bilimlarni tizimlashtirishni tashkil etish, o‘quvchilarda xar xil predmetlarda utiladigan va texnik, texnologik jarayonlarda sodir buladigan hodisalar, tushunchalar, goyalar, nazariyalar orasidagi uzaro integratsiya va xar tomonlama boglanish borligini urnata olish kunikmalarini shakllantirish;

bu boglanishlar kasbiy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi ekanini tushuntirishni ta’minlash;

o‘quvchilarda ijodkorlik masalalarini nazariy tugri texnik va amaliy jixatdan maqsadga muvofik echishda, turli O‘quv predmetlarini urganishda olgan bilim va maxoratlari asosida texnikaviy – iktisodiy, ijtimoiy – ekologik, tashkiliy – pedagogik tizimlar maqsadi, mezoni va vazifasini tugri shakllantirish kunikmalarini xosil kilishlarini nazarda tutadi. [Alimov N.N.]

Integratsion ta’limning tuzilishi qanday? Integratsion ta’limning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo‘lgan bir mavzu, har chorakning asosiy mavzusida o‘z rivojini topadi. Shunday qilib, kurs asosiga qo‘yilgan g‘oyalar (fikrlar)ning gorizontalar harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo‘l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinf dan sinfga), bunda bir mavzu bolaning o‘shishiga qarab, murakkablashib boradi.

Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta’lim sistemasida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog‘ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta’lim rejasidagi o‘qitish joyida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to‘la o‘zlashtirish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi: ko‘p maqsadli va rang-barangliligi hamda ko‘p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi (ko‘rgazmali).

Integratsiya kursi - o‘quv fanlaridan biri bo‘lib, fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o‘rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya ob’ektlari asosida tuzilgan.

Integratsiya kurslarining sinflarga bo‘linishini turli asoslarda qilish mumkin: maqsad va muammolar asosida; maktab tabiiy - ilmiy tizimidagi vazifalari asosida; qo‘shiluvchi fan tarmoqlari asosida;

integratsiya usullari va yo'llari asosida; o'quv rejasidagi o'rni asosida; kursni o'rganishga sarflangan vaqt asosida; o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h. k.

SHuni e'tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflari odatda o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo'yadilar, shu sababli kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tadbiq etishga urinishlarni ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab sinflarga bo'lishimiz mumkin.

Integrativ yo'nalish – axborotlarni tashkil kiluvchi cheksiz kup kichik qismlarning uzaro ajralmas bog'likligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona tugri xulosani aniklash jarayoni.

Bu texnologiyalar urganilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bulishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondoshish, O'quvchilar bilimlarini egallashning eng maqsadga muvofik yullarini urgatishdan iborat.

Integrativ yo'nalish ta'lim-tarbiya jarayonlariga kompleks yondashuv, tizimiy yondashuv, tizimiy taxlil tadqiqot usullarini joriy etishda va bilishning induksiya hamda deduksiya usullaridan foydalanishda qul keladi.

O'quv jarayonini tizim sifatida karab, uni tashkil etuvchilar, ya'ni O'qituvchining o'qitish vositalari yordamida ta'lim oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda kursatgan, ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baxolab beruvchi, texnologiyalashgan ta'limiy tadbirlar olib borishda rivojlanib boradi.

Pedagogik texnologiya ham bilimlarni uzlashtirishning hamma jixatlarini kamrab oluvchi muammoni taxlil kilish va rejalashtirish, muammoning yechimini baxolash faoliyatni tashkil kilish usullarini uz tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat.

Integratsiyalovchi ta'lim kursining yo'nalishlari: - ko'p predmetlilik bunda (ikki yoki undan ortiq) fundamental fanlarni qiyoslash; - chegara fanlar asosida – yangi fanlarni vujudga keltirish, buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi; - asosiy (o'zak) fanlar –zamonaviy bilimlarning hamma tarmoqlariga singib ketuvchi fanlar va umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalardir. - kompleks obyektlarini o'rganish bu- «koinot», «odam», «muhit» degan tushunchalarni birlashtirish; - mahalliy (tabiiy-ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar – ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi

tutgan o'zni bilan chambarchas bog'liq. - faoliyat asosida-o'quv tarbiya faoliyatining har xil ko'rinishlari kitoblar, kuzatishlar, tajribalar, bilim, maxorat va ko'nikmalar. - tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlariga bo'lgan shaxsiy munosabatni shakllantirish: ko'rgazmalar asosida integratsiya, didaktik sistemada (o'qituvchi va o'quvchinning faoliyati); Ko'rgazmali yondoshishga olib keluvchi metodlar va usullar – evristik suhbatlar (savol- javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar,antomimika, sahna ko'rinishlari, namunali qiroat bilan o'qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish. - tabiat va inson yagona tizimi va o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatish hamda insoning planetada yashab qolishi uchun ilmiy asoslangan foydalanishni tashkil qilishi zarurligi; - ilmiy o'rganishning gumanizatsiyasi jarayoni ijtimoiy gumanitar, tabiiy amaliy va texnik fanlar metodlarining o'zaro ta'siri, ilmiy faoliyatning gumanitar- shaxsiy metodlari sohalarida ifodalandi; - ta'limni rivojlantirishning eng umumiy samarali yo'li zamonaviy fanni turlicha uslubiy yondoshuvlarning optimal o'zlashtirish; - «tabiat-inson» tizimidagi tabiiy – ilmiy va gumanitar fanlarni integratsiyalashuvi sifatidagi gumanizatsiyalashuvi; - tabiatda mavjud obyektiv aloqalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarda shaxsini shakllantirish; - boshlang'ich sinflarda integratsion bilim malakalarini va ko'nikma hosil qilish; - har bir o'quv predmetini o'kiyotgan paytda o'quvchilarga to'g'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining xar hil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. - tabiatda mavjud bulgan obyektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish; - «tabiat –inson» sistemasida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish; - materiallarni anglab yetish va didaktik adaptatsiya shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning xar xil tarmoqlaridan olish; - o'quvchilarda sistemalashgan fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning xar xil tarmoqlaridan olish uchun dunyoning zamonaviy ilmiy kontekstidan foydalanish; - tabiatning obyektlari va ko'rinishlarini, jarayonlarining, qonunlarini, jamiyatning rivojlanish qonunlarini iqtisodiyot gumanitik va demokratik bilimlarni shakllantirish; - bilim, ko'nikma, malaka sistemasini ishlab chiqish; - maktab ta'lim kurslaridagi integratsiyani ma'nosi, keng miqdordagi

fikrlar va faktlar majmuasi, bir- biriga yaqin fanlarning birlashuvi; maktab o'quvchilarida har xil tipdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o'zlashtirishiga yordam beradi, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondashuv metodlariva usullari.

Integratsiyalangan yondashuv metodlar va usullariga **quyidagilar kiradi**; Ø evristik suhbatlar, umumlashtirish rejasidagi suxbatlar; ekskursiya; ijodiy ishlar; o'qitishning ko'rgazmali metodlari: mustaqil ishlar; o'qish darslarida og'zaki tasvirlash; pantamimo sahnachalari; darslarda peyzaj tasvirlarini ifodali o'qish, ona tili darsida tabiiy fanlar mazmunidagi matnlar bilan diktant yozdirish; o'lkashunoslik asosida matematik masalalarini yechish va shu kabi. Integratsion tizim - bu to'liq dunyoqarashga ega, o'zida bor bilimlarni mustaqil tizimlash qobiliyati va turli xil muammolarni yechishda noan'anaviy yondashadigan to'liq ma'lumotga ega yosh insonni tarbiyalashga imkon beruvchi o'qitishning differentsiyasidir (turlanishidir).

O'qitish maqsadidagi integratsiya - bu o'quvchini o'qitishni birinchi qadamlaridanoq olamni bir butunlikda va uni barcha elementlari o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur berishdir.

Integratsiya — an'anaviy ta'lim vositasi; oldin mavjud turlangan bilimlar kesishuvida bilmaganlarni to'ldirib olish, ular orasidagi mavjud aloqani o'rnatish; o'qitishda mavjud tor ixtisoslashuvni yangilash bilan o'quvchini bilim darajasini oshirish.

Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi (klassifikatsiya). Ko'p fanlar integratsiyasi Ularni yana universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri ketma - ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilarki, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma - ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limga ham darslarga ajratib o'qitish an'analari tarqalgan deb hisoblaydilar.

Tabiiy fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qiladilar. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, o'quvchilarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi «Tabiiy fanlar») kiradi.

Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Keng integratsiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiiy fanlar, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlariga ekologik mavzular kiritilgani ko'rinadi. Bir - biriga yaqin chegaradosh fanlarning qatoriga molekulyar biologiya, biofizika, geofizika, biokimyo, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi: kibernetika- boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash: informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika. Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasida asosida tuziladi.

Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar.

Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: «materiya», «harakat», «modda», «maydon», «energiya» va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sermahsuli tabiatni saqlash qonuni, odamlarning ish faoliyatiga tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasida integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy - ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham,

ular qovishmaganligi va ma'lum ketma - ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Fan evolyutsiyasi bilan bog'liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish uslublarini, olamning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar.

Yuqoridagi barcha mavzular integrativ mazmunga ega va tadbiiq etishga katta imkoniyatlari bor, afsuski, bunday kurslar maktab ish faoliyatida qo'llaniluvchi materialning va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q.

Kompleks obyektlar asosida.

Integrativ kurs yaratishga asos bo'lgan kompleks ob'ektlarga Yer, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir ob'ekt turli fan nuqtai nazaridan ko'riladi.

Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigir manchi yillarda maorif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda, aytish mumkinki qaytadan tug'ildi. Bizning nazarimizda, ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Turli muammolar asosida.

Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tadbiiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy ilmiy bilimlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ kurslar (asosan ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi. Bu yo'nalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning ekonomika, fan, siyosat, ma'naviyatining uzviy bog'liqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli ta'sir ko'rsatadi degan tasdiqlashni asos qilib olganlar.

Faoliyat asosida.

Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish - turli o'quv-ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadilar.

O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi mumkin va

kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi

integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tadbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik o'quvchilarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirsalar ham, uni tadbiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar. Ko'pchilik bunga sabab asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi.

Sabab nimada? Balki ularning biri ko'p yillar davomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir?

Bu yerda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflari sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlarini integratsiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin.

Birinchidan. Aytib o'tilgan tabiiy integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha bir - birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish, ilmiy asos yaratish qiyinlashadi.

Ikkinchidan. Integrativ kurslar fanlararo aloqaning o'rnini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha, ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri.

Uchinchidan. Tabiiy ilmiy ta'limning optimal tuzilishi shundayki, integrativ kurslar o'quv rejasining o'zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

To'rtinchidan. To'liq o'quv metodik qo'llanmalarning yo'qligi integrativ kurslarning o'quv jarayoniga tadbiq etilishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning avtorlari programma tuzib, umumiy metodik ko'rsatmalar tuzishgandan so'ng to'xtab qoladilar.

Beshinchidan. Integrativ kurslar uchun o'qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali yetilgani yo'q.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazardan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondoshuvning metodik asosidir. Bunga turli darslarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim

belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. SHunday qilib yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi.

Masalan, «qish», «sovuq», «bo'ron», kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiiy fanlar musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning taxlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga hos o'tish metodikasiga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosiy bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish yosh avlodga fundamental bilim berish jarayoniga kompleks yondashuv muammosini, tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

Muammoga doir izlanishlar olib borishda, tajriba–sinov ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishga harakat qildik:

1) Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalarini o'rganish;

2) An'anaviy metodlar asosida boshlang'ich sinflardagi qator o'quv fanlariga aloqador bilim va tushunchalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash va natijalarini tahlil qilish.

3) Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlar integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladigan vositalar hamda metodlarni keng qo'llash asosida fanlararo aloqadorlikka oid tushunchalarni hosil qilishga erishish.

4) O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashni osonlashtirishga sharoit yaratadigan, o'quvchilarning boshlang'ich sinflardagi o'quv predmetlarini samarali o'zlashtirishlariga imkon beradigan o'quv mashg'ulotlari dasturini tuzish.

5) O'quvchilarning o'quv fanlarini mukammal o'zlashtirishlari, muayyan bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, o'rganilayotgan o'quv

predmeti bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishda fanlararo aloqadorlikning ta'sirchanligini oshirish.

Olimlarning mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari, falsafiy, psixologik, pedagogik muammolar yoritilgan ilmiy asarlar o'rganildi va tahlil etildi. Birinchi bosqichda pedagogik tajriba-sinovni amalga oshirishga xizmat qiladigan dastur tuzildi. Dissertatsiyaning birinchi bobi uchinchi paragrafida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni tashkil etishga doir fikr-mulohazalari tahlil qilindi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish darajalari test sinovlari asosida aniqlandi.

Mazkur bosqichda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining chuqur tahlillari asosida quyidagi xulosalarga keldik:

birinchidan, ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarga o'quv materiali mazmunini tushuntirishda asosan ta'limning reproduktiv metodlaridan foydalanadilar. Dars jarayonida taqdim etilayotgan bilimlarning asosiy mazmuni o'quvchilarga tayyor tarzda taqdim etiladi. Shuning uchun o'quvchilarning o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalari, fan asoslarini o'zlashtirganlik darajalari aksariyat hollarda DTS talablariga javob bermaydi;

ikkinchidan, barcha o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan dars jarayonida o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi imkoniyatlardan to'la foydalanilmaydi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida ilmiy farazimiz asosida boshlang'ich sinflardagi o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini aniqlash bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi. Boshlang'ich sinflarda o'rganilayotgan o'quv fanlarining o'zaro aloqadorlik xususiyatlari va shu asosda o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan dasturlar yaratildi. Ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilari orasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida foydalanildi. Unda o'quvchilarga ilmiy tushuncha va o'zlashtirilgan bilimlari asosida muayyan ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi shakl va vositalarini samarali qo'llash, o'zaro aloqadorlikni ta'minlash va uni tajriba-sinovdan o'tkazish asosiy maqsad qilib olindi. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarining biz taklif qilgan texnologiyaga nisbatan munosabatlarini aniqlashga e'tibor qilindi. Ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi vositalarga

nisbatan ularning munosabatlari aniqlandi, vujudga keladigan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf etish chora- tadbirlari taklif qilindi. Shu bilan bir qatorda, o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlovchi ba'zi vositalar orqali o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarining sifat va samaradorligini oshirish muammolari o'rganildi.

Integratsiyalashgan o'quv dasturlarini tuzishda mavzularning o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishiga, mavsum bilan aloqadorligiga va har bir fan dasturida o'zgarishlar bo'lmasligiga (mavzularning o'zni almashmasligiga) alohida e'tibor qaratdik.

Integratsiya ta'lim oluvchini bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan.

Bu kursning maqsadi avval boshida «hamma narsa to'g'risida ozgina bilish» lozim bo'lsa, oxirga kelib «**ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish**» kerak bo'ladi.

Misol tariqasida o'quvchilar tasavvurida iqtisodiy tushunchani shakllantiradigan bo'lsak, fanlar aro aloqalar katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflardagi «Tabiiy fan», «Texnologiya», «Tasviriy san'at» darslari insoniyat tomonidan foydalaniladigan mehnat vositalarini turli tomondan tabiiy materiallar sifatida uning xossalari, amaliy ahamiyati ochib beriladi. Bu bilan predmetlararo aloqa iqtisodiy tafakkurni har tomonlama rivojlantirishga va shakllantirishga imkon beradi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchining aql idroki tabiat va jamiyatni o'rab turgan olamdagi qo'p qirrali munosabatlarning, iqtisodiy va ekologik munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi uchun yaxshi zamindir!

O'quvchilarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish jarayonida ularda iqtisodiy muammolarini tushunish tajribasi to'planadi, natijada ota-ona va ularning muammolarini yaxshiroq tushunadigan, oila byudjetiga tejamkorlik xissi shakllanib boradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv predmetlarini integratsiyalash yo'llari. Olingan natijalar o'qituvchiga amaliyotda o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanishi zarurligi haqida xulosaga kelishga imkon beradi. O'quv fanlariaro aloqadorlikning dolzarbligi quyidagilarda ko'rinadi:

- bir dars doirasida o'qitish shakllari va faoliyat turlarini almashtirish;
- o'qituvchining darsga tayyorgarligini osonlashtirish;

- darsni ko'rgazmali, illyustrativ tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish;

- o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik faoliyatlarini tashkil etish;

- o'qituvchi va o'quvchi uchun o'rganiladigan materiallarni tayyorlashda qulaylik yaratish.

Dars jarayonini tashkil qilish va o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini takomillashtirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikka muammoli yondashish zarurdir.

Ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan dars davomida o'quv va ijodiy masalalar hamda mavjud bilim, malakalar darajasi, o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'rtasida vujudga keladigan foydali qarama-qarshiliklardan iborat.

O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. **Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan dars**da o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish yoki tasviriy san'at darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Qish", "Bahor" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha.

2. **Mavzularning bir-biriga o'xshashligi**: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. **Umumlashtirish**-o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash- umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

Agarda, dars jarayonida quyidagi **didaktik shartlarga** amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi:

- o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish;

- o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish;

- darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

· O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin.

Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir.

O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslar davomida o'quvchining fikrlash faoliyatini determinatsiya mexanizmlari asosida tahlil qilish, o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida bilim va tushunchalarni umumlashtirish yo'li bilan bajariladi. Buning natijasida harakatlarning umumlashtirilgan maqsadi paydo bo'ladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida muammoni yechishning har tomonlama mukammal dasturini ishlab chiqish - bu doimiy ijodiy jarayondir.

Chunki bunday dasturlar turli o'quv fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlardan mazmunli vaziyatda foydalanish usullarini tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan yaratiladi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'tiladigan darslarga qo'yidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa fanlardan olgan bilimlarni jalb etilishi hamda ularni tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan darsda boshqa fanlardan bilimlarni qo'llash bo'yicha o'quvchilarning bilish faoliyatlari samaradorligini ta'minlash. O'qituvchi dars o'tayotganda boshqa o'quv fanining materialini takrorlamasligi lozim. Fanlararo aloqadorlikni

ta'minlashdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda yangi savollar va masalalarni yechishda turli fanlardan olgan bilimlarini mustaqil qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'ladi.

Buning uchun dars boshida yoki yangi materialni tushuntirish jarayonida boshqa o'quv fanlari mazmuniga kiritilgan bilimlarni aniqlab beruvchi takrorlash suhbatlari o'tkaziladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi, bunda bir-biriga yaqin fanlardan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash talab etiladi; o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun esa muntazam uy vazifalari beriladi; guruhda jamoali o'quv ishlari bilan birga yakka holda topshiriqlar (qiziqishi yuzasidan, tanlab olish, majburiy) berilishi ta'minlanadi.

3. Dars jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash asosida o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati, sabab-oqibatli bog'liqliklarini tushuntirishga qaratilgan bo'lishi. Masalan, o'qish darslarida qish fasliga doir she'r yoki matnni o'qishdan oldin o'qituvchi mavzuni tabiiy fanlar bilan bog'liqligi haqida "tabiiy fanlar darsida biz qish faslida bo'ladigan tabiatdagi o'zgarishlarni o'rgandik. Ushbu she'r (matn)da ham xuddi shu holat tasvirlangan" degan fikr bilangina cheklansa, unda o'quv fanlari o'rtasidagi bunday aloqadorlik faqat tashqi xususiyatga ega bo'ladi, tasavvurlar va reproduktiv harakatlar darajasida qoladi. O'quv fanlariaro bilim va tushunchalarni tizimlashtirish uchun alohida o'quv mavzulari bo'yicha umumlashtiruvchi jadvallarni tuzish maqsadga muvofiqdir (yoki fanlararo turli mavzudagi o'quv muammolari bo'yicha).

4. Fanlararo aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars mavzulari turli fanlardan bilimlarning bog'liqligiga tayanuvchi dunyoqarash, umumlashtirilgan xususiyatga ega bo'lgan xulosalardan tashkil topishi lozim. O'quvchilar bunday xulosalarning obyektivligini faqat o'zaro yaqin fanlardan bilimlarni jalb etish zarurligiga ishonch hosil qilgandagina anglashlari mumkin.

5. O'quv fanlariaro aloqadorlikni qo'llash asosida o'tilgan dars o'quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg'otishi, ularda turli fanlardan olgan bilimlari o'rtasidagi tafovutlar, bog'liqliklarni bilib olishga qiziqish hosil qilishi lozim.

Ushbu faoliyatning samaradorligiga erishish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan dars mavzusini fanlararo aloqadorlikda idrok etib, amaliyot bilan bog'liqligini aniqlash;
- ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari mazmunida o'zaro aloqador matematik atamalarni qo'llash;

- fanlararo aloqadorlik asosida amaliy, mustaqil ishlarni bajarish;
- boshqa fanlardan qoʻllaniladigan koʻrgazmali vositalarni ushbu fanlarga yaqin, fanlararo aloqadorlik xususiyatiga ega boʻlgan ilmiy-ommabop adabiyotlardan foydalanish; bunda oʻquvchilarning boshqa fanlarga qiziqishlariga tayanish, ular bilan individual ishlash jarayonida mazkur qiziqishlarni rivojlantirish va mustahkamlash;

6. Fanlararo aloqadorlik asosida oʻrganilayotgan oʻquv materiallari umumlashtirilishi lozim. Shuning uchun, oʻquv fanlararo aloqadorlikning vazifalarini umumlashtirishni taʼminlovchi taʼlimning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mujassamlashtirilgan uy vazifalari, umumlashtiruvchi takrorlash darslari, sayohat darslar va boshqalar.

Yil va chorak mundarijasiga turli ertak qaxramonlarini (kichik shaxzoda, Karlson, Dyumovochka va boshqalar) kiritilishi ham shu maqsadga mos keladi. Ular bolani mavzudan mavzuga yetaklab yurgandek boʻladi va shu yoʻl bilan inson muloqot qiladi, yangi narsalarni bilib oladi.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yoʻnalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida koʻrsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. U maqsadda «Oʻz yulduzingni yoq», «Guldatsada sening guling», «Sen sevgan kitob» kabi oʻyinlardan foydalanish mumkin. Oʻyin davomida diqqat - eʼtibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, tugʻilgan kuni munosabati bilan osmonda yangi yoritilgan yulduz uning nomi bilan ataladi yoki katta guldatsa bayram egasiga yoqadigai gul bilan boyitiladi). Sevimli kitob esa sinf kutubxonasini toʻldirish bilan birga egasining (imzosi)ga ega boʻladi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish, ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda oʻziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni ragʻbatlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning sheʼr va hikoyalar yozish, yangi raqs oʻylab topish, shirin taom pishirish, biror asbob yaratish, oʻsimliklardan shakllar yaratish kabi mustaqil ijodiyoti turli yoʻllar bilan ragʻbatlantirib borish taqozo etiladi.

Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mashgʻulotlar bolalarda koʻrish va eshitish qobiliyatlarini (materiallar sifatini (fakturasini) ushlab koʻrib ajrata bilish qobiliyati), sezish tuygʻularini (hid va taʼmni ajrata olish qobiliyatlarini) rivojlantirishga yordam beradi. «Ovchilar», «Hayvonlar», «Izquvarlar» oʻyinlarini

o'ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta bilishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularning shakllanishiga yo'ldir. Bunga yorqin obrazlarga, san'at asarlariga, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin. Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatini rivojlantirish lozim.

Bunga ertaklar o'qish, turli sahna ko'rinishlari qo'yish yordam beradi. Bolaning his-tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq bola faoliyatiga harakat qilishga, o'z holatini badan harakatlari, imo-ishoralar, raqs orqali ko'rsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Dars o'tishdagi asosiy shart - sinfda zarur, mos muhitni yaratish: polga gilam solish, partalar o'rniga qulay bo'lgan stul va kreslolar o'rnini almashtirish. Mashg'ulot jarayonida bolalar o'z yashash muhitlarini yaratishadi. Yil va chorak mavzusi «devorlardagi suratlar», «Hayvonot va o'simliklar dunyosi» paydo bo'ladi, ularni o'quvchilar o'zlari o'ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma'lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, xaritalardan foydalanish mumkin.

Ko'pincha vaqtni sinfdan va maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Muzey va kutubxonalarda, xiyobon yoki ko'chalarda o'tiladigan darslar odatiy bo'lib qoladi.

Integratsiyalangan kurs utsidagi ishlar davom etadi. Tanlangan yo'l juda qiyin va mutlaqo shubhasiz emas. Qiyin muammolarni hal qilish lozim.

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilayashti. Bu tushunarli - kichik maktab o'quvchisi atrofdagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiiy fanlar, ona tili, musiqa va boshqa o'quv predmetlarini nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi mavjuddir.

Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi.

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshladi. Agar boshlang'ich ta'limni tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida o'quvchilar qiziqishlarini faollashtirish yotsa,

integratsiyaning asosida esa turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish kabi vazifalar yotadi.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asosga ega bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishni taqozo qiladi. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar; integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlash lozimligini ko'rsatadi.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o'qituvchi (ta'lim berish) va o'quvchi (ta'lim olish) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. **Maqsadli bosqichda** o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligida predmetlararo bog'liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular o'z e'tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas balki, ko'chirish tahlil qilish shaxsning belgilari qobilyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. **Isbotlash bosqichida** o'qituvchi o'quvchilar dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'barlantiradi. O'quvchilar o'z irodalarini dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradilar.

3. **Faoliyatning mazmun bosqichida** o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradilar.

4. **Vositalar tanlash bosqichida** o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni-darsliklar, tablitsalar, sxemalar, savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini

integratsion masalalarni hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. **Keyingi bosqich - natija.** O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirishlarni amalda qo'llaydi.

6. **Nazorat qilish bosqichida** o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi.

O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qiladilar.

Boshlang'ich sinf darslarida pedagogika bilan bog'liq fanlarni integrallashtirish.

Fanlar bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Bu jarayonni pedagogika fani bilan boshqa fanlarni integrallashtirish orqali kuzatamiz.

Integrativlik insonning olam bilan o'zaro aloqalariga aks etuvchi mavzularga kiritilgan: o'quvchi idrokida abstrakt bo'lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar, yer planetasi, katta bo'shliqlar va yer qa'rini). Yaqin olam (mikro olam, uy xayvonlari va o'simliklar dunyosi va ona vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati).

O'quvchi dunyoning yaralishi bilan tanishadi, olamning boshlanishiga insonning yerda paydo bo'lishiga murojaat qiladi. O'quvchilar sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar sirlarini ochish fikriga qiziqib boradi. O'quvchi makon va zamon bo'ylab sayohatga o'tlanadi. SHunday qilib o'quvchi har kuni ochishi kerak bo'lgan olamning go'zalligini his qiladi.

Kurs shaxsga moslangan yo'nalishga ega faqatgina sifat yoki guruhga emas har bir o'quvchiga ahamiyat beriladigan qilibshuni tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlarini alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlarixisobga olinadi. SHuningdek o'quvchining emotsional tomonlarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi.

Mashg'ulotlar o'quvchilarda ko'rish va eshitish qobiliyatlarini, ushlab ko'rib ajrata bilish, sezish tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi. His tuyg'ularini rivojlantirishga doir o'yinlarni ham tashkil qilish mumkin yoki san'at asarlariga tabiyat bilan zavqlanishga murojat qilish orqali erishish mumkin. O'quvchining his tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq, o'quvchi faoliyatiga harakat qilishga o'z xolatini

badan harakatlari imo-ishoralar raqs orqali kursatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Kursni tashkil qilish va ish shakllari kurs xaftasiga 2 soatga mo'ljallangan. Hafta oxirida 2 soatli dars o'qish maqsadga muvofiq sababi, o'quvchilar asosiy darsdan ancha dam olishadi.

Bunday 2 soatlik darsni «ijodiy soat» yoki «hayol darsi» deb nomlash mumkin. Ko'pincha vaqtni sinfdanva maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Integratsiyalashgan kurslar orqali shu tariqa o'quvchilarning rivojlanish darajasi qiziqtirishlari integratsiyalar aniqlanadi.

Onatili darslarining noan'anaviy shakl va usullari. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar savodxonligini oshirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, ona tili asosiy va yetakchi fanlardan biri hisoblanadi. U yuqori sinflarda o'rganiladigan ona tili va adabiyot darslarining tarkibiy qismidir.

Ona tilini o'qitish savodxonlikning asosiy kaliti ekanligini unutmasligimiz kerak. Chunki savodxonliksiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Savodxonlikning zaminida husniyat ham yotadi.

Bu ham o'quvchining aqliy qobiliyatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu esa ushbu jarayonni amalga oshirishda pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda interfaol usullarni qo'llash orqali o'quvchilar bilimi va ko'nikma malakalarini mustahkamlashni taqozo etadi. 1-sinf «Ona tili» darsligida «Insonning yaxshi do'sti» hikoyasi mavjud. Dars jarayonida bu hikoya orqali o'quvchilar qushlar olami bilan tanishadi. Qushlar o'zlari- ning jozibali raqsga tushishi, turli xil ohanglarda sayra- shi va insonlarga zavq - quvonch olib kelishi bilan o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bugungi kunda 450 turga yaqin qushlar yurtimizda yashaydi. Qushlar va jonivorlar ob-havo darakchisi sifatida ham xarakterlidir. Jumladan, havo bulutli kunlari qanotli chumolilar paydo bo'lsa, yomg'ir yog'adi. Turnalar erta uchib kelsa, ko'klam erta boshlanadi.

Yozda pashshalar ko'paysa, havo dim bo'ladi. Qaldirg'och yer bag'irlab uchsa havo buziladi, u balandlab uchsa, havo yaxshi bo'ladi. Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilarga turli inter- faol usullar orqali yetkazish darsning sifat va samarador- ligini yanada oshiradi va o'quvchilar bilimini mustahkam- laydi. O'quvchilar bu qo'shimcha ma'lumotlar orqali hikoya- ning mazmunini chuqur o'zlashtiradilar, qushlarning tabiati haqidagi tushunchalari kengayadi.

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o'zaro bog'liqlikni ta'minmagan holda o'qitilmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, o'quvchilar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Zamonaviy didaktika **o'quv fanlarini integratsiyalashga** bir qancha **yondashuvlarni taklif qiladi**, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limdagi integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar. Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqalganligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, o'quv fanlari ilmiy fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o'z aksini topadi.

O'quv fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi obyektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda subyektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. SHu sababli, o'quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma'noda **integratsiya** – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi subyektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi –

subyektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

O‘quv fanlarini integratsiyalashgan holda o‘rganishda subyektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o‘quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko‘rsatmoqda. Biz, ta’lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo‘lib o‘qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdorimiz.

O‘quv fanlari nisbatan mustaqil bo‘lishi kerak, chunki ularning har biri o‘z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va konsepsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

Shu bilan birga, ularni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish bilan bog‘liq imkoniyatlar ro‘yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta’minlanadi. Uni o‘quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, subyektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz fanlararo yondashuvni umumta’lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo‘nalish sifatida qaraymiz.

Biz o‘quv fanlarini integratsiyalash natijasi fanlar o‘zaro bog‘lanmagan holda o‘rgatilganda shakllantirish mumkin bo‘lmagan subyektiv yangi bilimlarning o‘zlashtirilishi, - degan kontseptual g‘oyaga tayanamiz.

Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o‘n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi bir yoki bir necha mashg‘ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida o‘quvchini ilgari turli fanlariga oid o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi subyektiv yangi bilimga “olib kelishi” kerak bo‘ladi. Ya’ni, **bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak.** Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, u fanlararo aloqalarni o‘rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, bilimlarning har qanday olib o‘tilish holati subyektiv yangi bilimlar sinteziga olib kelmaydi. Buning uchun ushbu bilim inversiyaga uchrashi lozim.

Bilimlarning inversiyasi quyidagi jarayonlarni qamrab oladi: o‘quvchi aqliy faoliyatini faollashtirish maqsadida bilimlarni shakllangan fandan boshqasiga o‘tkazilgandagi tavsifining o‘zgarishi; ilmiy bilimlar

mohiyat jihatidan o‘zaro bog‘liqligini o‘quv vazifalariga aylantirish; o‘quvchi ijodkorlik qobiliyatlari ham kasbiy yo‘nalganligining tarkib topishini ta‘minlovchi fanlararo bilim va ko‘nikmalarni egallash darajalarini belgilab olish.

Inversiyaning mohiyatini quyidagi misolda izohlash mumkin. I.Nyuton tomonidan kashf etilgan mexanika qonunlariga oid bilimlar inversiya natijasida hali maktab fizika kursidayoq texnika va texnologiya ob‘ektlariga tatbiq etilib, politexnik ko‘rinishda taqdim etiladi. Ushbu bilim boshqa ob‘ektlarga o‘tkazilganida o‘zga yo‘nalish kasb etib, boshqa kasbiy vazifalar yechimiga xizmat qiladi. Misol uchun, fizikani o‘qitish metodikasiga o‘tkazilgan fizikaga oid bilimlar inversiyaga uchrab, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini tayyorlashdagi kasbiy bilimlarga aylanadi. Fan yo‘nalishlariga oid bilimlar bo‘lajak muhandisning maxsus fanlarni o‘rganishi hamda ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasbiy bilimga aylanadi. Bu kabi o‘zgarishlar amalga oshirilmasa, umumta‘lim hamda maxsus fanlarga oid bilimlar kasbiy faoliyatga tatbiq etilmasa ular bo‘lajak muhandis uchun kasbiy bilim emas, balki propedevtik ahamiyat kasb etuvchi ma‘lumot sifatidagina ahamiyatga ega bo‘ladi.

Umumta‘lim, umumtexnik hamda maxsus turkumdagi fanlarni integratsiyalash imkoniyatlari ularning mazmunida mujassamlashgan, zero, u o‘zida tabiatiga ko‘ra yagona bo‘lgan atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlarni ifoda etadi. Pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o‘quv fanlarini o‘qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalari tizimini, ularning asosi bo‘lgan o‘qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Maktabda o‘quvchilar shaxsiy ishini samarali tashkil etish zamon talabidir. Buning uchun ularga mehnatni ilmiy tashkil qilishning oqilona eng oddiy usullarini o‘rgatish zarur. Bu bilan ularga eng kam kuch sarflab eng ko‘p samaraga erishish imkonini yaratgan bo‘lamiz.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishning quyidagi asosiy talablari mavjud:

1. Maqsadni aniqlab olish.
2. Ishni qismlarga ajratish.
3. Qismlarni keraksiz narsalardan tozalash, qolganlarini oqilona joylashtirish.
4. Eng kerakli qurol-asboblarni tanlash.
5. Eng yaxshi usullarni o‘rganish.
6. Maqsadga erishish.

Bularni o‘quvchilar hayotiga qanday tatbiq qilib bo‘ladi?

O‘qish – aqliy mehnat turlaridan biri. Mamlakatimizda millionlab o‘quvchilar maktablarda o‘qishadi. O‘qish – bu o‘ziga xos xususiyatga ega mehnatdir. SHu narsa aniqki, bu mehnat ham ayni bir natijaga erishish uchun ko‘p yoki oz kuch sarflanishiga qarab u yoki bu darajada samarali bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og‘zaki reja tuzib olishga o‘rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartibli, tejamli rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog‘liqdir: Reja – ishdagi muvaffaqiyatning asosidir.

3.6. Ta’lim jarayonidagi integratsiya turlari

Ta’lim jarayonida integratsiyaning har xil turlari mavjud. Integratsiyaning eng keng tarqalgan turlaridan ba’zilari:

Fanlararo integratsiya: Ushbu turdagi integratsiya ikki yoki undan ortiq ilmiy fanlarning o‘qitish va o‘rganishdagi hamkorligini o‘z ichiga oladi. U turli sohalardagi turli nuqtai nazar va usullarni o‘z ichiga olgan mavzu yoki muammoni yaxlit tushunishga yordam berishga qaratilgan.

Madaniy integratsiya: Madaniy integratsiya turli madaniyatlarning qadriyatlari, an‘analari va e’tiqodlarini ta’lim jarayoniga kiritishni o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi integratsiya madaniy xilma-xillik, tushunish va hurmatni rivojlantirishga qaratilgan.

Texnologiya integratsiyasi: Texnologiya integratsiyasi o‘rganish tajribasini yaxshilash uchun kompyuterlar, planshetlar va interaktiv doskalar kabi turli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. U o‘rganishni yanada qiziqarli, interaktiv va qulayroq qilishga qaratilgan.

O‘quv dasturlari integratsiyasi: O‘quv dasturlari integratsiyasi yanada kengroq va mazmunli o‘rganish tajribasini ta’minlash uchun o‘quv rejasidagi turli mavzular yoki mavzularni bog‘lashni o‘z ichiga oladi. Masalan, fanlararo yondashuvni ta’minlash uchun fan darsi matematika yoki til san’ati elementlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Inklyuziv integratsiya: Inklyuziv integratsiya barcha o‘quvchilarning qobiliyatlari, kelib chiqishi yoki kimligidan qat’i nazar, ta’lim olish imkoniyatlaridan teng foydalanishlarini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Bu xilma-xillik nishonlanadigan va barcha o‘quvchilar o‘zlarini qadrlil va hurmatli his qiladigan inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan.

Ta’limdagi integratsiya insonlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmdir. **Bu intensivlashtirishni jadallashtirish, o‘quv**

va kognitiv faoliyatni tizimlashtirish va madaniyat savodxonligini o'zlashtirishga qaratilgan. **Ijtimoiy integratsiyata**'limda nafaqat fanning turli sohalarini birlashtirish va umumiy tomonlarni ko'rsatish, balki odamlarga bizni o'rab turgan dunyo ajralmas ekanligi haqida tushuncha berishga qaratilgan. Shunga o'xshash yondashuvning turli fanlarga nisbatan qo'llanilishi yordam beradi. Shunday qilib, o'quvchilar butun atrof-muhitni bir butun sifatida ko'rishga o'rgatiladi. Agar biz rivojlanishning ushbu yo'nalishidan chetga chiqsak, unda integratsiya fanlararo aloqalar mavjudligining yuzaki bayonotiga aylanadi. Integratsiyaning bir necha darajalarini ajratish mumkin, ular gorizontol ravishda kattaroq bazalarga birlashtiriladi. Turli mualliflar kichik farqlarni topishlari mumkin, ammo biz quyidagi bo'linish usuli bilan tanishishingizni tavsiya qilamiz:

1. Tematik integratsiya. Bunda bir mavzuni ochish bilan ikki-uch sub'ekt shug'ullanadi. Illyustrativ-tavsiflovchi daraja deb da'vo qiladigan muqobil tavsifni uchratish mumkin. Ammo bu faqat sinonim tushunchalar ekanligini tushunishingiz kerak.

2. Muammoli integratsiya. Bunday holda, turli mavzular bir xil muammo bilan shug'ullanishi tushuniladi.

3. Kontseptual integratsiya. Bunday holda, ko'rib chiqish bir nechta sub'ektlar tomonidan ularning barcha usul va vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi tushuniladi.

4. Nazariy integratsiya. Bunday holda, turli nazariyalarning o'zaro kirib borishi ko'rib chiqiladi.

5. dialektik integratsiya. Bunda turli bilim sohalariga taalluqli tamoyil va tushunchalardan foydalanish tushuniladi. Shu bilan bir qatorda, dunyo ta'minlanishining yaxlit rasm sifatida talqin qilinishiga duch kelish mumkin.

Nazorat uchun savollar?

1. Integrativ - pedagogik faoliyatning elementlari nimaga bog'liq?
2. Integrativ faoliyatning pedagogik tuzilmasi haqida aytib bering?
3. Ta'lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari ayting?
4. Integrativ asosda tashkil etilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari nimaga bog'liq?
5. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv predmetlarni integratsiyalash yo'llari haqida aytib bering?
6. Ta'lim jarayonidagi integratsiya turlari haqida nimalarni bilasiz?

GLOSSARIY

Artpedagogika - san'at pedagogikasi nazariya va amaliyotni rivojlantirish bilan shug'ullanadi, badiiy rivojlanish jarayonining nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishni, badiiy-ijodiy va ijodiy faoliyat orqali individual madaniyatning asosini tashkil etadi. San'atni rivojlantirish orqali shaxslarni tarbiyalash, tayyorlash va rivojlantirish; badiiy madaniyatning asoslarini shakllantirish va turli xil badiiy faoliyat turlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Badiiy pedagogika- pedagogika va adabiyotni birlashtirishga asoslangan pedagogika fanining sohasi, ta'lim va inson taraqqiyoti qonunlarini badiiy adabiyot orqali o'rganish.

Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi.

Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lcha-gich)lar bilan solishtirish.

Bakalavr, magistr — oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

Bakalavriat — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim.

Bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

Diagnostika-(yunon tilida «dia»-shaffof, «gnosiss»-bilim degan ma'noni bildiradi) - o'rganilayotgan obyekt yoki jarayon to'g'risidagi aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Dialog- o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir.

Didaktik kontsepsiya (didaktik tizim) ta'limda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish maqsadi, mazmuni, vositalari, usullari, tashkiliy shakllari to'g'risidagi qarashlar (g'oyalar) majmuidir.

Didaktika pedagogikaning mustaqil qismi bo'lib, o'qitish va ta'lim berish muammolari bilan shug'ullanadi hamda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Elektron pedagogika - pedagogik faoliyatda kerakli interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish qoidalari va texnologiyalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish va o'ziga kerakli fanlar bo'yicha elektron interaktiv darsliklar mustaqil yaratish uchun amaliy ko'nikmalar hosil qilish to'g'risidagi fan.

Harbiy pedagogika - harbiy pedagogik jarayonning qonuniyatlari, harbiy kadrlar va harbiy guruhlarni o'qitish usullari, ularni muvaffaqiyatli jangovar operatsiyalar va harbiy-kasbiy faoliyat uchun tayyorlashga qaratilgan pedagogika fanining bir bo'limi.

Hisobga olish – bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonlarida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Joriy nazorat- o'qituvchi tomonidan talabalarning xar bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi.

Ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash;

Kommunikativ kompetentsiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Logopediya – nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Ma'ruza (o'quv ma'ruzasi)-oliy o'quv yurti pedagogik jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan shakli bo'lib unda ta'lim oluvchilarga maksimal darajada yangi ilmiy axborotlar berish, o'quv materialini talabalar ongiga yetkazish nazarda tutiladi. Ma'ruzalarda talaba uchun zarur bo'lgan kasbiy, ilmiy-nazariy ma'lumotlar bayon etiladi.

Ma'ruza metodi-bu o'qituvchi tomonida katta mazmundagi ma'lumotni og'zaki tarzda mantiqiy izchillikda bayon qilish, talabalarning esa o'quv materialini tinglash orqali idrok etishini nazarda tutadi.

Magistratura — bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Malaka amaliyoti — o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va o'quv hosil qilish, o'quv rejalari va fanlar dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

Malaka talablari — uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

Maxsus pedagogika (defektologiya) - aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini, prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o'rganuvchi fandır.

Mehnat pedagogikasi- asosan axloq tuzatish muassasalarida jinoyatchilarni tarbiyalash va qayta tarbiyalashning shart-sharoitlari va xususiyatlarini o'rganadigan pedagogikaning sohasi.

Metodik (uslubiy) ko'rsatma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari, loyihalar, laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko'rsatilgan va batafsil ifodalangan, hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik hajmli qo'llanma.

Metodika – muayyan voqea, hodisa va faoliyatga tegishli, qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika biror vazifani maqsadga muvofiq ravishda bajarish, o'tkazish usullari, yo'llari majmuasidir.

Metodika – pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Monolog-ma'ruzadagii oq'ituvchining tinglovchilar yoki o'quvchi talabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir.

Musiqiy pedagogika - musiqiy ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini, shakllarini o'rganish va rivojlantirish, shuningdek musiqa sohasida turli yo'nalishlarda ijodiy ko'nikmalarni, tajriba va amaliy malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan pedagogika fanining sohasi.

Mutaxassislik — 5A-bosqichning o'quv rejalar va fanlar dasturi bo'yicha oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan “magistr” akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta'minlovchi muayyan mutaxassislik bo'yicha bilimlar, uquvlar va ko'nikmalar kompleksi.

Muzey pedagogikasi - muzeylarning madaniy va ma'rifiy faoliyatining xususiyatlari, ularning turli toifalari bo'yicha shaxsga ta'sir

o'tkazish usullari, muzeylarning ta'lim muassasalari bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan fan.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi.

Nazoratning guruhli shakli- talabalarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan talabalar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa talabalar ham qatnashishi mumkin.

Nazoratning individual shakli- har bir talabaning bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda talabalar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

Nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan)shakli - individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha talabalardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

Nazoratning ommaviy (frontal) shakli- o'qituvchi talabalarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, talabalar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik talabani nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni talabalarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

Neyropedagogika - inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktsional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy xulq-atvorni psixologik korrektsiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi.

Oligofpenopedagogika – aqliy jihatdan zaif bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Oliy ma'lumot darajasi — shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va fanlar dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o'zlashtirishi natijasi.

Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) — akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va fanlar dasturini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz

ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

Oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi — oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e'tirof etilishi.

Oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi — oliy ta'lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining OT DTS talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati.

Oliy ta'lim — uzluksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti — muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi mashg'ulotlar jadvali asosida mashg'ulotda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o'tkazadi.

Oraliq nazorat – bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi mashg'ulotlar jadvali asosida mashg'ulotda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan xolda o'tkazadi.

Pedagogik akmeologiya – o'qituvchining kasbiy faoliyatining eng yuksak bosqichiga etish muammolarini o'rganuvchi fan.

Pedagogik aksiologiya - pedagogik yangiliklar, innovatsiyalarning pedagogik jamoatchilik tomonidan o'zlashtirilish darajasini baholash, idrok etish haqidagi nazariy bilimlar.

Pedagogik kvalimetriya – pedagogning faoliyat jarayonida erishadigan sifat va samaradorlik darajalarining o'lchovi va mezonini o'rganadi.

Pedagogik mahorat – bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik riskologiya – pedagogik vaziyatlarda eng muhim qarorlar qabul qilish jarayonida tavakkalchilik xususiyatlarini o'rganadi.

Pedagogika tarixi – turli tarixiy davrlarda pedagogik g‘oyalarning va tarbiyaning taraqqiyotini o‘rganadi.

Polelog- guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o‘quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi.

Qiyosiy pedagogika – turli mamlakatlarning ta‘lim-tarbiya tizimini, maorif taraqqiyotini taqqoslashni o‘rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Reyting -baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o‘quvchining ma‘lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Suhbat metodi - bilim o‘zaro so‘zlashuv (dialog) yo‘li bilan o‘rganishga sabab asosan seminar mashg‘ulotlarida, talabalarning mustaqil ishi, referatlari, o‘quv konfersiyalarida qo‘llaniladi.

Surdopedagogika – kar va soqov bolalarning ta‘lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Ta‘lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;

Ta‘lim maqsadi – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi;

Ta‘lim mazmuni –o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;

Ta‘lim metodi - o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li;

Ta‘lim natijasi - o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ta‘lim sifatini nazorat qilish — o‘qitish mazmuni va natijalarining davlat ta‘lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Ta‘lim vositasi - o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob‘ekt;

Ta‘limni tashkil etish - qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon;

Ta‘lim mazmuni- inson o‘qitish jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi va xarakteri.

Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxisiz didaktik

jarayonni sama-rali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Teatr pedagogikasi - zamonaviy pedagogikaning amaliy jihati bo'lib, ta'lim jarayonida voqelik, yashash, shaxsiy ijodiy harakatlar va improvizatsiya tamoyillarini tatbiq etuvchi, intellektual, hissiy tuyg'ularni aks ettiradigan fan.

Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Texnologik jarayon– ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisidan iborat

Texnologik operatsiya– ishchi yomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik rejim-texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Texnologik xarita- ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjatdir.

Tibbiy pedagogika - shaxsga psixologik-pedagogik va tibbiy ta'sir ko'rsatishning zamonaviy vositalari va usullarini, inson ruhiyatining umumiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish to'g'risidagi fan.

Tiflopedagogika – ko'zi ojizlarni bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Tizim (sistema) – tartibga solingan, o'zaro bog'langan va ta'sir ko'rsatib turadigan pedagogik hodisa; tartibga solingan tushunchalar yig'indisidir.

Tizim (sistema) –o'zaro bog'langan ko'plab elementlar o'rtasidagi mustahkam birlik va bog'liqlik.

Turizm pedagogikasi - bu turizmning gumanitar va ijtimoiy funksiyalari kontekstida shaxsning tarbiyasi, ta'limi va rivojlanish jarayonlarini o'rganadigan fan.

Umumiy pedagogika – ta'lim va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Xalq pedagogikasi – turli xalq, millat va elatlarning xalq og'zaki ijodidagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi pedagogik g'oyalarning mohiyatini, mazmunini o'rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

Yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr darajasiga qoʻyiladigan malaka talablariga muvofiq holda, maʼlum talab va tartibotlar vositasida (fanlar boʻyicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy taʼlim oʻquv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash.

Yakuniy nazorat – sesmestr va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga boʻlinadi. Yakuniy nazorat ogʻzaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida oʻtkaziladi.

Yoʻnalish — 5-bosqichning oʻquv rejalar va fanlar dasturi boʻyicha oliy taʼlim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan “bakalavr” akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni taʼminlovchi bazaviy va fundamental bilimlar, uquvlar va koʻnikmalar kompleksi.

Yosh pedagogikasi – turli yoshdagi bolalarni oʻqitish va tarbiyalashning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganadi. Maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, katta yoshdagilar pedagogikasi (andragogika)ga boʻlinadi.

Yozma tekshirish – talabalarning bilim, koʻnikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri boʻlib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi.

Oʻqitish sifatini nazorat qilish — talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning oʻquv dasturini oʻzlashtirish darajasini aniqlash.

Oʻqitishning meʼyoriy muddati — taʼlim oluvchilar tomonidan oʻquv rejalar va fanlar dasturi oʻzlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

Oʻquv fani dasturi — taʼlim mazmuni, uning talabalar tomonidan oʻzlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari koʻrsatilgan normativ hujjat.

Oʻquv fani — taʼlim muassasasida oʻrganish uchun fan, texnika, sanʼat, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, oʻquv va koʻnikmalar tizimi.

Oʻquv fanlari bloki — oʻquv rejalar va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning oʻzlashtirilishini taʼminlaydigan oʻquv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

Oʻquv rejasi — oliy taʼlimning muayyan bakalavriat taʼlim yoʻnalishi yoki magistratura mutaxassisligi boʻyicha oʻquv faoliyati turlari, oʻquv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni oʻrganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat.

O‘quv semestri — oliy ta’lim muassasasida o‘quv yilining yarmini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘langan fanlarning ma’lum majmuini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan va ular bo‘yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

O‘quv yili — oliy ta’lim muassasasida bir ta’lim kursini yakunlashga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati davri. O‘quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2019-2020 o‘quv yili.

O‘z-o‘zini nazorat qilish shakli - ta’lim jarayonida ichki aks aloqaning bo‘lishini ta’minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘shimcha sinov topshiriqlari va o‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko‘rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko‘rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

O‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;

O‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Og‘zaki tekshirish- bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir. Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi talabalarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun T.: 2020-yil 23- sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi “Umumiy O‘rta ta’lim va O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15-martdagi “Umumiy O‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli qarori.
4. SH.Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.56 B.
5. SH.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
6. SH.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
7. SH.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent –“O‘zbekiston” -2017.104 B.
8. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
9. Azlarov T.A. va boshq. Matematikadan qo‘llanma. Maktab o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1990. – 352 b.
10. Yo‘ldoshev J.G‘. “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O‘qituvchi, 2004y.
11. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari.-T.:Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 yillar (qayta nashr). - 44 b.
12. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan laboratoriya mashg‘ulotlari. (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2006 yil.
13. N.U.Usmonov, G.A.Xolboyeva. Boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida multimediya vositalaridan foydalanish.: T:, Fan va texnologiya, 2015 y.
14. Nuritdinova M. “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” Toshkent, 2005 y

15. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G‘. Saloxiddinova “Pedagogik texnologiya” T2008. Fan.

Elektron ta’lim resurslari

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: www.uzedu.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi: www.edupartal.uz, www.multimediya.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz

5. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: www.giy.uz

6. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ziyonet.uz

7. wtp://www.schol.edu.ru - Umumta’limportali (rustilida),

8. wtp://www.alledu.ru - “Internetdanta’lim” portali (rustilida),

9. wtp://www.rostest.runnet.ru - Test olish markazi serveri (rustilida),

10. wtp://www.albest.ru - Internet resurslari elektron kutubxonasi (rus tilida),

11. <http://www.mathtyne.narod.ru/> - Onlayn-darsliklar (rus tilida).

1. Eng keng tarqalgan 7 ta o‘quv turi": Wabisabi Learning. 2019 yil 16-noyabr kuni Wabisabi Learning-dan olingan: wabisabilearning.com.

2. "O‘quv uslublari turlari" in: Learning Rx. 2019 yil 16-noyabr kuni Learning Rx: learningrx.com saytidan olindi.

3. "Ta’lim uslublari umumiy nuqtai": O‘qish uslublari Onlayn. Qabul qilingan vaqti: 2019 yil 16-noyabr kuni Learning Styles Online: learning-styles-online.com saytidan.

4. Vikipediya: "Ta’lim psixologiyasi". 2019 yil 16-noyabr kuni Vikipediya dan olindi: en.wikipedia.org.

5. Vikipediya da "o‘rganish". 2019 yil 16-noyabr kuni Vikipediya dan olindi: en.wikipedia.org.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1 BOB. Pedagogika fanining umumiy asoslari kursining mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari. Fanni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash	5
2 BOB. Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.....	18
3 BOB. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim.....	34
4 BOB. Boshlang‘ich ta’lim didaktikasining mazmuni va mohiyati. Didaktik o‘yin va hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining umumiy tavsiyasi.....	101
5 BOB. Didaktikaning predmeti va uning vazifalari. Interfaol ta’lim shakllari va interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etish metodlari.	101
6 BOB. O‘quv jarayoni tashkil etishning shakllari. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyaning o‘rni.....	187
7 BOB. Integratsiyaning hozirgi zamon muammolari.....	
8 BOB. Tarbiya jarayonida pedagogik tizim. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish	225
9 BOB. Integratsiyalangan darslarning samaradorligini oshirish omillari.....	273
10 BOB. Boshlang‘ich sinfda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanish. Integratsiyalashgan dars shakllari.	306
11 BOB. Ta’lim jarayonida innovatsion dunyoqarashni rivojlantirish.....	338
12 BOB. Tarbiya jarayonida pedagogik tizim. pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish	374
13 BOB. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida integratsiya va integrativ asosda tashkil etilgan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari	408
GLOSSARIY	456
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	465

RAXIMQULOVA MAXBUBA BAXRONOVNA

**BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI,
INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI**

***Boshlang'ich sinf o'qituvchisi huquqini berish bo'yicha
kasbiy qayta tayyorlash kurs tinglovchilari uchun***

DARSLIK

“Bilig-ilmiy faoliyat” nashriyoti

Muharrir: Fayzullayeva G.
Texnik muharrir: Xujakulov Sh.
Nashrga tayyorlovchi: Abdullayev F.



№ 098355

ISBN: 978-9910-9530-6-4

“Bilig ilmiy faoliyat” nashriyoti, Joylashgan mazili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,
Zavod ko'chasi 9-uy, 10-xona. Faoliyat manzili Samarqand viloyati,
Samarqand shahar, X.Obiddinov ko'chasi 7-uy.
tel.: +998 97-925-97-91

Terishga berildi: 21.11.2023-yil. Bosishga ruxsat etildi: 2.12.2023-yil.
Bichimi 60x84^{1/16}, “Times New Roman” garniturasida.
Bosma tabog'i 29,5. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 2023/37
Bahosi kelishilgan narxda. Noshirlik litsenziyasi: № 098355
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi bosmaxonasida nashr etildi

ISBN 978-9910-9530-6-4



9 789910 953064